S.N. TASHNAZAROV, SH.B.BUTUNOV,
N.S.TOSHNAZAROVA, D.NE'MATOVA,
O.Q.NARZULLAYEVA

MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI

DARSLIK

SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
95 yilligiga bag‘ishlanadi

S.N. Tashnazarov, Sh.B.Butunov, N.S.Toshnazarova, D.Ne’matova, O.Q.Narzullayeva

MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy Kengashi tomonidan oliy ta’lim muassasalari 60410200 “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida chop etishga tavsiya etilgan

SAMARQAND - 2026

UO‘K: 336.01(575.1)(075)
M70
KBK: 65.9(2)ya73

S.N. Tashnazarov, Sh.B.Butunov, N.S.Toshnazarova, D.Nematova, O.Narzullayeva

Moliyaviy hisob asoslari *[Matn]:* ***darslik*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 - 256 bet.*

Ushbu darslik “Moliyaviy hisob asoslari” fanining o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlangan. Unda buxgalteriya hisobining tarixi, moliyaviy hisobotning konseptual asoslari, moliyaviy hisobot va savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi masalalari, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ilg‘or tajribalar asosida yoritilgan.

Mazkur darslikda yangi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida jahonda moliyaviy hisob tarixi va rivojlanishi, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining rivojlanishi, Yangi O‘zbekiston sharoitida buxgalteriya hisobining isloh qilinishi, MHXSlariga o‘tish davr talabi, MHXSlariga o‘tish yo‘llari, moliyaviy hisob va hisobotning nazariy konseptual asoslari, buxgalteriya hisobiga ta’rif, uning funksiyalari va vazifalari, buxgalteriya hisobining tarkibiy qismlari, moliyaviy hisobning fan sifatida shakllanishi, uning predmeti va ob’ektlari, moliyaviy hisob fanining metodi, moliyaviy hisobot va uning tarkibiy qismlari, moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari, buxgalteriya balansi va foyda va zararalar hamda boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobotlar asoslari, savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligi, ko‘rsatkichlari va savdo faoliyatining asosiy jarayonlari hisobining nazariy-metodologik masalalari o‘rin olgan.

Darslik oliy ta’lim muassasalarida 60410100 “Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

i. f. d., professor **A.I.Aliqulov** (SDVMCHBTU).
i. f.f. d., dotsent **U.A.Shirinov** (SamISI).

Darslik institut Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (3-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 297-31/10).

ISBN: 978-9910-225-35-2

© S. Tashnazarov va boshqalar. SamISI. 2025 y.
©“STEP-SEL” MCHJ. nashriyoti. 2025 y.

MUNDARIJA

KIRISH 4
I BOB. MOLIYAVIY HISOB TARIXI VA RIVOJLANISHI 14
1.1. Buxgalteriya hisobining rivojlanish tarixi.....14
1.2. Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi 27
1.3. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining taraqqiy ettirilishi. 39
1.4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish davr talabi ...51
Tayanch atamalar 63
Mavzuni o‘rganishga doir savollar.....65
II BOB. MOLIYAVIY HISOBNING KONSEPTUAL ASOSLARI 67
2.1. Buxgalteriya hisobi muhiti (Accounting Environment) va buxgalteriya hisobining roli. Buxgalteriya hisobi - biznes tili.....67
2.2. Moliyaviy hisobning mustaqil fan sifatida predmeti va metodi.....94
2.3. Moliyaviy hisob sikli va transformatsion jadval.....101
2.4. Moliyaviy hisob va hisobotning konseptual asoslari (Conceptual framework). Moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari. 108
2.5. Moliyaviy hisobot asoslari: moliyaviy hisobotning mazmuni, maqsadi va vazifalari.....120
2.6. Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari, tuzilishi va taqdim etilishi 133
2.7. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot va boshqa hisobotlar asoslari. 152
O‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar 166
III BOB. SAVDO KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI 168
3.1. Savdo korxonalari xizmatlari va iqtisodiy samaradorligi 168
3.2. Savdo faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari va buxgalteriya hisobining vazifalari.....177
3.3 Savdo korxonalarida tovar zaxiralari moliyaviy hisobi asoslari ...186
3.4. Savdo korxonalarida sotilgan tovarlar tannarxi va moliyaviy natijalar hisobi asoslari.....205
O‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar: 216
GLOSSARIY 218
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 251

KIRISH

Buxgalteriya hisobi jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiyot – bu hisob-kitob degani. Har bir ishimizda puxta hisob-kitob birinchi o‘rinda turishi lozim. Aks holda, hamma ishimiz eski hammom, eski tos bo‘lib qolaveradi”[1] – deb ta’kidlaganlari ham buxgalteriya hisob-kitob ishlarini zamonaviy darajaga ko‘tarishni ko‘zda tutadi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish uchun bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan yillik moliyaviy hisobotning MHXSlariga muvofiq e’lon qilinishi va uni Auditning xalqaro standartlari (AXS) asosida tashqi auditdan o‘tkazilishi bo‘yicha vazifalar yuklatildi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishining zaruriyati yana shu bilan belgilanadiki, dunyo bozorlariga chiqish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirish, dunyo xom-ashyo va valyuta birjalariga kotirovka qilish, dunyo banklaridan kredit olish uchun kompaniya va tashkilotlar tomonidan MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tuzishni talab etilishi bilan belgilanadi.

Ushbu ustuvor vazifani hal qilish maqsadadi MHXSlarni to‘liq tizimli joriy qilinishini hamda bu borada kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga qaratilgan alohida qaror qabul qilinishiga zaruriyat yuzaga keldi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorning maqsadi MHXSlarga o‘tish orqali:

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 23 декабрь. №228. 3-бет.

mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun investitsion muhitni yaxshilash, kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;

xorijiy investorlarni zarur axborotlar bilan ta’minlash, hisobotlarning mazmuni va tarkibini axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga uyg‘unlashtirish;

korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilishni ta’minlash;

O‘zbekiston kompaniyalari va banklarining xalqaro fond va moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalar va boshqa korxonalarning eksport operatsiyalari hajmini yuksaltirish;

kompaniyalarning raqobotbardoshligini oshirish;

buxgalteriya hisobi va audit sohalari mutaxassislarini tayyorlash tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish;

bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligidagi «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo‘yicha MHXSni chuqur o‘rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o‘quv dasturlarini tasdiqlash va belgilangan tartibda ta’lim jarayoniga joriy etish;

«tajriba-sinov oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha fanlar faqat xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot» yoki «AXS bo‘yicha audit» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlardan (keyingi o‘rinlarda - xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan o‘qitish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi №282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida quyidagi vazifalar belgilandi:

moliyaviy hisob tizimiga xalqaro talab va standartlarni joriy etishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishning navbatdagi bosqichi sifatida jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan

tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan ularning moliyaviy hisobotlari, auditi va boshqaruviga alohida talablar belgilanadigan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (Public interest entities - PIE) huquqiy maqomini joriy qilish;

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo‘yicha respublika komissiyasini tuzish va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

(a) mamlakatimizda MHXSni sifatli joriy qilish, tadbirkorlik sub’ektlariga mazkur jarayonda uslubiy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

(b) milliy qonunchilik hujjatlarini MHXSga moslashtirish bo‘yicha manfaatdor vazirlik va idoralarning hamkorligini ta’minlash va zarur huquqiy mexanizmlarni shakllantirish;

(v) xalqaro ta’lim standartlari asosida MHXS bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularni amaliyotga jalb etishning tizimli choralarini belgilash;

(g) moliyaviy hisobot sifatini oshirish, uning xalqaro darajada tan olinishini ta’minlash va mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish.

Quyidagilar belgilab qo‘yildi:

faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik sub’ektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladi. Bunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi Markaziy bank bilan birgalikda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlarini belgilab beradi;

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar Reestrga kiritilgan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi hamda navbatdagi (ikkinchi) yil yakuniga ko‘ra moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni auditorlik xulosalari bilan birga e’lon qilishni MHXSga muvofiq amalga oshiradi, qonunchilik hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

Shunday tartib o‘rnatildi:

hisobot yilida ixtiyoriy ravishda MHXSga o‘tishga qaror qilgan yuridik shaxslar keyingi hisobot yilining 1 martiga qadar soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq organlariga MHXSga o‘tish sanasini ko‘rsatgan holda tegishli xabarnoma yuboradi;

MHXS talabi asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirayotgan yuridik shaxslar MHXSga muvofiq o‘zining alohida moliyaviy hisobotini ham tuzadi;

Moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha «yo‘l haritasi» muvofiq tasdiqlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi yuklatilgan vazifalar:

2025-yil 31-dekabrga qadar «Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risida»gi qonun loyihasini;

2026-yil 1-martga qadar Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini Kichik va o‘rta biznes uchun MHXSga uyg‘unlashtirgan holda Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini joriy etish;

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini 2026-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyotga va raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Raqamli iqtisodiyot yagona axborot bazasiga tayanadi, qaysiki ushbu axborotlarning salmoqli qismi buxgalteriya hisobida shakllanadi. Boshqaruv tizimlarining yagona bazada elektron integratsiyalashuvi raqamli iqtisodiyotning asosiy belgisidir. Buxgalteriya hisobining axborot bazasining shakllanishi MHXSlariga tayanadi. Shu bois, raqamli iqtisodiyot mamlakatimizda MHXSga o‘tishni zaruriyat qilib qo‘ydi. Shu bois, to‘liq asosda aytish mumkinki, MHXSlariga o‘tish raqamli iqtisodiyotning muhim va ajralmas qismidir.

MHXSlariga o‘tish iqtisodiyotimizning asosiy to‘sig‘i bo‘lib kelayotgan korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali vositasidir.

Prezident Qarorlarida qo‘yilgan vazifalarni amalda ijrosini ta’minlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

O‘zbekistondagi buxgalteriya hisobi va audit sohasida professional tashkilotlarning MHXS Kengashiga hamda Buxgalterlarning Xalqaro

Federatsiyasiga a’zo bo‘lish, ularga a’zolik badallarini to‘lash, davlat darajasida hamkorlik olib borish, delegatsiyalar aloqalarni o‘rnatish, O‘zbekistonda MHXSlariga o‘tishni xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilishiga erishish lozim;

MHXSlari va standartlarga interpretatsiyalarni o‘zbek tiliga rasmiy tarjima qilish, MHXSlari Kengashi tomonidan ushbu MHXSlarning o‘zbek tilidagi versiyalarini rasmiy tan olinishiga erishish;

mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarning ixtiyoriylik asosida o‘z tashabbuslari bilan MHXSlari asosida moliyaviy hisobotga o‘tishlariga erishishimiz lozim. Korxona va tashkilotlar o‘zlari MHXSlariga o‘tishda naf olishlari, uning afzalliklarini his qilishlari lozim. MHXSlar orqali investitsiyaviy jozibadorligiga erishish yo‘li bilan korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa sifatida qaralishi lozim;

MHXSlari talablariga to‘liq javob beradigan O‘zbekiston Moliyaviy hisobotning milliy standartlari (MHMS)ni ishlab chiqish lozim. MHXSlari va MHMSlari o‘rtasidagi tafovutlarga barham berish kerak. Imkon qadar muvofiqlashtirish kerak. MHXSlarda mavjud bo‘lgan, lekin MHMSlar tarkibida bo‘lmagan standartlarni ham ishlab chiqish kerak. Standartlarga interpretatsiyalar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish kerak. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha boshqa Qonun osti me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, jumladan Nizomlar va Qoidalarni ham standartlarga aylantirish kerak. O‘zbekistonda mukammal moliyaviy hisobotning milliy standartlari tizimi shakllanishi lozim;

moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarning sifatini oshirish maqsadida uning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg‘or usul va uslublardan foydalanish, xalqaro instrumentlar va standartlarini hamda MHXSlar talablariga to‘liq muvofiq keladigan takomillashgan namunaviy moliyaviy hisobot formatlarini joriy qilish;

Buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish, bu borada milliy va xalqaro amaliyotga mos

keladigan dasturiy mahsulotlarni tahlil qilish. ERP (Enterprise resourse planning) va buxgalteriya dasturiy ta’minotlarida MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot shakllarini avtomatik ravishda to‘ldirish mexanizmlarini joriy etish;

MHXSni joriy qilishda raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganish va malakali mutaxassislarni tayyorlash;

Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini 2027-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich joriy etish;

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar tomonidan «MHXSning barqarorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etish standartlari»ni (IFRS Sustainability Disclosure Standards) 2027-yil 1-yanvardan boshlab joriy qilish;

«Yashil buxgalteriya» (Green accounting) amaliyotini joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

buxgalterlar va auditorlarni MHXSlari bo‘yicha sertifikatlashning samarali milliy tizimini joriy etish, akkeditatsiyalangan o‘quv markazlarida ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv jarayonlari va o‘quv-uslubiy ta’minotini tashkil etish, imtihonlarni o‘tkazish va natijalarini baholashning shaffofligini ta’minlash, oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va auditga oid fanlarning mazmunini rivojlangan mamlakatlar universitetlardagi o‘quv rejalari va dasturlariga (selabbus) muvofiqlashtirish, o‘quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, pedagog kadrlarni xalqaro sertifikatlash maqsadida o‘quv markazlarida va xorijiy universitetlarda malaka oshirishini va imtihonlarni topshirishini tashkil etish, ilg‘or universitetlardagi darsliklar bilan ta’minlash;

Oliy ta’limning bakalavr va magistratura bosqichining «Buxgalteriya hisobi va audit» ta’lim yo‘nalishlari mavjud ta’lim muassasalarida xalqaro ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturlarini tasdiqlash;

«Moliyaviy hisobotning milliy standartlari», «Professional buxgalterlarning xalqaro odob-axloq kodeksi» va «Sud-buxgalteriya ekspertizasi» fanlarini o‘rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o‘quv dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish;

Respublika hududida buxgalterlar va auditorlar uchun Xalqaro odob-axloq kodeksini to‘liq joriy etish;

Auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

Xalqaro tajribalarda buxgalteriya hisobi tizimi moliyaviy hisob va boshqaruv buxgalteriya hisobi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda buxgalteriya hisobi fani ham moliyaviy hisob va boshqaruv buxgalteriya hisobiga bo‘lib o‘rganilmoqda. Moliyaviy hisob bu asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot ko‘rinishida axborotlarni taqdim qilish bo‘lsa, boshqaruv buxgalteriya hisobi esa ichki axborot foydalanuvchilar, ya’ni menejerlarga qarorlar qabul qilishlari uchun foydali axborotlarni yetkazib berish quyitizimiga aytiladi;

Albatta, ushbu qo‘yilgan vazifalarni mukammal darajada bajarish uchun MHXSlarini jadal joriy qilish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borish asosida zamon talablariga javob beradigan “Moliyaviy hisob” fanidan darslik bo‘lishini taqozo etadi.

“Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha moliyaviy hisob fanini uchta tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish ko‘zda tutilgan: Moliyaviy hisob asoslari, Moliyaviy hisob 1 va Moliyaviy hisob 2.

“Moliyaviy hisob asoslari” fani moliyaviy hisob va hisobotning nazariy-konseptual masalalariga bag‘ishlangan qismidir.

Mazkur darslikda yangi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida jahonda moliyaviy hisob tarixi va rivojlanishi, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining rivojlanishi, Yangi O‘zbekiston sharoitida buxgalteriya hisobining isloh qilinishi, MHXSlariga o‘tish davr talabi, MHXSlariga o‘tish yo‘llari, moliyaviy hisob va hisobotning nazariy-konseptual asoslari, buxgalteriya hisobiga ta’rif, uning funksiyalari va vazifalari, buxgalteriya hisobining tarkibiy qismlari, moliyaviy hisobning fan sifatida shakllanishi, uning predmeti va ob’ektlari, moliyaviy hisob fanining metodi, moliyaviy hisobot va uning tarkibiy qismlari, moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari, buxgalteriya balansi va foyda va zararalar hamda boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobotlar asoslari, savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligi,

ko‘rsatkichlari va savdo faoliyatining asosiy jarayonlari hisobining nazariy-metodologik masalalari o‘rin olgan.

Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro akkreditatsiya talablariga javob beradigan o‘quv rejalar va fan dasturlari, darsliklar ishlab chiqildi. 2024/2025-o‘quv yilidan “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga ACCA halqaro tashkilotining akkreditatsiya talablari asosida o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu talablardan kelib chiqib yangilangan o‘quv rejaga quyidagi fanlar kiritilgan: “Biznesda buxgalter (F-1-Accountant in Business)”; “Menejmentlik buxgalteriya hisobi (F-2-Management Accounting)”; “Moliyaviy hisob (F-3-Financial Accounting)”; “Korporativ va bisnes huquqi (F-4-Corporate and Business Law)”; “Samaradorlikni boshqarish (F-5-Performance Management)”; “Soliqqa solish (F-6-Taxation)”; “Moliyaviy hisobot (F-7-Financial Reporting)”; “Audit va kafolat (F-8-Audit and Assurance)”; “Moliyaviy menejment (F-9-Financial Management)” fanlari kiritildi.

Taqdim etilayotgan darslik “Moliyaviy hisob” fanining o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlangan. Darslik uchta bobdan iborat.

1-bobi **“MOLIYAVIY HISOB TARIXI VA RIVOJLANISHI”** deb nomlanib, unda Buxgalteriya hisobining tarixiy rivojlanishi, Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining taraqqiy ettirilishi, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash davr talabiga doir mavzular yoritilgan.

2-bobi **“MOLIYAVIY HISOBNING NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI”** deb nomlanib, unda Buxgalteriya hisobi muhiti (Accounting Environment) va buxgalteriya hisobining roli, Buxgalteriya hisobi - biznes tili, Moliyaviy hisobning fan sifatida tavsifi, funksiyalari va vazifalari, Moliyaviy hisob sikli va transformatsion jadval, Moliyaviy hisobotlar va biznes qarorlari, Moliyaviy hisobot asoslari, Moliyaviy hisob konseptual asoslari (Conceptual framework), Moliyaviy hisobotning sifat tavsifi, Moliyaviy hisobot elementlari mazmuni va mohiyati ochib berilgan.

Darslikning 3-bobi **“SAVDO KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI” deb nomlanib unda savdo** korxonalari xizmatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari, Savdo

faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari va buxgalteriya hisobining vazifalari, savdo operatsiyalari asoslari, savdo korxonalarida tovar zaxiralarining moliyaviy hisob asoslari, savdo korxonalarida sotilgan tovarlar tannarxi va moliyaviy natijalar hisobi asoslari masalalari o‘rin olgan.

Darslikni tayyorlashda zamonaviy adabiyotlardan, jumladan ilg‘or universitetdagi darsliklardan samarali foydalanilgan. “Deloitte. MSFO v karmane 2016. ZAO «Deloyt i Tush». Vse prava zashisheni. 157 s. 2016.”, “Larson, Kermit D. Financial Accounting /Kermit D. Larson, Paul B. W. Miller. 6th ed. Irwin, 1995. 686 p.”, “Libby, Robert. Financial accounting /Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 2016. 752 p.”, “Nidlz B. i dr. Prinsipi buxgalterskogo ucheta / Nidlz B., Anderson X., Kolduell D. –M.: Finansi i statistika” kabi ilg‘or darliklardan va xorijiy tajribalardan foydalanilgan.

Ushbu o‘quv darsligi keyingi yillarda qabul qilingan halqaro hujjatlar, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” Qonun va qonun osti me’yoriy-huquqiy hujjatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24 fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hamda 2025-yil 15 sentyabrdagi №282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hamda nufuzli xorijiy darsliklarga asoslanib tayyorlandi. Darslikni yozishda “PricewaterhouseCoopers. Akademiyey PwC” tomonidan DipIFR imtihonlari uchun o‘quv qo‘llanmasida (2021) keltirilgan amaliy misollardan foydalanildi. Ushbu adabiyotlar matnda manba sifatida keltirildi.

“Moliyaviy hisob asoslari” fani ixtisoslik fanlari tarkibida bo‘lgan fan hisoblanib, 2024-yilgi “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasiga muvofiq 4- semestrlarida o‘qitiladi. Ushbu fan o‘quv rejasidagi boshqa fanlar Buxgalteriya hisobiga kirish”, “Moliyaviy hisob 1”, “Moliyaviy hisob 2”, “Biznesda buxgalter”, “Boshqaruv hisobi” va fanlari bilan uzviy va mantiqiy bog‘liqlikda hisoblanadi.

Bugungi kunda “Moliyaviy hisobi” fani MHXSlari asosida takomillashtirilmoqda, MHXSlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar “Audit” fanidagi ilg‘or usul va uslublar asosida xalqaro auditdan o‘tkaziladi, MHXSlar asosida tuzilgan hisobotlar asosida moliyaviy holatning tahlili amalga oshiriladi.

Ushbu o‘quv adabiyoti interaktiv usullar, jumladan “klaster”, “SWOT tahlil”, “aqliy hujum”, “muammoli ma’ruza”, “blits so‘rov” va boshqa usullarni qo‘llashni ko‘zda tutadi. Mavzularni yoritishda elektron materiallar, Power Point va Excel kompyuter hamda maxsus buxgalteriya hisobi dasturlari, internet rasmiy sayt materiallaridan samarali foydalanildi.

Ushbu darslikka qadar “Moliyaviy hisob” fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlari chop ettirilgan. Kafedramiz o‘qituvchilari tomonidan (S.N.Tashnazarov va boshqalar) 2022/2023-yildagi o‘quv dasturi asosida “Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1” va “Moliyaviy buxgalteriya hisobi 2” fanlari bo‘yicha darslik yaratildi. 2024/2025 o‘quv yilida “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yangi o‘quv reja ishlab chiqildi. Ushbu o‘quv rejada “Moliyaviy hisob asoslari” fanini o‘qitish ko‘zda tutilgan. Shu bois, bugungi kunda **“Moliyaviy hisobi asoslari”** bo‘yicha zamonaviy darslik yaratish zaruriyati mavjud.

Darslikda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, AQShdagi GAAP, Moliyaviy hisobotning milliy standartlari loyihasi, Murel DM xorijiy korxonasi, Naturel zamin MCHJ, Saturn metall MCHJ, xalqaro standartlarga o‘tgan aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklari hamda boshqa korxonalari amaliy misollaridan foydalanilgan.

Mazkur darslik oliy ta’lim muassasalarida 60410100 “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalariga mo‘ljallangan. Undan iqtisodiyot sohasidagi boshqa yo‘nalishdagi talabalar hamda kompaniyalarda buxgalteriya xizmati rahbarlari, auditorlar, bank xodimlari, iqtisodchilar ham foydalanishlari mumkin.


I BOB. MOLIYAVIY HISOB TARIXI VA RIVOJLANISHI

1.1. Buxgalteriya hisobining rivojlanish tarixi2

Buxgalteriya hisobi tizimining tarixiy shakllanishi hozirgi zamon buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining fundamental asosini tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot uzoq tarixiy vaqt mobaynida asta-sekinlik bilan zaruriyat tufayli paydo bo‘ldi va rivojlanib bordi hamda bugunga kelib boshqaruvning mukammal bir tizimi sifatida shakllandi.

Buxgalteriya hisobi qadimiy professiyalardan hisoblanadi. Hisob-kitob, arifmetika, barter va pul muomalasi yuzaga kelishi bilan buxgalteriya hisobi vujudga keldi va taraqqiy etdi. Dastlabki buxgalteriya yozuvlari bundan 7000 yil oldin Qadimgi Misr va Mesopotamiyada aniqlangan[3]. Unda manbalarda amalga oshirilgan harajatlar, olingan va sotilgan tovarlar to‘g‘risidagi yozuvlar borligi topilgan.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot taraqqiyotini quyidagi to‘rtta bosqichga bo‘lishimiz mumkin (1.1-rasm):



1.1-rasm. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimining rivojlanish bosqichlari

Hisob-kitob ishlarining taraqqiy ettirilishida islom dinimizning qoidalari ham o‘ta muhim ahamiyat kasb etgan. Abu Sa’id Xuduriy

[2] Ushbu paragrafni yozishda tadqiqotchilar G.Jumayeva, F.Nurniyozovlar ishtirok etgan.
[3]https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_accounting

raziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda **Hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo** sallallohu alayhi vasallam: **«Zarar berish va zarar ko‘rish ham yo‘q»** deganlar. Mo‘’tabar fiqhiy kitoblarimizda: **«Zararni daf qilish foydani jalb qilishdan oldinga qo‘yiladi»**[4], degan qoida bor.

O‘rta va Uzoq sharq, Arab mamlakatlarida eramizning boshlarida shakllangan iqtisod, fan va madaniyat hisob-kitob tizimining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Vatandoshimiz, buyuk matematik olim Al Xorazmiy o‘zining **“Al-Jabr Val Mug‘obala”** kitobida “nol” raqami va sonlar qatorini asoslab berdi. Bu ish hozirgi hisoblashlar tizimiga ham asos qilib olingan. Bu o‘z navbatida matematika va shu jumladan, hisob-kitoblar uchun ham katta bir kashfiyot edi. Shu bois vatandoshimiz, buyuk olim **Al-Xorazmiyni buxgalteriya hisob-kitobining ham asoschilaridan biri** deb atashga to‘liq xaqlimiz.

Siyosiy iqtisodiyotning klassik maktabi, yirik iqtisodiy olimlari A. Smit (1723-1790) va D. Rikkardo (1772-1823), Karl Marks (1818-1883) iqtisodiy ta’limotlarining yaratilishi iqtisodiyotdagi qonuniyatlarni ochish, rivojlanish dialektikasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. A.Smitning 1776-yilda yozgan «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida» kitobi G‘arbda hozir haqli ravishda «Kapitalistik iqtisodiyot Bibliyasi» deya nom olgan. D.Rikardo “Siyosiy iqtisodiyot va soliqqa tortish asoslari” (1817) asarida ishchining ish haqi va sohibkorning foydasi o‘rtasidagi nisbatning teskari proporsionaligini isbotlab, ishchi va kapitalistning iqtisodiy manfaatlari zid ekanligini ko‘rsatdi. Rikardo tovar qiymatining yagona manbai ishchining mehnati ekanligini asoslandi. Karl Mark buyuk **“Kapital”** asarida tovar va qo‘shilgan qiymat tushunchasini asoslab berdi. Albatta bu ta’limotlar hisob-kitob ishlarini iqtisodiyot qonuniyat asosida tashkil etishga asos bo‘ldi.

VII-XIII asrda Xitoyda moddiy boyliklarni hisobga olishning ancha taraqqiy qilgan tizimi, ya’ni to‘rt ustunli tizimi **(Kirim – Chiqim = Oxirgi qoldiq – Boshlang‘ich qoldiq)** qo‘llanila boshladi [40, 6-bet].

[4] https://kun.uz/news/2020/05/22/ozbekistonda-2020-yilgi-ramazon-hayitini-nishonlash-va-hayit-namozinioqish-tartibi-elon-qilindi

Bu usulning qo‘llanilishi hisob-kitoblar yozuvini amalga oshirishda juda qo‘l keldi va dastlabki hisob-kitob amaliyotining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu to‘rt ustunli bog‘liqlik asosida tovar-moddiy boyliklar (turlari bo‘yicha) natural o‘lchovda, pul mablag‘lari va hisob-kitoblar esa pul o‘lchovida hisobga olingan, shuningdek yozuvlar amalga oshirilgan. Hisoblarda shakllangan ma’lumotlar mulkdorlarga mablag‘lar harakati ustidan nazorat o‘rnatish imkonini ochib berdi. Lekin, bu yozuvlar bir-biri bilan to‘liq uzviy bog‘liqlikda yuritilmas va ish natijalari umumiy mablag‘larning ko‘payishi (kamayishi)ga qarab aniqlanar edi.

1494-yil italyan monaxi, matematik Luka Pacholi o‘zining matematik kitobiga yozgan ilovalarida o‘sha davrda Italiyada savdogarlar o‘rtasida tarqalgan hisob-kitob ishlari amaliyotini o‘rganish asosida ikkiyoqlama buxgalteriyaning qo‘llanilishini batafsil yoritib berdi [62, 42-bet].

L.Pacholi buxgalterlarning boshlang‘ich balans tuzishdagi harakatini quyidagicha tavsiflaydi: “…Barcha debet moddalarining, qaysiki jami ataladigan summasini, keyin xuddu shuningdek, kredit jami summasini aniqlash zarur; bulardan birinchisi - debet bo‘yicha jami, ikkinchisi - kredit bo‘yicha jamisi deb ataladi. Agar ushbu ikkita summa bir-biriga teng bo‘lsa, Sizning kitoblaringiz yaxshi yuritilgan degan xulosaga kelish mumkin”[5]. Bu amaliyot natijalarini umumlashtirish va unga matematikaning qo‘llanilishi hisob g‘oyasining vujudga kelish davrini boshlab berdi.

Boshqaruv (menejmentlik) hisobining paydo bo‘lishi uning asosiy elementi bo‘lgan **Tannarxi Hisobi (Cost accounting)**ning vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. Menejmentlik hisobiga oid darslikda “Tannarx hisobi”ning dastlabki yuzaga kelishini o‘n yettinchi asrning boshlarida kuzatish mumkinli e’tirof etilgan. 1610-1620-yillarda Robert Loder tomonidan fermer xo‘jaligi schyotlarini yuritish jarayonida tannarx hisobi belgilarini ko‘rish mumkin. XVIII asrda ishlab chiqarish tizimining keng mexanizatsiyasi yirik sanoat ishlab chiqaruvchilarni

[5] Хендриксен Э.С., Ван Бреда М. Ф. Теория бухгалтерского учета: Пер. с англ. /Под ред. Я.В. Соколова.- М.: Финанси и статистика, 1997. –576 с. 28-бет

yuzaga keltirdi. 1805-yilda Angliyada sanoat ishlab chiqarishida zavod qiymatini aniqlashga dastlabki urinishlar bo‘lgan. Lekin, tannarx tushunchasi sanoat sohasidagi olimlar tomonidan 1870-yillarda foydalanilgan va asoslab berilgan. Dastlabki, tannarx tushunchasi, mahsulotni tayyorlash qiymati, harajatlarni taqsimlash, zavod schyotlarining qo‘llanilishi va prinsiplariga oid maqolalar 1895-1901-yillarda London va Nyu-Yorkdagi sohaga oid nashrlarda chop ettirilgan.

1887-yilda angliyalik iqtisodchi olimlar Dj.M. Felsa va E. Garke “Ishlab chiqarish schyotlari: prinsiplari va yuritish amaliyoti” nomli kitobini chop ettirdi. Ushbu kitobda harajatlarning normativlari va ularning nazorat tizimida qo‘llanilishi hamda harajatlarni fikslashgan (hizirgi doimiy) hamda o‘zgaruvchan harajatlarga bo‘lish taklif etilgan. Ishlab chiqarishning harajatlari to‘g‘risidagi axborotlarning zarurligi to‘g‘risida XX asrning boshlarida G.Emerson tomonidan yozilgan “Mehnat unumdorligi operativ ishlar va ish haqi asosi sifatida” nomli kitobida asoslab bergan.

Tannarx hisobiga oid dunyoda birinchi marta 1913-yilda Dj.L. Nikolson tomonidan “Tannarx hisobi: nazariyasi va amaliyoti” kitobi chop ettirildi.

XIX asrning oxirlariga kelib buxgalteriya hisobi taraqqiyoti uchun juda qulay muhit yuzaga keldi. Bu shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 1) industrial sanoat revolyutsiyasi natijasida biznesning masshtabi va ularning pulda o‘lchaniladigan operatsiyalari xilma-xilligi kengayishi; 2) davlat miqyosida byudjet va moliyaning tashkil etilishi; 3) qarz va kapital (sarmoya) beruvchilarning ajralishi; 4) mulkdorlar va menejerlarning ajralishi; 5) mas’uliyati cheklangan jamiyat prinsiplarining ishlab chiqilishi; 6) tijorat banklari faoliyati kengayishi; 7) aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlik kapitalining vujudga kelishi; 8) qonuniy muhitning vujudga kelishi.

Bu shart-sharoitlar buxgalteriya hisobining umumtan olingan usullarining keng joriy qilinish jarayonini tezlashtirdi. Yuzaga kelgan muhit o‘z navbatida buxgalteriya hisobi metodlarini umumlashtiradigan va uni ommaviylashtiradigan professional tashkilotlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Standartlar va etika qoidalariga mos professional

buxgalterlarning vujudga kelishi Yevropa mamlakatlarida buxgalteriya hisobi professional idoralarining shakllanishi bilan bog‘liqdir. 1854-yil Qirol Shotlandiyada Charter buxgalterlar jamiyatini tuzishga asos soldi. 1880-yil **Angliya va Uelsda Charter Buxgalterlar Instituti** tashkil etildi. 1887-yil AQShda Jamoat Buxgalterlar Assotsiatsiyasi (AAPA) faoliyat boshladi va **“Journal of Accountancy”** nashriyot organiga ega bo‘ldi[6]. 1904-yilda AQShda buxgalterlarning birinchi xalqaro kongressi bo‘lib o‘tdi va mamlakatlar o‘rtasida buxgalteriya hisobi sohasida fikrlar bilan almashish imkoniyati yuzaga keldi. Keyinchalik, dunyoning turli xil mamlakatlarida davriy ravishda konferensiyalar bo‘lib turdi. Biroq hamkorlik borasida muhim kelishuvga kelinmadi.

Buxgalteriya hisobi fanining rivojlanishi va xalqaro integratsiyalashuvida Amerika-Angliya davlatlari iqtisodchi olimlarining roli katta bo‘ldi. Dunyoda Amerika buxgalteriyasi asoschilaridan biri Charlz Ezra Shprug (1842-1912) e’tirof etiladi. U buxgalteriya hisobi fanining algebra, falsafa va boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini asoslab berdi. CH.E. Shprug **Aktiv = Majburiyat + Kapital** formulasini yaratdi.

XIX asrning oxirlariga kelib buxgalteriya hisobi fan sifatida to‘liq shakllandi. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” faniga asos solindi. Uning asocchilaridan biri Amerkalik olim E.S. Xendriksendir. Bu davrda ushbu olim va boshqa Amerika mutaxassislari tomonidan buxgalteriya hisobi ikki yo‘nalishga, ya’ni **moliyaviy hisob(financial accounting) va menejmentlik buxgalteriya hisoblariga (management accounting)** ajratildi. Ushbu tarkibiy qismlarning nazariy va metodologik asoslari yaratildi.

XX asrning boshlarida AQShda va undan keyin Yevropada haqiqiy ma’lumotlarni standart ma’lumotlarga taqqoslash asosida chetlanishlarni aniqlashga asoslangan **“Standart kosting”** tizimi keng qo‘llanila boshladi va o‘zining samarasini berdi. Bu esa ushbu tizimning keng tarqalishiga olib keldi.

[6] Pizzey, Alan. Accounting and Finance. A firm foundation. 3rd Edition, London, Cassell, 2001. 512 p., 5-b.

Ushbu davrlarda biznes sohasidagi tarixchilarning ta’kidlashlaricha, **DuPont, General Motors i General Electric** kabi yirik kompaniyalar menejmentlik hisobi sohasidagi amaliyotning novatorlari bo‘lib hisoblanadi. 1977-yilda AQShda “Xorijiy korrupsiyalar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ichki nazorat tizimini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Buxgalteriya hisobi taraqqiyotida boshqaruv (menejmentlik) hisobi muammolari va menejment buxgalterlarni sertifikatlash masalalari bilan shug‘ullanadigan AQShdagi **Menejment Buxgalterlar Instituti (IMA)** katta rol o‘ynaydi. IMA buxgalterlarning yirik professional tashkilotlaridan biri hisoblangan **Buxgalterlar Milliy Assotsiatsiyasi (NAA)** bilan hamkorlikda asosan boshqaruv (menejment) buxgalterlarining manfaatini himoya qiladi.

AQShda ommaviy fikr va mulohazalar buxgalterlarning professional etikasi bo‘yicha yuqori hurmat va ehtirom ko‘rsatilishini qo‘llab quvvatlaydi. **“Buxgalterlar Obro‘ E’tibori to‘g‘risida”gi Kodeksda** SRA va SMA sertifikatlariga ega bo‘lgan buxgalterlarning kompetentlik, konfedensiallik va ob’ektivlik sifatlari qo‘llab-quvatlaniladi va yuqori darajaga ko‘tariladi.

1972-yildan e’tiboran AQSH Buxgalterlar Milliy Assotsiatsiyasi boshqaruv va moliyaviy buxgalterlarni (SRA va SMA) sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish jarayonida moliyaviy va boshqaruv buxgalteriya hisobi o‘rtasida farqlovchi belgilarni ishlab chiqishga zaruriyat tug‘ilganligi e’tirof etdi. Ushbu Assotsiatsiya tomonidan yettita belgi bo‘yicha moliyaviy va boshqaruv hisobi o‘rtasidagi farqlar ochib berildi (1.1-jadvalga qarang).

Albatta, ushbu jadvalda keltirilgan farqlar jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan. Shu bois, manbalarda **1972-yil boshqaruv (menejmentlik) hisobining rasmiy yuzaga kelish sanasi** deb e’tirof etilishi ta’kidlangan. Boshqaruv buxgalteriya hisobi ishlab chiqarish (tannarx) hisobi asosida yuzaga kelganligini ta’kidlash mumkin (1.2-rasm):


1.1-jadval.

AQSH dagi Buxgalterlar Milliy Assotsiatsiyasi tomonidan e’tirof etilgan boshqaruv (menejmentlik) va moliyaviy hisob o‘rtasidagi farqlar [62]

Belgilari	Boshqaruv (menejmentlik) buxgalteriya hisobi	Moliyaviy hisobi
1. Bosh foydala nuvchilariga qarab (Primary users)	Turli xil darajadagi menejerlar	Tashqi doiralar, jumladan, sarmoyadorlar va davlat ma’murlari, biroq faqat tashkilotning yuqori darajadagi menejerlari
2. Tanlovdagi erkinlik (Freedom of choice)	Tannarxning menejment qarorlarining saviyasini oshirish asosida daromadlarga aloqadorligidan boshqasiga amal qilmaslik	Umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillariga (GAAP) amal qilish
3. Xulqiy ishtirok (Behavioral implications)	Menejerlarning kunlik xulq atvoriga o‘lchovlar va hisobotlar qanday ta’siri to‘g‘risida qiziqadi	Iqtisodiy hodisalar qanday o‘lchanilishi va tahlil qilinishi to‘g‘risida qiziqadi, xulq atvor ikkinchi darajali hisoblanadi
4. Vaqt orentatsiyasi (Time focus)	Kelgusidagi orentatsiyasi: boshlang‘ich yozuvlar kabi byudjetdan formal foydalanish, misol: 19x3 byudjet versiyasi 19x3 haqiqiy bajarilishi	O‘tgan orentatsiyasi: boshlang‘ich qiymatlanishi. Misol uchun 19x3 haqiqiy versiyasi 19x2 haqiqiy bajarilishi
5. Vaqt oralig‘i (Time span)	Soatdan tortib 10 yoki 15 yil vaqt oralig‘ida moslanuvchan tebranadi	Kam moslanuvchan, odatda bir yil yoki choraklikni o‘z ichiga oladi
6. Hisobot (Reports)	Hisobotning detalligi: birlikning qismlari, mahsulotlar, departamentlar, hududlar va boshqalar to‘g‘risidagi detalli qiziqadi	Summali hisobotlar: asosan butun bir birlik to‘g‘risida qiziqadi
7. Faoliyatning yoritib berilishi (Delineation of activities)	O‘rganish doirasi aniq chegaralanmagan, ekonomiks, qarorlar asosi, xulq atvor fanlarida ”heavier” qo‘llaniladi	O‘rganish doirasi ko‘proq aniq chegaralangan, bog‘liq fanlarda “lighter” qo‘llaniladi

Bundan tashqari buxgalteriya hisobini tartibga solish, uni nazariy va metodologik jihatdan takomillashtirishda **Moliyaviy Ijrochilar Instituti** (Financial Excutives Institute) va boshqa tashkilotlar ham katta mavqega ega hisoblanadi.

Bu tashkilot ham AAA kabi moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonlariga o‘zining davriy nashrlari orqali ilmiy mulohazalar olib borish yo‘li bilan faol ta’sir ko‘rsatib boradi.



1.2-rasm. Boshqaruv (menejmentlik) buxgalteriya hisobi taraqqiy etishi

Uning davriy jurnallariga “Moliyaviy ijorachi jurnali” (Finansial Executive Magazine) va **“Menejmentlik buxgalteriya hisobi”** (Management Accounting)lar kiradi. Bu jurnallar buxgalteriya hisobi fanini rivojlantirishda katta hissa qo‘shgan.

Buyuk Britaniya va Irlandiyada professional buxgalterlarning yirik oltita tashkilotiga kiruvchi hamda dunyodagi eng yirik professional tashkilotlardan biri bu **Menejmentlik Buxgalteriya Hisobi Charter Instituti (CIMA)** (1970 y.) hisoblanadi. Mazkur institut dunyoda menejmentlik hisobini taraqqiy ettirishda muhim rol o‘ynadi.

Institutning asosiy maqsadi menejmentlik hisobi fanini rivojlantirish, shaxslar va biznesga muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun yordam berish, menejmentlik buxgalteriya hisobi bo‘yicha buxgalterlarni sertifikatlash, buxgalterlarning amaliy kompetensiyasini taraqqiy ettirish bo‘lib hisoblanadi. Dunyo biznes olamida CIMAning «Biznes samaradorligini boshqarish» sertifikati hamda CIMAning «Biznesni boshqarish» diplomlari katta e’tibor qozongan. Institut tomonidan chop ettirilgan **“Menejmentlik buxgalteriya hisobi terminologiyasi”** kitobi fanni rivojlantirishda katta rol o‘ynadi.

1929-yilda jahon fond bozorlarida boshlangan ko‘p yillik iqtisodiy krizis hisobotlarni umumqabul qilingan va keng qo‘llaniladigan qoidalar asosida tuzish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ushbu krizis buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimi davr talablariga javob bera olmasligini va uni tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjudligini isbotladi. Natijada, o‘tgan asrning 30-yillarida AQShda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning umumqabul qilingan prinsiplarini ishlab chiqishga kirishildi.

Buxgalteriya hisobining keyingi 50 yilda taraqqiyoti: axborot revolyutsiyasi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi, mahsulot ishlab chiqarish liniyalarining kengayishi, iqtisodiyotning globallashuvi va innovatsion iqtisodiyot, servis (xizmat ko‘rsatish) sohasining ustuvor rivojlanishi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Axborot revolyutsiyasi axborotlarning hajmi va oqimini kengaytirdi. Ularga ishlov berishda yangi texnologiyalarni qo‘llashni taqozo qildi. **Ishlab chiqarish liniyalarining kengayishi** yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keldi. Bu esa tannarxni mahsulotlar o‘rtasida taqsimlash texnikasi (metodlari)ni takomillashtirishni talab etadi. **Iqtisodiyotning globallashuvi** raqobat muhitini kengaytirdi, bu esa aniq, dolzarb va o‘z vaqtida taqdim etiladigan axborotlarga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Transmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi transfert bahoni shakllantirish maslasini dolzarb qilib qo‘ydi. Globallashuv professiyani rivojlanishiga olib keldi. Yaponiyada strategik menejment va operatsion menejment hamda menejmentlik hisobida yangi innovatsiyalar qo‘llanila boshladi. Natijada, raqobatga bardosh berish

uchun ko‘pchilik amerikalik kompaniyalar ham Yaponiya menejment tizimini qo‘llay boshladi. **Servis sohasining ustuvor rivojlanishi** ushbu kompaniyalar tomonidan ularning menejment talablariga javob beradigan boshqaruv hisobini rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, turizm, transport, moliya tashkilotlari va tibbiyot menejmenti sohasida keskin burilishlar yuz berdi. Xizmatlar tannarxini aniqlash boshqaruv hisobining muhim ob’ektiga aylandi.

Boshqaruv (menejmentlik) hisobining rivojlanishida menejment sohasidagi quyidagi innovatsiyalar muhim ta’sir ko‘rsatdi: **Total Sifat Menejmenti (Total quality management) (TQM); Just-in-time (JIT); Chegaralash nazariyasi (Theory of constraints); Tejamli mahsulot va tejamli korxona (Lean production and the lean enterprise)**.

Olimlarimizdan B.Yu.Maqsudov tadqiqotlarida ta’kidlanishicha “Strategik boshqaruv hisobi” atamasi 20-asrning 80-yillarida AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida paydo bo‘lgan, biroq, keng qo‘llanilmagan. O‘tgan asrning 90-yillariga kelib, strategik boshqaruv hisobiga oid bahslar avj oldi. “Strategik boshqaruv hisobi” atamasi birinchi bo‘lib, K.Simmondz tadqiqotlarida keltirilgan.”[7]

1937 yilda Germaniyada, 1947 yil Fransiyada buxgalteriya hisobi schyotlar milliy rejasi paydo bo‘ldi va schyotlar rejasini qo‘llash majburiy holatga keltirildi. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida milliy hisob tizimi shakllandi va taraqqiy etdi.

Ushbu borada fikrlarni umumlashtirish natijasida biz milliy buxgalteriya (moliyaviy) hisobi va hisoboti tizimining shakllanishida quyidagi omillarni qayd qilish muhimligini ta’kidlaymiz:

1) Iqtisodiy – mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy hamkorlik, iqtisodiy munosabatlar.

2) Siyosiy va mafkuraviy - mamlakatning siyosati, uning xalqaro maydonda tutgan o‘rni va mafkurasi.

3) Madaniy - mamlakatning va kishilarning madaniyati va urf-odatlari.

[7] Maqsudov B.Yu. (2019) Boshqaruv hisobida strategik yondashuv masalalari. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/5_Maxsudov%20%2B.pdf

4) Qonun tizimi - mamlakatda qabul qilingan normativ-huquqiy aktlar, ularning saviyasi va sub’ektlar tomonidan qo‘llanilish darajasi.


5) Boshqa davlatlar ta’siri - boshqa davlatlardagi buxgalteriya hisobining ilg‘or yutuqlaridan foydalanish, tajriba almashish, yordam ko‘rsatilish loyihalarining amalga oshirilishi.

6) Iqtisodchi olimlar nazariyasi va professional tashkilotlarning ta’siri – iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalari, amaliyotchilarning fikr va takliflari, professional tashkilotlar ish natijalari.

Ushbu omillar ta’sirini 1.3-rasm orqali ifodalashimiz mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu omillar buxgalteriya hisobi tizimining shakllanishida bir-biriga bevosita bog‘liqlikda ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, boshqa davlatlar, iqtisodchi olimlar nazariyasi va professional tashkilotlarning ta’siri omillari bevosita ta’sir ko‘rsatish bilan birga ular mamlakatning siyosiy, iqtisodiy muhiti va qonunlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatish orqali ham bilvosita ta’sirini ko‘rsatib turadi. Milliy hisob tizimi shakllanishida boshqa davlatlar ta’siri muhim omil hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning faoliyat yuritishi uchun qulay investitsiyaviy muhitning yaratilishi natijasida xorijiy investorlar tomonidan moddiy va moliyaviy mablag‘larning kiritilishi bilan birga hisob siyosati, takomillashgan buxgalteriya usul va uslublari, muolajalari, namunaviy dasturlari, texnik vositalari ham kirib keldiki, bu o‘z navbatida milliy hisob tizimimiz shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Bu maktablar har birining o‘ziga xos tomonlari mavjud bo‘lib, ular hisobning bir muammosiga turli xil yondashishgan. Masalan, hisobning maqsadi italiya maktabida – xo‘jalik jarayonlarini nazorat qilish, fransuz maktabida – korxona mablag‘laridan samarali foydalanish, nemis maktabida – tejamkor hisob usullarini ishlab chiqish, anglo–amerika maktabida – ma’muriyatning xulq-atvori deb talqin qilingan.



1.3-rasm. Buxgalteriya hisobi va hisoboti milliy tizimiga o‘rab turuvchi muhitning ta’siri omillari

Hozirgi kunda u yoki bu davlatdagi milliy hisob tizimlari dunyoda buxgalteriya hisobini nazariy jihatdan tashkil qilish va takomillashtirish borasida buxgalteriya hisobi maktablarining tutgan o‘rni kattadir. Dunyoda to‘rtta asosiy maktab mavjud ekanligi qayd qilingan, ularning asosiy jihatlari quyidagi jadval ko‘rinishida tavsiflanadi (1.2-jadval):

1.2-jadval

Dunyodagi to‘rtta asosiy buxgalteriya hisobi maktablarining tavsifi[8]

T№	Hisobning muammolari	Buxgalteriya hisobining turli maktablari tomonidan masalaning hal etilishi			
		Italiya	**Fransuz**	**Nemis**	**Anglo-Amerika**
1	Hisobning maqsadi	Xo‘jalik jarayonida qatnashgan shaxslarni nazorat qilish	Korxonalar resurslari-dan foyda-lanish sama-radorligi	Ratsional hisob pro-seduralarni ishlab chiqish	Ma’muriyat nazorati
2	Hisobning predmeti	Shaxslarning huquq va majburiyatlari	Resurslar	Protsedura	Ma’murlar-ning xulq-atvori
3	Hisobning ob’ekti	Hujjatlar	Boyliklar	Boyliklar	Boyliklar
4	Baza bo‘lgan fan	Huquq	Iqtisodiy nazariya	Matematika	Psixologiya
5	Balans (mazmuni)	Huquq va majburiyatlar-ning tengligi	Kelib tushish va chiqarilish-lar (harajat va daromad) tengligi	Debet va kredit saldo tengligi	Mablag‘lar-ning kreditorlik qarzlari va kapitalga tengligi
6	Balans (schyotlarga nisbatan)	Schyotlardan kelib chiqadi	Schyotlardan kelib chiqadi	Schyotlar balansdan kelib chiqadi	Prinsipial ahamiyat kasb etmaydi
7	Baho	Sotish bahosi	Tannarx	Prinsipial ahamiyat kasb etmaydi	Boshqarish maqsadlari bo‘yicha erkin tanlash
8	Mazmuniga ko‘ra schyotlar	Faqat shaxsiy (hisob-kitob)	Faqat inventar va operatsion	Aktiv-passiv	Ekranlar
9	Schyotlar tarkibi va mo‘ljallanganli-gi bo‘yicha	Bir qator	Bir qator	Ikki qator	Prinsipial ahamiyat kasb etmaydi
					1.2-jadval davomi
10	Ikki yoqlama yozuvning sababi	Huquq va majburiyatlar-ning o‘zgarishi	Boyliklar almashinishi	Balansdan kelib chiqadi	Ko‘rib chiqilmaydi (prinsipial emas)
11	Metod	Induksiya	Induksiya	Deduksiya	Induksiya
12	Hisob chegaralari	Mikrohisob	Mikro va makrohisob	Mikro va makro hisob	Mikrohisob

Shuningdek, buxgalteriya hisobi fanining ilmiy asosini tashkil qiluvchi fan deganda, italiya maktabida – huquq fani, fransuz maktabida

[8] Sokolov Ya.V. Ocherki po istorii buxgalterskogo ucheta. –M.: Finansi i statistika. 1991. 264-bet.

– iqtisodiy nazariya fani, nemis maktabida – matematika fani, anglo-amerika maktabida – psixologiya fanini birinchi o‘ringa qo‘yadilar[9].

Buxgalteriya hisobi milliy tizimlari va maktablarining shakllanishi hozirgi zamon buxgalteriya hisobi tizimining yuzaga kelishiga va xalqaro integratsiyalashuviga zamin bo‘ldi.

XX asrning ikkinchi yarmi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kuchayishi, mamlakatlararo va qit’alararo mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi hamda ixtisoslashuvi bilan tavsiflanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot natijalaridan foydalanish chet el investitsiyasini jalb qilish, ishlab chiqarishning internatsionalizatsiyalashuvi transmilliy va multimilliy korporatsiyalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Transmilliy korporatsiyalarga quyidagilar misol bo‘la oladi: IBM (AQSH), Toyota Motor (Yaponiya), Djeneral Elektrik (AQSH), Toshiba (Yaponiya), Djeneral Motorz (AQSH), Dyupon (AQSH). Muhimi shuki, butun jahon miqyosidagi mahsulotlarining asosiy qismi 25 ta shunday yirik korporatsiyalarda ishlab chiqariladigan bo‘ldi. Shuning bilan birga ishonch bilan aytish mumkinki, XX asrda iqtisodni internatsionalizatsiya qilish bo‘lib o‘tdi va u bilan birga buxgalteriya hisobi internatsionalizatsiya qilindi.

1.2. Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi

Xalqaro biznes faoliyatining keng taraqqiy etishi buxgalteriya hisobining quyidagi masalalarini xalqaro darajada hal qilishni shart qilib qo‘ydi: 1) buxgalteriya hisobini yuritishning konseptual qoidalarini umumlashtirish; 2) aktivlar, majburiyatlar va sarmoyalar hisobi masalalarini uyg‘unlashtirish; 3) inflyatsiya va narxlar o‘zgarishi sharoitida buxgalteriya hisobini yuritish; 4) moliyaviy hisobot va axborotlarni taqdim qilish; 5) moliyaviy hisobotning konsolidatsiyasi; 6) millatlararo korporatsiyalarda moliyaviy hisobot; 7) boshqaruv hisobi masalalari bo‘yicha tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish.

Xalqaro sarmoyadorlar, kreditorlar va menejerlarning xalqaro biznes faoliyatlari to‘g‘risida xalqaro o‘lchovlar va prinsiplar asosida

[9]R. Xolbekov. Buxgalteriya hisobi fani: o‘tmishi va buguni //Bozor, pul va kreditJ. 2002 №6, 57-bet.

tayyorlangan axborotlarga bo‘lgan ehtiyoji milliy buxgalteriya hisobi prinsiplari va standartlarini mujassamlantirish asosida xalqaro biznes tilini vujudga keltirishni taqozo qildi. Buxgalteriya hisobining xalqaro biznes tili sifatida shakllanishida turli xil mamlakatlarda buxgalteriya hisobining ayni bir maqsadlarga qaratilganligi muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Chunki, maqsad bir bo‘lsa, unga erishish yo‘llarini va yondashuvlarini umumlashtirish qiyin kechmaydi. Bularga buxgalterlarning boshqa mamlakatlarning samarali tajribasini o‘rganish va ularni o‘z mamlakatlarida qo‘llash mumkinligini misol keltirish mumkin. Masalan, ko‘pchilik davlatlarda inflyatsiya jarayonini turlicha yondashish asosida hisobga olishga urinib ko‘rganlar va o‘z metodik tavsiyalarini ishlab chiqqanlar. Ayrim mamlakatlarda boshqalarnikiga qaraganda bu masalaga ancha muvaffaqiyatli yondashishgan. Dunyo mamlakatlaridagi ushbu yutuqlarni o‘rganish va uni o‘z mamlakatlarida qo‘llash yaxshi samara bergan. Xuddi shuningdek, boshqa buxgalteriya hisobi mavzularida ham hamkorlik qilish va eng progressiv deb hisoblangan usul va uslublarni qo‘llashi buxgalteriya hisobining takomillashishiga va integratsiyalashuviga olib kelgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro integratsiyalashuvida AQShdagi buxgalteriya hisobi bo‘yicha professional tashkilotlarning hissasi katta bo‘ldi. 1959 yil AICPA tomonidan Buxgalteriya Hisobi Prinsiplari Kengashi (ARV) tuzildi. Kengash tomonidan buxgalteriya hisobi prinsiplari, 31ta qoidalar ishlab chiqildi, ularning mohiyati hamda amaliyotda qo‘llash tartibi ochib berildi. Bu o‘z navbatida buxgalteriya hisobi amaliyoti doirasidagi tortishuvlarga (qarama-qarshiliklarga) barham berishda katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu prinsip va qoidalarning bir qanchasi hozirgi kunda ham buxgalteriya professiyasida samarali qo‘llanilib kelinmoqda. AQSH standartlari GAAP (Ganerally Accepted Accounting Principles), ya’ni umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi prinsiplari deb ataladi.

Jahon buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotini taraqqiy ettirishda Buyuk Britaniyadagi qonunchilik va professional tashkilotlar muhim rol o‘ynadi. 1948 yili Buyuk Britaniyada “Kompaniya Akti” Qonuni qabul qilinib, unga buxgalteriya hisobini tartibga solishga oid

bo‘lgan moddalar kiritilgan va buxgalteriya axborotlarining **“ishonchli va tartibli”** bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan. 1985 yilda qayta ko‘rib chiqilgan “Kompaniya Akti” Qonunida “ishonchli va tartibli” axborot berilishi o‘ta muhimligi tasdiqlandi. Ushbu Qonunning moliyaviy hisobot mazmunini ifodolovchi talabnomalarga sharxlov sifatida **Angliya va Uelsdagi Charter Buxgalterlar Instituti** tomonidan **Buxgalteriya Hisobi Standartlari Qo‘mitasi (ASC)** bilan hamkorlikda **Buxgalteriya Amaliyoti Standartlari** ishlab chiqildi (SSAP). Bundan tashqari, institut tomonidan buxgalteriya hisobi standartlarining amaliyotda qo‘llanilishini ta’min etish maqsadida “Buxgalteriya Hisobi Prinsiplari Tavsiyalari” ham nashr ettirildi.

Anglo-Amerika klassik adabiyotlarida buxgalteriya hisobi amaliyoti va uni tashkil etishda oltita tashkiliy tamoyil ajratilgan [62, 112-bet.] Ularga quyidagilar kiritilgan:

1. Mehnat taqsimoti. Buxgalterning ishi “oddiy manipulyatsiyalarni bajargunga qadar” amalga oshiriladi. Oddiy bajaruvchi butun o‘z faoliyatini “hisob ma’lumotlarini yig‘ish va guruhlash”ga yo‘naltiradi.

2. Axborotlarning lokalizatsiyasi. Boshlang‘ich hisob-kitoblarni yuritishning butun og‘irligi operativ xodimlarga yuklatiladi. Ularga jurnallar seriyalari topshiriladi va ular hisob protsedurasiga rioya qilgan holda xo‘jalik hayotida yuz bergan jarayonlarni qayd qiladi. Bunda hisob operativ boshqaruvning quroliga aylanadi.

3. Nazoratda raqobat. Undan oqilona foydalanish hisobchining ishbilarmonlik qobiliyatining o‘lchovi sifatida nomayon bo‘ladi. M. Kirkman ushbu tamoyilni quyidagicha tavsiflaydi: “Har qanday ko‘rsatkich butunlay boshqa mustaqil manbadagi tegishli ko‘rsatkichi bilan solishtirilishi lozim”.

4. Buxgalteriyaning harakatdaligi. Buxgalter oyda bir marta joylarda operativ xodimlar tomonidan yuritiladigan registlar bo‘yicha buxgalteriya yozuvlarini jurnallarga kiritadi. Oy davomida buxgalter funksional xizmatlarning ishini nazorat qiladi va boshlang‘ich hujjatlar operativ xodimlar tomonidan to‘ldiriladi.

5. Metodologik (uslubiy) mustaqillik. Har bir tashkilot buxgalteriya hisobini tashkil etish, metodologiyasi va yuritish qoidalarini mustaqil belgilaydi. Qancha firma bo‘lsa, shuncha hisob usullari mavjud. “Har bir xizmat yoki alohida boshliq – deb yozadi M. Kirkman – unga qulay bo‘lgan tizimni, o‘ziga qulay bo‘lgan blankalarni joriy qilish va qaysidir sabab bilan o‘ziga maqbul bo‘lmagan har qanday tizimga bo‘yin toblamaslik huquqiga ega.”

6. Psixologik muhit. Hisobning asosiy vazifasi korxona xodimlari tomonidan suiste’mol qilishga yo‘l qo‘ymaslikni nazorat qilish hisoblanadi. Bunga buxgalteriya xodimlari bilan boshqa bo‘lim xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish, majburiyatlarni taqsimlash, tartib-intizomni ushlab turish bo‘yicha kompleks tadbirlar kiradi.

Ushbu modeldagi mamlakatlarda hozirgi zamon buxgalteriyasini tashkil etish ham shu prinsiplarga tayanadi. Bu “oltita anglo-amerika tamoyili” nomi bilan mashhurdir. Ushbu prinsiplar boshqa mamlakatlarda ham buxgalteriya hisobini tashkil qilishda qo‘l kelmoqda.

Angliya-Amerika maktabining muhim xususiyatini belgilovchi prinsiplardan biri psixologik muhitdir. Bu yerda hisobning muhim vazifasi korxona xodimining o‘z vazifasini suiste’mol qilishiga yo‘l qo‘ymasligini nazorat qilishdir. Kompaniyalarda xodimlarning, jumladan, buxgalterlarning halollik va ishga vijdonan munosabatda bo‘lish kabi jihatlariga katta e’tibor qaratiladi. Har bir xodim ishga olinishidan oldin korxonaning axloqiy psixologik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlarga imzo chekadi. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik mehnat shartnomasining bekor bo‘linishi hollariga olib kelinishi alohida qayd qilinadi.

Barcha yo‘nalishdagi va maktablardagi fransuz buxgalterlari uchun hisobni unifikatsiyalashga, umumiy prinsiplarni ishlab chiqish an’anasi xususiyatlidir. Fransuz buxgalteriyasining oltita tamoyilini qayd etib o‘tish maqsadga muvofiqdir [62, 249-bet].

1. Hisobni mexanizatsiyalash o‘z o‘rniga qo‘yilgan tashkilotchilikning natijasi o‘laroq gavdalanadi. Hisobni mashinalar

qo‘llanilishini keltirib chiqaruvchi asos cifatida qarab uni qayta tashkil qilish, mashinalarning o‘ziga qaraganda ko‘proq foyda keltiradi.

2. Turli xil ishlarni birvaqtning o‘zida bajarish orqali, masalan, jurnal va schyotlarni nusxa olish yozuvlari orqali vaqtni tejashga erishish mumkin. Ishga oldindan tayyorgarlik ko‘rish hisob ishlari qo‘lda yuritilgan taqdirda ham ko‘p vaqtdan yutish imkonini beradi. Vaqtni tejash hisobda mashinalarni qo‘llash orqali ham erishiladi.

3. Mehnatni tejash. Xodimlar ish yuki bilan to‘liq ta’min etilmasligiga qaramasdan, ularning ish joyini qisqartirish faqat yirik buxgalteriyalarda mumkin bo‘ladi. Hatto ikki-uch yoki besh-oltita buxgalterlar bo‘lishiga qaramasdan xodimlarni har qanday qisqartirish mumkin bo‘lmay qoladi.

4. Muddatning tejalishi. Buxgalteriya ko‘p axborotlarni katta aniqlikda qisqaroq vaqt ichida taqdim qilishga harakat qilishi kerak. Muddat tushunchasi vaqt tushunchasi bilan mos kelmaydi. Vaqtdan tejab qolinsada, lekin axborotlarni olish muddati cho‘zilib ketishi mumkin, qaysiki bu holat ko‘p jihatdan tashqi sabablar bilan belgilanadi. Jumladan, hujjatlar aylanishini tashkil etish va boshqalar. Buxgalteriya hisobida muddatni tejab qolish vaqtni tejashdan ham muhimroqdir.

5. Havfsizlik o‘z-o‘zini nazorat va audit qilish orqali ta’min etiladi: a) o‘zini-o‘zi nazorat qilish hisobda uchrab turadigan xatolarning oldini olish imkonini beradi; b) buxgalteriya uchun faqat o‘z-o‘zini nazorat qilish yetarli bo‘lmasdan, balqi tashqi (audit, ekspert, soliq inspektori) nazorat ham zururiyat hisoblanadi.

6. Aniq (samarali)lik – hisobni yaxshi yo‘lga qo‘yishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hisoblarda aks ettiriladigan va taqdim qilinadigan axborotlar yetarli darajada aniq bo‘lishi talab etiladi.

Ushbu prinsiplar buxgalteriya hisobini to‘g‘ri va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Yangi yuzaga kelayotgan modellar ham yuqoridagi boshqa modellardan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bularga Islom modelini kiritishgan. Bu modelga islom dini davlatlari kiritilgan. Islom dini davlat darajasiga ko‘tarilgan davlatlarda ushbu muqaddas din uyg‘ulagan qoidalar mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy hayotiga to‘liq

kirib borgan va bu ma’lum darajada korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Islomda halollik, birovning haqi (omonati)ga xiyonat qilmaslik, olgan daromadidan zakot berish, sudxo‘rlik qilmaslik, tijoratda hamkor va raqiblarga nisbatan yolg‘on ishlatmaslik, tarozidan urmaslik, qo‘lingiz ishda ko‘nglingiz ollohda bo‘lishlik, ishga vijdonan munosabatda bo‘lishlik kabi jihatlar yuksak darajada qadrlanadi. Bu prinsiplarga tijoratni boshqarishda, jumladan, hisob-kitoblarni yuritishda so‘zsiz itoat qilishlik talab etiladi.

1970 yillardan keyin buxgalteriya hisobining taraqqiyoti bevosita uning masalalarini unifikatsiyalashdan iboratdir. Bu jarayon xalqaro professional tashkilotlar yordamida amalga oshdi. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha xalqaro professional tashkilotlarning yuzaga kelishi va taraqqiy ettirilishida AQShdagi Amerika Buxgalteriya Hisobi Assotsiatsiyasi (AAA), Buxgalterlarning Milliy Assotsiatsiyasi (NAA) va Sertifikatli Jamoat Buxgalterlarning turli xil jamiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Natijada, xalqaro buxgalteriya hisobi muammolarini hal qilish maqsadida 1972-yili Avstraliyaning Sidney shahrida bo‘lib o‘tgan Buxgalterlarning Xalqaro X kongressida hamkorlik doirasida muhim kelishuvlarga erishildi. Ushbu kelishuvga muvofiq 1973-yili Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi professional tashkilotlar **Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlari Qo‘mitasi (IASC)**ni tuzishga asos soldilar (1.4-rasm).

Buxgalteriya hisobining keyingi taraqqiyoti bevosita buxgalteriya hisobining halqaro standartlarining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishi bilan bog‘liq.

Restrukturizatsiya doirasida 2001-aprelida Buxgalteriya Hisobi bo‘yicha Xalqaro Standartlar Qo‘mitasi **Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo‘yicha Kengashga (MHXSK) (IFRSB)** aylantirildi. Ushbu sanadan e’tiboran ishlab chiqiladigan xalqaro standartlar Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari deb ataladigan bo‘ldi.



1.4-rasm. 1973-yil Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlari Qo‘mitasiga asos solgan mamlakatlar[10]

“**Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS; IFRS ingl. International Financial Reporting Standards)** — tashqi foydalanuvchilar korxonaga nisbatan iqtisodiy qarorlar qabul qilishlari uchun zarur bo‘lgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash qoidalarini tartibga soluvchi hujjatlar (standartlar va talqinlar) majmui”[11] deb ta’rif keltirilgan.

[10] Штурмина О. С. Международниэ стандарти учета и финансовой отчетности: учебное пособие. УлГТУ, 2010. 21-бет

[11] Ergasheva Sh.T. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. –T.: TDIU, 2021 y. - 310 bet.12 b.

2002-yili Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining direktivasini qabul qiladi, qaysiki ushbu hujjatda Yevropa birjalarida aksiyalari kotirovka qilinadigan barcha kompaniyalar moliyaviy hisobotini MHXSlariga muvofiq taqdim etishlari majbur ekanligi qayd etildi.

2002-yildan e'tiboran Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Kengashi va AQShning Moliyaviy Hisob Standartlari Qo'mitasi tomonidan MHXS va AQSH Buxgalteriya Hisobining Umumqabul qilingan Prinsiplarini (GAAP) bir-biriga o'ta muvofiqlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlandi. O'ta muvofiqlashtirishni joriy qilishdan maqsad umumiy universal jamlangan standartlarni yaratish bo'lib hisoblanadi, qaysiki xalqaro birjalarga hech qanday to'siqlarsiz ikkalasining biri bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotlar taqdim etiladi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi amaldagi BHXSlarining ayrim jihatlari davr talablariga mos emasligini, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida moliyaviy hisobotni tuzish metodologiyasini yanada takomillashtirish, amaldagi standartlarni qayta ko'rib chiqib ularni yangi tahrirda qayta ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu sababli, 2018-yil 1 yanvaridan e'tiboran tushumlarni tan olishga doir 15-son MHXS "Shartnomalar bo'yicha tushumlar", 16-son MHXS "Ijara", 17-son MHXS "Sug'urta shartnomalar" standartlari MHXS va AQShning GAAP standartlari asosida ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinishi boshlandi. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari ingliz va o'zbek tilidagi ro'yxatini 1.3-jadvalda keltiramiz.

Standartlardan tashqari, standartlarni qo'llashning u yoki bu masalasini oshkor qiluvchi quyidagi talqinlar qo'llash uchun majburiy hisoblanadi. Ularning tarkibi va nomlari Sh.Ergasheva tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan[12]:

[12] Эргашева Ш.Т. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2021 й. - 310 бет.12 б.

1.3-jadval

Buxgalteriya hisobi va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibi[13]

A. BUXGALTERIYA HISOBI XALQARO STANDARTLARI (BHXS)	
Conceptual Framework for Financial Reporting	Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari
IAS-1 Presentation of Financial Statements	1-son BHXS Moliyaviy hisobotni taqdim qilish
IAS-2 Inventories	2-son BHXS Zaxiralar
IAS-7 Statement of Cash Flows	7-son BHXS Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot
IAS-8 Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors	8-son BHXS Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar
IAS-10 Events After the Reporting Period	10-son BHXS Hisobot sanasidan keyingi hodisalar
IAS-10 Consolidated Financial Statements	10-son BHXS Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot
IAS-12 Income Taxes	12-son BHXS Foyda solig‘i
IAS-16 Property, Plant and Equipment	16-son BHXS Mulk, Plant, mashina va asbob-uskunalar
IAS-20 Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance	20-son BHXS Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordami to‘g‘risidagi axborotlar tavsifi (ochiqlash)
IAS-21 The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates	21-son BHXS Valyuta kurslari o‘zgarishining ta’siri
IAS-26 Accounting and Reporting by Retirement Benefit Plans	26-son BHXS Pensiya dasturlari bo‘yicha hisob va hisobot
IAS-27 Separate Financial Statements	27-son BHXS Alohida moliyaviy hisobot
IAS-28 Investments in Associates and Joint Ventures	28-son BHXS Assotsiatsiyalashgan kompaniyalarda investitsiyalar va qo‘shma korxonalar
IAS-32 Financial Instruments: Presentation	32-son BHXS Moliyaviy instrumentlar: taqdim qilish
IAS-34 Interim Financial Reporting	34-son BHXS Oraliq moliyaviy hisobot
IAS-36 Impairment of Assets	36-BHXS Aktivlarning qadrsizlanishi

[13] 1. International financial reporting standards. www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ SIC va IFRIC ro‘yxatini shu manbadan olish mumkin. 2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/

IAS-37 Provisions ,Contingent Liabilities and Contingent Assets	37-son BHXS Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar
IAS-38 Intangible Assets	38-son BHXS Nomoddiy aktivlar
IAS-40 Investment Property	40-son BHXS Investitsiyaviy ko‘chmas mulk
IAS-41 Agraculture	41-son BHXS Qishloq xo‘jaligi
B. MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARI (IFRS)	
IFRS-1 First–time Adoption of International Financial Reporting Standards	1-son MHXS Moliyaviy Hisobot Xalqaro Standartlarini birinchi marta qo‘llash
IFRS-2 Share-based Payment	2-son MHXS Aksiyalar asosida to‘lovlar
IFRS-3 Business Combinations	3-son MHXS Biznesning birlashishi
IFRS-4 Insurance Contacts	4-son MHXS Sug‘urta shartnomalari
IFRS-5 Noncurrent Assets Held for Sale and Discontinued Operations	5-son MHXS Sotish uchun mo‘ljallangan joriy bo‘lmagan aktivlar va tugallangan faoliyat
IFRS-6 Exploration for and Evaluation of Mineral Resources	6-son MHXS Foydali qazilmalar zaxiralari razvedkasi va baholash
IFRS-7 Financial Instrument: Disclosure	7-son MHXS Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni ochiqlash
IFRS-8 Operating Segments	8-son MHXS Operatsion segmentlar
IFRS-9 Financial Instruments	9-son MHXS Moliyaviy instrumentlar
IFRS-10 Consolidated Financial Statements	10-son MHXS Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar
IFRS-11 Joint Arrangements	11-son MHXS Qo‘shma tadbirkorlik
IFRS-12 Diclosure of Interest in Other Entities	12-son MHXS Boshqa tashkilotlarga qatnashish to‘g‘risida axborotlarni ochiqlash
IFRS-13 Fair Value Measurement	13-son MHXS Adolatli qiymatni baholash
IFRS-14 Regulatory Deferral Accounts	14-son MHXS Muddati uzaytirilgan schyotlarni tartibga solish
IFRS-15 Revenue from contracts with Customers	15-son MHXS Haridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushumlar
IFRS-16 Leases	16-son MHXS Ijara
IFRS-17 Insurance contracts	17-son MHXS Sug‘urta shartnomalari
IFRS-18 Presentation and Disclosure in Financial Statements	18-son MHXS Moliyaviy hisobotni taqdim qilish va ochiqlash

IFRIC 1 Ob’ektlarni foydalanishdan chiqarish, tabiiy resurslarni tiklash va boshqa o‘xshash holatlar bo‘yicha mavjud majburiyatlardagi

o‘zgarishlar (Changes in Existing Decommissioning, Restoration and Similar Liabilities);

IFRIC 2 Kooperativdagi ishtirokining ulushi va shunga o‘xshash moliyaviy instrumentlar (Members' Shares in Co-operative Entities and Similar Instruments);

IFRIC 5 Ob’ektlarni foydalanishdan chiqarish atrof muhitni tiklash va ekologik reabilitatsiya qilishni moliyalashtirish fondlarida ishtirok etish bilan bog‘liq huquqlar (Rights to Interests arising from Decommissioning, Restoration and Environmental Rehabilitation Funds);

IFRIC 6 Maxsus bozor – ishlatilgan elektr va elektron uskunalar bozorida faoliyatdan kelib chiqadigan majburiyatlar (Liabilities arising from Participating in a Specific Market — Waste Electrical and Electronic Equipment);

IFRIC 7 IAS 29 Giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobotga muvofiq holda moliyaviy hisobotni qayta hisoblashni talab etuvchi yondashuvni qo‘llash (Applying the Restatement Approach under IAS 29 Financial Reporting in Hyperinflationary Economies);

IFRIC 10 Oraliq moliyaviy hisobot va qadrsizlanishi (Interim Financial Reporting and Impairment);

IFRIC 12 Xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha konsessiya shartnomalari (Service Concession Arrangements);

IFRIC 14 IAS 19 – belgilangan to‘lovlar bilan aktivning pensiya rejasining chegaraviy qiymati, moliyalashtirishga bo‘lgan minimal talablar va ularning o‘zaro aloqadorligi (IAS 19 — The Limit on a Defined Benefit Asset, Minimum Funding Requirements and their Interaction);

IFRIC 16 Xorijiy bo‘linmaga sof investitsiyaning xedjirlash (Hedges of a Net Investment in a Foreign Operation);

IFRIC 17 Aksiyadorlarga pulsiz shaklda taqsimlash (Distributions of Non-Cash Assets to Owners);

IFRIC 19 Moliyaviy majburiyatlarni ulushli instrumentlar bilan qoplash (Extinguishing Financial Liabilities with Equity Instruments);

IFRIC 20 Ochiq usul bilan qazilgan kondan foydalanish bosqichida yuzani ochish harajatlari (Stripping Costs in the Production Phase of a Surface Mine);

IFRIC 21 Majburiy to‘lovlar (Levies);

SIC 7 Yevroni joriy etish (Introduction of the Euro);

SIC 10 Davlat ko‘magi: operatsion faoliyati bilan hech qanday aniq aloqasi yo‘q (Government Assistance — No Specific Relation to Operating Activities);

SIC 25 Daromad solig‘i — korxona yoki uning aksiyadorlari soliq maqomining o‘zgarishi (Income Taxes — Changes in the Tax Status of an Enterprise or its Shareholders);


SIC 29 Xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha konsessiya shartnomalari: Axborotni oshkor etish (Service Concession Arrangements: Disclosures);

SIC 32 Nomoddiy aktivlar: Internet-sayt harajatlari (Intangible Assets — Web Site Costs)

Har yili MHXS bo‘yicha Kengash MHXS yangilab bormoqda. Masalan, 2021-yilda 12-son MHXS va 21-son MHXSlriga ma’lum o‘zgarishlarni kiritdi. Covid holati va IBARning bazovoy stavkalarining isloh qilinishi natijasida ma’lum standartlarga o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Bugungi kunda MHXSlarni tan olayotgan mamlakatlar soni kengayib bormoqda. Ularning ro‘yxatini 1.5-rasmda aks ettiramiz.

Bugungi kelib dunyodagi 45 mingdan ortiq transmilliy korporatsiyalar va yirik kompaniyalar o‘zlarining 250 mingdan ortiq sho‘’ba va bog‘liq kompaniyalari bilan birgalikda MHXSlariga muvofiq moliyaviy hisobotni ixtiyoriylik asosda tuzmoqdalar va bu kompaniyalar uchun katta imkoniyatlarni yaratmoqda. Yevropa Komissiyasi MHXSlarni Yevropa ittifoqi mamlakatlarida qo‘llanilishi moliyaviy hisobotni garmonizatsiyalashning eng maqbul vositasi sifatida qaramoqda va uni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Yuqorida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning taraqqiy etish qonuniyatlarini o‘rganish asosida muhim xulosani chiqarish mumkin, agar 1494-yili “ikkiyoqlama yozuv” asosida hisob g‘oyasi yaratilgan bo‘lsa, 1973-yili buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari yaratilishi bilan moliyaviy hisobotni xalqaro integratsiyalashuvi boshlangan bo‘lsa, 2030-yillarga borib **moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida to‘liq xalqaro garmonizatsiyasi va bir xilligiga erishiladi.** Mamlakatimizda ham MHXSlarini to‘liq joriy qilishga erishiladi.



1.5-rasm. MHXSlarini qabul qilgan davlatlar

1.3. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining taraqqiy ettirilishi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida olib borilgan ishlarning mazmun mohiyati, ularning katta ahamiyat kasb etganligiga qarab O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida buxgalteriya hisobining rivojlanishi, uni isloh qilinishi hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish davrini to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-1994-yillar) – buxgalteriya hisobining me’yoriy-huquqiy asoslari uchun zamin yaratish;

Ikkinchi bosqich (1995-2014-yillar) – xalqaro standartlar talablariga javob beradigan buxgalteriya hisobiga doir me’yoriy - huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish;

Uchinchi bosqich (2015-yildan e’tiboran) – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida moliyaviy hisobot tuzishga o‘tish;

To‘rtinchi bosqich (2017 – 2023-yillar) – MHXSlarini joriy etishning yangi sifat bosqichi;

Beshinchi bosqich (2024-yildan keyingi davr) – MHXSlariga to‘liq o‘tish davri.

Dastlabki bosqichda mustaqillik ostonalarida o‘zbek tiliga davlat maqomi berilishi munosabati bilan korxona va tashkilotlarda moliyaviy hisobva hisobotini o‘zbek tilida yuritish, buxgalteriya hisobi boshlang‘ich va hisobot hujjatlarini o‘zbekcha chop ettirish, buxgalteriya hisobi bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, buxgalterlarni bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni qayta tayyorlash kabi o‘ta muhim masalalar hal etildi.

1992-yili 13-avgustda O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi bozor iqtisodiyoti o‘tish davriga mos buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini ishlab chiqdi. Bu schyotlar rejasi oldingi rejali-ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisoddagi schyotlar rejasidan bozor munosabatlaridagi ob’eklarni qisman qamrab olishi, buxgalteriya hisobining axborot foydalanuvchilari manfaatiga qaratilganligi va prinsiplar asosida qurilganligini hisobga olishi bilan ajralib turadi. Bu to‘liq bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan schyotlar rejasini ishlab chiqishdagi birinchi qadam bo‘ldi.

Respublikamizda hamdo‘stlik mamlakatlari ichida birinchilardan bo‘lib, 1992-yil 9-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining **“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi** Qonuni (2000-yil 26-mayda yangi tahriri) qabul qilindi. Bu Qonunning asosiy maqsadi mustaqillikning birinchi yillaridayoq buxgalterlar professiyasining mavqeyini oshirish, davlat boshqaruv organlaridagi taftish va nazorat bo‘limlarining moliyaviy nazorat funksiyalarining ma’lum qismini mustaqil professional, nodavlat

tashkiloti zimmasiga bosqichma-bosqich o‘tkazishga qaratilgan edi. Natijada, mamalakatimiz keng jamoasi, korxona va tashkilotlar mustaqil hamda professional etika qoidalarini mujassamlantirgan auditorlik xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

1994-yil 24-martida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan **“Buxgalteriya hisobi va hisoboti to‘g‘risida”gi Nizom va yangi schyotlar rejasini** tasdiqladi. Mazkur Nizom buxgalteriya hisobining umumiy holati, asosiy qoidalari, buxgalteriya hisobini tashkil etish va buxgalteriya hisoboti masalalarini tartibga solishda birinchi normativ-huquqiy hujjat hisoblandi. Lekin, yangi schyotlar rejasi bir oz qisqartirilgan va yangilangan bo‘lsada oldingisidan fundamental farq qilmas edi. Bular dastlabki o‘zbek tilidagi buxgalteriya hisobiga oid yo‘riqnomalar va Nizomlar edi.

1994-yil 24-avgustida “O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va statistika tizimini xalqaro amaliyotga o‘tkazish to‘g‘risida” davlat dasturi qabul qilinishi xalqaro standartlar va tajribalarni o‘rganish va uni joriy qilish bo‘yicha birinchi me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘ldi.

Ikkinchi bosqichga 1995-yildan 2014-yillar davomidagi davrni kiritish mumkin. Bu davrda buxgalteriya hisobini takomillashtirishda juda katta miqyosda ishlar amalga oshirildi. 1995-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan xalqaro tomoyillar talablariga javob beradigan **“Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish harajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning tashkil topish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom** ishlab chiqildi va joriy qilindi. 1999-yili Nizom yangi tahrirda chiqarildi. Ushbu Nizomga muvofiq xalqaro tamoyillar asosida korxona harajatlari ishlab chiqarish tannarxi, davr harajatlari, moliyaviy faoliyat harajatlari va favquloddagi zararlarga bo‘lindi va moliyaviy natijalarni bosqichma-bosqich aniqlash tartibiga o‘tildi. Bundan tashqari xalqaro talablar asosida korxonaning sof foydasi bilan soliqqa tortiladigan foyda bazasi ko‘rsatkichlari bir-biridan ajratildi, ularni hisoblash metodikasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. Ushbu hujjatning qabul qilinishi va joriy qilinishi balans nettoga o‘tishga imkon yaratib berdi.

1996-yili 30-avgustda **“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun** qabul qilindi. Mazkur Qonun asosida mamlakatimizda Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari, “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to‘g‘risida”gi Nizom, “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari”, “Soliq hisoboti shakllarini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Qaror va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

1998-yili Soliq Kodeksining qabul qilinishi ham buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Kodeks soliqlar hisobini takomillashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi va unga asos soldi. Soliqlar hisobining metodologiyasi va prinsiplari yaratildi. Uning moliyaviy hisobva hisoboti bilan o‘xshashlik va farqli jihatlari asoslandi.

EI vakili Eduards Stipraysning ta’kidlashicha “investitsiyalar foyda ko‘rishning imkoni yo‘q bo‘lgan yerga emas, biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan muhit tomon oshiqadi”[14]. Shu bois, ushbu yillarda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi, ularning daxlsizligi va rivoji davlat tomonidan kafolatlanganligi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan rag‘batlantirishlar va imtiyozlar, ularning huquqiy himoyasiga oid Qonunlar, Farmon va Qarorlar qabul qilinganligi investitsion muhitni tubdan yaxshiladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ochilishi va ularning rivojlanishi buxgalteriya hisobini ham rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. Xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi bilan birga ularning hisob siyosati, ilg‘or usul va uslublari, standartlari, maxsus dasturlari, buxgalter va auditorlar etika va madaniyati ham kirib keldiki, bu omillar ham milliy hisob tizimimizni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Moliyaviy hisobotlarning standartlarining qo‘llanilishi borasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasiga Xalqaro Taraqqiyot bo‘yicha Amerika agentligi (USAID) tomonidan texnik yordam loyihalarining amalga oshirilishi hisob tizimimizning shakllanishi va taraqqiy etishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda amaliy buxgalterlar uchun SAR sertifikatining

[14] http://kun.uz/news/2017/05/04/ei-elcisi-uzbekistondagi-valuta-siesatini-tankid-kildi

joriy qilinishi buxgalterlarning professional malakasini oshirishga, xalqaro tajribalarga uyg‘unlashtirishga xizmat qildi. Bu moliyaviy hisobi, menejmentlik buxgalteriya hisobi, soliqlar hisobi va me’yoriy-huquqiy asoslarning johon andozalari darajasida o‘qitilishini joriy etdi.

1998-yil avgustidan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasi **Buxgalteriya Hisobi Milliy Standartlarini (BHMS)** ishlab chiqish va joriy etishga kirishildi. Hozirgi kunga qadar moliyaviy hisobot tuzish va taqdim qilishning konseptual asoslari va 23 ta buxgalteriya hisobi milliy standartlari ishlab chiqildi. Standart talablariga javob beradigan 21-son BHMS “Xo‘jalik sub’ektlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” qabul qilinganligi O‘zbekistonda milliy buxgalteriya hisobini shakllantirishdagi eng katta ishlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2002-yili 25-iyun oyida “Statistika va moliyaviy hisobotni yanada takomillashtirish borasida chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori qabul qilinganligi hisobot shakllarini qisqartirish, ularni optimallashtirish, xalqaro talablarga uyg‘unlashtirish borasida muhim hujjat bo‘lib xizmat qildi.

Vazirlar Mahkamasining ushbu Qarori asosida “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari” (2003-yil 24-yanvar) ishlab chiqilganligi bugungi kunda amalda bo‘lgan hicobot shakllarini joriy qilish borasida me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va Auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasiga (IFAC) assotsiyalashgan a’zosi sifatida qabul qilinishi mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro integratsiyalashuvida muhim vaqea bo‘ldi. IFACga a’zo bo‘lish tamoyillariga to‘liq muvofiq bo‘lish uchun hamda buxgalteriya professiyasining roli va sifatini oshirish maqsadida Assotsiatsiya mazmunan yangi ishlarni amalga oshirishi lozimligi belgilandi.

Respublikamizdagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Bank-moliya akademiyasi, Soliq akademiyasi, Toshkent davlat agrar universiteti,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg‘ona davlat universitetlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasida maktablarning vujudga kelganligi va shu sohani rivojlantirishdagi munosib hissalarini alohida ta’kidlash lozim.

Ushbu davrda axborot kommunikatsion texnologiyalarining moliyaviy hisobida keng joriy qilinishiga erishildi. Hisobotlar 1 S Buxgalteriya va boshqa litsenziyalashgan dasturlar asosida hisobotlarni elektron shaklda uzatish tizimiga o‘tildi.

2015-yildan e’tiboran moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bosqichiga kirishildi. Ushbu bosqichning muhim jihati mamalakatimizdagi yirik xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari va xalqaro birjalarda eksport va import operatsiyalari amalga oshiradigan korxonalar moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar asosida tuzishga kirishilganligi bilan belgilanadi. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzishda 2015-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmoni[15] qonuniy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur farmon asosida 2015 – 2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va xalqaro audit standartlari hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o‘tkazish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish vazifalari yuklatildi.

Ushbu farmonda ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015-yil 28-iyulida “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samradorligini baholash mezonlari to‘g‘risida” Nizomi tasdiqlandi. Ushbu Nizomga muvofiq MHXSlariga muvofiq keladigan moliyaviy hisobot axborotlari asosida **Samaradorlikning Muhim Ko‘rsatkichlari (KPI)** joriy qilindi. Ushbu ko‘rsatkichlarning xalqaro tajribalardan kelib chiqib joriy qilinganlgi

[15] https://lex.uz/docs/2635197

bugungi kunda xalqaro standartlarni mamlakatimizdagi kompaniyalar faoliyatida qo‘llashda muhim dastak bo‘ldi.

2016-yil 13-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” Qonunning yangi tahriri 22-moddasida “**Xalqaro standartlar bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi**” deb qayd etilishi mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining qo‘llanilishining qonuniy asoslarini belgilab beradi.

Bu vazifalar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini chuqur o‘rganishni, milliy moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning uslubiy masalalarini ishlab chiqishni hamda milliy standartlarimizni yanada xalqaro standartlarga imkon qadar yaqinlashtirishimizni taqozo etmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining tan olinishi va unga o‘tishning zaruriyatini Qimmatbaho qog‘ozlar va Birjalarning xorijiy kotirovkalar uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tuzilishini talab qilinishi bilan ham belgilash mumkin. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hamda investitsion muhitni yaxshilashning muhim shartlaridan biri ixtiyoriy ravishda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni taqdim etish bo‘lib hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida MHXSlarini joriy etishni jadallashtirishning yangi bosqichiga o‘tildi. **2017-yilda e’tiboran yangi sifat jihatdan ko‘tarilishi amalga oshirildi.**

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga jadal o‘tishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Qarorda quyidagi muhim vazifalar yuklatilgan:

aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash;

buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlarini olishga tayyorlash;

MHXS sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish, shu jumladan buxgalteriya hisobi va audit sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlarini hamda sohaga oid oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish;

rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasi asosida o‘quv jarayonining sifatini, imtihonlarni o‘tkazish va natijalarini baholashning shaffofligini ta’minlovchi MHXS bo‘yicha sertifikatlashning samarali tizimini joriy etish;

buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg‘unlashtirish;

bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligidagi «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo‘yicha MHXSni chuqur o‘rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o‘quv dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish va xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish;

va boshqa qator vazifalar belgilandi.

Bugungi kunda MHXS o‘tish borasida qilingan ishlar va jadallashtirish borasida vazifalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘taylik.

Hozirgi kunda byudjet sohasida buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqishga kirishildi va bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Soliq kodeksini xalqaro tajribalarga muvofiq holda takomillashtirish vazifasi yuklatildi.

Bu bosqichda sifat jihatdan amalga oshirilayotgan muhim ishlardan biri oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassislik o‘quv rejalariga xalqaro universitetlardagi fanlar kiritildi. Ushbu universitetlardan ingliz tilidagi fan sohasidagi adabiyotlar keltirilib, ular asosida o‘qitishning innovatsion

texnologiyalari joriy etilmoqda. Shu munosabat bilan jahondagi yetakchi ta’lim muassasalaridagi fanlar va ulardagi fan adabiyotlari sohaga kirib kelmoqda. Natijada, buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo‘yicha ham dunyoda tan olingan fanlarni o‘qitishga kirishildi. Bu sohadagi ishlar fanimizni xalqaro darajada o‘rganishni va taraqqiy ettirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston buxgalterlar federatsiyasi tomonidan besh yildan buyon “**Deloitte”, “Ernst&Young”**, **“PricewaterhouseCoopers” va KRMG** kabi xalqaro nufuzli auditorlik tashkilotlaridan mutaxassislar jalb qilinib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish hamda ularni O‘zbekistonda qo‘llash borasida amaliyotchi buxgalterlar va mutaxassislar uchun seminar treninglar tashkil etilayotganligi ham sohani rivojlanishiga katta hissa bo‘lib qo‘shilmoqda[16].

ACCA (The Association of Chareted Certified Accountants – Diplomli Sertifikatlashgan Buxgalterlar Uyushmasi) xalqaro standartlar asosida sertifikatlashtirish dasturiga muvofiq buxgalteriya hisobi va moliya sohasida mutaxassislarni o‘qitishning tashkil etilganligi ham xalqaro standartlarga o‘tish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu uyushma bugungi kunda 180 dan ortiq mamlakatda o‘z faoliyatini olib bormoqda. ACCA kurslarida darslar yuqori sifatli ta’lim standartlari darajasida olib borilmoqda.[17]

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, Osiyo infratuzilmasi investitsiya banki, Jahon bank, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi bilan hamkorlikning kengayishi ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga to‘liq o‘tish, ularni joriy qilishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv davrida jadal taraqqiyot darajasiga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Bu bejiz emas albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi

[16] www.biznes-daily.uz/ Korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.
[17] Kun.uz/news/2017/03/28/halkaro buhgalteriani merit educationda faridun odilov bilan urganing

g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”[18]. Prezidentimizning ushbu fikrlari asosida innovatsion texnologiyalarga asoslangan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti bo‘lishini taqozo etadi.

Biz bugungi kunda buxgalterlar faqat hujjatlashtirish, dalolatnoma tuzish, schyotlarni yurituvchi, hisob-kitob qiluvchi, hisobotlarni tuzib boshqaruvchilarga taqdim qiluvchi mutaxassis deb qaraydigan bo‘lsak, bu mutloqo to‘g‘ri bo‘lmaydi. **Zamonaviy innovatsion buxgalter bu moliyaviy boshqaruvchi**. Buxgalteriya kasbi hech qachon yo‘qolib ketmaydi. To‘g‘ri, avtomatlashtirish orqali uchta odam qilayotgan ishni bitta odam qilishlariga erishish mumkin, lekin hisob-kitob to‘xtamaydi. Chunki, hisob-kitob yo‘lga qo‘yilgan joyda to‘g‘ri va aniq axborotlar olinadi va ravshan qarorlar qabul qilinadi. Bu ishlarni esa albatta buxgalterlar o‘z vaqtida bajarib boradilar. Har bir ma’lumotlarni buxgalteriya kasbini tushungan mutaxassis kiritishi lozim. Masalan, hech qaysi avtomatlashtirilgan tizim soliq to‘lovlari Soliq Kodeksiga muvofiq hisoblanayotganligini aniqlab bera olmaydi. Ma’lumotlarni tahlil qilib to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish faqat insonning tafakkuri bilan hal bo‘ladi. Shuning uchun buxgalteriya kasbiga talab toki taraqiyot mavjud ekan va iqtisodiy o‘sish kundan kunga rivojlanib bormoqda ekan mavjud bo‘ladi.

2024-yildan e’tiboran davrni MHXSlarni to‘liq joriy etish bosqichi bo‘ladi. Prezident Shavkat Mirziyoev 2023-yil 9-noyabr kuni paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida “Mutasaddilarga klaster va fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishning yangi tartibini yo‘lga qo‘yish, ular o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni hal etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Klasterlarni xalqaro moliya standartlariga o‘tkazish zarurligi qayd etildi.”[19] Bu shundan dalolat beradiki, bosqichma-bosqich muhim ahamiyat kasb etayotgan sohalar MHXSlarga o‘tkazilmoqda. Ushbu jarayonda muhim jihatlardan biri bu kichik va o‘rta biznes va MHXSlar talab etilmaydigan korxonalar uchun Moliyaviy hisobotning milliy

[18] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабрь, №258. 2-бет. .

[19] Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi (president.uz)

standartlari (MHMS) loyihasi[20] (2022) taqdim etildi va ularni 2024 yildan joriy etish ko‘zda tutilgan. Mazkur standart Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanilishi uchun ishlab chiqilgan.

Ushbu sohaning mazmun mohiyati, funksiyasi, menejmentda ishtirokida tub o‘zgarishlar ro‘y beradi. Biz bunday o‘zgarishlarga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- Butun dunyoda, jumladan, mamlakatimizda MHXSlari keng joriy qilinadi. Keyingi 20-30 yil ichida butun dunyo darajasida **moliyaviy hisobotning garmonizatsiyasiga** erishiladi. Bu dunyo miqyosida bir xil moliyaviy hisobotga erishish degani. Ushbu jarayonga tez o‘tishimiz uchun mamlakatimizda buxgalterlarning professional institutlari orqali MHXSlarni jadal qo‘llashimiz, kadrlarimizni xorijiy mamlakatlarda MHXSlari bo‘yicha malaka oshirishini tashkil etishimiz, MHXSlari bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy qilishimiz kerak. Bu kechiktirib bo‘lmaydigan masala hisoblanadi;

- Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimiga zamonaviy innovatsion texnologiyalari, jumladan, axborot texnologiyalarining kirib kelishi maxsus dasturlar asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilishga erishishga olib keladi. Buxgalterlar tomonidan bajariladigan texnik ishlar, hujjatlashtirish, schyotlarni yuritish, hisob-kitoblar to‘liq kompyuter zimmasiga o‘tadi. Bunday sharoitda buxgalterlar moliyaviy menejerlarga aylanadi. Mukammal hisob siyosatini hech bir axborot dasturi tuzib beraolmaydi, qo‘llaniladigan metodlarni kompyuter emas menejerlar tanlaydi. Buxgalterlar moliyaviy menejment bilan shug‘ullanadi. Korxonaning moliyaviy va boshqaruv hisoboti ma’lumotlari asosida moliyaviy holatini tahlil qiladi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ortiqcha sarf harajatlarni aniqlaydi. Ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Axborotlar asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash

[20] ttps://www.imv.uz/media/budget_activity_files/%D0%9C%D2%B2%D0%9C%D0%A1_%D0%9B%D0%BE%D0%B9%D0%B8%D2%B3%D0%B0.pdf

bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Moddiy va moliyaviy mablag‘larning harakati ustidan nazoratni olib boradi.

- Tannarxni kamaytirish yo‘llarini ko‘rsatib beradigan tannarx hisobi, byudjetlashtirish, strategik rejalashtirish qamrab olgan menejment buxgalteriya hisobi rivojlanishi kerak. Boshqaruv hisobi kompaniyalarning axborot bazasiga aylanadi.
- Dunyo darajasida yagona moliyaviy hisobot, moliyaviy tahlil hamda qarorlar qabul qilish asoslari rivojlanadi. Tayyorlanayotgan mutaxassislarning shu yo‘nalishdagi kompetensiyalarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish kerak.
- Moliyaviy menejment buxgalteriya hisobi tarkibi sifatida keng rivojlanadi. Yaqin 10-15 yillar ichida to‘liq buxgalterlar moliyaviy menejerlarga aylanadi. Moliyaviy menejerlarni tayyorlash tizimiga o‘tishimiz kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro akkreditatsiya talablariga javob beradigan o‘quv rejalar va fan dasturlari, darsliklar ishlab chiqildi. 2021/2022-o‘quv yilidan “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga ACCA halqaro tashkilotining akkreditatsiya talablari asosida o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu talablardan kelib chiqib yangilangan o‘quv rejaga quyidagi fanlar kiritilgan:

“Biznesda buxgalter (F-1-Accountant in Business)”;

“Menejmentlik buxgalteriya hisobi (F-2-Management Accounting)”;

“Moliyaviy hisob(F-3-Financial Accounting)”;

“Korporativ va bisnes huquqi (F-4-Corporate and Business Law)”;

“Samaradorlikni boshqarish (F-5-Performance Management)”;

“Soliqqa solish (F-6-Taxation)”;

“Moliyaviy hisobot (F-7-Financial Reporting)”;

“Audit va kafolat (F-8-Audit and Assurance)”;

“Moliyaviy menejment (F-9-Financial Management)” fanlari kiritildi.

Bu fanlarning barchasi mazmunan yangi fanlar va yangi o‘quv dasturlarini tuzishni talab etadi. Jumladan, biznesda buxgalter, moliyaviy

hisobi, boshqaruv buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot kabi fanlar bo‘yicha yangi mazmundagi dasturlari ishlab chiqildi.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratildi. Ushbu fanlarni to‘liq xalqaro standartlar asosida o‘qitish amaliyoti joriy etildi. Natijada, moliyaviy hisobini MHXSlar asosida o‘zbek tilida darslik ishlab chiqish borasida ishlar boshlandi.

1.4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish davr talabi

Moliyaviy hisobotni MHXSlariga muvofiqlashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar kirib kelishi uchun qulay investitsion muhitni yuzaga keltirish, samarali boshqaruv mexanizmini yo‘lga qo‘yish, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish, kompaniyalarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va zaxiralarni yuzaga keltirish, tannarxni pasaytirish hamda kompaniyaning raqabotbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” deb nomlangan asarida “Birinchi – islohatlarning qay darajada samara berayotganini ko‘rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, harajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasi, mahsulot raqobatdoshligini so‘zsiz oshirish”[21] deb qayd etdilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, harajatlar va tannarx, mahalliylashtirish va rentabellik darajasi kabi ko‘rsatkichlar bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim.

[21] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабрь, №258. 2-бет.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasining “iqtisodiyoni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” bo‘limida **“korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlar va usullarni joriy etish, korxonlarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish”** ustuvor vazifasining qo‘yilishi boshqaruvning muhim standarti sifatida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o‘rganish va uni keng joriy etishni taqozo qiladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Iqtisodiyotda **transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish**, mamlakatda **qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitinita’minlash** hamda **muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini** amalga oshirish”[22] ustuvor vazifasining qo‘yilishi ham MHXSlarining joriy qilinishini muhim omil sifatida qaraydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi va ob’ektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz itisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishining zaruriyati yana shu bilan belgilanadiki, dunyo bozorlariga chiqish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirish, dunyo xom-ashyo va valyuta birjalariga kotirovka qilish, dunyo banklaridan kredit olish uchun kompaniya va tashkilotlar tomonidan MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tuzishni talab etilishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda **O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotini jahon andozalari darajasiga chiqarishning yagona yo‘li** bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg‘or xorijiy tajribalarni, sohaga doir jahon adabiyotlari va hujjatlarini o‘rganish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilishdan iboratdir. Bu yo‘l eng dolzarb va o‘ta muhim yo‘ldir. Bundan boshqa yo‘l ham bo‘lishi mumkin emas. Bu yo‘ldan og‘ishmay harakat qilishimiz kerak.

[22] https://lex.uz/ru/docs/6600413

Mamlakatimizda MHXSlariga o‘tish dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhitni yuzaga keltirish, xalqaro birjalarda kotirovka qilish, aksiyadorlarni investitsiya kiritishga jalb etish, hisobotlarning haqqoniyligiga erishishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda qabul qilingan 4611-son qarori “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq 2021 yil 1 yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash hamda qator vazifalar yuklatilgan.

Mazkur Qarorlar mamalakatimizda buxgalteriya hisobini rivojlantirishdagi katta ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar hisoblanadi. Bu hujjatlarning qabul qilinishi uchun mamlakatimizda hayotiy zaruriy shart-sharoitlarga quyidagi omillarni kiritishimiz mumkin (1.5-jadval).

1.5-jadval

MHXSlarini joriy qilish zaruriyatlari

Birinchi zaruriyat	Xorijiy investorlarga investitsion muhitni yaxshilash uchun ularga MHXSlari asosida axborotlarni taqdim qilishni zaruriyati
Ikkinchi zaruriyat	O‘zbekiston kompaniyalarining o‘zlarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni dunyo narxlarida sotishlari uchun xalqaro fond birjalari, moliya (valyuta va kapital) bozorlariga kotirovka qilinishi zaruriyati
	1.5-jadval davomi
Uchinchi zaruriyat	2002 yildan keyin ishlab chiqilgan MHXSlariga muvofiq keladigan milliy standartlar ishlab chiqish hamda buxgalteriya hisobining xalqaro unifikatsiyasi va garmonizatsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etish zaruriyati
To‘rtinchi zaruriyat	Malakali MHXSlari asosida ishlay oladigan buxgalterlarni kompetensiyasini shakllantirishda buxgalterlarni sertifikatlash zaruriyati

Birinchidan, xorijiy investorlarga investitsion muhitni yaxshilash uchun ularga MHXSlari asosida axborotlarni taqdim qilishni zaruriyatga aylandi. Mamlakatmizning eng yirik investitsiya talab qiladigan sohalari tog‘-kon metallurgiya, og‘ir metallurgiya, kimyo sanoati, neftni qazib olish va qayta ishlash sanoati, avtomobilsozlik sanoati, paxtani qayta ishlash va yengil sanoat korxonalari investitsion jozibadorligini oshirish uchun MHXSlar asosida hisobot tuzishlari taraqqiyotga erishishning muhim omiliga aylandi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston kompaniyalarining o‘zlarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni dunyo narxlarida sotishlari uchun xalqaro fond birjalari, moliya (valyuta va kapital) bozorlariga kirishi hayotiy zaruriy faoliyatga aylandi. Ushbu bozorlarga kirishning eng muhim va asosiy shartlaridan biri kompaniyalar, jumladan, xoldinglar, aksiyadorlik jamiyatlari o‘zlarining moliyaviy hisobotlarini MHXSlari bo‘yicha taqdim etilishi hisoblanadi. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari esa xalqaro kreditlar va grantlarni qo‘lga kiritishlari uchun hisobotlarini MHXSlari bo‘yicha taqdim etishlari shart hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylandi.

Uchinchidan, 2002-yildan e’tiboran MHXSlari Kengashi tomonidan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) o‘rniga Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish boshlandi. Natijada, mamlakatimizda 2002-yildan keyin ishlab chiqilgan MHXSlariga muvofiq keladigan milliy standartlar ishlab chiqish hamda buxgalteriya hisobining xalqaro unifikatsiyasi va garmonizatsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri MHXSlarini qo‘llash zaruriyati yuzaga keldi.

To‘rtinchidan, malakali MHXSlari asosida ishlay oladigan buxgalterlarni kompetensiyasini shakllantirishda buxgalterlarni sertifikatlash, jumladan, Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA), ACCA (The Association of Chartered Certified Accountants) sertifikati, Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (CPA), xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha dimlom (DipIFR)larini olish muhim treninglar hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining xalqaro

sertifikatga ega bo‘lgan buxgalterlar va auditorlariga ega bo‘lishi MHXSlarga o‘tishda eng muhim omil hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda keyingi ikki yil maboynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining moliyaviy hisobotni va auditni xalqaro standartlarga jadal o‘tkazish bo‘yicha bitta farmoni va 3 ta qarorlari qabul qilindi (1.6-jadval):

1.6-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining MHXS va AXSlari jadal joriy qilishga qaratilgan farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar

Farmon va qarorlar	**MHXS va AXSlarni joriy qilishga qaratilgan vazifalar**
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24 fevraldagi PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘ri-sida”gi Qarori	2021-yil 1 yanvardan boshlab, **aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi**; 2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud **«Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)»** sertifikatlaridan (keyingi o‘rinlarda — xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta’minlaydi. 2020-yil 1 avgustga qadar bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligidagi «**Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo‘yicha MHXSni chuqur o‘rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o‘quv dasturlarini tasdiqlasin** va belgilangan tartibda ta’lim jarayoniga joriy etsin 2020-yildan boshlab tajriba-sinov oliy ta’lim muassasalarining **o‘quv dasturlarini buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro akkreditatsiyadan** o‘tkazish; «tajriba-sinov oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha fanlar faqat xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot» yoki «AXS bo‘yicha audit» fanini

	muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlardan (keyingi o‘rinlarda - xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan o‘qitish.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15 sentyabrdagi №282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida	moliyaviy hisob tizimiga xalqaro talab va standartlarni joriy etishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishning navbatdagi bosqichi sifatida jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan ularning moliyaviy hisobotlari, auditi va boshqaruviga alohida talablar belgilanadigan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (Public interest entities - PIE) huquqiy maqomini joriy qilish; Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo‘yicha respublika komissiyasini tuzish Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar Reestrga kiritilgan-yildan keyingi yilning 1 yanvaridan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi hamda navbatdagi (ikkinchi) yil yakuniga ko‘ra moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni auditorlik xulosalari bilan birga e’lon qilishni MHXSga muvofiq amalga oshiradi, qonunchilik hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno; Moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha «yo‘l haritasi» muvofiq tasdiqlandi 2025-yil 31 dekabrga qadar «Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risida»gi qonun loyihasini; 2026-yil 1 martga qadar Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini Kichik va o‘rta biznes uchun MHXSga uyg‘unlashtirgan holda Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini joriy etish;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25 iyundagi PQ-5161-son “Nodavlat ta’lim tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonida yoshlar uchun	1. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Moliya vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Moliya vazirligi huzuridagi o‘quv markazi hamda Samarqand iqtisodiyot va servis institutini **buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi**

qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori	**xalqaro tashkilotlarning akkreditatsiyasidan** o‘tkazish choralarini ko‘rsin
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4 avgustdagi №PQ-5210-son “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori	Tajriba Sinov OTM (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti) baklavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari “**Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha Auditning Xalqaro Standartlarini chuqur o‘rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o‘quv dasturlarini** ta’lim jarayoniga joriy etsin
2021-yil 27 avgust, PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni	2022-yil 1 yanvarga qadar Oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAI) asosida tashqi audit tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazishni tashkil etish, ular doirasida **moliyaviy, samaradorlik va muvofiqlik auditlarini** o‘tkazish, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilni amalga oshirish standartlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin

MHXSlarini faol joriy qilishda ma’lum xulosalarga kelish mumkin.

1. MHXSlar tavsiyanoma harakteriga ega. Kompaniya MHXSlariga o‘tganligi va moliyaviy hisoboti MHXSlariga to‘liq muvofiq yoki qisman muvofiq kelishi borasida rasman e’lon berishi kerak. Har qanday tizim muvaffaqiyatli joriy etiladi, agarda undan naf olinsa. Korxona va tashkilotlar o‘zlari MHXSlariga o‘tishda naf olishlari, uning afzalliklarini his qilishlari lozim. MHXSlar asosida axborotlar ishonchli bo‘lishi, moliyaviy qarorlar qabul qilishda samarali foydalanishi, kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga va boshqa maqsadlarga xizmat qilishi kerak.

2. MHXSlarga o‘tish uchun faol bozor shakllangan bo‘lishi kerak. MHXSlari ob’ektlarni adolatli (haqqoniy) baholash tizimiga asoslanadi. Shuning uchun baholash mexanizmlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Masalan, zaxiralar sof sotish qiymati yoki tannarxidan eng kichigi bo‘yicha baholanadi. Ko‘chmas mulk, mashina va asbob-uskunalar hamda moliyaviy aktivlar adolatli qiymati bo‘yicha baholanadi. Bu ob’ektlar faol bozor bo‘lgandagina adolatli baholanadi. Nomoddiy aktivlar va gudvilni baholash masalasiga alohida e’tibor qaratish kerak. Masalan, bugungi kunda kompaniyada qancha intellektual mulk bor, lekin ularni baholab, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda yetarli darajada aks ettirilmayapdi.

3. Fond birjalari va qimmatli qog‘ozlar bozori, valyuta bozori rivojlanishi kerak. Qimmatli qog‘ozlar bozoriga aholi jalb etilishi kerak bo‘ladi. Shunda aksiyadorlarda Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlariga qiziqish o‘yg‘onadi. Mamlakatda ko‘plab aksiyadorlar, ya’ni moliyaviy hisobot haridorlari yuzaga kelishi kerak**.** Agar aksiyadorlar va investorlar moliyaviy hisobotni o‘qimasa xalqaro standartlar maqsadiga erishmaydi. Agar bu bozorlar sust rivojlangan bo‘lsa MHXSlariga sifatli o‘tib bo‘lmaydi.

4. Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida dunyodagi kompaniyalarning faoliyatida operatsion faoliyatdan ham ko‘ra ko‘proq moliyaviy faoliyat rivojlanmoqda. Shuning uchun hozirgi amaldagi “Foyda va zararlar hamda boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobot” taklif etilgan formatlarida moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni aks ettiruvchi moddalar ko‘p ajratilgan. Jumladan, moliyaviy aktivlarni amortizatsiyalanadigan qiymatidan adolatli qiymatiga qayta baholashdan olingan foyda, pul mablag‘larini xedjilashtirishdan olingan foyda, hissali instrumentlarni baholashdan olingan foyda, auktuar foyda va boshqalar. Qaysiki moliyaviy faoliyatning bu elementlarini yetarli darajada rivojlantirish kerak, ularni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. **Obligatsiyalarni** joriy etishni rivojlantirish, aksiyalarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar hisobini tubdan takomillashtirishimiz kerak bo‘ladi.

Xalqaro standartlarda “keltirilgan qiymat” tushunchasi ko‘p ishlatiladi. Bu diskontlash stavkasi yoki foiz stavkalari asosida hisoblanadi. Buning asosida moliyaviy daromad va moliyaviy harajatlar aniqlanadi. Bu stavkalar rasmiy e’lon qilinishi kerak.

Xalqaro standartlar huquqlarni baholashga katta ahamiyat qaratayapdi. Huquqni baholash mexanizmlarini joriy qilishimiz kerak. Masalan, debitorlik qarzlari yoki shartnomaviy aktivlar bu qoplamalarni olishga bo‘lgan huquq yoki uzoq muddatga ijaraga olingan Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalar foydalanishga bo‘lgan huquq nuqtai nazaridan baholanishi kerak bo‘ladi.

5. Biznes birliklarida dunyo standartlariga uyg‘un menejment tizimi shakllangan bo‘lishi kerak**.** Buxgalteriya hisobi menejmentga

xizmat qiladi, uning tarkibiy qismi bo‘ladi. Barcha korxonalarda menejmentni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kerak. Mamlakatda bank tizimi xalqaro standartlarga uyg‘un bo‘lishi kerak.

6. Kompaniyalarda mehnatni rag‘batlantirish tizimi xalqaro standartlarga o‘tishi kerak. Mehnat shartnomalari, xodimlarga yaratilayotgan sharoitlar, ish soatlari, mehnat haqi tizimlari, pensiya to‘lovlari, sug‘urta tizimlari mutloq xalqaro standartlarga uyg‘un bo‘lishi kerak.

Prezident Qarorida qo‘yilgan vazifalarni amalda ijrosini ta’minlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim, deb o‘ylaymiz (1.7-jadval).

1.7-jadval

MHXSlarini joriy qilishda amalga oshiriladigan ishlar

Birinchi	O‘zbekistondagi buxgalteriya hisobi va audit sohasida professional tashkilotlarning **MHXS bo‘yicha Kengashiga** hamda Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasiga a’zo bo‘lish. O‘zbekistonda MHXSlariga o‘tishni xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilishiga erishish lozim
Ikkinchi	O‘zbekistonda MHXSlarini keng targ‘ib qiladigan, uni joriy qilish bilan shug‘ullanadigan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan BHMSlari ishlab chiqish, buxgalterlarni sertifikatlash masalalari, imtihon talablari va masalalarini ishlab chiqishda professional nodavlat tashkilotlar ishtirokini kengaytirish
Uchinchi	MHXSlari va standartlarga interpretatsiyalarni o‘zbek tiliga rasmiy tarjima qilish, MHXSlari Kengashi tomonidan ushbu MHXSlarning o‘zbek tilidagi versiyalarini rasmiy tan olinishiga erishish
To‘rtinchi	Buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit bo‘yicha MHXSlari talablariga javob beradigan o‘zbek atamalar to‘plamini yaratish
Beshinchi	MHXSlar talablariga to‘liq muvofiq keladigan takomillashgan namunaviy moliyaviy hisobot formatlarini joriy qilish
Oltinchi	Buxgalterlar va auditorlarni MHXSlari bo‘yicha sertifikatlashning samarali milliy tizimini joriy etish

Buxgalteriya hisobi sohasi bo‘yicha fan katalogini yaratishda avvlombor ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi to‘g‘ri bo‘lish kerak. Masalan, “Financial Accounting” rus tilida “Finansoviy uchyot” deb olingan bo‘lsa, biz uni rus tilidan “Moliyaviy hisob” deb tarjima qildik. Aslida, financial bu moliyaviy, accounting esa buxgalteriya hisobi

bo‘ladi. Shuning uchun “Moliyaviy hisobi” deb nomlansa to‘g‘ri bo‘ladi. Fanlarning nomini yozishda yana bitta qoida bor. Xalqaro tajribada fanlarning nomi bir nechta so‘zdan iborat bo‘lsa hamma so‘zlar (bog‘lovchidan tashqari) bosh harf bilan yoziladi. Shu bois, ushbu qoidalardan kelib chiqib fanlarni quyidagicha nomlash lozim (1.8-jadval).

1.8-jadval

Dunyodagi buxgalteriya hisobiga oid fanlarning o‘zbek tilidagi nomlanishi

Fanning inglizcha atamasi	Fanning russcha atamasi	Fanning o‘zbekcha atamasi
Principles of Accounting	Prinsipi buxgalterskogo ucheta	Buxgalteriya Hisobi Prinsiplari
Accountant in Businesses	Buxgalter v biznese	Biznesda Buxgalter
Financial Accounting 1	Finansovoy buxgalterskiy uchet 1	Moliyaviy hisob 1
Management Accounting 1	Upravlencheskiy buxgalterskiy uchet 1	Menejment Buxgalteriya Hisobi 1
Audit and Assurances	Audit i Utverjdeniya (sopustvuyushiye uslugi)	Audit va Eshurens
Financial Accounting 2	Finansovoy buxgalterskiy uchet 2	Moliyaviy hisob 2
Management Accounting 2	Upravlencheskiy buxgalterskiy uchet 2	Menejment Buxgalteriya Hisobi 2
Financial Reporting	Finansovaya otchetnost	Moliyaviy Hisobot
Analyses of Financial Reporting	Analiz finansovoy otchetnosti	Moliyaviy Hisobot Tahlili
Corporate and Business Law	Korporativniy i biznes pravo	Korporativ va Biznes Huquq
PerformanceManagement	Menejment effektivnosti	Bajarilishlar Menejmenti
FinancialManagement	Finansovoy menedjment	Moliyaviy Menejment
Taxation	Nalogooblojeniya	Soliqqa Tortish

Aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan tashkilotlarda MHXSlari asosida hisob siyosatini shakllantirishga ahamiyat qaratish lozim. MHXSlari asosida hisob siyosati bu MHXSlarga muvaffaqiyatli o‘tishning muhim garovidir.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda MHXSlarini joriy qilishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini taraqqiy ettirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchi yo‘nalish, MHXSlariga jadal o‘tish;

Ikkinchi yo‘nalish, buxgalteriya hisobining raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyasi;

Uchinchi yo‘nalish, “Yashil buxgalteriya hisobi”ga o‘tish;

To‘rtinchi yo‘nalish, buxgalteriya hisobi sohasida ta’limni xalqaro darajaga olib chiqish.

Birinchi yo‘nalish bu buxgalteriya hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tkazish. 2026-yildan e’tiboran jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan korxonalar to‘liq MHXSlariga o‘tkaziladi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning yangi tahrirdagi qonun loyihasi qabul qilinadi. MHXSlariga o‘tkazish va uni yanada jadallashtirish bo‘yicha takliflarimiz:

-me’yoriy-huquqiy hujjatlar, milliy standartlarni ishlab chiqishda nodavlat notijorat professional tashkilotlar ishtirokini kengaytirish kerak. Chunki, MHXSlari “MHXSlari bo‘yicha Kengash” tomonidan ishlab chiqilgan. AQShda ham, Buyuk Britaniyada ham milliy standartlar moliya vazirligi tomonidan emas, balki professional institutlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ikkinchi yo‘nalish bu buxgalteriya hisobini raqamlashtirish yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyotga va raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Raqamli iqtisodiyot yagona axborot bazasiga tayanadi, qaysiki ushbu axborotlarning salmoqli qismi buxgalteriya hisobida shakllanadi. Boshqaruv tizimlarining yagona bazada elektron integratsiyalashuvi raqamli iqtisodiyotning asosiy belgisidir. Buxgalteriya hisobining axborot bazasining shakllanishi MHXSlarga tayanadi. Shu bois, raqamli iqtisodiyot mamlakatimizda MHXSga o‘tishni zaruriyat qilib qo‘ydi. Shu bois, to‘liq asosda aytish mumkinki, MHXSlariga o‘tish raqamli iqtisodiyotning muhim va ajralmas qismidir. Bugungi kunda raqamli hisobot platformalarini rivojlantirish va hisob va nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish dolzarb masalaga aylangan. Raqamli iqtisodiyot

buxgalterlarning axborotlarni shakllantirish borasidagi funksiyasi qisqaradi. Moliyaviy tahlil va moliyaviy menejment roli oshadi. Lekin shu narsa aniqki, “Hech bir dastur, sun’iy itellekt mukammal hisob siyosatini shakllantira olmaydi, inson tafakkuri o‘rnini bosa olmaydi.” Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalterlarning asosiy funksiyasi tahlil va moliyaviy menejment bo‘ladi. Lekin, **moliyaviy menejment** fanini o‘qitish masalalari hali to‘liq o‘zining yechimini topgan emas.

Uchinchi yo‘nalish bu **“yashil buxgalteriya hisobi”**ga o‘tish masalasidir. Xalqaro amaliyotda «yashil buxgalteriya hisobi» tushunchasi quyidagilarni anglatadi:

tashkilotlar o‘z tovar va xizmatlari ekologik xavfsizlik talablariga javob berishini ta’minlashi kerak, ekologik audit va ekologik nazoratni tashkil etish va rivojlantirish talab etiladi.

Har bir mahsulot, ish va xizmatlar yashil iqtisodiyot talablariga mos bo‘lishi kerak. Mahsulotlarga qo‘yiladigan birinchi talab bu ekologik talab bo‘lishi kerak.

15-son MHXSlarida tovar ish va xizmatlardan tushgan tushuni tan olishda mahsulotlarning yashil buxgalteriya talablariga javob berishi degan mezonni kiritish kerak.

Yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq majburiyatlar va risklar baholanishi va buxgalteriya hisobotlarida aks ettirilishi kerak. Ekologik talablar va yashil iqtisodiyot talablarini **“majburiyat tug‘diruvchi hodisa”** deb baholanib, buxgalteriya hisobida tan olinishi kerak. MHXSlarining asosiy ko‘pchiligi 1972-yildan keyin 2002-yilgacha ishlab chiqilgan standartlar hisoblanadi. Bu vaqt oralig‘ida ekologik muammolar bugungi kunchalik dolzarb bo‘lmagan, sun’iy intellekt tushunchasi bo‘lmagan. Bizning fikrimizcha, MHXSlarni oziq-ovqat xavfsizligi, yashil iqtisodiyot va sun’iy intellekt talablaridan kelib chiqib yangi tahrirda ishlab chiqish zaruriyati mavjud deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda moliyaviy hisobot yashil moliyaviy hisobot bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi yo‘nalish, bu buxgalteriya hisobi ta’lim sohasini xalqaro darajaga olib chiqish masalasi.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar MHXSlariga muvofiq tayyorlash vazifasi. Ushbu vazifadan kelib chiqib kafedramiz o‘qituvchilari tomonidan yangi mazmunda “Moliyaviy hisob asoslari”, “Moliyaviy hisob 1,2” va “Moliyaviy hisob 1,2” darsliklari yaratildi. Hozirgi kunda “Moliyaviy hisobot” va “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” fanlari bo‘yicha yangi mazmundagi darsliklar yaratish dolzarb hisoblanadi.

Tayanch atamalar

1. Moddiy boyliklarni hisobga olishning to‘rt ustunli tizimi. VII-XIII asrlarda Xitoyda moddiy boyliklarni hisobga olish foydalanilgan va bugungi kunga qadar qo‘llanilib kelinayotgan tizim. Unga muvofiq, Kirim – Chiqim = Oxirgi qoldiq – Boshlang‘ich qoldiq.

2. Hisob g‘oyasi. Mablag‘lar va boshqa ob’ektlar harakatiga oid bo‘lgan har bir jarayonning “sabab va oqibati” ochib berilib, ularni bir-biriga uzviy bog‘liqlikda va taraqqiyotda qarab, mavjud hisob tizimida korxonaning moliyaviy holatiga ta’sirini ilmiy asoslab berish tizimi.

3. Buxgalteriya hisobi milliy tizimi. U yoki bu davlat doirasida uning milliy mintaliteti va iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqib buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va boshqarish hamda mamlakatda buxgalterlarning professional saviyasini yuksaltirish borasidagi ishlarni mujassamlantiruvchi tizimdir.

4. Buxgalteriya hisobi maktablari. Buxgalteriya hisobining maqsadiga erishish, uning funksiya va vazifalarini bajarish, muammolarining hal qilinishiga doir g‘oyalar va bilimlarni ishlab chiquvchi hamda targ‘ib etuvchi yo‘nalishlardir. Dunyoda buxgalteriya hisobi taraqqiyotida italyan, fransuz, nemis va anglo-amerika maktablari e’tirof etilgan.

5. Buxgalteriya hisobining professionallashuvi. Bu buxgalteriya ishlarining ushbu sohada ma’lum professional bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan bajarilishi hamda mamlakat darajasida buxgalteriya hisobining muammolari, jumladan standartlashtirish, buxgalterlarning professional malakasini oshirish, ushbu professiyaning

axloq qoidalarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan notijorat va nodavlat tashkilotlarning faoliyat yuritishi.

6. Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi. Xalqaro sarmoyadorlar, kreditorlar va menejerlarning xalqaro biznes faoliyatlari to‘g‘risida axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida milliy buxgalteriya hisobi prinsiplari va standartlaridagi umumiy va ilg‘or tajribalarni mujassamlantirish asosida ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobining xalqaro o‘lchovlari va prinsiplariga o‘tish jarayonidir.

7. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar. Buxgalteriya hisobi xalqaro integratsiyalashuvi jarayoni, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini ishlab chiqish hamda buxgalteriya hisobining xalqaro muammolari bilan shug‘ullanuvchi notijorat professional tashkilotlar.

8. Buxgalteriya hisobini isloh qilish. Iqtisodiyotni erkinlashtirish talablariga monand holda buxgalteriya hisobi milliy tizimini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish.

9. Moliyaviy hisob. Umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi prinsiplari asosida yuritilib, firma va kompaniyalarning moliyaviy holati to‘g‘risidagi axborotlarni ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimi.

10. Menejmentlik buxgalteriya hisobi. Buxgalteriya hisobining umumqabul qilgan prinsiplari doirasidan ham kengroq axborotlarni qamrab olib, hamma jabhalarda menejerlar tomonidan ichki qarorlarni qabul qilishlari uchun zarur bo‘lgan detalli rejalar, oldindan hisob-kitoblar qilish va bajarilishlarga oid hisobotlarni tayorlash, harajatlar to‘g‘risida axborotlarni tayyorlash tizimi.

11. Buxgalteriya hisobining tashkiliy prinsiplari. Buxgalteriya hisobi amaliyoti va uni tashkil etishda asos qilib olinadigan qoida va talablar majmuasidir.

12. Buxgalteriya hisobida psixologik muhit. Korxona xodimining o‘z vazifasini suiste’mol qilishiga yo‘l qo‘ymasligi, buxgalterlarning halollik va ishga vijdonan munosabatda bo‘lish kabi jihatlari, korxonaning axloqiy psixologik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha o‘rnatilgan tartib intizom majmuasidir.

13. Buxgalteriya hisobida muddatning tejalishi. Buxgalteriya hisobida axborotlarni katta aniqlikda qisqaroq vaqt ichida taqdim qilinishi talab etiladi. Muddat tushunchasi vaqt tushunchasi bilan mos kelmaydi. Vaqtdan tejab qolinsada, lekin axborotlarni olish muddati cho‘zilib ketishi mumkin.

14. Buxgalteriya hisobi xalqaro modellari. U yoki bu davlatlardagi milliy hisob tizimlarining hisobning maqsadi, uning yo‘naltirilganligi, hisob protsedurasi va ketma-ketligi, moliyaviy hisobot tarkibi va mazmuni, davlat darajasida boshqarilishi kabi belgilari bo‘yicha o‘xshashligiga qarab yirik guruhlarga ajratish.

15. Buxgalteriya hisobini reglamentlashtirish. Buxgalteriya hisobiga davlat hamda halqaro darajasida rahbarlik qilish, uning maqsad va vazifalari mushtarakligini belgilash, uni biznesni boshqarishning samarali vositasiga aylantirish.

16. Buxgalteriya hisobini unifikatsiyalash. Buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish protsedurasini xalqaro davlat va korxona darajasida tartibga solish, buxgalteriya hisobi ob’ektlari va jarayonlarini hujjatlashtirish, buxgalteriya hisobining umume’tirof etilgan usul va uslublarini joriy qilish.

Mavzuni o‘rganishga doir savollar

1. Hisob g‘oyasini asoslashda L. Pacholi, Dutman Simin Stivin, Jak Savari kabi olimlarning qo‘shgan hissalari.
2. Dunyoda birinchi professional tashkilot va professional jurnal qayerda va qachon tashkil etilgan?
3. Aktiv = Majburiyat + Kapital formulasi kim tomonidan yaratilgan?
4. Qanday zaruriyat va shart-sharoitlar buxgalteriya hisobining professionallashuviga olib keldi?
5. Milliy hisob tizimining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar?
6. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha maktablar, ularning buxgalteriya hisobi taraqqiy etishida tutgan o‘rni va ularning asosiy jihatlari?
7. Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvida muhim rol o‘ynagan asosiy omillar?
8. Moliyaviy va boshqaruv buxgalteriya hisobining mohiyati.

9. Anglo-Amerika maktabida buxgalteriya hisobining qanday tashkiliy prinsiplariga amal qiladi?

10. Fransiya buxgalteriyasining oltita tamoyili.

11. Fransiya schyotlar rejasining umumiy tavsifi.

12. Buxgalteriya hisobining hozirgi kundagi taraqqiyoti.

13. O‘xshashlik belgilariga qarab buxgalteriya hisobining qanday xalqaro modellari mavjud?

14. Britaniya-Amerika modelining negizi va asosiy g‘oyasi.

15. Vertikal usulda tuzilgan buxgalteriya balansining tarkibi.

16. Buxgalteriya hisobi xalqaro kontenental modeliga kiruvchi mamlakatlar va ushbu modelning asosiy g‘oyasi.

17. Janubiy Amerika modelining mohiyati va xususiyatlari.

18. Moliyaviy hisbotning xalqaro standartlari bo‘yicha Kengash faoliyati va xalqaro standartlarni ishlab chiqish protsedurasi.

19. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida buxgalteriya hisobini iloh qilish.

20. O‘zbekistonda MHXSlari joriy qilish davr talabi

II BOB. MOLIYAVIY HISOBNING KONSEPTUAL ASOSLARI

2.1. Buxgalteriya hisobi muhiti (Accounting Environment) va buxgalteriya hisobining roli. Buxgalteriya hisobi - biznes tili

Chet el adabiyotlarida buxgalteriya hisobi tizimining mohiyatini ochishdagi muhim masalalardan biri – bu uning qanday axborotlarni qamrab olishi hisoblanadi.

Buyuk Britaniyadagi Menejment Buxgalteriya Hisobi Charter instituti (CIMA) tomonidan tayyorlangan maxsus atamalarda buxgalteriya hisobi “pulda o‘lchaniladigan operatsiya (bitim)lar”ni qamrab olishini e’tirof etgan holda quyidagicha tariflaydi: “Buxgalteriya hisobi – bu:

- pulda o‘lchaniladigan bitimlarni (monetary transaction) tasniflash va yozuvini amalga oshirish; va
- davr ichida ushbu bitimlarning bajarilgan ishlar (performance) va belgilangan sanada moliyaviy holatni baholashdagi ta’siri natijalarini prezentatsiya va intepretatsiya qilish; va
- faoliyatning rejali kursi muqobillaridan kelib chiqib, kelgusi faoliyatga oid pulli loyihalarni tuzish tizimidir.”[23]

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida “Buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.”[24] deb ta’kidlangan.

Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarida chop etilgan adabiyotlarni tizimli tadqiq qilish natijalari olingan nazariy asoslar bo‘yicha buxgalteriya hisobiga quyidagicha ta’rif beramiz:

“Buxgalteriya hisobi deganda, qarorlar qabul qilish maqsadida pulda o‘lchaniladigan axborotlarni yaxlit va uzluksiz qayd qilish, tan olish, o‘lchash (baholash), to‘plash, yozish, qayta

[23] Management Accounting. Offisial terminology of the CIMA. The CIMA 63 Portland Plase, London W1N 4AB, 2005. 157 p. 2-b.
[24] https://lex.uz/docs/2931253?ONDATE=31.12.2020%2000

ishlash, taqdimot qilish hamda shu asosda biznes sub'ektlarning moliyaviy holatini baholash, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish hamda kelgusi faoliyatga oid rejalarni tuzish va axborotlar kommunikatsiyasini amalga oshirish tizim tushuniladi".

Chet el iqtisodchi olimlari tomonidan buxgalteriya hisobining maqsadi ancha keng yoritilgan.

Buyuk Britaniyadagi CIMA tashkiloti tomonidan menejmentlik buxgalteriya hisobining menejmentda ishtirokini va uning maqsadini quyidagicha ta'riflaydi: "Menejmentlik buxgalteriya hisobi menejmentning integral qismi bo'lib, quyidagi maqsadlarda foydalanish uchun axborotlarni identifikatsiyalaydi, prizentatsiya va interpretatsiya qiladi:

- Strategiyani shakllantirish;
- Faoliyatni rejalashtirish va nazorat qilish;
- Qarorlar qabul qilish;
- Resurslarni optimallashtirish;
- Aksiyadorlarga va birlikka nisbatan tashqi bo'lganlarga hisobot berish;
- Yollanma ishchilarga hisobot berish;
- Aktivlar butligini ta'min etish.

Yuqoridagi maqsadlar buxgalterlarning menejmentda ishtirok etishi orqali samarali ta'min etiladi:

- Ob'ektlar (vazifalar)ni hal qilish uchun rejalarni shakllantirish (strategik rejalashtirish);
- Qisqa muddatli operatsiyalar rejalarini shakllantirish (byudjetlashtirish/foyda, rejalashtirish);
- Moliyani ta'min etish va undan foydalanish (moliyaviy menedjment);
- Bitimlarni yozib borish (moliyaviy hisobva tannarx buxgalteriya hisobi);
- Moliyaviy va operatsiyalar axborotlari kommunikatsiyasi;

• Chiziq asosida rejalar va natijalarga to‘g‘irlash harakatlarini amalga oshirish (moliyaviy nazorat);

• Mulohaza-fikr va tizim operatsiyalari to‘g‘risida hisobotni tayyorlash (ichki audit, menedjment audit)”.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi chet el iqtisodchi olimlari va professional tashkilotlarning buxgalteriya hisobining qaysi maqsadlarga qaratilganligi atroflicha yoritilgan. Biz mamlakatimiz va chet el olimlarining fikrlarini umumlashtirgan holda buxgalteriya hisobining maqsadlarini quyidagicha izohlaymiz.

Buxgalteriya hisobi maqsadi uning asl mohiyatini ro‘yobga chiqarish demakdir. Har qanday ishni amalga oshirishdan yoki tizimni o‘rnatishdan maqsad bo‘lganidek, tashkilotlarda buxgalteriya hisobi tizimini o‘rnatish orqali ham ma’lum bir maqsadlarga erishish kutiladi. Tashkilot menejment tizimi menejerlar o‘rtasida umumiy tan olinganidek, buxgalteriya hisobining ham maqsadi hamma uchun umumiy hisoblanadi. Biz bu maqsadlarga quyidagilarni kiritamiz:

1. Menejerlarni buxgalteriya axborotlari bilan ta’min etish:

korxona faoliyatini rejalashtirishda zarur axborotlar bilan ta’min etish;

menejment qarorlarini ishlab chiqishda zarur axborotlar bilan ta’min etish;

strategik va taktik qarorlar qabul qilishda, uzoq muddatli rejalar tuzishda axborot bilan ta’min etish;

faoliyat menejmenti va nazorat qilish maqsadida yuz bergan jarayonlar va hodisalar to‘g‘risida oraliq hisobot berish;

korxona faoliyatida yuz bergan hodisa va jarayonlarni (pulli bitimlarni) qayd qilish, to‘plash orqali ushbu jarayonlarning korxonaning ma’lum davrdagi moliyaviy holatiga ta’sirini ko‘rsatuvchi hisobotlarni tayyorlash (moliyaviy hisobotlar);

2. Menejerlarga ko‘maklashish. Moliyaviy menejmentni amalga oshirish.

3. Tashqi foydalanuvchilarni, jumladan sarmoyadorlarni, hukumat idoralari va boshqa tashqi qismlarni moliyaviy hisobot tuzish orqali axborot bilan ta’min etish.

4. Moliyaviy nazorat va tahlil o‘tkazish.

5. Buxgalteriya axborotlari kommunikatsiyasini o‘rnatish.

Hisob muammolarini hal qilishda shu paytgacha ma’lum munozaralarga sabab bo‘lgan va bo‘lib kelayotgan masalalardan biri buxgalteriya hisobi tizimining tarkibiy qismlarini belgilash va ularga tavsif berish bo‘lib hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi tizimi tarkibiy qismlarini belgilash bo‘yicha chet el adabiyotlarida Buxgalteriya hisobi tizimini mustaqil menejmentlik buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobiga ajratish bilan chegaralanadilar. Tannarx (kost) buxgalteriya hisobi esa ikkalasi uchun ham ma’lumot bazasi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlashadi.

Mamlakatimizda ham buxgalteriya hisobi tizimi ikkita tarkibiy qismlarga, ya’ni boshqaruv (menejmentlik) buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobiga ajratilgan.

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarni hamda korxonalar boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi ishtirok etishi masalalarini o‘rganish asosida boshqaruv buxgalteriya hisobiga aniqlik kiritishda uning boshqaruv maqsadlarida pulda o‘lchaniladigan axborotlarni qayd qilish, qayta ishlash va taqdim qilish tizimi bo‘lishi bilan birga boshqaruvda bevosita ishtirok etishi, byudjet (reja)lar tuzishi va **uzviylik asosida bog‘liqlikning (feedback)** vujudga kelishidagi ishtiroki o‘z aksini topishi lozim deb o‘ylaymiz.

Ushbu nazariy asoslarni hisobga olib menejmentlik buxgalteriya hisobini quyidagicha ta’riflaymiz:

Boshqaruv (menejmentlik) buxgalteriya hisobi deganda, biznes faoliyati menejmentida foydalaniladigan ishonchli va haqqoniy bo‘lgan, asosan pulda o‘lchaniladigan va o‘z vaqtida beriladigan axborotlarni qayd qilish, baholash (o‘lchash), klassifikatsiyalash, to‘plash, taqdim qilish, buxgalteriya axborotlari kommunikatsiyasini o‘rnatish va buxgalterlarning boshqaruvda ishtirok etishi, rejalashtirish jarayonlarini qamrab oladigan tizim tushuniladi.

Moliyaviy hisobini tavsiflashda esa uning konseptual qoidalar asosida yuritilishi, buxgalteriya hisobining an’anaviy xususiyatlarini qamrab olishi, asosan moliyaviy holat bilan bog‘liq axborotlarni shakllantirish va ushbu axborotlarning tashqi foydalanuvchilarga mo‘ljallanganligi hamda bu axborotlar moliyaviy hisobotlar ko‘rinishida uzatilishi kabi o‘ziga xos jihatlarini mujassamlantirishi kerak. Ushbu jihatlarni hisobga olib moliyaviy hisobini quyidagicha tariflaymiz:


Moliyaviy hisob deganda, buxgalteriya hisobi birliklarida unga oid qonun, moliyaviy hisobot tamoyillari va standartlari asosida pulda o‘lchaniladigan xo‘jalik operatsiyalari yozuvlarini amalga oshirish, o‘lchash (baholash) va to‘plash orqali ushbu operatsiyalarning sub’ektlar moliyaviy holatiga ta’sirini aniqlash, moliyaviy hisobot davri oxirida moliyaviy holatni aks ettirish va axborotlarni moliyaviy hisobot ko‘rinishida foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimi tushuniladi.

Yaxlit buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etuvchi boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobining tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, bizningcha, ma’lum mazmunda aks ettirish mumkin (2.1-rasm).

Quyidagi keltirilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, quyidagilar boshqaruv buxgalteriya hisobining tarkibiy elementlari bo‘lib, hisoblanishi lozim: strategik rejalashtirish, byudjetlashtirish, ichki audit va qarorlarni qabul qilish.

Moliyaviy hisob tarkibiga esa umumiy buxgalteriya hisobi, soliqlar buxgalteriya hisobi va styuardesli (moliyaviy) hisobot kiritilgan. Tannarx buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejmentning ikkalasiga ham oidligi ko‘rsatilgan.

Bir butun buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etuvchi boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisob o‘rtasida qat’iy chegaralarni belgilash, bizningcha maqsadga muvofiq emas. Faqat, ular ayrim belgilari bo‘yicha bir-biridan farqlanishi mumkin. Chunki, ularning har ikkalasi ham pirovard natijada foydalanuvchilarning axborotlarga bo‘lgan talablarini qondirishga xizmat qiladi.



2.1-rasm. Buxgalteriya hisobi tizimining tarkibiy qismlari

Boshqaruv va moliyaviy hisoblarining har bir elementi o‘zining mohiyatiga ega va ma’lum maqsadlarga xizmat qiladi. Jumladan, strategik rejalashtirish va byudjetlashtirish qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun faoliyatning uzoq va qisqa muddatli rejalarini tayyorlashni qamrab oladi. Tannarx buxgalteriya hisobi mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining shakllanishi, moliyaviy menejment esa optimal moliyalashtirish, asosiy va ishchi kapitalini samarali boshqarish bilan bevosita qiziqadi. Moliyaviy (styuardesli) hisobot moliyaviy hisobining tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy mahsuli hisoblangan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqaruv buxgalteriya hisobi axborotlari ichki qarorlar tayanchi hisoblanadi, ichki audit yordamida birlikning operatsiyalari va boshqaruv faoliyatining adekvatligi va samaradorligi nazorat qilinadi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshqaruv va moliyaviy hisoblarining elementlari bir-biridan ajralgan holda amal qilmaydi, balkim bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi va bir birini to‘ldirib turadi. Tannarx buxgalteriya hisobi (cost accounting) menejmentlik va moliyaviy hisobuchun ham baza bo‘lib xizmat qiladi, strategik rejalashtirish va moliyaviy menejment bevosita tannarx hisobi va moliyaviy hisobotlarning axborotlariga tayanadi. Strategik rejalashtirish, byudjetlashtirish, tannarx hisobi, soliqlar hisobi, moliyaviy menejment, ichki audit va umumiy buxgalteriyaning boshqa ma’lumotlari qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, buxgalteriya hisobi shunday bir tizim bo‘lib shakllanishi kerakki, uning tarkibiy qismlari, ushbu qismlarga kiruvchi elementlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Boshqaruv va moliyaviy hisobining bir-biri bilan aloqalari amaliy jihatdan quyidagilarda yorqin namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, boshqaruv va moliyaviy hisoblari boshqaruv tizimida yagona “kontrollyor” departamenti tarkibiga kirib, top (yuqori pag‘onadagi) menejment hisoblangan moliyaviy menejer orqali boshqariladi.

Ikkinchidan, boshqaruv va moliyaviy hisobbir xil ob’ektlarni, ya’ni pulda o‘lchaniladigan xo‘jalik operatsiyalarini qayd qiladi, to‘playdi, tasniflaydi va axborotlarni taqdim etadi.

Uchinchidan, boshqaruv va moliyaviy hisobtannarx buxgalteriya hisobi axborot bazasiga tayanadi.

To‘rtinchidan, ular o‘rtasida doimiy axborot kommunikatsiyasi mavjud.

Beshinchidan, moliyaviy hisobining tamoyillari boshqaruv buxgalteriya hisobida samarali foydalanishi mumkin bo‘ladi. *Birinchi qarashda* tannarx buxgalteriya hisobi boshqaruv va moliyaviy hisobini bir-biriga bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘lib, u ham menejmentlik buxgalteriya hisobining, ham moliyaviy buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu to‘g‘risida Ch.T.Horngren va G.Fosterlar quyidagi fikrni aytishganlar: “… tannarx buxgalteriya hisobi bu menejmentlik buxgalteriya hisobining bir qismi plyus tannarx buxgalteriya hisobining tashqi hisobot talablarini qoniqtiradigan darajadagi moliyaviy hisobining bir qismidir” [69, 4-bet].

Ikkinchi qarashda, tannarx buxgalteriya hisobi menejmentlik va moliyaviy hisoblari tarkibiga kirmagan holda alohida tizim sifatida qaraladi. Bunda, tannarx buxgalteriya hisobi asosiy ikki tur hisob (moliyaviy va menejmentlik buxgalteriya hisobi) uchun axborot bazasiga aylanadi. Bu borada L.Ye.Heytger va S.Matulich quyidagi aniqlikni kiritishadi: “Tannarx buxgalteriya hisobi – bu tannarxni aniqlash jarayoni bo‘lib, bu moliyaviy va menejment hisobotlari uchun axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Xususiyatli tomoni shundan iborotki, menejment hisobotlaridagi tannarxga oid ma’lumotlar to‘liq detalli bo‘ladi. …Moliyaviy hisobotda esa taalluqli vaqt davridagi faoliyatni aks ettiruvchi tannarx buxgalteriya hisobi ma’lumotlari umumlashtirilgan holda bo‘ladi.



2.2-rasm. Tannarx buxgalteriya hisobi moliyaviy hisobva menejmentlik buxgalteriya hisobining ma’lumot bazasi

Ushbu chizmada tannarx buxgalteriya hisobi moliyaviy hamda menejmentlik buxgalteriya hisoboti uchun ma’lumotni tamin etish bazasi ekanligi ko‘rsatilgan, biroq hisobotning ikki turi turli maqsadlarga qaratilgan. Tannarx buxgalteriya hisobi ma’lumot bazasi moliyaviy va menejmentlik buxgalteriya hisobi faoliyatini qo‘llab quvvatlaydigan ma’lumot fundamenti bo‘lib hisoblanadi.” [68, 6-7-bet].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tannarx buxgalteriya hisobi boshqaruv buxgalteriya hisobi uchun detalli va moliyaviy hisobuchun uning yondashishlari doirasida axborot manbai bo‘lib xizmat qilar ekan.

“Tannarx buxgalteriya hisobi deganda, rejalashtirish, narxlarni belgilash, mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish va kengaytirish, harajatlarni optimallashtirish, xodimlar mehnatini rag‘batlantirish va menejmentning boshqa sohalariga oid qarorlar qabul qilish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar, jarayonlar, faoliyatlar tannarxini tan olish, tasniflash, taqsimlash va baholash asosida haqiqiy tannarxini aniqlash va tahlil qilish tizimga aytiladi.”[25]

Buxgalteriya hisobi tizimida Soliqlar buxgalteriya hisobi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu hisob to‘liq Soliq qonunchiligi, jumladan Soliq Kodeksi asosida yuritiladigan hisob hisoblanadi. Moliyaviy hisobbu umumqabul qilingan prinsiplar asosida yuritiladigan hisob. Ushbu hisobot turi daromad va harajatlarni tan olishda

[25] Ushbu ta’rif tadqiqotchi D.S.Tashnazarova tomondan berilgan

buxgalteriya hisobi standartlariga tayanadi. Lekin, soliq qonunchiligi soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda qonunchilik talablaridan kelib chiqadi. Masalan, korxona binoni ijara berdi. Kelishilgan ijara summasi davlat tomonidan belgilangan minimal qiymatdan past bo‘lgan hollarda qo‘shilgan qiymat solig‘i yoki foyda solig‘ini hisoblashda minimal qiymatlarni asos qilib oladi. Boshqa bir holatda Soliq Kodeksi chegirib tashlanmaydigan harajatlarni belgilagan. Masalan, qonunchilikka muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan, ular mavjud bo‘lmaganda esa, soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo‘qolishi, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan harajatlari, xayriya yordamini amalga oshirish uchun harajatlar, aybdorlari aniqlanmagan talon-toroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarning o‘rnini qoplash imkoni bo‘lmagan taqdirda ko‘rilgan zarar va boshqa harajatlar soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan harajatlar sifatida tan olinadi. Natijada, moliyaviy hisobida foyda solig‘igacha aniqlangan foyda summasi bilan soliq buxgalteriya hisobi bo‘yicha aniqlangan soliqqa tortiladigan foyda summasi o‘rtasida farq yuzaga keladi. Bu farqlar **vaqtinchalik farqlar** deb e’tirof etiladi. Umuman olganda barcha mamlakatlarda soliq qonunchiligi moliyaviy hisobidagi ko‘rsatkichlarga o‘z talablarini qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan soliq qonunchiligi talablarini inobatga oladigan Soliqlar buxgalteriya hisobini yuritishga zaruriyat tug‘iladi.

Soliq Kodeksining 76-moddasida soliq hisobiga va 81-moddasida soliq hisobotiga aniqlik berilgan:

“Soliq solish ob’ektlari va (yoki) soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar to‘g‘risidagi axborotni umumlashtirish hamda tizimlashtirish, shuningdek soliqlarni, yig‘imlarni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini tuzish maqsadida ushbu Kodeks talablariga muvofiq soliq to‘lovchi yoki soliq agenti tomonidan hisob hujjatlarini yuritish **soliq solish maqsadlarida hisobga olish** deb e’tirof etiladi.”

“Soliq to‘lovchining har bir soliq turi yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblarni va soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-

kitoblarga hamda soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan, soliq to‘lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlari **soliq hisobotidir**.”[26]

Soliqlar buxgalteriya hisobiga quyidagicha ta’rifni beramiz:

Soliqlar buxgalteriya hisobi deganda, biznes sub’ektlari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq qonunchiligi talablarini to‘lqonli bajarish, o‘z vaqtida to‘lovlarnini amalga oshirish maqsadida ma’lumotlarni qayd qilish, tan olish, baholash, soliq hisob-kitoblarini yuritish asosida soliqqa tortish bazasini aniqlash hamda soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimiga aytiladi.

Soliqlar buxgalteriya hisobi aktivga egalik qilish, amalga oshiriladigan xatti-harakatlar yoki xo‘jalik faoliyatining boshqa dalilini huquqiy jihatdan, hujjatlar bilan tasdiqlangan dalili mavjudligini belgilash maqsadida yuritiladi. Ushbu dalil va xatti-harakatlar buxgalteriya va tegishincha soliqlar buxgalteriya hisobi hujjatlarida va registrlarida aks ettiriladi.

MHXSlariga asoslangan moliyaviy hisob esa professional fikr-mulohazalarni nazarda tutadi. “Professional fikr-mulohazalar deganda, muayyan sharoitda qaror qabul qilishga imkon yaratuvchi barcha ob’ektiv omillarni kasbiy jihatdan baholash (buxgalter, kompaniya rahbariyati, texnik-muhandis xodimlar, baholovchilar, investitsiya departamenti va boshqa tomonidan) tushuniladi. Masalan, professional baholash uzoq muddatli aktivlarning foydali foydalanish muddatini va qadrsizlanishi alomatlarini aniqlashda, gumonli debitorlik qarzini, diskontlash stavkalarini, sud muhokamasining qanday tus olishini belgilashda zarur bo‘ladi”[27].

Boshqaruv va moliyaviy hisobini ma’lum belgilari bo‘yicha farqlash lozim bo‘ladi. AQSH Buxgalterlar Milliy Assotsiatsiyasi 1972

[26]O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. https://lex.uz/docs/4674902#4676944
[27] Go‘zal Islomova.
https://buxgalter.uz/publish/doc/text166757_soliq_hisobi_qanday_standartlar_bazasida_yuritiladi

yildan e’tiboran menejment va moliyaviy buxgalterlarni (SRA va SMA) sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish jarayonida menejmentlik va moliyaviy hisobo‘rtasidagi farqlarni belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish zaruriyati tug‘ilganligini e’tirof etdi. Ushbu Assotsiatsiya tomonidan quyidagi yettita belgi bo‘yicha menejmentlik va moliyaviy hisobo‘rtasidagi farqlar ochib berilgan [62, 20-bet]. Ushbu farqlar 1.2-jadvalda keltirilgan. Albatta, ushbu jadvalda keltirilgan farqlar jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan. Bugungi kunda ushbu ta’limotlarga va mamlakatimizdagi korxonalarda buxgalteriya hisobining holatiga uyg‘un bo‘lgan farqlarini ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Prof. A.X. Pardayev [55, 4-5 b.] tomonidan ochib berilgan boshqaruv va moliyaviy hisoblarning farqli xususiyatlariga qo‘shilgan holda ta’kidlash lozimki, boshqaruv va moliyaviy hisoblarining elementlari bir biridan ajralgan holda amal qilmaydi, balkim bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi va bir-birini to‘ldirib turadi.

Yuqoridagi boshqaruv va moliyaviy hisobo‘rtasidagi farqlarni izohlovchi fikrlarni o‘rganish asosida, shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, buxgalteriya hisobining qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda, biz boshqaruv va moliyaviy hisobni quyidagi belgilari bo‘yicha farqlashni qayd etamiz (2.1-jadval).

2.1-jadval

Boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisob o‘rtasidagi farqlar

Farqlash Belgilari	**Boshqaruv buxgalteriya hisobi**	**Moliyaviy hisob**
1. Kimga mo‘ljallanganligi	Faqat ichki qaror qabul qiluvchilar	Tashqi va ichki qaror qabul qiluvchilar
2. Hisobot davriyligi	Soat, kunlik, haftalik, o‘n kunlik, oylik, o‘sib boruvchi oylik, choraklik, o‘sib boruvchi choraklik, yillik, bir necha yillik	Choraklik va yillik
3. Hisobot ob’ekti	Mahsulot (ish, xizmat) turi, uchastka (guruh), hudud, sex, va boshqa qismlar	Faqat bir butun buxgalteriya hisobi birligi

4. Konsolidatsiyasi	Konsolidatsiyalanmaydi	Konsolidatsiyalanishi mumkin
5. Vaqt orentatsiyasi	Kelgusi davrlarga oid byudjetlar va haqiqiy bajarilishlarga oid hisobotlar	O‘tgan davrdagi haqiqiy bajarilishlar
6. Audit	Faqat ichki audit	Ichki va tashqi audit tomonidan
7. Nashr qilinishi	Ommaviylashtirilmaydi	Ommaviylashtirilishi mumkin
8. Tamoyil va qoidalarga tayanishi	Biznesga samara keltiradigan va qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va uslublardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi	Umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillariga tayanadi

Boshqaruv buxgalteriya hisobi bilan moliyaviy hisob o‘rtasidagi muhim farq – bu hisob turlarining asosan kimga mo‘ljallanganligidir. Menejmentlik buxgalteriya hisobi faqat ichki qaror qabul qiluvchilar (ichki foydalanuvchilar)ga taqdim qilinadi va bu menejerlarning barcha doirasini qamrab oladi. Ayrim turdagi menejmentlik buxgalteriya hisobi axborotlari hamma doiradagi menejmentlar uchun mo‘ljallanmasdan, ma’lum tor doiradagi menejerlarga mo‘ljallangan bo‘lishi ham mumkin.

Menejmentlik buxgalterlar axborotlarning maxfiyligiga muhim ahamiyatni qaratadilar. Menejmentlik buxgalterlar kompetentlik, maxfiylik, to‘g‘rilik va ob’ektivlik bo‘yicha qator javobgarliklarga egadirlar. Moliyaviy hisobommaviy oshkor etilgan axborotlar tizimini qamrab oladi va asosan o‘z haridorlarini tashqi tomondan topadi. Menejerlar moliyaviy hisobaxborotlaridan moliyaviy holatni tahlil qilishda va yillik natijalarga oid zarur qarorlar qabul qilishda unumli foydalanadilar. Lekin, moliyaviy hisobining harakterli tomoni shundan iboratki, uning axborotlari barcha doiradagi menejerlarni qiziqtirmaydi. U faqat moliyaviy tahlil o‘tkazuvchilar va yuqori pog‘onadagi menejerlarga kerak bo‘ladi. Shu sababli, moliyaviy hisobmenejerlarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini yetarli darajada qondira olmaydi. Moliyaviy buxgalteriya hisobining muhim xususiyati uning asosan tashqi foydalanuvchilarga qaratilganligidadir.

Moliyaviy hisobichki va tashqi axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobotlar (steytmentlar) ko‘rinishida axborotlarni ta’min etadi. Moliyaviy hisobot (steytment)larning foydalanuvchilarga taqdimot qilish jarayoni to‘g‘risida to‘xtalib o‘taylik.

Amerkalik olimlar Kermit D.Larson va Raul B.V.Millerlar moliyaviy steytmentlar harakatini bosqichlarga bo‘ladilar: “Ushbu tizimda moliyaviy hisobotlarga katta ta’sir ko‘rsatadigan uchta jarayonni hisobga olish kerak: hisobotni tayyorlash, audit o‘tkazish va foydalanuvchilarga taqdim qilish.” [42; 23-b.]. Moliyaviy steytmentlar moliyaviy hisobot prinsiplari va standartlari asosida tayyorlangandan so‘ng ijrochi menejmentlar tomonidan ko‘rib chiqiladi va audit o‘tkazilishi bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Audit jarayoni audit standartlariga muvofiq o‘tkaziladi va audit xulosasi olinadi. Audit xulosasida moliyaviy steytmentlar biznes birligining moliyaviy holatini mavjud holda aks ettirishi va u buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tuzilganligi ko‘rsatiladi. Ijobiy audit xulosasini olgan moliyaviy steytmentlar ijrochi menejmentlarga tasdiqlash uchun taqdim qilinadi. Ijochi menejmentlar uni tasdiqlaydilar va boshqa foydalanuvchilarga taqdim qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

Amerkalik olimlar Kermit D. Larson, R.V. Miller tashkilot haqida qaror qabul qiluvchilarni ularni qiziqtiradigan savollar tavsifi bilan izohlaydi. Masalan, mulkdorlarni (sarmoyadorlarni ham o‘z ichiga olgan holda) quyidagi savollar qiziqtirishini qayd qiladi:

- Tashkilot mulki qaysi resurslardan iborat?
- Qarzi nimalardan tashkil topgan?
- Qancha daromad olindi?
- Realizatsiya summasiga muvofiq keladigan harajatlar qanday bo‘lgan?
- Tez yig‘ilishi lozim bo‘lgan haridorlar schyotlari qaysilari?

Kreditorlarni esa quyidagi savollar qiziqtirishi ko‘rsatilgan:

- Tashkilot yuz bergan qarzlarini qanchalik tez to‘lay oladi?
- Joriy qarzlarini to‘lay olish qobiliyati qanday?
- Kelgusida daromad olish istiqbollari qanday?

- Qo‘shimcha kredit taqdim qilish maqsadga muvofiqmi? ” [42; 5-b.].

B. Nidlz va boshqalar buxgalteriya hisobi axborotidan foydalanuvchilarni uch guruhga ajratishadi: “1) Korxonani boshqaruvchilari (menejmentlar); 2) Korxonadan tashqarida bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy qiziqishi mavjud shaxslar (potensial sarmoyadorlar va kreditorlar); 3) Korxonaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy qiziqishi mavjud bo‘lmagan shaxslar (soliq organlari, tartibga soluvi organlar, iqtisodni rejalashtiruvchi organlar va boshqa guruhlar).” [47; 15-b.].

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Tushuntirishlarida keltirilgan Moliyaviy Hisobotni Tayyorlash va Taqdim Qilishning Konsepsiyasida moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga sarmoyadorlar, xodimlar, qarz beruvchilar, ta’minotchilar va boshqa savdo kreditorlari, haridorlar, hukumat organlar, jamoatni [12; 51-52-b.] kiritgan holda, ularning axborot ehtiyojlarini qondirish masalasini quyidagicha tavsiflaydi: “Moliyaviy hisobot orqali barcha axborot ehtiyojlarini qondirish mumkin bo‘lmasada, barcha foydalanuvchilar uchun umumiy bo‘lgan talablar amal qiladi. Nimaga deganda, sarmoyadorlar kompaniya uchun kapital ta’minotchisi hisoblanadi, ularning ehtiyojini qondiradigan axborotlarni ta’min etish moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilarning ham ko‘pchilik ehtiyojlarini qondira oladi” [12; 77-b.].

Yuqorida buxgalteriya hisobi bo‘yicha xalqaro standartlar va chet el adabiyotlarini o‘rganish asosida hozirgi kundagi O‘zbekiston Respublikasida shakllangan moliyaviy hisobotlar axborotidan foydalanuvchilarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin (2.2-jadvalga qarang).

2.2-jadvalda axborot foydalanuvchilarning guruhi, ularning axborotga bo‘lgan qiziqishlari va qabul qiladigan qarorlari mazmuni yunalishlari keltirilgan. Ushbu jadvalda keltirilgan ma’lumotlar moliyaviy hisobotning hamma foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga oligan holda tarkibi va mazmunini shakllantirish imkonini beradi.

2.2-jadval

Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti axborotlaridan foydalanuvchilar guruhi

Axborot foyda-lanuv-chilar guruhi	Kimlar kiradi	Axborot foydalanuvchilarning qiziqishi	Qabul qiladigan qarori
Menejmentlar	Korxona ma'muriyati – direktorlar, direktorlar kengashi, boshqa yuqori toifadagi menejerlar. Korxona yuqori tashkiloti	Korxona menejmentlari moliyaviy xo'jalik faoliyati uchun javobgar hisoblanadi. Ular korxonaning moliyaviy holatini baholaydi.	Moliyaviy holatni yaxshilash, aktivlardan foydalanish, qarzlarni undirib olish, qarzlarni to'lash, foydaning sarmoyaga ta'siri va qo'shimcha sarmoya jalb qilish borasida menejment qarorlarini qabul qiladi
Korxona ta'sischilari	Korxona mulki egalari – sarmoyadorlar	Korxonaning olgan foydasi, joriy qarzlarini qoplay olish darajasi va qo'shimcha sarmoyaga ehtiyoji va korxonaning istiqbollari	Korxonaga qo'shimcha sarmoya kiritish yoki qaytarib olish, foydaning taqsimlanishi, korxonaning keyingi davrda faoliyatini davom ettirishi, menejmentlarning faoliyatiga oid qarorlar qabul qiladi
Kredit beruvchilar	Kredit beruvchi banklar. Kredit beruvchi fondlar. Qaytarib berish sharti bilan moliyalashtiruv-chi sub'ektlar	Korxonaning kafolatlovchi aktivlari, kreditni qaytarib berish imkoniyati, debitorlik va kreditorlik qarzlar holati va undirilish imkoniyati, moliyaviy natijalar, korxonaning biznes istiqbollari	Kredit berish to'g'risidagi qaror, kreditni qaytarib bera olmaslik imkoniyati yuzaga kelganda kreditor sifatida harakat qilish
Aksiyadorlar	Oddiy aksiya egalari. Imtiyozli aksiya egalari	Aksiyadorlar korxonaning biznes faoliyatiga sarmoyalangan mablag'laridan korxona tomonidan qanday foydalanishi, saqlanish kafolatlari, moliyaviy natijalar va dividend hisoblanishi, kelgusidagi istoqbollari	Aksiya sotib olish yoki sarmoyalashni to'xtash to'g'risida qaror

Davlat soliq organi	Davlat soliq inspeksiyasi, Davlat soliq boshqarmalari, Davlat soliq Qo‘mitasi.	Korxona moliyaviy holatini baholash, soliqlar bo‘yicha majburiyatlarini to‘lash qobiliyatini aniqlash, soliq hisob-kitoblari bilan moliyaviy steytmentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish	Byudjetga soliqlarning to‘g‘ri hisoblanganligi, o‘z vaqtida to‘lanishi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish
Hokimiyat va sud organlari	Moliya organlari. Bankrotlik boshqarmasi. Statistika organlari. Iqtisodiyot boshqarmasi. Iqtisodiy sudi. Shahar, tuman, viloyat hokimiyati O‘z.R. Vazirlar Mahkamasi	O‘zining vakolati doirasidagi masalalar bilan qiziqadi	O‘zining vakolati doirasida qarorlar chiqaradi
Boshqa foydalanuvchilar	Korxona ishchilari va xodimlari. Taminotchilar va haridorlar. Ilmiy tadqiqotchilar. Ommoviy axborot vositalari xodimlari	Korxona ishchilari ish joyi va ish xaqining kafolatlanganligi. Ta’minotchilarni to‘lov qobiliyati va haridorlarni korxonaning mahsulotni yetkazib berish qobiliyati . Tadqiqotchilar tadqiqot mavzusi va jurnalistlar o‘z mavzulari doirasida qiziqadi	Ishni davom ettirish yoki ishdan chiqish to‘g‘risidagi qaror, Ta’minotchilar va haridorlar shartnoma tuzish to‘g‘risidagi qaror, Tadqiqotchilar xulosa va takliflar, jurnalistlar esa jurnalistik xulosa beradi.

Buxgalteriya hisobi va uning tarkibiy qismlarining yana bir muhim masalasi bu buxgalteriya hisobi (moliyaviy va menedjment buxgalteriya hisobi) xizmatining tashkil etilishidir.

Yuqoridagi olimlarning buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etilishi bo‘yicha bergan tasnif belgilarini asos qilgan holda buxgalteriya hisobi faoliyatini quyidagi doiralarga ajratish mumkin:

1. Xususiy sektordagi buxgalteriya hisobi;
2. Professional buxgalteriya hisobi xizmati;
3. Davlat (byudjet) va notijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobi;
4. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha ta’lim sohasi.

Buxgalterlar faoliyatini quyidagi 2.3-jadvalda keltiramiz.

2.3-jadval

Buxgalteriya xizmatining faoliyat doiralari

Buxgalterlar faoliyat doirasi	**Buxgalteriya hisobi tizimi**	
	Moliyaviy hisobi	**Menejmentlik buxgalteriya hisobi**
Xususiy sektordagi buxgalteriya hisobi	Moliyaviy steytment (hisobot)larni tayyorlash.	Umumiy buxgalteriya hisobi; Tannarx buxgalteriya hisobi; Rejalashtirish; Ichki audit.
Professional buxgalteriya xizmati	Moliyaviy steytment (hisobot)larni audit qilish. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha audsorsing xizmatlarini amalga oshirish	Menejment maslahati xizmatini amalga oshirish
Davlat va notijorat tashkilotlarda buxgalteriya hisobi	Moliyaviy steytment (hisobot)larni tayyorlash; Standartlar va tavsiyalarni tasdiqlash; Buxgalteriya hisobiga metodologik rahbarlik qilish; Korxonalarga yordam ko‘rsatish.	Umumiy buxgalteriyani yuritish; Tannarx buxgalteriya hisobi; Rejalashtirish; Ichki audit.
Buxgalteriya hisobi bo‘yicha ta’lim sohasi	Buxgalteriya hisobi nazariyasi Moliyaviy hisobi; Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi Banklarda buxgalteriya hisobi Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Menejmentlik buxgalteriya hisobi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati

Hozirgi kunda buxgalterlarning asosiy armiyasi xususiy sektordagi tijorat korxonalarida buxgalteriya hisobi yuritish bilan mashg‘ul bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimizda audit faoliyati professional buxgalteriya xizmati faoliyatini yo‘lga qo‘yishni anglatadi. Buxgalteriya xizmatini yo‘lga qo‘yuvchi firmalar ham o‘z faoliyatlarini rivojlantirib xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil qilish borasida xizmatlar ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda buxgalteriya autsorsing xizmatlari keng rivojlanmoqda.

“**Buxgalteriya autsorsingi** — bu buxgalteriya operatsiyalari uchun javobgarlikni buxgalteriya hisobi bo‘yicha ixtisoslashgan tashqi xizmat ko‘rsatuvchi provayderga o‘tkazish.

Buxgalteriya autsorsingining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1**. Vaqt va boshqa resurslarni tejash.** Kompaniyalar hisob yuritish vazifalarini buxgalteriya mutaxassislariga o‘tkazish orqali o‘zlarining asosiy bizneslariga e’tibor qaratish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

2. **Harajatlarni kamaytirish.** Autsorserlar odatda kompaniyalarga buxgalteriya harajatlarini kamaytirishga imkon beradigan moslashuvchan tariflarni taklif qiladi.

3. **Ekspertiza va tajriba.** Buxgalteriya hisobi bo‘yicha ixtisoslashgan autsorserlar moliyaviy hisobva soliqqa tortish bo‘yicha keng tajriba va bilimlarga ega. Bu kompaniyalarga soliq va statistika hisobotlarini topshirish bo‘yicha keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratadi.

4. **Xavfsizlik va maxfiylik**. Autsors buxgalteriya korxonasi ochilgach, unda ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi bo‘yicha obro‘si ustuvor hisoblanadi. Ular o‘z mijozlarining ma’lumotlarini himoya qilish uchun barcha zarur choralarni ko‘rishadi.”[28]

Buxgalterlarimizning katta qismi davlat korxonalari, muassasalari, byudjet tashkilotlari va notijorat tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatadi. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha ta’lim sohasi ham e’tiborga molik soha hisoblanadi. Ushbu soha xodimlari mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib boradi va bugungi kunda buxgalteriya hisobini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish borasida sermahsul mehnat qilishmoqda.

MHXSlari qo‘llanilishi zamonaviy menejment tizimiga asoslanadi. Zamonaviy menejment tizimi va unda MHXSlariga asoslangan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning tutgan o‘rni masalalariga to‘xtalib o‘taylik.

Ko‘pchilik chet el adabiyotlarida buxgalterlarning boshqaruvda tutgan o‘rni ularning boshqaruv jarayonida ishtirok etishini yoritish

[28] Buxgalteriya autsorsingi biznes uchun samarali yechim bo‘lishi mumkin https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/04/buhexpert/

orqali ochib berilgan. Jumladan, Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olimlar Ch.T.Horngren, G.Foster kompaniya va firmalar menejmentida buxgalterlarning roli masalasini menejmentning uchta, ya'ni chiziqli, staf va funksional vakolatlari mohiyatini ochish orqali quyidagicha yoritib beradi:

"Chiziqli vakolat – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakolatli bo‘ysinish bo‘lib, bunda bevosita pastki bo‘limlar vakolatining yuqorida turgan bo‘limlar vakolatiga bo‘ysinishi. Staf vakolati – bu o‘zaro muloqot bo‘lib, buyruqli boshqarishga asoslanmasdan, xodimlarning pastki, yonidagi va yuqoridagi vakolatlar bilan ish aloqasida bo‘lishi. Funksional vakolat bu – buyruq asosida yonidagi yoki pastki bo‘limlarga o‘zaro hurmat asosida maxsus funksional vazifalarni bajarish uchun beriladi.
….Staf vakolati berilgan departamentlarning prinsipial vazifasi chiziqli departamentlarga tayanch bo‘lish va ularga xizmat ko‘rsatish hisoblanadi"[29].


Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi ko‘pchilik ishlab chiqarish va qurilish kompaniyalari uchun harakterli bo‘lgan menejment vakolatlarining tashkiliy qismiy tuzilishini Buyuk Britaniyadagi "Laing Alarko JV" kompaniyasining O‘zBAT Samarqand Sigaret fabrikasi qurilish loyihasini amalga oshirish bo‘yicha tashkil qilingan "Leng Alarko O‘zbekistan" sho‘‘ba korxonasi misolida ko‘rib o‘taylik (2.3-rasm).

Ushbu rasmda departamentlar tomonidan chiziqli va staf vakolatlarining amalga oshishi ko‘rsatilgan. Moliyaviy ishlar departamenti faoliyati davomida "trishureship" (treasureship) va "kontrollyorship" (controllership) funksiyalarini bajaradi va boshqa departamentlar bilan staf vakolatida aloqada bo‘ladi.

Trishureship kapital sarmoyasi, qisqa muddatli moliyalashtirish, bank va kreditlash, sug‘urta va pul mablag‘lari menejeri bilan bog‘liq

[29]Cost Accounting: A Managerial Emphasis. T. Charles T. Horngren. 1991. 9-10-p

ishlarga javobgar hisoblanadi. Trishurlar asosan operatsiya jarayonidagi muammolardan kelib chiqadigan moliyaviy masalalar bilan qiziqadi.



2.3-rasm. Buyuk Britaniyadagi “Laing Alarko JV” kompaniyasining “Leng Alarko O‘zbekiston” sho‘’ba korxonasi tashkiliy tuzilishi

Kontrollyor, fransuzcha “conptroller” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hisobni yuritish” ma’nosini anglatadi. Kontrollyor bu bevosita menejmentlik va moliyaviy hisobiga javobgar bo‘lgan moliyaviy ijrachi bo‘limdir. O‘z faoliyatida MHXSdan foydalanadi. Buxgalteriya hisobi


departamenti - bu boshqa menejerlarni maxsus xizmatlar, jumladan, rejalashtirish (byudjetlashtirish), variantlar va muqobillarni tahlil qilish, narxlashtirish va qarorlar qabul qilishda maslahat va yordam beruvchi mas'ul bo'lim hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi departamenti chiziqli departamentlardagidek to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish bilan bog'liq vakolatlarni bajarmaydi. Bu departament buxgalteriya hisobini unifikatsiyasini va hisobot metodlarini joriy qilish yo'li bilan kontrollyor orqali top (yuqori pog'anadagi) menejmentga vakil bo'ladi. Amaliyotda kontrollyorlarning kunlik ish faoliyati va ishlab chiqarish menejerlari bilan bo'ladigan kunlik muloqoti ulardan ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish, o'z vaqtida tayyorlash va taqdim qilishni talab etish bilan bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi rasmda kontrollyor departamentining "Leng Alarko O'zbekiston" sho''ba korxonasi misolida boshqaruv buxgalteriya hisobining amaliyotdagi elementlari tannarx buxgalteriya hisobi, byudjet va bajarilishlarni nazorat qilish, ichki audit tarkibi keltirilgan.

Moliyaviy hisob"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va milliy standartlarda ko'zda tutilgan prinsiplar asosida tashkil qilinadi. Kompaniya tannarx buxgalteriya hisobi, personal, ta'minot va qurilish jarayoni, bajarilgan ishlarni buyurtmachiga topshirish departamentlari bilan staf muloqotida bo'ladi. Boshqa chiziqli va staf departamentlar buxgalteriya hisobi protsedurasi va siyosatiga muvofiq hisobot beradilar. Masalan, *personal departamenti* ishchi va xodimlar, ularning ish soatlari va ish haqlarining hisobini yuritadi va buxgalteriya hisobi departamentiga hisobot berib turadi. Personal departamenti xodimlar bilan bog'liq barcha ishlarga mas'ul bo'lim hisoblanadi. Bizning amaliyotimizda ish haqini buxgalterlar hisoblaydilar. Chet el kompaniyalari amaliyotida esa personal bilan bog'liq barcha jarayonlarni, shu jumladan, ish haqini hisoblashni mutaxassislashgan personal departamenti bajaradi. Bu esa uning nufuzini yanada oshiradi.

Boshqaruvda buxgalteriya hisobi ishtirokini menejmentning quyidagi umume'tirof etilgan to'rtta o'zaro bog'liq va ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlarida aniqlash lozim (2.4-rasm):



2.4-rasm. Menejment faoliyati va unda buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimining ishtiroki[30]

1. Tashkilotning eng umumiy va maxsus maqsadlarini belgilash;
2. Maqsadlarga erishish uchun rejalar ishlab chiqish (byudjetlar);
3. Harakat (amalga oshirish);
4. Bajarilishlarni baholash.

Tashkilotning umumiy va maxsus maqsadlari menejerlar tomonidan belgilangandan so‘ng, maqsadlarga erishish uchun rejalar ishlab chiqiladi.

Biznes rejalari u yoki bu turdagi tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish (bajarish, ko‘rsatish) uchun talab etiladigan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojlar, ishlab chiqarish, sotish va kutilayotgan moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi byudjet loyihalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu loyihalar tuzilayotganida buxgalteriya hisobi

[30]Charles T. Horngren, George Foster. Cost accounting. Prentice-Hall International, Inc. 1991. 5-betdagi rasm qayta ishlandi.

axborotlaridan foydalaniladi va buxgalter-menejerlar ishtiroki talab qilinadi. Lekin, moliyaviy axborotlarni mujassamlantiruvchi ko‘pgina loyihalar, jumladan, pul oqimlari byudjeti, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot loyihasi, buxgalteriya balansi loyihalari bevosita buxgalterlar tomonidan tuziladi.

Demak, biznes faoliyati rejalashtirilayotganda buxgalterlarning uch ko‘rinishdagi ishtirokini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir: 1) biznes rejalari tuzishda buxgalteriya axborotlari ta’min etiladi; 2) buxgalter-menejerlar biznes-rejalarini ishlab chiqishda boshqa menejerlar qatori ishtirok etadi; 3) ayrim moliyaviy axborotlarga taalluqli loyihalar bevosita buxgalterlar tomonidan tayyorlanadi.

Mukammal rejalar ishlab chiqilgandan so‘ng, faoliyatga jalb qilingan mablag‘larning harakati amalga oshiriladi. Rejadagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish) uchun moddiy, moliyaviy va mehnat sarflari yuz beradi va natijada ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy natijalar shakllana boradi. Harakat jarayonining yuz berishi erishilgan bajarilishlarni o‘lchash va baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Haqiqatdagi harakat (amalga oshirilish) va bajarilishlarni baholash natijalari boshqaruv (menejmentlik) hamda moliyaviy hisobva hisoboti uchun ob’ekt sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, buxgalteriya hisobi schyotlari va registrlarida qayd etiladi, bajarilishlar hisoboti tuziladi va menejerlarga taqdim etiladi. Menejerlar haqiqatda erishilgan natijalarning byudjetlarga muvofiqligini nazorat qilib boradi. Agarda jiddiy farq vujudga kelsa, byudjetlarga o‘zgartirishlar kiritish masalasi o‘rtaga qo‘yiladi va bu o‘zgartirishlar menejerlar tomonidan qabul qilinsa, keyingi nazorat faoliyatida ushbu o‘zgartirishlar asosidagi byudjet loyihalaridan foydalaniladi. Harakatlar (amalga oshirilish) va bajarilishni baholash jarayonidagi hisobga olingan ma’lumotlarni menejerlarga yetkazilishi **“qaytarma bog‘liqlik” (fadback)**ni yuzaga keltiradi. Buni uzviylik asosida bog‘liqlik deb ham tavsiflash mumkin.

Buxgalteriya hisobining yana bir muhim jihati biznes birliklari konseptiga amal qilishidir.


Xalqaro amaliyotda buxgalteriya maqsadlaridagi birliklar deganda, mulkdorlar, kreditorlar, ishchilar, haridorlar va boshqa xo‘jaliklardan mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatadigan biznes sub’ektlari tushuniladi. Biznes sub’ektlarining mustaqil ravishda faoliyat yuritishi biznes birliklari konsepti deb ataladi.

Ushbu konseptga muvofiq biznes birliklarida buxgalteriya hisobini yuritishda ularning faoliyati boshqa sub’ektlar faoliyati va mulkdorlarning shaxsiy moliyaviy faoliyatlaridan mustaqil bo‘lishi kerak.

Amerikalik olimlar R.H.Hermanson, J.D.Yedvards va boshqalar biznes birliklari konseptining qo‘llanilishi doirasini quyidagicha tavsiflaydilar: “Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, biznes birliklari konsepti biznesning uchta shaklida uyg‘unlashgan - yakka mulkdorlik, o‘rtoqlik va korporatsiya. Buxgalteriya hisobi maqsadlarida barcha uchta biznes shakli boshqa biznes birliklaridan va mulkdorlarning o‘z shaxsiy faoliyatidan ajratilgan. Qonun jihatdan qaraydigan bo‘lsak, faqat korporatsiyalarda mulkdorning shaxsiy faoliyati biznes faoliyatidan qonuniy ajratilgan, u xususiy mulkdorlik va o‘rtoqlikda chegaralanmagan.” [41,16-bet]. Bundan ko‘rinib turibdiki, demak, buxgalteriya hisobini tashkil etishda uning birliklari va unga asos bo‘ladigan mezonlarni belgilash muhimdir.

Bozor munosabatlari sharoitida buxgalteriya hisobi birliklarini quyidagicha tasniflash mumkin (2.5-rasm).

Quyidagi rasmda qonunchilikda ko‘zda tutilgan turlariga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: biznes birliklari va notijorat birliklar. Biznes birliklari konseptiga muvofiq buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun tadbirkorlik faoliyatini quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) xususiy korxona; 2) xo‘jalik o‘rtoqliklari va jamiyatlari; 3) aksiyadorlik jamiyatlari; 4) ishlab chiqarish kooperativlari; 5) unitar korxonalar; 6) doimiy muassasalar.



2.5-rasm. Buxgalteriya xisobining birliklari turlari

Ushbu rasmda buxgalteriya hisobi birliklari korxonalarning amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan turlariga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: biznes birliklari va notijorat birliklar. Biznes birliklari konseptiga muvofiq buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun tadbirkorlik faoliyatini quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) xususiy korxona; 2) xo‘jalik o‘rtoqliklari va jamiyatlari; 3) aksiyadorlik jamiyatlari; 4) ishlab chiqarish kooperativlari; 5) unitar korxonalar; 6) doimiy muassasalar.

Hozirgi zamon iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida **buxgalteriya hisobi biznes tili deb yuritiladi.** Ishbilarmon dunyoda buxgalteriya hisobi tashkilotlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarni yuritadi, pul ko‘chirmalarini amalga oshiradi, soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar

aniqlanadi, eksport-import operatsiyalari natijalari yuzaga keladi, xodimlarni mehnatiga mutonosib rag‘batlantirish natijalarini amalga oshiradi. Biznes buxgalteriya hisobi tilida gapiradi. Shuning uchun buxgalteriya hisobining atama va tushunchalaridan menejerlar, mulkdorlar, investorlar, bankirlar, huquqshunoslar, buxgalterlar – tadbirkorlik hayotiga u yoki bu tarzda jalb qilingan har kishi foydalanadi. Masalan, bugungi kunda “daromad”, “harajat”, “tushum”, “foyda”, “zarar”, “mablag‘”, “kapital”, “qarzdorlik”, “balans”, “pul”, “bankdagi pul mablag‘lari”, “to‘lov topshiriqnomasi”, “rentabellik”, “tannarx”, “tovar”, “soliqlar”, “aktivlar”, “passivlar”, “majburiyatlar”, “xususiy kapital”, “shartnoma”, “debet”, “kredit”, “buxgalteriya schyotlari”, “ikkiyoqlama yozuv”, “hisobot” va boshqa atamalar nafaqat yirik va o‘rta tadbirkorlar, balkim oilaviy tadbirkorligimizda ham keng foydalanilmoqda. Zero, yirik rus olimi Ya.V.Sokolov ta’kidlaganidek, “Buxgalteriya hisobi – bu haqiqiy ob’ektlarni ularning belgilari bilan almashtirish uchun yaratilgan hamda iqtisodiy faoliyat va ularning natijalarini tavsiflash imkonni beradigan, shuningdek ulardan foydalanish qoidalarining tili.”[31]

Buxgalteriya hisobotlari korxonaning moliyaviy holatini raqamlar tilida ko‘rsatadi. Ularning ma’lumotlari kompaniyaning faoliyati foydali yoki yo‘qligini, uning ishlab chiqarish va sotish siyosati samarali yoki samarasiz ekanligini va faoliyatni kengaytirish zarurligini tushunishga imkon beradi.

Buxgalteriya hisobi bugungi kunda faqat raqamlarni yozuvini amalga oshiradigan tizim deb tushunadigan bo‘lsak, bu noto‘g‘ri bo‘ladi. Buxgalteriya hisobi raqamlarni oddiy qayd qilish yoki ularni tizimga kiritish bilan chegaralanmasdan, ushbu yozuvlar nimaga mo‘ljallanganligi, ularning interpritatsiyasi va tahlili, boshqaruv qarorlari loyihalari, rejalashtirish, prognozlashtirish kabi muhim ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishini alohida ta’kidlash lozim. Inretnetdagi manbalarda “haqiqiy buxgalter nafaqat bog‘dorchilik kooperativida hisobchi, balki har qanday korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun

[31] Sokolov Ya.V. Osnovi teorii buxgalterskogo ucheta. M.: Finansi i statistika, 2003, 496 s., 13-b.

tajriba va professionallik zarur bo‘lgan usto va sehrgar, taniqli kordinaldir”[32] deb tavsiflagani ham o‘rinli deb hisoblaymiz.

Shu bois, ushbu biznes tilini o‘rganish ma’lum tajribalarni talab etadi. Bu mulkdorlar, menejerlar va boshqa axborot foydlanuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Moliyaviy hisobning mustaqil fan sifatida predmeti va metodi

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, moliyaviy hisobbutun bir buxgalteriya hisobining tizimidir. **Moliyaviy hisob tizim sifatida** harakterli xususiyatlarini quyidagi omillar belgilashini ta’kidlashimiz lozim:

1) Moliyaviy hisob an’anaviy protsedurasiga rioya qiladi;

2) Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Qonun, moliyaviy hisobot konseptual asoslari va standartlari talablariga to‘liq rioya qiladi;

3) Axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot (steytment) taqdim etadi;

4) Menejment tizimining boshqa quyi tizimlari bilan mustahkam staf aloqada bo‘ladi;

5) Mustaqil fan tarmog‘i sifatida shakllangan.

Moliyaviy hisobining muhim xususiyatlaridan biri uning Qonunga tayanishi, konseptual asoslarining mavjudligi, moliyaviy hisobot prinsiplari va buxgalteriya hisobi standartlariga va boshqa qonuniy talablarga rioya qilinishi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi milliy tizimining shakllanishida Qonunlar tizimi muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy hisobining maqsadga va birliklarga ega ekanligi, predmet (ob’ekt)lari mavjudligi, konseptual asoslar va prinsiplarga tayanishi, o‘ziga xos usul va uslublarni qo‘llashi, tasdiqlangan protsedurasiga rioya qilishi, natija o‘laroq moliyaviy steytment (hisobot)lar tuzilishi va o‘z haridorlariga, ya’ni axborot foydalanuvchilariga egaligi uning fan sifatida shakllanishiga to‘liq asos bo‘ladi.

Moliyaviy hisobasosan moliyaviy holat bilan bog‘liq jarayonlar bilan ish tutadi. Shu bois, moliyaviy hisobining ob’ektlari sifatida

[32]https://dzen.ru/b/ZK3Ly2IKmhWnpi1A?experiment=948512

moliyaviy holatni aniqlashda ishtirok etadigan elementlarni olish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning konseptual asoslarida moliyaviy holatni aniqlashda quyidagi elementlar ko‘rsatilgan: 1) Aktivlar, 2) Majburiyatlar, 3) Xususiy kapital, 4) Rezervlar, 5) Daromadlar, 6) Harajatlar, 7) Moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar).

Moliyaviy buxgalteriya hisobining predmetiga quyidagicha ta’rif beramiz:

Moliyaviy hisobning predmeti deb, u o‘rganadigan ob’ektlarga aytiladi. Bu ob’ektlarga aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va harajatlar, yakuniy moliyaviy natijalar hamda ularning o‘zgarishiga olib keladigan biznes operatsiyalari kiradi.

Moliyaviy hisobining ob’ektlarga moliyaviy hisobotning elementlari hisoblangan tushumlarni tan olish, ijara, pul mablag‘lari, rezervlar, baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar, shartli aktivlar, valyuta kursi o‘zgarishi, xodimlarni rag‘batlantirish, adolatli qiymatda baholash, zaxiralar, qurilish shartnomalari, bino, mashina va asbob-uskunalar, biologik aktivlar, aktivlarning qadrsizlanishi, nomoddiy aktivlar va gudvil, operatsion segmentlar, bog‘liq tomonlar, davlat subsidiyalari va davlat yordamlari, qarzlar bo‘yicha harajatlar, qishloq xo‘jaligi, aksiyalardan foydalanib amalga oshirilgan to‘lovlar, razvedka va mineral resurslarni baholash, foyda solig‘i, aksiyaga foyda, moliyaviy instrumentlar, korxonalarning birlashishi, hisob siyosati va buxgalteriya baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar, oraliq moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot konsolidatsiyasi, inflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot, kichik va o‘rta biznesda moliyaviy hisobot va boshqa ob’ektlarni kiritish mumkin.

Moliyaviy hisobining muhim masalalaridan biri bu moliyaviy hisobotni taqdim etish, hisob siyosati, konseptual asoslari masalalari bo‘lib hisoblanadi. Bularga pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot, oraliq moliyaviy hisobot, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot, korxonalar

birlashganda va qo‘shilganda moliyaviy hisobot, segmentar moliyaviy hisobot, qo‘shma faoliyatda moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik masalalarini kiritishimiz mumkin. Bularning har biri alohida moliyaviy hisobida o‘rganiladigan ob’ektlar hisoblanadi.

Biz moliyaviy hisobni fan sifatida shakllanishiga asos bo‘ladigan omillarni 2.4-jadvalda umumlashtiramiz.

2.4- jadval

Moliyaviy hisobfan sifatida shakllanishiga asoslar

Asoslar	Tavsifi
Maqsadi	Axborot foydalanuvchilarni qarorlar qabul qilishlari uchun hisob sub’ektlari moliyaviy holati, uning operatsiyalar ta’sirida o‘zgarishi, pul mablag‘larining holati va harakati hamda daromad va harajatlari to‘g‘risida axborot bilan ta’minlash
Hisob sub’ektlari	Xususiy korxonalar, “sherikchilik jamiyatlari”, aksiyadorlik jamiyatlari, yirik korporatsiyalar, ishlab chiqarish kooperativi va unitar davlat korxonalari, banklar va kredit tashkilotlari, byudjet tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari
Predmeti va ob’ekti	Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va harajatlar, foyda va zararlar hamda moliyaviy-iqtisodiy hodisalar (jarayonlar)
Qoidalar va prinsiplari	Asosiy fundamental qoida: faoliyatning uzluksizligi, doimiylik va hisoblash; Fundamental sifat tavsifi: uyg‘unlik, haqqoniy va ob’ektiv taqdim etish. Axborotlarning foydaligini oshiruvchi sifat tavsifi: tushunarlilik, taqqoslanuvchanlik, tekshiruvga oidlik, o‘zvaqtidalik
Metodi (usul va uslublari)	Ob’ektlarni tan olish, baholash, axborotlarga ishlov berish, guruhlash hamda uzatishda qo‘llaniladigan usul va uslublar majmuasi
Protsedurasi hamda sikli	Pulda o‘lchaniladigan iqtisodiy hodisalarni tan olish, identifikatsiyalash, o‘lchab baholash, qayta ishlash, moliyaviy hisobotlar tuzish va taqdim qilishda bajariladigan buxgalteriya harakatlarining eng samarali mantiqiy ketma-ketligi
Buxgalteriya hisobi jarayoni mahsuli (moliyaviy hisobot)	Moliyaviy hisobotlar buxgalteriya jarayoni natijasining mahsuli hisoblanadi. Ularga moliyaviy holat to‘g‘risidagi, foyda va zararlar va boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi, pul oqimlari haqidagi, xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotlar hamda izohlar, hisob siyosati va tushuntirishlar kiradi

Axborot foydalanuv-chilari	Korxona menejerlari; mulkdorlar, potensial investorlar va kreditorlar; qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlari (soliq va statistika organlari); boshqa axborot foydalanuvchilar

Moliyaviy hisobning asosiy ob’ektlari bo‘lib qo‘yidagilar hisoblanadi:

• **Korxona va tashkilotlarda yuz bergan iqtisodiy hodisalar, operatsiyalar, jarayonlar va ularga oid bajarilishlar**. Korxona faoliyatida ko‘plab operatsiyalar, jarayonlar va bajarilishlar yuz beradi. Moliyaviy hisobushbu hodisalarni qayd qiladi, yozuvlarini amalga oshiradi, ishlov beradi, tahlil va interpretatsiya qiladi, bajarilishlarga oid hisobotlar tuzadi va menejerlarga uzatadi.

• **Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxi.** Mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxi alohida ob’ekt sifatida tasniflanishi lozim. Ushbu ob’ektlarni hisobga olish uchun moliyaviy hisobining ma’lumot bazasi hisoblangan hamda boshqaruv buxgalteriya hisobi tarkibida qaraladigan tannarx buxgalteriya hisobi shug‘ullanadi. Tannarx buxgalteriya hisobining bosh maqsadi mahsulot birligi tannarxini hisoblashdir;

• **Alohida faoliyat turlari.** Kompaniyaning asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyatlarini kiritish mumkin. Kompaniyaning operatsion foaoliyati (ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo faoliyati), moliyaviy faoliyati, investitsiyaviy faoliyat va boshqa faoliyati buxgalteriya hisobining asosiy ob’eklaridan hisoblanadi;

• **Ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlarning turlari**. Masalan, kompaniya 10 ta turdagi mahsulot ishlab chiqarsa, 10 ta ob’ekt sifatida qaraladi. Ularning tannarxidan tashqari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi, tayyor mahsulotlarni turlari bo‘yicha umumiy hamda hududlar kesimida sotish hajmi, ko‘rsatilayotgan xizmatlar, bajarilgan ishlar sotish hajmlari muhim ob’ektlar sanaladi.

• **Standartlar, me’yorlar va normativlar hamda ulardan chetlanishlar**. Korxona faoliyati davomida ko‘plab standartlardan, masalan, standart tannarxi, me’yorlar va normativlar, masalan, normativ mehnat, me’yorida tabiiy kamayishi va boshqa ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin. Standartlar va normativlarni umumiy normativlar va

korxonalarning o‘zi tomonidan ishlab chiqqan normativlarga ajratish mumkin.

- **Ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, mahsulot dizaynini takomillashtirish, innovatsiyalar, axborot texnologiyalari mahsulotlari**. Zamonaviy kompaniyalar ushbu faoliyatlarining holatini doimiy tahlil qilib borishi lozim. Uning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan innovatsion ishlanmalariga, ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Innovatsiya qilmagan kompaniyaning kelajagi yo‘q.

Korxonalarda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar an’anaviy tarzda ta’minot jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni va sotish jarayoniga ajratish mumkin.

Ta’minot jarayoni murabbab jarayon bo‘lib, uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va sotish jarayonini uzluksiz ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xom-ashyo, resurslar hamda buyumlar bilan ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Zaxiralar optimal miqdorda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Agarda zaxiralar optimal miqdordan ortiq bo‘lsa, ularni saqlash harajatlari ortib ketadi. Agarda optimal miqdordan kam bo‘lsa, u holda ishlab chiqarishni uzluksiz ta’minlashdagi xatarlar oshishi mumkin. TMZlarni qayerdan olish kerak, qancha miqdorda olish, bitta buyurtmaning optimal miqdori qancha bo‘lishi kerak, qancha marta buyurtma qilish kerak kabi masalalar ta’minot jarayonining muhim masalalari hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida jarayonli va buyurtmali kosting jarayoni amalga oshiriladi. Kostingni asosiy maqsadi mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini to‘g‘ri hisoblash bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi qabul qilinayotgan qarorlar, jumladan ishlab chiqarishni to‘xtatish yoki davom ettirish yoki hajmini oshirish borasidagi qarorlarni qabul qilishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotish jarayoni yuqoridagi ikkita jarayonning natijasini belgilab beradi. Sotish jarayoni moliyaviy natijalarini to‘g‘ri aniqlash, amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini belgilashning asosiy yakunlovchi bosqichi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobfanining metodi ushbu ob’ektlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan usul va uslublar majmuasidir.

Fan o‘z ob’ektlarini o‘rganishda tizimli yondashuv, tizimli tahlil va iqtisodiy matematik usullaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Moliyaviy hisobida ob’ektlarni o‘rganishda konsepsiya va prinsiplarga tayanilishi tan olingan.

Fanning metodologik asoslari deganda, shu fanning predmetini o‘rganishda qo‘llaniladigan ta’limot, yondashuvlar, metodlar va prinsiplarning majmuasiga tushuniladi.

Moliyaviy hisobning metodi – uning predmetini tashkil etuvchi ob’ektlarini qayd qilish, baholash, guruhlash, ishlov berish, identifikatsiya qilish, hisobotlarni tayyorlash, tahlil qilish, uzatish va axborotlarni saqlashda qo‘llaniladigan yondashuvlar, tizimlar hamda metod va usullarning yig‘indisidan iborat.

Moliyaviy hisobida qo‘llaniladigan metod va usullarni tasnifini quyidagi jadvalda keltirishimiz mumkin (2.5-jadval).

2.5-jadval

Moliyaviy hisobda qo‘llaniladigan metod va usullar

Qo‘llanilish jabhasi	Metod va usullarning nomi
Umumtan olingan bilishning falsafiy kategoriyalari hamda metodlari	Tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, makon va zamon, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor va sifat, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, tadqiqot ob’ektlarini o‘zaro bog‘liqlikda va taraqqiyotda deb qarash
Iqtisodiy operatsiyalar, jarayonlar va bajarilishlarni tan olish, qayd qilish, tasniflash, guruhlashda qo‘llaniladigan usullar	Tan olish mezonlari asosida identifikatsiya qilish, operatsiyalarni yuz bergan sanasida qayd qilish uchun hujjatlashtirish, hujjatlarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra jurnal va kitoblarda qayd qilish, iqtisodiy operatsiyalarni ma’lum bir mezonlari va belgilari asosida tasniflash, ob’ektlar to‘g‘risida foydali axborotlar tayyorlash uchun ularni tashkil etuvchi elementlariga guruhlash
Buxgalteriya hisobining an’anaviy metodi elementlari	Hujjatlashtirish, buxgalteriya schyotlari, ikkiyoqlama yozuv, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya (tannarxni aniqlash), buxgalteriya balansi, buxgalteriya hisoboti
Baholash yondashuvlari, tizimlari va umume’tirof etilgan usullari	Bozor yondashuvi, daromadli yondashuv, tannarx yondashuvi, hisoblash metodi, boshlang‘ich (dastlabki) qiymat, tannarxi bo‘yicha aks ettirish, haqiqiy harajatlar

	usuli, adolatli (bozor) qiymati, sotishga qobiliyatli qiymat, balans (qoldiq) qiymati, sotish narxi, chakana narx metodi, ekvivalent miqdori tannarxi metodi, amortizatsiyalanadigan qiymati metodi, eng kichik qiymatda baholash usuli, realizatsiyaning bo‘lishi mumkin bo‘lgan sof qiymati metodi, operatsiya narxi, kutilayotgan qiymat metodi, eng ehtimolli qiymat metodi, bajarilgan ishlar metodi, amalga oshirilgan harajatlar metodi, fikslashgan bahodagi shartnoma, harajat plyus shartnomasi, foizlarning samarali stavkasi metodi, maxsus identifikatsiyalash metodi, FIFO, o‘rtacha salmoqli, LIFO, NIFO, davriy tizim usuli, uzluksiz tizim usuli, zaxiralarning optimal miqdorini aniqlash usuli, davomiy baholash usullari, likvidatsion qiymat, bir maromda taqsimlash usuli, ishlab chiqarilgan miqdor, sum-raqam usuli, qoldiqni kamaytirish usuli, haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisob modeli, qayta baholangan qiymat bo‘yicha hisob modeli, qoplanadigan qiymatni baholash, investitsiyalarni hissali qatnashish metodi asosida baholash, olinadigan schyotlarni sof qiymatda aks ettirish usuli
Buxgalteriya hisobida ma’lumotlarga ishlov berish, ma’lumotlarning realligini tekshirish, hisobotlarni tuzishda qo‘llaniladigan an’anaviy (umume’tirof etilgan) usullari	Buxgalteriya schyotlari, ikkiyoqlama yozuv, jurnallashtirish, bosh kitob, hisob shakllari, hujjatlar va hujjatlar aylanishi tizimi, dasturiy ta’minot, dasturiy ta’minotning mobil ilovasi, hisob siyosati, ishchi schyotlar rejasi, inventarizatsiya, pul oqimlari hisobotini bevosita va bilvosita usullari, buxgalteriya balansini vertikal va gorizantal usullarda tuzish, transformatsion treyl balans, transformatsiya formulalari, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot usullari, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni harajatlarning xususiyati bo‘yicha va harajatlarning mo‘ljallanganligi bo‘yicha tuzish usullari
Iqtisodiy tahlil, statistika, iqtisodiy matematik metodlar	Detallashtirish, tizimlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash (solishtirish) metodi, tanlash va statistik kuzatish, mutloq miqdorlar, nisbiy miqdorlar, guruhlash, tanlab kuzatish metodi, indeks metodi, o‘rtacha salmoqli usul, grafika metodi, ehtimollik, prognozlashtirish usullari, muvozanat usuli, qayta hisoblash metodi, farqlash usuli, zanjirli almashtirish metodi, integral usul, farqli va nisbiy ko‘rsatkichlar usullari, teng taqsimlash usuli, regressiya va korrelyatsiya usullari, dinamik qatorlar, diskriminant va kovariatsion tahlil, sinergetik samara usuli, klaster tahlili, matematik dasturlash, monografik kuzatuv, SWOT tahlili, modellashtirish, matematik algoritmlar, diagrammalashtirish, eng kichik kvadrat metodi, funksional qiymat tahlili, internetdan foydalanish

Marketing va menejment va boshqa iqtisodiy fanlardagi metod va usullar	Anketa so‘rovnomalarini o‘tkazish, kuzatish, test o‘tkazish, axborot metodlari, ma’muriy-boshqaruv metodlari, iqtisodiy metodlar, sotsial-psixologik metodlar, eksperiment o‘tkazish, raqobat, reglamentlashtirish, tavsiyalar taqdim etish, shaxsiy o‘rnak va tashabbus ko‘rsatish, ishontirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar taqdim etish

Jadvalda keltirilgan metodlar va usullar korxonalar boshqaruv hisobining integrallashgan tizimida turli maqsadlarda qo‘llaniladi. Chunonchi, buxgalteriya hisobi metodini tashkil qiluvchi barcha usullar javobgarlik markazlarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, ularning natijalarini aniqlash, baholash, ular to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, guruhlash, jamlash va boshqaruvchilarga yetkazishda foydalaniladi.

2.3. Moliyaviy hisob sikli va transformatsion jadval

Moliyaviy hisobining muhim jihatlaridan biri uning protsedurasi mavjudligidir. Moliyaviy hisobning samarali protsedurasiga uning sikli deb ataladi.

Moliyaviy hisob va hisobotining an’anaviy protsedurasi deganda, pulda o‘lchaniladigan iqtisodiy operatsiyalarni, hodisalarni o‘lchash, baholash, yozuvlarni amalga oshirish va hisobotlar (steytmentlar) taqdim qilishning eng samara beradigan ketma-ketligi tushuniladi. Moliyaviy hisob protsedurasi bo‘yicha yagona va eng mukammal hisoblangan tizim qabul qilinmagan.

Moliyaviy hisob va hisoboti jarayonini quyidagi to‘rtta bosqichga ajratamiz:

1. Ma’lumotlarni o‘lchash.
2. Ma’lumotlarni qayta ishlash.
3. Hisobotlar tuzish.
4. Kelgusi hisobot davriga tayyorgarlik.

Ma’lumotlarni o‘lchash - bu boshlang‘ich jarayon bo‘lib, bunda iqtisodiy hodisalar kuzatiladi, identifikatsiyalanadi va o‘lchab baholanadi. Iqtisodiy hodisalarga pulda o‘lchaniladigan biznes operatsiyalari va boshqa hodisalar kiradi. Korxona faoliyati davomida

turli mazmundagi biznes operatsiyalari yuz beradi. Ularni tashqi va ichki operatsiyalarga ajratish mumkin. Tashqi operatsiyalar korxonaning kishilar va tashqi tashkilotlar bilan munosabatlari natijasida yuzaga keladi. Bularga xom-ashyo sotib olish, mahsulot sotish, ish haqi hisoblash va to‘lash, soliq majburiyati va boshqa operatsiyalarni kiritish mumkin. Ichki operatsiyalarga misol tariqasida moddiy boyliklarning ichki harakati, ishlab chiqarish jarayoni, amortizatsiya hisobi, valyuta ayirboshlanishi, kurs farqi va boshqa operatsiyalarni keltirish o‘rinli. Ushbu bosqichda iqtisodiy hodisalar dastavval guruhlanib identifikatsiyalanadi, so‘ngra pulda o‘lchanilib hujjatlashtiriladi va natijada ma’lumot bazasi vujudga keladi. O‘lchab baholash va hujjatlashtirish juda e’tiborli bo‘lishni va barcha ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olishni talab qiladi. Bu ish bilan faqat buxgalterlar mashg‘ul bo‘lmasdan, balki butun shu jarayon bilan bog‘liq personal jalb qilinadi. Bu bosqichning sifatliligi keyingi bosqichlarga bevosita ta’sir etadi va keyingi bosqichlar ish samarasini belgilab beradi.

Qayta ishlash bosqichida pulda o‘lchab baholangan ma’lumotlar yozuvi amalga oshiriladi, klassifikatsiyalanadi va to‘planiladi. Buxgalteriya yozuvlari jurnallarga yoziladi va so‘ngra klassifikatsiyalash maqsadida jurnallarda to‘plangan yozuvlar buxgalteriya schyotlari bo‘yicha ochilgan bosh registrga (bosh kitobga) o‘tkaziladi. Buxgalteriya schyotlari pulda o‘lchaniladigan iqtisodiy hodisalarni klassifikatsiya qilish va kompaniyalar moliyaviy steytmentlarini tuzishda muhim vosita hisoblanadi. Buxgalteriya schyotlarini moliyaviy steytmentlar mazmuni monandligiga qarab aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va harajatlarni aks ettiruvchi schyotlarga bo‘lish mumkin. Buxgalteriya schyotlariga yozuvlar ikkiyoqlama buxgalteriya hisobi tizimi orqali amalga oshiriladi va bu schyotlarning debetiga yozilgan summalarning schyotlar kreditiga yozilgan summalarga tengligini ta’min etib turadi. Bosh kitobdagi schyotlar qoldig‘i asosida **transformatsiyalangan treyl balans (adjusted trial balance)** tuziladi. Bu bizning amaliyotimizda sintetik schyotlar bo‘yicha oborot vedomostiga o‘xshaydi. Bizning fikrimizcha,

dunyodagi ilg‘or buxgalteriya hisobi jarayoni tajribasidan kelib chiqib, treyl balans tuzish amaliyotiga o‘tishimiz kerak.

Tranformatsion treyl balans tuzish bir nechta bosqichlarda ketmaket amalga oshiriladi.Ularni quyidagi beshta bosqichga ajratish mumkin:

- **Birinchi bosqich.** Bosh kitobdagi schyotlar qoldig‘i asosida boshlang‘ich treyl balans tuziladi. Bunda schyotlarning jami debet qoldig‘i schyotlarning jami kredit qoldig‘iga teng bo‘ladi;
- **Ikkinchi bosqich.** Transformatsiya (to‘g‘irlovchi) yozuvlarni o‘tkazish amalga oshiriladi. Bunda jami to‘g‘irlashlarning debet oborotining summasi kredit oborotining summasiga teng bo‘ladi;
- **Uchinchi bosqich.** Transformatsiyalangan treyl balans tuzish. Buning uchun birinchi bosqichda aniqlangan treyl balansga transformatsiyalanuvchi yozuvlar ta’sirini inobatga olib yangi schyotlar qoldig‘i chiqariladi. Bu transformatsiyalangan treyl balans hisoblanadi;
- **To‘rtinchi bosqich**. Transformatsiyalangan treyl balans qoldiqlari buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot va xususiy kapitalning harakati to‘g‘risidagi hisobotlar ustuniga o‘tkaziladi.
- **Beshinchi bosqich.** Transformatsion jadvaldagi balans, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapitalning harakati to‘g‘risidagi hisobot ustunlaridagi ma’lumotlar jamlanadi. Bu ustunlardagi ma’lumotlar moliyaviy hisobotlarning formatlariga o‘tkaziladi.

Transformatsion jadvalning qisqartirilgan shakldagi tuzilishini 2.6-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Treyl balansning amaliyotimizdagi oborot vedomostidan farqi, uning analitikligidadir. Masalan, sintetik schyotlar bo‘yicha oborot vedomostidagi “ta’minotchilar” schyotida faqat umumiy summa ko‘rsatilsa, treyl balansda uning umumiy summasi va uning qaysi ta’minotchilar bilan ekanligi ham ko‘rsatiladi. Bu esa uning foydalilik darajasini oshiradi va uning yordamida korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida muhim analitik xulosalarni chiqarish mumkin bo‘ladi.

2.6-jadval

Transformatsion treyl balans jadvali

Schyotlar nomi	Treyl balans		Transfor-matsion yozuvlar		Transfor-matsion treyl balans		F va Z to‘g‘risidagi hisobot		XKH to‘g‘risi-dagi hisobot		Balans	
	Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
Pul mablag‘lari	50				50						50	
Olinadigan schyotlar	240				240						240	
Zaxiralar	850			85	765						765	
Avans bilan to‘langan sug‘urta	20			5	15						15	
Moliyaviy investitsiyalar	180				180						180	
Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalar	1150				1150						1150	
Nomoddiy aktivlar	225				225						225	
Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalar eskirishi		220		40		260						260
To‘lanadigan schyotlar		450				450						450
Taqsimlanmagan foyda		600				600			75	180		705
Aksiyadorlik kapitali		1210				1210						1210
Mehnat haqi harajatlari	200				200		200					

Material bo‘yicha harajatlar	380		85		465		465					
Boshqa harajatlar	100				100		100					
Sug‘urta harajatlari			5		5		5					
Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalar eskirishi harajatlari			40		40		40					
Tushum		980				980		980				
Boshqa daromadlar		30				30		30				
Dividend harajatlari	75				75							
Foyda solig‘i harajatlari	20				20		20					
Sof foyda							180					
Jami	**3490**	**3490**	**130**	**130**	**3530**	**3530**	**1010**	**1010**	**75**	**180**	**2625**	**2625**

Treyl balans oy oxirida tuziladi. Unda buxgalteriya schyoti kodi, schyot nomi, debet va kredit oborotlar, debet va kredit qoldiqlar ko‘rsatiladi va buxgalteriya tengligi ta’min etiladi. Treyl balansda debet va kredit qoldiqlar tengligi mavjud bo‘lmasa, xatoga yo‘l qo‘yilgan hisoblanadi. Bu jurnallarga yozuvlarni o‘tkazishda, jurnallardan bosh registrga o‘tkazishda, registrda schyotlar qoldig‘ini hisoblashda, treyl balansni tuzishda yoki to‘plam summasini hisoblashda yo‘l quyilishi mumkin. Ushbu jarayondagi muhim ishlardan biri **to‘g‘irlashlar listini** tayyorlash bo‘lib hisoblanadi va bu jarayon professional yondashishni talab qiladi. Treyl balans korxona uchun muhim axborot bo‘lgan qarz nisbati ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich korxonaning jami majburiyatlarini jami aktivlariga bo‘lish orqali topiladi va korxonaning riski haqidagi axborotni ta’min etadi. Treyl balans moliyaviy steytmentlar tuzish uchun yetarli ma’lumotlarni bera olmaydi. Shu


sababli, schyotlardagi axborotlar yordamida ishchi jadvallar ham tuziladi.

Moliyaviy steytment (hisobot)larni tayyorlash bosqichida treyl balans va ishchi jadvallari yordamida moliyaviy natijalar steytmenti, xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi steytment, pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi steytment va buxgalteriya balansi tuziladi. Steytmentlar tuzilgandan so‘ng dastavval menejmentlarga taqdim qilinadi. Steytmentlar ichki yoki tashqi auditdan o‘tkazilishi mumkin. Barcha protseduralardan o‘tgandan so‘ng, u tashqi foydalanuvchilarga taqdimot qilinadi. Moliyaviy steytmentlar buxgalteriya hisobotining eng so‘nggi va mukammal shakli, shuningdek asosan tashqi qaror qabul qiluvchilarga mo‘ljallanganligi bois, uni **steytment (statement)** deb atash qabul qilingan.Steytmentlar taqdimot qilingandan so‘ng buxgalteriya registlari **yopuvchi buxgalteriya yozuvlari** orqali yopiladi va kelgusi hisobot davriga tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqichdagi muhim tayyorgarlik ishlaridan biri buxgalteriya registrlarini kelgusi davrga tayyorlash hisoblanadi. Yopuvchi buxgalteriya yozuvlarini bizning amaliyotimizda qo‘llanilishi ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Moliyaviy hisobjarayonini quyidagi 2.6-rasm orqali ifodalashimiz mumkin. Ushbu jarayonning 3-bosqichida moliyaviy steytmentlar aks ettirilgan. Bunda daromad va harajatlarga oid schyotlar ma’lumotlari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (steytment), kapital kiritish va qaytarib olishga oid axborotlar asosida kapital harakati to‘g‘risidagi hisobot (steytment) tuzilishi ko‘rsatilgan.

Pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobot (steytment) tuzilishida axborotlar barcha bog‘liq schyotlardan olinadi, chunki daromadlar va harajatlar, sarmoyalarning kirishi va chiqishi, aktivlar va majburiyatlarning harakati bevosita pul mablag‘larining harakati bilan bog‘liqlikda bo‘ladi. Buxgalteriya balansi aktivlar va majburiyatlarga oid schyotlar asosida tuzilsada, qolgan barcha hisobot (steytment)lar bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Masalan, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi steytmentdagi sof foyda xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotga o‘tadi va so‘ngra xususiy kapitalning qoldig‘i balansdagiga

muvofiq bo‘lishi kerak. Steytmentlar menejmentlar tomonidan tasdiqlangan va ijobiy audit xulosasiga ega bo‘lgandan so‘ng qaror qabul qiluvchilarga taqdimoti amalga oshiriladi.Yuqorida bayon qilingan fikrlar buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini amaliyotda qo‘llash hamda korxonalar boshqaruv tizimida uni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi.



2.6-rasm. Moliyaviy hisob va hisoboti jarayoni bosqichlari

2.4. Moliyaviy hisob va hisobotning konseptual asoslari (Conceptual framework). Moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari.

“Konsepsiya lotincha “conceptio” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida to‘plash, birlashtirish, tizim yoki ibora ma’nosini anglatadi. Mazmunan esa biror fan yoki tadqiqot asoslari bo‘yicha umumqabul qilingan qoidalar to‘plami, shuningdek, biror predmet yoki voqeani tushunish, ko‘rib chiqish usullari yoki unga nisbatan yondashuvlar va qarashlar tizimi sifatida izohlanadi. Moliyaviy hisobot nuqtai nazaridan moliyaviy hisobot tuzishda qo‘llaniladigan amaldagi qoidalarni baholash va ularni rivojlantirish asoslaridir[33]”.

Moliyaviy hisobining konseptual asoslari barcha korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimining poydevorini tashkil etadi. Konseptual asoslar ushbu tizimning maqsadi, umumiy qoidalari hamda foydalanuvchilar uchun taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotning elementlarini belgilash va ularni tavsiflashni o‘z ichiga oladi. Konseptual asoslar moliyaviy hisobotning nazariy asoslarining tarkibiy qism hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning nazariy asoslari deganda, uning ta’rifi, ob’ektlari, konseptual asoslari, moliyaviy hisobotning komponentlari va elementlari, axborot foydalanuvchilar va ularning ehtiyojlari, hisobotlarda aks ettirilayotgan axborotlar mazmuni va tarkibi hamda uni tuzish va taqdim etishning metodlari majmuasiga aytiladi.

Moliyaviy hisobva hisobotining konseptual asoslari buxgalteriya hisobi tizimining poydevorini tashkil etadi. Konseptual asoslar moliyaviy hisobotning maqsadini, umumiy qoidalarini, foydalanuvchilar uchun taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotning elementlarini belgilash va tavsiflashni o‘z ichiga oladi.

Konseptual asoslarga quyidagicha ta’rifni keltiramiz:

[33]Malon Marpatov. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari va moliyaviy hisobotning maqsadi //J. Bozor, pul va kredit. 2015 y. №3, 56-bet

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari deganda, axborot foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini umumlashtirishdan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifi, ularni shakllantirishda rioya qilinadigan qoida va prinsiplar hamda moliyaviy hisobot elementlarini tavsiflovchi fundamental negizi tushuniladi.

Moliyaviy hisob va hisobotning konseptual asoslarida moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining sifat tavsifi va ularni aniqlash, tan olish hamda o‘lchash qoidalari (yoki prinsiplari) masalalari muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimiz moliyaviy hisobot konseptual asoslarida[34] uning quyidagi jabhalarini e’tirof etilgan:


(1) moliyaviy hisobotning maqsadi;

(2) moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ko‘rsatkichlarning sifat tavsifi va moliyaviy hisobot prinsiplari (konseptlari);

(3) moliyaviy hisobot elementlari tavsifi, tan olish mezonlari;

(4) kapital va kapitalni qo‘llab quvvatlash konsepti.

Ushbu tasniflanishni chizma ko‘rinishida 2.8-rasmda aks ettiramiz:



2.8-rasm. Moliyaviy hisobot konseptual asoslarining tarkibiy jabhalari

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish konseptual asoslarida “moliyaviy hisobotning maqsadi xo‘jalik sub’ektining

34 [34]Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti: Izdaniye na russkom yazike M.: ASKERI - ASSA, 2010. 50-bet

moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etishdan iborat” deb tavsiflangan.

Moliyaviy hisobotning maqsadini quyidagicha e’tirof etamiz:

Moliyaviy hisobotning maqsadi – bu ma’lum bir vaqt momentida korxonaning moliyaviy holati, hisobot davrida uning o‘zgarishi, moliyaviy natijalari hamda pul oqimi haqidagi va boshqa moliyaviy axborotlarni umumiy bo‘lgan tartibda korxona menejerlariga hamda asosan potensial investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi axborot foydalanuvchilarga ularning o‘z qiziqishlari va faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, qarorlar qabul qilishlari uchun taqdim etishdan iborat.

Konseptual asoslarning muhim jiavhalaridan biri bu moliyaviy hisobot prinsiplaridir. Moliyaviy hisobot prinsiplariga qo‘yidagicha ta’rifni keltiramiz:

Moliyaviy hisobot prinsiplari – bu buxgalteriya hisobi konseptual asoslarining elementi bo‘lib, ular moliyaviy hisobotdagi axborotlarning sifat tavsifini ta’minlovchi umume’tirof etilgan qoidalarning majmuasi va ularni qo‘llash tizimi.

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslarining muhim jihatlaridan biri tan olish mezonlari hisoblanadi.

Tan olish mezonlari – shartlar, qaysiki uning bajarilishi oqibatida moliyaviy hisobot elementlari moliyaviy hisobotga kiritiladi.

Moliyaviy hisobotning elementlarini tan olishning uchta mezoni amal qiladi:

- Moliyaviy hisobot elementlari birortasining aniqliklariga muvofiq kelishi;
- hisobotning aniq elementlari bilan bog‘liq bo‘lgan kelgusida iqtisodiy nafning olinishi yoki yo‘qotilishi ehtimoli borligi;
- moliyaviy hisobotning elementlarining qiymatini ishonchli o‘lchash yoki baholash.

Xalqaro standartlarda kapital (Concepts of Capital) va kapitalni qo‘llab quvvatlash va foydani aniqlash konsepsiyasiga (Concepts of Capital Maintenance and the Determination of Profit) ta’rif berilgan.

Ko‘pgina korxonalar o‘zlarining moliyaviy hisobotlarini tuzishda kapital konseptini qabul qilganlar. Kapital konsepti ikki jihatdan tavsiflanadi: kapitalning moliyaviy konsepti va jismoniy konsepti.

Kapitalning moliyaviy konseptiga muvofiq, pul mablag‘lari yoki harid quvvati investitsiyalanganda kapital korxonaning sof aktivi yoki xususiy kapitali bilan sinonim hisoblanadi. Kapitalning jismoniy konsepti deganda esa, uning operatsion quvvati, jumladan kompaniyaning ishlab chiqarish quvvati, masalan bir kunda ishlab chiqaradigan mahsulot birligi tushuniladi.

Moliyaviy kapitalni qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasiga muvofiq, ishlab topilgan foyda hisobot davrining oxirida sof aktivlarning moliyaviy (pulda ifodalangan) summasi hisobot davrining boshidagi sof aktivlarning moliyaviy (pulda ifodalangan) summasidan barcha taqsimlashlarni va mulkdorlarning hissasini olib chiqib ketilishini hisobga olmagandagi oshgan qismi sifatida aniqlanadi.

Jismoniy kapitalni tutib turish. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, ishlab topilgan foyda hisobot davrining oxirida korxona jismoniy ishlab chiqarish quvvati (operatsion quvvati) (yoki ushbu quvvatga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslar yoki fondlar)ning hisobot davri boshidagi jismoniy ishlab chiqarish quvvatidan barcha taqsimlashlarni va mulkdorlarning hissasini olib chiqib ketilishini hisobga olmagandagi oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Kapitalni qo‘llab-quvvatlash birliklarning nominal pul birligida yoki doimiy harid quvvati birligida hisoblanishi ham mumkin.

Moliyaviy hisobotning sifat tavsifi. Moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan ko‘rsatkichlarning sifat tavsifi buxgalteriya axborotlariga qo‘yilayotgan eng muhim talablardir. Ushbu ko‘rsatkichlar ikki guruhga bo‘linadi:

fundamental sifat tavsifi;

ma’lumotning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari.

Fundamental sifat tavsifi deganda, buxgalteriya hisobining eng asosiy fundamental tamoyillari bo‘lib, qaysiki ular asosida buxgalteriya hisobi va hisoboti quriladi, moliyaviy hisobining fundamentini tashkil etadi. Fundamental sifat tavsifi tamoyillarining buzilishi butun buxgalteriya hisobi tizimining buzilishiga olib keladi. Ularga **o‘rinlilik (uyg‘unlik yoki ahamiyatlilik**) va **ro‘yi-rost taqdim etish (haqqoniylik)** kiritilgan.

Ikkinchi guruh tamoyillar moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarning foydalilik darajasini oshirishga qaratilgan. Ushbu guruh tamoyillariga rioya qilish axborotlarning foydaligini ta’min etadi, bu o‘z navbatida qabul qilinayotgan qarorlarning sifatining oshishiga xizmat qiladi.


Buxgalteriya hisobining yangi konseptual asoslari qoidalariga muvofiq buxgalteriya hisobining sifat tavsifi tamoyillarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin bo‘ladi (2.9-rasm).

Buxgalteriya hisobi prinsiplari tabiiy borliqdan kelib chiqmasdan, balki insonlar tomonidan umumqabul qilingan eng ilg‘or g‘oya va tajribalarga tayanib joriy qilinadi, o‘zgartiriladi, taraqqiy ettiriladi va bekor qilinadi. Demak, prinsiplarning muhim xususiyatlaridan biri uning insonlar tomonidan joriy qilishini va umumetirof etilishidir.

Buxgalteriya hisobining prinsiplari bir-biriga bog‘liqlikda amal qiladi. Buxgalteriya hisobida tayyorlanayotgan axborotlar ***uyg‘un (ahamiyatli)***, ya’ni o‘rinli bo‘lishi kerak, qaysidir maqsadda ishlatilishi kerak. Axborotlar foydalanuvchilar tomonidan bo‘lib o‘tgan, hozirgi va kelgusidagi hodisalarni baholash yoki o‘tgan baholashlarni tasdiqlash yoki tuzatishlar kiritish bo‘yicha iqtisodiy qarorlarning qabul qilinishida yordam bera olgan taqdirdagina uyg‘un bo‘ladi. Uyg‘un bo‘lmagan axborotlar hech kimga kerak emas.

Kerak bo‘lganda ham yetarli natijalarni bermaydi. Axborotlarning uyg‘un bo‘lishi deganda, aynan ehtiyojga monant, zaruriyatga muvofiq keladigan, nazariy hamda tajriba va amaliyot muvofiqligi,

axborotlarning aynan qaysi maqsadda tayyorlanayotganligiga mosligi tushuniladi. Uyg‘unlilikni salmoqlilik ta’minlaydi



2.9-rasm. Buxgalteriya hisobining konseptual asoslarida ma’lumotlarning sifat tavsifi[35]

Salmoqlilik deganda, qarorlar qabul qilish uchun muhim bo‘lgan axborotlarni, ya’ni axborotlarni foydalanishdan olinadigan naf uni tayyorlash uchun sarflanadigan harajatlardan salmoqli katta bo‘lishi kerak. Buxgalteriya hisobi salmoqli bo‘lmagan axborotlar bilan mashg‘ul bo‘lmaydi. Tayyorlanayotgan barcha axborotlarimiz salmoqli va muhim bo‘lishi kerak. Faqat salmoqli ahamiyat kasb etadigan axborotgina uyg‘un axborot bo‘ladi. Uyg‘unlik nafaqat salmoqlilik bilan, balki boshqa omillar bilan ham belgilanadi.

[35] Tadqiqotchilar Z.Eshpulatova va N.Alimovalar ishlanmasi

Tayyorlanayotgan axborotlar **ro‘yi-rost (haqqoniy)** bo‘lishligi deganda, uning haqqoniy bo‘lishi, ya’ni real hodisalar va borliqni aks ettirishi, qo‘shib yozishlardan, xatolardan, suiste’molliklar, yashirishlardan xoli bo‘lishi kerak. Axborotlar haqqoniy bo‘lgandagina investorlarga va boshqa tashqi foydalanuvchilarga foydali bo‘ladi. Axborotlarning haqqoniy bo‘lishligi ko‘p hollarda adolatli baholash, to‘g‘ri tan olish, real holatni bugungi kun holatida aks ettira olishi, kerak bo‘lsa kelgusi holatlarni ham inobatga olishligi bilan ta’minlanadi. **Betaraflik** (neytrallik) ehtiyotkorlik bilan mustahkamlanadi. Ehtiyotkorlik noaniqlik sharoitlarida mulohazalardan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lishdir. Ehtiyotkorlikni qo‘llash aktivlar va daromadlarni oshirib ko‘rsatilmaslikni, majburiyatlar va harajatlarni esa kamaytirib ko‘rsatilmaslikni anglatadi. Shu bilan birga, ehtiyotkorlikni qo‘llash orqali aktivlar yoki daromadlarning kamaytirilishiga yoxud majburiyatlar yoki harajatlarning oshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Foydali axborotlar ta’minlashda **qiyoslanuvchanlik (taqqoslanuvchanligi)** ta’min etilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, kompaniyaning o‘rganilayotgan ko‘rsatkichi hisobot davridagi qiymati o‘tgan davrlar bilan taqqoslanuvchan bo‘lishi kerak. Qiyoslanuvchanlik faqat shu kompaniya ma’lumotlari bilan chegaralanmaydi. Resurs kiritish bo‘yicha investor qaror qabul qilayotganda bir kompaniyaning ayni ko‘rsatkichlarini boshqa kompaniyaning ayni shu nomdagi ko‘rsatkichiga solishtira olib, ma’lum xulosalarni chiqara olishi kerak. Axborotlarning qiyoslanuvchanligi, qachonki axborotlarning tarkibi, baholanishi aynan bir metodologiyada amalga oshgan taqdirda ta’minlanadi. Moliyaviy hisobot standartlarining maqsadi ham axborotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlashdir. Axborotlarning **tekshiruvchanligi yoki tekshiruvga** oidligi deganda, barcha axborotlar standartlarga muvofiq tayyorlanganligi, uning haqiqatdan ham haqqoniyligi, real hodisalar va borliqni aks ettirganligi doimiy tekshiriladi. Ichki audit, tashqi audit va nazoratning boshqa shakllari aynan axborotlarning tekshiruvga oidligiga asoslanadi. Foydali axborotlarni ta’minlashda **o‘zvaqtidalik** o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot qachon foydali bo‘ladi, qachonki u o‘z vaqtida ta’min


etilsa. O‘z vaqtida ta’min etilmagan axborotlar o‘z qiymatini yo‘qotadi, xatto keraksiz bo‘lib qoladi. Axborotlar **tushunarli** bo‘lish kerak. Moliyaviy hisobot murakkab bo‘lmasligi kerak. Tashqi axborot foydalanuvchilarning aksariyati iqtisodchi, buxgalter yoki moliyachi bo‘lmasligi mumkin. Bunday hollarda moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlar mazmuni va tarkibi qaror qabul qiluvchilarning ehtiyojlariga monant kelishi kerak. Shuning uchun axborotlar oddiy, tushunarli, asoslangan bo‘lishi talab etiladi.

Konseptual asoslarning 4-bobida konsepsiya tushunchasi kiritilgan. Uning tarkibiy qismlarini quyidagi 2.10-rasmda aks ettiramiz.

Ushbu rasmda konsepsiyaning asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan. Konsepsiyaning negizigi asos bo‘luvchi yo‘l qo‘yilish hisoblangan **uzluksizlik** tamoyili tashkil etadi. Tashkilot o‘z faoliyatini ma’lum bo‘lmagan davr davomida davom ettirishini ko‘zda tutuvchi konsepsiya amal qiladi.

Konsepsiya moliyaviy hisobot elementlari, ularni tan olish va baholash mezonlarini ham belgilab beradi. Moliyaviy hisobot elementlariga aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va harajatlar kiradi.

Moliyaviy hisobot elementlarini tan olishda kelgusida iqtisodiy naf olinishining katta ehtimoli mavjudligi, ob’ektning boshlang‘ich qiymatga ega bo‘lishi va u ishonchli baholanishi mumkinligi asosiy mezonlar hisoblanadi. Moliyaviy hisobot elementlarini boshlang‘ich qiymati, joriy qiymat, sotishning bo‘lishi mumkin bo‘lgan narx hamda keltirilgan qiymatlarda baholanishi e’tirof etiladi. Kapital va kapitalni qo‘llab-quvvatlash kopsepsiyasi o‘z navbatida kapital konsepsiyasi hamda kapital miqdorini qo‘llab-quvvatlash va foydani aniqlash konsepsiyalariga bo‘linadi. Kapital miqdorini qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasi moliyaviy kapitalni qo‘llab-quvvatlash va jismoniy kapitalni qo‘llab-quvvatlash konsepsiyalarini qamrab oladi.



2.10-rasm. Konsepsiyaning tarkibiy qismlari[36].

Buxgalteriya hisobi prinsiplarning quyidagicha tasnifini keltiramiz: (2.7-jadval).

[36] Tadqiqotchi Z.Eshpulatova ishlanmasi

2.7-jadval

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi prinsiplarini tasniflash[37]

I. ASOS BO‘LUVCHI PRINSIPLAR	1.1. Uzluksizlik (harakatdagi korxona)
	1.2. Doimiylik (ketma-ketlik)
	1.3. Buxgalteriya hisobi birligi
II. FUNDAMENTAL SI-FAT TAVSIFI PRIN-SIPLARI	2.1. Uyg‘unlik (ahamiyatlilik)
	2.1.1. Salmoqlilik
	2.1.2 Samaradorlik
	2.2. Haqqoniy taqdim etish (ishonchlilik):
	2.2.1. Adolatli aks ettirish
	2.2.2. Xolis va ob’ektiv aks ettirish
	2.2.3. Neytrallik
	2.2.4. To‘liq aks ettirish
	2.2.6. Relevantlik
	2.2.7. Xatolardan xolislik
	2.2.8. Mazmunning shakldan ustunligi
III. AXBOROTLARNING FOYDALILIGINI OSHIRADIGAN PRIN-SIPLAR	3.1. Taqqoslanuvchanlik
	3.2. Tekshiruvga oidligi
	3.3. O‘zvaqtidalik
	3.4. Tushunarlilik
IV. ASOSIY KONSEPTI	4.1. Hisoblash metodi 4.2. Kapital va kapitalni qo‘llab quvvatlash konsepti
V. TAN OLISH, BAHO-LASH VA HISOBLARDA AKS ETTIRISH PRIN-SIPLAR (METODLARI)	5.1. Pulda ifodalash
	5.2. Haqiqiy tannarxda baholash
	5.3. Ikkiyoqlamalik
	5.4. Realizatsiya
	5.5. Muvofiqlik
	5.6. Bozor qiymatida baholash
	5.7. Offseting
	5.8. Tugallanganlik
	5.9. Iqtisodiy nafning olinishi/kamayishi
	5.10. Summani ishonchli baholash
	5.11. Mahsulot tannarxini aniqlash (costing) metodlari

Jadval ma’lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobining asos bo‘luvchi prinsiplari uning negizini tashkil etadi. Ushbu

[37] Tadqiqotchi B.Boronov ishlanmasi.

prinsiplarga amal qilmaslik natijasida boshqa prinsiplarning qo‘llanilishi ham mumkin bo‘lmay qoladi. Fundamental sifat tavsifi prinsiplari moliyaviy axborotlarning sifatini ta’minlovchi prinsiplardir. Ushbu prinsiplarning qo‘llanilishi moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarning ishonchliligi va uyg‘unligini ta’minlaydi. Jadvalda aks ettirilgan uchinchi guruh prinsiplar axborotlarning foydaliligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu prinsiplar ta’minlangan hollardagina axborotlar foydalanuvchilar uchun foydali bo‘ladi. Hisoblash metodi va kapitalni qo‘llab-quvvatlash konsepti o‘ta muhim axborotlarni shakllantirish hamda foydani aniqlashda umumtan olingan tartibni joriy qilinishini ta’minlaydi. Axborotlarni o‘lchash, tan olish, baholash va hisob va hisobotlarda aks ettirishda qo‘llaniladigan prinsiplar axborotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlaydi, ularning foydalilik darajasini oshiradi.

Foydali moliyaviy axborotlarning sifat tavsifi, konsepsiya hamda ta’riflar va olimlarning mulohazalari daromadlarga bo‘lgan yondashuvlarga yangicha yondashishni hamda normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda hisobga olishni taqozo etadi (2.8-jadval).

2.8-jadval

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunga sifat tavsifi tamoyillarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar[38]

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunda	**Taklif etiladi**
3-modda. Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari Uzluksizlik, ishonchlilik, ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplaridir.	**3-modda. Konsepsiya va foydali moliyaviy axborotlarning sifat tavsifi** Uzluksizlik asos bo‘luvchi yo‘l qo‘yilishdir. Uyg‘unlik va haqqoniy aks ettirish (ishonchlilik) buxgalteriya hisobining fundamental sifat tavsifidir. Taqqoslanuvchanlik, tekshiruvchanlik, o‘z vaqtidalik va tushunarlilik moliyaviy axborotlarning foydaligini oshiruvchi sifat tavsifidir. Daromad va harajatlar hisoblash metodi asosida hisobga olinadi.

[38] Tadqiqotchi Z.Eshpulatova shlanmasi

Buxgalteriya hisobi o‘z vazifalarini hal qilish uchun moliyaviy hisobot **jamg‘arilish (hisoblash)** asosida tuziladi. Ushbu asosga ko‘ra yuz bergan operatsiyalar va boshqa hodisalar sodir bo‘lgan vaqtida qayd qilinadi (pul yoki uning ekvivalenti olinganda yoki to‘langanda emas) va ular haqiqatda yuz bergan davrdagi buxgalteriya yozuvlarida qayd qilinadi. Ushbu holat davrga oid moliyaviy hisobotda o‘z aksini topadi. Bu asosda yozuvlarning amalga oshirilishi foydalanuvchilarga pul mablag‘larini to‘lash va olish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tgan hodisalar to‘g‘risidagi axborotlarni berish bilan bir qatorda kelgusida to‘lanishi shart bo‘lgan majburiyatlar va jo‘natilgan resurslar bo‘yicha olinishi talab qilinadigan pul mablag‘lari bo‘yicha ham axborotlar olish imkonini beradi. Buxgalteriya hisobi prinsiplari keng yondashishlarga imkon beradi va bu esa buxgalteriya hisobining ko‘plab usul va uslublari bo‘lishini taqozo qiladi. Har bir buxgalteriya hisobi birligi o‘z hisob siyosatida qo‘llaniladigan usullarni mustaqil tanlab belgilab oladilar. Agar joriy hisobot davrida tanlangan usullar doimiy o‘zgartirilsa maqsadga erishib bo‘lmaydi, chunki bu o‘zgartirishlar moliyaviy natijalarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, tanlangan usullarning o‘zgartirilmasligi nuqtai nazaridan korxonalar moliyaviy hisobini yuritishda **doimiylikka** tayanishi lozim. Bu prinsipning mohiyati shundan iboratki, agarda korxona aniq bir turkumdagi axborotlarga ishlov berish uchun ma’lum bir usulni tanlasalar, o‘z faoliyati davomida xuddu shu turkumdagi barcha axborotlarga ishlov berishda ushbu usulga tayanishi lozim. Bu prinsipga amal qilish firma o‘zining faoliyatining butun davri davomida tanlagan usulini o‘zgartira olmasligini anglatmaydi. Agarda maqsadga muvofiqligi asoslansa, korxona qo‘llayotgan usulini o‘zgartirishi mumkin. Bunda usulni o‘zgartirish natijasida moliyaviy natijalarga ko‘rsatiladigan ta’siriga to‘g‘irlashlar kiritilishi talab etiladi. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, doimiylik tamoyili buxgalteriya hisobi xalqaro konsepsiyasida yo‘l qo‘yilishlarga kiritilmagan, lekin 1-son BHXS “Buxgalteriya hisobi siyosati tavsifi”da keltirilgan. Bu shundan dalolat beradiki, konseptual qoidalar umumiy qoidalarni mujassamlashtiradi. Buxgalteriya hisobi standartlari esa aniq holatlarni aks ettirib, konsepsiyalar asosida ishlab chiqiladi, ya’ni hisob

siyosati konsepsiyasida ko‘rsatilgan prinsiplarni to‘liq e’tirof etadi va u yoki bu jarayonlarni batafsil yoritish uchun ayrim muhim tamoyil (usul)larni ham keltiradi. Moliyaviy hisobot axborotlarning sifat tavsifini belgilashda uning **tushunarligi** muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun axborot foydalanuvchilar tadbirkorlik, iqtisodiy faoliyat va buxgalteriya hisobi bo‘yicha yetarli bilimlarga ega bo‘lishi hamda axborotlarni o‘rganishga yetarli darajada xohish va qiziqishi bo‘lishi kerak. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak bo‘lgan ayrim qiyin masalalarning foydalanuvchilar tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhimligini inobatga olib, uning qiyin tushunilishi tufayli tushirib qoldirilmasligi kerak.

2.5. Moliyaviy hisobot asoslari: moliyaviy hisobotning mazmuni, maqsadi va vazifalari

Moliyaviy hisobni o‘rganishni moliyaviy hisobotdan boshlash kerak. Chunki, moliyaviy hisobot moliyaviy hisobning mahsuli hisoblanadi, uning pirovard natijasidir.

O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunda moliyaviy hisobotga quyidagicha ta’rif keltirilgan:

“**Moliyaviy hisobot** buxgalteriya hisobi sub’ektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.”

1-son Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standarti (BHXS) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”da “umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobot” tushunchasi kiritilgan bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif berilgan:

> ***Umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobot*** **shunday foydalanuvchilarning ehtiyojini qondirishga qaratilganki, qaysiki ular o‘zlarining aniq axborot ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan hisobotlarni taqdim qilishni talab etish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.**

Bunday moliyaviy hisobot bir yilda bir martadan kam bo‘lmagan holda tayyorlanadi hamda taqdim qilinadi va keng doiradagi axborot foydalanuvchilarning umumiy bo‘lgan axborot ehtiyojlarini qondirishga

qaratilgan. Ko‘p foydalanuvchilar moliyaviy hisobotni moliyaviy axborotlarning bosh manbai sifatida qaraydi. Shu bois, moliyaviy hisobot ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tayyorlanishi va taqdim qilinishi shart. Ushbu hujjatda umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobotning maqsadini quyidagicha izohlaydi: “Moliyaviy hisobot tashkilotning moliyaviy holati va faoliyatining moliyaviy natijalarini strukturalashtirilgan holda taqdim qilishdir. Umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobotning maqsadi tashkilotning moliyaviy holati, uning faoliyati moliyaviy natijalari va pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida shunday axborotlarni taqdim qilish bo‘lib hisoblanadiki, qaysiki ushbu ma’lumotlar keng axborot foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo‘ladi. Moliyaviy hisobot shuningdek, tashkilot rahbariyatiga ishonch bildirilgan resurslarni boshqarish natijalarini ham ko‘rsatadi. Ushbu maqsadga erishish uchun moliyaviy hisobot tashkilotning quyidagi ko‘rsatkichlari to‘g‘risida axborotlarni ta’min etadi:

(a) aktivlar;

(b) majburiyatlar;

(s) xususiy kapital;

(d) daromad va harajatlar, foyda va zararlarni ham o‘z ichiga oladi;

(e) xususiy kapitaldagi boshqa o‘zgarishlar va

(f) pul mablag‘lari harakati.”

Moliyaviy hisobotni ta’riflashda uning moliyaviy hisobining tarkibiy qismi ekanligi, uning axborot ta’minoti funksiyasi, maqsadini amalga oshirishda muhim bo‘g‘in, uning protsedurasida asosiy bosqich ekanligi hamda moliyaviy hisobining butun natijalari moliyaviy hisobotlarda mujassamlanishi, uning asosiy maqsadi axborot foydalanuvchilarning tashkilotning moliyaviy holati, faoliyatning moliyaviy natijalari, pul mablag‘larining harakatiga doir axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish ekanligini inobatga olish lozim. Ushbu talablar asosida moliyaviy hisobotga quyidagicha ta’rifni beramiz:

“*Moliyaviy hisobot* deganda, umume’tirof etilgan qoidalar asosida tashkilotning moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari hamda pul mablag‘lari harakatiga doir haqqoniy

va sifatli axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim tushuniladi. U ichki va asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish va nazorat uchun axborotga bo‘lgan umumiy ehtiyojini ta’minlashga qaratilgan.”

Ushbu ta’rif asosida moliyaviy hisobotning quyidagi **asosiy xususiyatlarini** e’tirof etish lozim:

1) moliyaviy hisobot moliyaviy hisob jarayonining oxirgi mahsuli, ya’ni buxgalteriya hisobining mahsuloti hisoblanadi;

2) moliyaviy hisobot moliyaviy hisobning maqsadini amalga oshiradi, ya’ni moliyaviy hisobot va moliyaviy hisob maqsadi bir-biriga uyg‘un hisoblanadi;

3) moliyaviy hisobot moliyaviy hisobining protsedurasining asosiy yakuniy bo‘g‘inidir;

4) moliyaviy hisobot moliyaviy hisobmetodining elementidir;

5) moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining ma’lum bir davrdagi holati va davr davomida o‘zgarishi to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etadi;

6) moliyaviy hisobot o‘tgan hodisalar va jarayonlar hamda kelgusidagi holat to‘g‘risida axborot beradi;

7) moliyaviy hisobot davri yillik va oraliq davrlarni o‘z ichiga oladi;

8) moliyaviy hisobot umume’tirof etilgan prinsiplar va qoidalar asosida tayyorlanadi;

9) moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holati, faoliyatning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etadi;

10) moliyaviy hisobot tashkilotning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitalining ma’lum bir sanadagi holati hamda hisobot davrida daromad va harajatlari, xususiy kapitalning o‘zgarishi, pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etadi;

11) moliyaviy hisobot asosan aniq axborot ehtiyojlariga javob beradigan axborotlarni talab qilish imkoniyati bo‘lmagan keng axborot foydalanuvchilarga mo‘ljallangan;


12) moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi standartlari talablariga javob beradigan maxsus shakllarda (formatlarda) tuziladi;

13) moliyaviy hisobot axborotlari asosida foydalanuvchilar tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilinadi;

14) moliyaviy hisobot ma’lumotlari moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini nazorat qilishda va rejalashtirishda, “qaytarma bog‘liqlikni” o‘rnatishda foydalanadi;

15) moliyaviy hisobot asosida menejmentning ishonib topshirilgan resurlardan foydalanish holatiga doir faoliyatiga baho beriladi va nazorat qilinadi.

Moliyaviy hisobot (steytment)larni taqdimot qilish jarayonini 2.12-rasm orqali ifodalashimiz mumkin.




2.12-rasm. Moliyaviy hisobot (steytmen)larni taqdimot qilish jarayoni[39]

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Tushuntirishlarida keltirilgan Moliyaviy Hisobotni Tayyorlash va Taqdim Qilishning Konsepsiyasida moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga sarmoyadorlar,

[39] Kermit D. Larson, Paul B.W. Miller. Finansial Accounting. Sixth Edition. Irwin. 1995.25 b. chizma qayta ishlandi

xodimlar, qarz beruvchilar, ta’minotchilar va boshqa savdo kreditorlari, haridorlar, hukumat organlar, jamoatni kiritgan holda, ularning axborot ehtiyojlarini qondirish masalasini quyidagicha tavsiflaydi: “Moliyaviy hisobot orqali barcha axborot ehtiyojlarini qondirish mumkin bo‘lmasada, barcha foydalanuvchilar uchun umumiy bo‘lgan talablar amal qiladi. Chunki, sarmoyadorlar kompaniya uchun kapital ta’minotchisi hisoblanadi, ularning ehtiyojini qondiradigan axborotlarni ta’min etish moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilarning ham ko‘pchilik ehtiyojlarini qondira oladi.”

Moliyaviy hisobotning nazariy asoslari masalalarida moliyaviy hisobotni amalga oshirishning modeli muhim ahamiyat kasb etadi (2.13-rasm).



2.13-rasm. Moliyaviy hisobotning modeli

Moliyaviy axborotlar moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi, moliyaviy hisobot belgilangan muddatlarda axborot foydalanuvchilarga taqdim qilinadi. Ular tomonidan hisobotlardagi haqiqiy ma’lumotlarning rejalar hamda byudjetlardan chetlanishlari aniqlanib, ularning sabablari tahlil qilinadi. Boshqaruvchilar yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, reja va byudjetlarga o‘zgartirishlar kiritish va korxona faoliyatiga

doir boshqa muhim qarorlar qabul qiladi. Tashqi axborot foydalanuvchilar ham investitsiya kiritish borasida o‘z munosabatlarini bildiradi. Bu qarorlar uzviylik asosidagi bog‘liqlik (feedback) bo‘yicha korxonaning rejalari, byudjetlari, bajarilishlari va moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Natijada, faoliyat jadallashadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

1-son MHXS “Moliyaviy hisobotning taqdim etilishi” (51-53§) moliyaviy hisobotning rekvizitlari keltirilgan. Moliyaviy hisobot quyidagi ko‘rsatkichlarni albatta qamrab olishi kerak:

a) hisobot berayotgan korxonaning nomi yoki uni belgilashning har qanday usuli;

b) moliyaviy hisobot alohida kompaniyalar yoki kompaniyalar guruhiga taalluqliligi;

s) hisobot davrining tugallanish sanasi yoki moliyaviy hisobot qamrab olgan davr yoki izohlarda keltiriladi (masalan, hisobot yili kalendar yil qabul qilingan bo‘lsa moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot 200X yil 31-dekabr holatida, foyda va zararlar va boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot 200X y. 31-dekabr bilan yakunlanadigan yil uchun deb ko‘rsatilishi talab etiladi);

d) 21-son MHXSda aniqlangandek hisobotda taqdim etiladigan valyuta;

e) valyutaning yaxlitlanishi.

Moliyaviy hisobot har yili bir martadan kam bo‘lmagan tartibda taqdim qilinishi shart (36-37§). Agarda hisobot beruvchi tashkilotning hisobot sanasi o‘zgarsa va yillik moliyaviy hisobot bir yildan ortuvchi yoki undan qisqa davr uchun taqdim etilsa tashkilot quyidagi axborotlarni ochiqlashi talab etiladi:

a) ortuvchi yoki qisqartirilgan davrdan foydalanishning sabablari;

b) foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot, pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot va taalluqli izohlarda taqqoslanadigan summalar to‘liq bo‘lmagan holda taqqoslanuvchi ekanligi fakti.


Moliyaviy hisobotning alohida shakllari steytmentlar deb ataladi. Ushbu steytmentlarda moliyaviy hisobotlarning elementlarini

tavsiflovchi, ya’ni uning holati, o‘zgarishi, daromad va harajatlar, foyda va zararlar ularni yuzga keltiruvchi omillari asosida aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobot elementlari. Moliyaviy hisobining muhim konseptual masalalaridan biri moliyaviy hisobot elementlarni tavsiflash bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro hujjatlarda moliyaviy hisobot elementlari ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh “balans asosida moliyaviy holatni baholash bilan bog‘liq elementlar” deb nomlanib, unga aktiv, majburiyat va kapital kiritilgan. Ikkinchi guruh “foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisoboti asosida faoliyat natijalarini baholash bilan bevosita bog‘liq elementlar” deb atalib, ularga daromad va harajatlar kiritilgan.

Xalqaro konsepsiyaga muvofiq moliyaviy holatni o‘lchash bilan bog‘liq elementlarga aktivlar, majburiyatlar va kapital kiritiladi. Moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi elementlari daromadlar va harajatlardan iborat. Ular qo‘yidagicha tavsiflangan (2.14-rasm):

Quyidagi rasmda keltirilgan elementlarga xalqaro standartda keltirilgan tavsiflarini keltiramiz:



2.14-rasm. Moliyaviy hisobot elementlari

Ularning har birining standartlarda e’tirof etilgan tavsifini quyida keltiramiz:

a) ***Aktivlar*** – **bu korxona tomonidan o‘tgan hodisalar natijasida nazorat qilinadigan resurslar bo‘lib, ulardan foydalanish kelgusida korxonaga iqtisodiy naf keltiradi**;

b) *Majburiyatlar* – bu korxona faoliyatida o‘tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan haqiqiy majburiyatlari hisoblanib, ularning so‘ndirilishi (uzilishi) iqtisodiy nafni mujassamlantiruvchi korxona resurslarning tashqariga chiqib ketishiga olib keladi;

c) *Kapital* – bu kompaniyaning barcha majburiyatlar chiqarilib tashlangandan keyin qolgan aktivlarga bo‘lgan ulushdir.

MHXSlari bo‘yicha buxgalteriya tengligining asosiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

Aktivlar = xususiy kapital + majburiyatlar

Kompaniya faoliyatining natijalari xuddi investitsiyadan olingan samara, aksiyadan olingan foyda kabi iqtisodiy mohiyatga ega bo‘lgan foyda ko‘rsatkichi bilan tavsiflanadi. Korxona faoliyati foydasini o‘lchovchi elementlarga daromad va harajatlar kiradi.

Daromad va harajatlarning buxgalteriya hisobi maqsadlarida ta’rifini quyidagi jadvalda keltiramiz (2.9-jadval).

2.9-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro va milliy standartlarida daromadlar va harajatlarning tavsifi[40]

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari[41]	**Moliyaviy hisobotning milliy standartlari**
Daromadlar bu tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda xususiy kapitalning ko‘payishiga olib keladigan holatdagi	Daromadlar bu xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan tarzda xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishi

[40] MHXS va MHMSlari asosida

[41] https://time-to-study.ru/pages/msfo/framework.html

aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishi	
Harajatlar - bu tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining foydasiga taqimlash bilan bog‘liq bo‘lmagan holatda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi	Xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimlashlar bilan bog‘liq bo‘lmagan tarzda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi.

Daromadlar va harajatlarning mazkur ta’riflaridan xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari daromadlar hisoblanmasligi va xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimlashlar esa harajatlar hisoblanmasligi kelib chiqadi.

Ushbu ta’rif tahlil qiladigan bo‘lsak, buxgalteriya hisobi maqsadlarida xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqi egalari bu xo‘jalik jamiyatlarida ta’sischilar bo‘lsa, aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar hisoblanadi. Ular xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqiga ega. Demak, daromad bu xususiy kapitalni talab qilish huquqi egalarining qo‘shimcha kapital kiritishini hisobga olmagan holda aktivlarning qo‘payishi yoki majburiyatlarning kamayishidir. Harajatlar esa xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqi egalariga foydani taqsimlash yoki kapitalni chegirib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holatdagi aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning ko‘payishidir.

Tan olish (ingl. «recognition») - bu «moliyaviy holatning hisobotiga yoki aktiv, majburiyat, kapital, daromad yoki harajatning tegishli ta’rifiga javob beradigan ushbu moddaning moliyaviy natijalarining hisobotiga kiritiladigan moddalarni aniqlash jarayoni.»[42]

Buxgalteriya hisobi xalqaro konsepsiyasiga muvofiq moliyaviy hisobot elementlari aniqliklariga javob beruvchi ob’ektlar qo‘yidagi hollarda tan olinadi:

A) kompaniya tomonidan ob’ekt bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy naf olinishi yoki boy berilishining salmoqli ehtimoli mavjud bo‘lgan hollarda;

[42] Ergasheva Sh.T. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. –T.: TDIU, 2021 y. - 310 bet. 28-b.

B) ob’ekt tannarx yoki qiymatga ega bo‘lib, ishonchlilik asosida o‘lchanilganda.

Moliyaviy hisobot aniqliklariga javob beruvchi ob’ektlar buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarda o‘z aksini topishi uchun ular o‘lchanilishi *(Measurement)* talab etiladi.

Moliyaviy hisobotdagi turli xil darajalarda va kombinatsiyalarda o‘lchashning turli usullari ishlatiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

a) Boshlang‘ich qiymat (Historical cost). Bu usulga asosan aktivlar, ular uchun to‘langan pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti summasida yoki ularni harid qilganda evaziga beriladigan qarshilikning adolatli qiymatida qayd qilinadi. Tarixiy qiymat ko‘rsatkichlari (ingl. «historical cost») operatsiya yoki hodisaning tarixiy (boshlang‘ich) miqdoridan kelib chiqqan holda hisob ob’ektlar haqida ma’lumot beradi. Majburiyatlar esa qarzga almashtirish hisobidan olinishi jarayonida yoki ayrim holatlarda (masalan, foyda solig‘i) biznesning normal kursida majburiyatlarni uzish uchun mo‘ljallangan pul va pul ekvivalentlarining summasida hisobga olinadi;

b) Joriy tannarxi (Current cost). Aktivlar hozirgi kunda shunga o‘xshash bo‘lgan yoki o‘rnini bosadigan aktiv harid qilingan taqdirda to‘lash uchun talab qilinadigan pul va pul ekvivalenti summasi bilan o‘lchaniladi. Joriy qiymat ko‘rsatkichlari (ingl. «current value») joriy shartlarni baholash sanasida aks ettirish uchun yangilangan hisob yuritish ob’ektlari haqida pulga oid ma’lumotlarni taqdim etish. Majburiyatlar esa hozirgi kunda qarzlarni uzish uchun talab qilinadigan pul yoki pul ekvivalentining diskontlanmagan summasi bilan baholanadi;

c) Sotishga qobiliyatli (ijro) qiymat (Realisable (settlement) value). Aktivlar, ularni hozirgi kunda sotish natijasida olinishi mumkin bo‘lgan pul yoki pul ekvivalenti summasi bilan belgilanadi. Majburiyatlar esa ijro etish qiymatida, ya’ni biznesning normal sharoitida qarzlarni uzish uchun mo‘ljallangan pul yoki pul ekvivalentlarining diskontlanmagan summasida qayd qilinadi.

d) Haqiqiy qiymat (Present value). Aktivlar biznesning normal kursida haqiqiy diskontlangan qiymatida kelib tushishi kutilayotgan

summada aks ettiriladi. Majburiyatlar esa biznesning normal kursida, ya’ni qarzlarni uzish uchun talab qilinadigan va kelgusida chiqib ketishi kutilayotgan haqiqiy diskontlangan qiymatda qayd qilinadi. Buning uchun diskontlash koeffitsiyentidan foydalaniladi. Uni hisoblash tartibi quyidagi misolda keltirilgan.

1-misol. *Bank foizlarini kapitalizatsiyalash bilan yillik 10%lik jamg‘armalarni qabul qiladi.*

Talab etiladi:

1. Boshlang‘ich jamg‘arma 300 p.b. bo‘lganda ikki yildan keyin olinishi mumkin bo‘lgan summa;

2. 363 p.b.dagi summani olish uchun bankka qancha summada omonat kiritish kerak bo‘ladi.

Yechish:

1. Birinchi holatda:

1-yil: 300 x (100% + 10%) = 300 x 1.1 = 330 p.b.

2-yil 330 x (100% + 10%) = 330 x 1.1 = 363 p.b.

2. Yuqoridagi amalning teskarisi diskontlash deb ataladi va formula orqali aniqlanadi.

$$\boldsymbol{PV = \frac{FV}{(1+i)^n}}$$

Bu yerda,

PV (Present value) – vaqt omilini hisobga olgan holda haqiqiy qiymat.

FV (Future value) – kelgusida pul oqimi

i – foiz stavkasi

n – davrning tartibli raqami

Ushbu formula yordamida hisoblaydigan bo‘lsak PV teng bo‘ladi

$$PV = \frac{363}{(1+0.1)^2} = 300 \text{ p.b.}$$

Asosan, ko‘pchilik hollarda o‘lchov bazisi sifatida korxonalar tomonidan boshlang‘ich qiymat bazisi qo‘llaniladi. Bunda boshqa o‘lchov bazislarini ham kombinatsiyalashtirilishi mumkin. Masalan, odatda zaxiralar qiymatning eng pastida yoki sotishga qobiliyatli qiymatida, bozorga qobiliyatli qimmatli qog‘ozlar esa bozor qiymatida, pensiya majburiyatlari haqiqiy qiymatda qayd qilinadi.

1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim qilish” standartida moliyaviy hisobotni taqdim qilishning umumiy qoidalari, hisobotlarning tarkibi va mazmuniga qo‘yiladigan minimal talablar keltirilgan.

Ushbu standartning maqsadi korxonaning o‘z moliyaviy hisobotining o‘tgan davrlardagi moliyaviy hisobotiga hamda boshqa korxonalarning moliyaviy hisobotlariga taqqoslanuvchanligiga erishish uchun umumiy maqsadlardagi moliyaviy hisobotni taqdim qilishning negizini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi.

Kompaniya rahbariyati har bir qo‘llaniladigan BHXS va Interpritatsiya bo‘yicha Doimiy Qo‘mitaning interpritatsiyalari talablariga to‘liq muvofiq holda hisob siyosatini ishlab chiqishi kerak.

BHXSlarida aniqlashlar bo‘lmagan va Interpritatsiyalar berilmagan hollarda rahbariyat hisob siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy hisob foydalanuvchilari uchun foydali axborotlarni ta’min etishda o‘zlarining mushohadalaridan kelib chiqadi. Ushbu mushohadalarni tayyorlashda korxona rahbariyati quyidagilardan kelib chiqadi: ***faoliyatning uzluksizligi; jamg‘arilish; taqdim qilishning ketma-ketligi; salmoqlilik; o‘zaro qoplash va axborotlarning taqqoslanishligi kiritilgan***.

Moliyaviy hisobot albatta korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida ***vijdonan taqdim etishlari*** shart. Vijdonan taqdim etish hisob prinsiplarida mujassamlashgan aktivlar, majburiyatlar, daromad va harajatlarni hisobga olish qoidalar va mezonlariga to‘liq rioya qilgan holda haqqoniy aks ettirishni anglatadi.

Moliyaviy hisobot ***minimum har yili*** taqdim qilinishi lozim. Kompaniya ayrim hollarda istisno tariqasida hisobot davrini bir yildan oshadigan yoki kam davrini ham belgilashi mumkin. Bunday hollarda bir yildan farq qiladigan davrdan foydalanish sabablari ko‘rsatilib berilishi talab qilinadi.

Halqaro kompaniyalar rahbariyati korxonaning *hisob siyosatini* ishlab chiqishi zarur, qaysiki barcha moliyaviy hisobotlar har bir qo‘llanilayotgan BHXSlar hamda Doimiy Qo‘mitaning standartlarga keltirgan interpritatsiyalariga to‘liq muvofiq kelsin. Agarda aniq talablar

bo‘lmagan hollarda korxona rahbariyati moliyaviy hisobotlarda taqdim qilinayotgan axborotlarning a) foydalanuvchilar tomonidan qarorlar qabul qilinganda ***uyg‘unligi*** va (b) ***ishonchligini*** ta’min etishlari lozim.

Korxona rahbariyati moliyaviy hisobotni tayyorlashda korxona o‘z faoliyatini davom ettira olish qobiliyatini baholay olishi lozim. Moliyaviy hisobot korxona o‘z faoliyatini ***uzluksiz davom ettirishi*** to‘g‘risidagi, ya’ni rahbariyat korxonaning likvidatsiya qilinishi yoki o‘z faoliyatini to‘xtatishini mo‘ljallamagan yoki ushbu masalani ko‘rib chiqish sabablari bo‘lmagan yo‘l qo‘yilishlarga asosan tuzilishi lozim. Agarda ushbu holatlar mavjud bo‘lsa, korxona hisob siyosatida ularni bayon etishi lozim bo‘ladi.

Korxona moliyaviy hisobotini pul mablag‘lariga doir axborotlardan tashqarisini ***hisoblash metodiga*** asosan tuzishlari lozim. Ushbu metodga asosan operatsiya va jarayonlar ular qachon yuz bergan bo‘lsa (pul kelib tushishi va pul mablag‘larining to‘lanishi qat’iy nazar) shu paytda tan olinadi va ular taalluqli bo‘lgan davrlaridagi hisob registlarida qayd qilinadi va moliyaviy hisobotlarda taqdim etiladi. Harajatlar foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda sarflangan harajatlar bilan ishlab topilgan daromadlarning aniq moddalari o‘rtasidagi ***muvofiqlik konsepsiyasiga*** asosan tan olinadi.

Moliyaviy hisobotlarda moddalarni taqdim qilinishi va ularning tasnifi bir davrdan ikkinchi davrda saqlanishi lozim ***(taqdim qilishning ketma-ketligi).*** Agarda o‘zgargan tarkib ehtimol to‘liq saqlanilsa yoki muqobil ko‘rinishda taqdim qilishdan olinadigan naf muqarrar bo‘lsa, korxona moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishda usullarga o‘zgartirish kiritishi kerak bo‘ladi.

Moliyaviy hisobot ***salmoqli*** bo‘lgan moddalarnigina aks ettirishi lozim. Salmoqli bo‘lmagan moddalar anologik harakterdagi moddalardagi summalar bilan birlashtirilishi va alohida taqdim etilmasligi lozim.

Hisobotlarda aktivlar va majburiyatlarning ***bir-birini qoplagan*** holda aks ettirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim (BHXSlari talab qilgan yoki ruxsat bergan hollardan tashqari). Daromad va harajatlarning moddalari bir-birini qoplashga agarda BHXSlarida talab etilsa yoki

ruxsat etilsa hamda salmoqli bo‘lmagan operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan foyda va zararlar, qaysiki anologik operatsiyalar natijalari bilan birlashtiriladigan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Agarda BHXSlarida boshqacha holat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, moliyaviy hisobotlarda taqdim qilinayotgan axborotlarning o‘tgan davr hisobotlaridagi ma’lumotlari bilan ***taqqoslanuvchanligi*** ta’min etiladi.

Ushbu prinsiplar moliyaviy hisobotning ishonchli, uyg‘un va shaffof bo‘lishini ta’min etadi.

2.6. Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari, tuzilishi va taqdim etilishi

Moliyaviy hisobot tarkibiy qismlari deganda, uning u yoki bu jabhalarini aks ettiruvchi maxsus formatlar tushuniladi. Xalqaro stndartlar joriy qilinishi bilan moliyaviy hisobotning yagona, qat’iy shakllarini belgilab bermaydi. Standartlarda hisobotlarda aks ettiriladigan axborotlarning minimal qatorini belgilaydi. Tashkilotlar mustaqil ravishda o‘zlarining hisob siyosatlarida formatlarni tasdiqlaydi. Shuning uchun moliyaviy hisobot formatlarini ishlab chiqish yuqori malaka va tajribalarni talab etadi.

Moliyaviy hisobotning to‘liq komplekti quyidagi **tarkibiy qismlardan** tashkil topadi (2.10-jadval).

2.10- jadval

A. Moliyaviy hisobotning asosiy majburiy shakllari

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot **(Statement of financial position)**
Foyda va zararlar hamda boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot **(Statement of profit or loss and other comprehensive income)**
Pul oqimlari haqidagi hisobot **(Statement of Cash Flows)**
Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot **(Statement of changes in equity)**
Izohlar, hisob siyosatining qisqacha tavsifi va boshqa tushuntirishlar

B. MHXSlari talablariga muvofiq o‘tgan davrlar hisoboti

Taqqoslanadigan axborotlar: davr boshida moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot; o‘tgan davr uchun foyda va zararlar hamda boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot
O‘tgan hisobot davrlari uchun moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (agarda korxona MHXSlarini birinchi marta qo‘llab hisob siyosatiga retrospektiv o‘zgarishlar kiritsa yoki moliyaviy hisobot moddalarini qayta tasniflashni amalga oshirsa)

V. Moliyaviy hisobotning ixtiyoriy (qo‘shimcha) shakllari

Taqsimlanmagan foyda to‘g‘risidagi hisobot
Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalarning harakati to‘g‘risidagi hisobot
Nomoddiy aktivlarning harakati to‘g‘risidagi hisobot
Segmental moliyaviy hisobotlar

Ko‘pchilik tashkilotlarda moliyaviy hisobotdan tashqari tashkilot rahbariyatiga va tashkilot faoliyatiga umumiy tavsif beriladi, qaysiki unda tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatiga tavsif va ochiqlashlar, uning moliyaviy holati va asosiy muammolar va noaniqliklar tavsifi keltiriladi. Ushbu hisobot quyidagi mazmundagi axborotlarni qamrab oladi:

a) moliyaviy natijalarni belgilovchi asosiy omillar va ularning ta’siri, shu jumladan kon’yukturaning o‘zgarishi, qaysiki korxona shu sharoitda faoliyat ko‘rsatadi, ushbu o‘zgarishlarga tashkilotning reaksiyasi va ularning ta’siri hamda tashkilotning moliyaviy natijalarni qo‘llab-quvvatlash va yaxshilashga qaratilgan siyosati, shu jumladan, dividend sohasidagi siyosati ham;

b) tashkilotning moliyalashtirish manbalari, uning majburiyatlar va xususiy kapitalga nisbatan rejadagi ko‘rsatkichlari; va

(s) BHXSlariga muvofiq buxgalteriya balansida tashkilotning tan olinmagan mablag‘lari.

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (buxgalteriya balansi)ning asoslari: ta’rifi, mazmuni va tuzilishi. Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotga quyidagicha ta’rif beramiz:

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot deganda, hisobot davrining oxiridagi vaqt momentida kompaniyaning aktivlari,

majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan tarkiblari bo‘yicha holatini va hisobot davrida o‘zgarishini tavsiflovchi hamda tizimli ravishda asosan tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va unga doir qarorlarni qabul qilish uchun taqdim qilinadigan axborotlarning standartlashgan tizim tushuniladi.

Buxgalteriya balansining moliyaviy holatni aks ettiruvchi hisobot deb ham yuritiladi, chunki bu hisobotning maqsadi kompaniyaning hisobot davrining oxirida ma’lum bir vaqt momentida moliyaviy holatini aks ettiruvchi hisoboti hisoblanadi.

Xalqaro standartlarda kompaniyaning **moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti** minimum quyidagi chiziqli moddalarni o‘z tarkibiga olishi shart (2.11-jadval).

2.11-jadval

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot elementlari

O‘zbekcha varianti	Inglizcha varianti
1. Mulk (yer), bino va mashina va asbob-uskunalar	Property, plant and equipment
2. Investitsiyaviy mulk	Investment property
3. Nomoddiy aktivlar	Intangible assets
4. Moliyaviy aktivlar	Financial assets
5. Hissali qatnashish metodi bo‘yicha hisobga olingan investitsiyalar	Investments accounted for using the equity method
6. Biologik aktivlar	Biological assets
7. Zaxiralar	Inventories
8. Savdo va boshqa debitorlik qarzlari	Trade and other receivables
9. Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari	Cash and cash equivalents
10. Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va chiqib ketayotgan guruhlarning sotishga mo‘ljallangan aktivlari	Assets classified as held for sale, and assets indicated in disposal groups classified as held for sale
11. Joriy va muddati uzaytirilgan soliq aktivlari (alohida)	Current and deferred tax assets (separately)

12. Savdo va boshqa majburiyatlar	Trade and other payable
13. Joriy va muddati uzaytirilgan majburiyatlar (alohida)	Current and deferred tax liabilities (separately)
14. Rezervlar	Provisions
15. Moliyaviy majburiyatlar	Financial liabilities
16.Chiqib ketayotgan guruhlar sotishga mo‘ljallangan aktivlari bo‘yicha majburiyatlar	Liabilities included in disposal groups classified as held for sale
17. Amaldagi kapital va rezervlar	Issued capital and reserves attributable to owners of the parent
18. Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi	Non-controlling interest

Konseptual asoslarda qo‘llanilgan atamalaridan biri bu “iqtisodiy resurslar va talablar” deb ataladi. Bu atamaning inglizcha nomi “Economic resources and claims”, ruschaga “Ekonomicheskiye resursi i trebovaniya” deb tarjima qilingan. O‘zbek tiliga “Iqtisodiy resurslar va talablar” deb tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Iqtisodiy resurslar iqtisodiy ma’noda kompaniyaning moliyaviy iqtisodiy faoliyatida qo‘llanilayotgan barcha moddiy va nomoddiy resurslarning majmuasidir. Ularning tarkibiga tabiiy resurslar (tabiiy boyliklar, jumladan yer, yer osti qazilmalari, biologik aktivlar), kapital (pul va ishlab chiqarish vositalari), mehnat resurslari (ish va xodimlar), nomoddiy resurslar (itellektual mulk va tadbirkorlik iqtidori) kiradi.

Moliyaviy hisobotning yangi konseptual asoslari **“iqtisodiy resurslar va talablar”** joriy etgan. Unga muvofiq umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobotlar hisobot berayotgan tashkilotning moliyaviy holati to‘g‘risida axborotlar taqdim etilishi kerak. Moliyaviy holat to‘g‘risidagi axborotlar bu asosan tashkilotning iqtisodiy resurclari va ularga bo‘lgan talablarga doir axborotlarni qamrab oladi. Moliyaviy hisobotlar shu bilan bir qatorda tashkilotning iqtisodiy resurclari va ularga bo‘lgan talablarning o‘zgarishiga olib keladigan operatsiyalar va boshqa hodisalarning oqibatlari to‘g‘risidagi axborotlarni ham taqdim etadi, qaysiki ushbu axborotlar tashkilot tasarrufiga resurslarni taqdim qilishga doir qarorlar qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tashkilot standartning 57-67-bandlariga muvofiq ravishda qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri balansda alohida bo‘lim sifatida taqdim etishlari shart. Bunda istisno holatlar hisobga olinadi.

Qabul qilingan taqdim qilish metodidan qat’iy nazar aktivlar va majburiyatlarning har bir bunday chiziqli moddalari bo‘yicha, qaysiki to‘lanishi yoki qoplanishi (a) balans sanasidan keyin o‘n ikki oydan oshmaydigan va (b) balans sanasidan keyin o‘n ikki oydan oshadigan muddat davomida kutiladigan summalarni birlashtiradi. Tashkilot to‘lanishi va qoplanishi o‘n ikki oydan oshishi kutilayotgan summalarni ochiqlashi shart.

Buxgalteriya hisobi ma’nosida iqtisodiy resurslar deganda, foyda olish maqsadida tashkilotga jalb qilingan oborotdan tashqari va oborot mablag‘lar (resurslar) majmuasiga aytiladi.

Oborotdan tashqari aktivlar bu uzoq muddatga xizmat qiladigan tabiiy resurslar (yer osti boyliklari), ko‘chmas mulklar (yer, bino va inshoatlar), investitsiyaviy mulklar, mashina va asbob-uskunalar, nomoddiy aktivlar, biologik aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar kiradi.


Oborot mablag‘lar yoki joriy aktivlar bu tashkilotning operatsion sikli davomida aylanadigan, o‘zining qiymatini yangidan yaratilayotgan mahsulotga o‘tkazadigan mablag‘lardir. Ularning tarkibiga tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, pub mablag‘lari va boshqa joriy aktivlar kiradi.

2018-yildan amalda bo‘lgan yangi konseptual asoslarda aktivlarga quyidagicha ta’rif keltirilgan:

Iqtisodiy resurs – bu huquq bo‘lib, qaysiki iqtisodiy naf yaratish potensialiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy naf keltirish potensialiga ega bo‘lishi uchun absalyut ishonch talab etilmasada ushbu huquq amal qilishi va alohida holatlarda kompaniya uchun boshqa barcha tomonlar kira olishi mumkin bo‘lgan nafdan oshadigan iqtisodiy naf yarata olishi talab etiladi.

Aktivlarning huquq, iqtisodiy naf yaratish potensiali va nazorat ekanligini quyidagi rasmda aks ettirish mumkin (2.15-rasm).



2.15-rasm. Aktivlarning tasnifi[43].

1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” standarti aktivlarga oid bo‘lgan axborotlarning tarkibini belgilab beradi. Ularning nomlanishini quyidagicha tavsiflaymiz (2.12-jadval).

2.12-jadval

1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” standartiga muvofiq aktivlarning tarkibiy qismlari[44]

Aktivlar tarkibi (O‘zbek tilida)	Aktivlar turlari (Rus tilida)	Aktivlar turlari (Ingliz tilida)	Oborotdan tashqari yoki oborot aktivlari
Ko‘chmas mulk, zavod va mashina va asbob-uskunalar	Osnovnie sredstva	Property, plant and equipment	Oborotdan tashqari aktiv
Investitsiyaviy ko‘chmas mulk	Investitsionnaya sobstvennost	Investment property	Oborotdan tashqari aktiv
Nomoddiy aktivlar	Nematerialnie aktivi	Intangible assets	Oborotdan tashqari aktiv
Moliyaviy aktivlar	Finansovie aktivi	Financial assets	Oborot (joriy) aktivlar
Hissali qatnashish metodi bo‘yicha hisobga olinadigan investitsiyalar	Investitsii, uchitivayemie po metodu dolevogo uchastiya	Investments accounted for using the equity method	Oborotdan tashqari aktiv
Biologik aktivlar	Biologicheskiye aktivi	Biological assets	Oborotdan tashqari aktiv
Zaxiralar	Zapasi	Inventories	Oborot (joriy) aktivlar

[43] ©2020 PwC. Vse prava zashisheni. Etot material podgotovlen Akademiyey PwC dlya ekzamenov ACCA DipIFR v 2020 godu. 0207-b.
[44] 1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” standartiga muvofiq

Savdo va boshqa olinadigan schyotlar	Torgovaya i prochaya debitorskaya zadoljennost	Trade and other receivables	Oborot (joriy) aktivlar
Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari	Denejnie sredstva i ix ekvivalenti	Cash and cash equivalents	Oborot (joriy) aktivlar
Sotishga mo‘ljallangan oborotdan tashqari aktivlar va sotishga mo‘ljallangan chiqib ketayotgan guruhlar aktivlari	Vneoborotnie aktivi, prednaznachennie dlya prodaji, i aktivi vibivayushey gruppi, prednaznachennoy dlya prodaji	Assets classified as held for sale, and assets indicated in disposal groups classified as held for sale	Oborot (joriy) aktivlar
Joriy va muddat uzaytirilgan soliq aktivlari (alohida)	Tekushiye i otlojennie nalogovie aktivi (otdelno)	Current and deferred tax assets (separately)	Oborotdan tashqari hamda oborot (joriy) aktivlar

Qisqa muddatli aktivlar. Sohaga doir adabiyotlarda joriy aktivlarning keng tarqalgan quyidagi formulasi keltirilgan:

“Joriy avtivlar = Pul mablag‘lari + Pul ekvivalentlari + Zaxiralar + Olinadigan schyotlar + Sotishga qobiliyatli qimmatli qog‘ozlar + Oldindan to‘langan harajatlar + Boshqa likvidli aktivlar

(Current assets = Cash + Cash Equivalents + Inventory + Accounts Receivable + Market Securities + Prepaid Expenses + Other Liquid Assets)”[45]

Standart talablariga ko‘ra oborot (joriy) aktivlar sifatida tan olinishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi qayd etilgan (2.13-jadval):

2.13-jadval

Oborot (joriy) aktivlarni tan olish mezonlari va ularning mazmuni[46]

Mezonlarning nomlanishi	Mazmuni
1. Uni realizatsiya qilish ko‘zda tutiladi yoki sotish uchun tutib turish yoki kompaniyaning odatdagi	Realizatsiya qilishni ko‘zda tutish deganda, aktiv sotiladi; sotish uchun tutib turish deganda, zaxira sotish uchun saqlaniladi;

[45] https://byjus.com/commerce/what-are-current-assets/

[46] 1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” standartiga muvofiq muallif tomonidan ishlab chiqilgan

operatsion sikli sharoitida foydalanadi	operatsion sikli sharoitida foydalanish deganda, xom-ashyolar ishlab chiqarish uchun zaxira sifatida saqlaniladi
2. Savdo maqsadlarida ko‘zda tutilgan bo‘ladi	Savdo maqsadlarida ko‘zda tutish deganda, aktivlar qayta sotish maqsadida sotib olinadi
3. Uni hisobot sanasidan keyin 12 oy davomida realizatsiya qilish ko‘zda tutiladi	Hisobot sanasidan keyin 12 oy ichida sotilishi kutilayotgan, ya’ni sotish uchun mo‘ljallangan har qanday aktiv oborot aktivi hisoblanadi. Savdo va boshqa debitorlik qarzlari ham oborot aktiv hisoblanadi, agarda 12 oy ichida so‘ndirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa
4. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari ko‘rinishidagi aktivlar	Foydalanishga hech qanday to‘siqqa ega bo‘lmagan, boshqa aktivlarga tez aylanadigan eng likvidli aktiv hisoblanadi

Ushbu mezonlar joriy aktivlarni tan olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tan olingan va baholangan oborot (joriy) aktivlar balans qiymatida hisobotlarda aks ettiriladi.

Qisqa muddatli aktivlarning tarkibi va tasnifini 2.16-rasmda keltiramiz.


Qisqa muddatli aktivlar uchta farqlovchi jihatga ega:

- ular normal operatsion sikl davomida aylanadi;
- ular hisobot sanasidan 12 oydan oshmagan davr davomida aylanadi; foydalanish muddati bilan chegaralanmagan aktivlar.


Ularga pul mablag‘lari va boshqa tez likvidli aktivlar kiradi.

Uzoq muddatli aktivlar. Yuqorida qayd qilingan mezonlariga javob bermaydigan boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflanishi lozim. Uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishini quyidagi 2.17-rasmda aks ettirish mumkin. Chet el adabiyotlarida ko‘pchilik mualliflar “er va yerni obodonlashtirish” hamda “tabiiy resurslar”ni uzoq muddatli moddiy aktivlar tarkibiga kiritishadi.

Xo‘jalik faoliyatini yuritish va uni uzluksiz rivojlanishini ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘lib korxonalarning tegishli turdagi va miqdordagi aktivlar bilan ta’minlanganligi hisoblanadi. Aktivlar deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning baxolash qiymatiga ega bo‘lgan va o‘z ichiga pul mablag‘lari va debitorlik qarzlarni olgan moddiy, shuningdek, nomoddiy mulki tushuniladi.



2.16-rasm. Qisqa muddatli aktivlar tasnifi



2.17-rasm. Uzoq muddatli aktivlar tarkibiy qismlari

Quyidagi jadvalda aktiv deb tan olinishi uchun moddiy va nomoddiy mulk bajarishi lozim bo‘lgan talablar, ularning izohi, amaliy misollari va statistik ma’lumotlar keltirilgan (2.13-jadval).

2.13-jadval

Aktiv deb tan olish talablari[47]

№	Talab	Izoh	Amaliy misol va statistik ma’lumot
1	Qiymatga ega bo‘lishi va bu qiymat aniq baholanishi	Aktiv deb tan olinishi uchun uning qiymatini pul o‘lchovida baholash mumkin bo‘lishi kerak.	Masalan, yangi uskuna sotib olinganda uning qiymati shartnoma asosida belgilanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistondagi yirik sanoat korxonalarida asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati 12,5 mlrd so‘mni tashkil qilgan.
2	Egalik qilish huquqi asosida korxona tomonidan nazorat qilinishi	Aktiv faqat korxona balansida bo‘lsa va unga egalik huquqi tegishli bo‘lsa tan olinadi.	Masalan, lizing asosida 5 yil muddatga olingan stanok korxona balansiga kiritiladi. Statistikaga ko‘ra, 2022-yilda lizing asosida asosiy vositalar sotib olish hajmi 2,1 trln so‘mni tashkil qilgan.
3	Kelgusida iqtisodiy naf keltirishi	Aktiv korxonaga kelgusida iqtisodiy foyda olib kelishi kerak, ya’ni daromad yoki mablag‘lar kirimini oshirishga xizmat qiladi.	Masalan, yangi ishlab chiqarish liniyasi mahsulot hajmini oshiradi va sotuvdan daromad ko‘payadi. 2023-yil hisobotlariga ko‘ra, yangi ishlab chiqarish liniyasi joriy etilgan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 18% ga oshgan.
4	Yuz bergan xo‘jalik operatsiyalari natijasi hisoblanishi	Aktivlar faqat haqiqiy xo‘jalik operatsiyalari natijasida vujudga kelgandagina hisobga olinadi.	Masalan, bino qurib bitkazilgandan so‘ng foydalanishga topshirilishi bilan balansga kiritiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda qurib bitkazilgan ishlab chiqarish obektlarining umumiy qiymati 9,8 trln so‘mni tashkil etgan.
5	Ushbu foydalanishdagi aktivlarni kelgusi davrlarda sotilishi rejalashtirilmagan bo‘lishi darkor	Asosiy vosita sifatida tan olinishi uchun aktiv korxona tomonidan uzoq muddat davomida foydalanilishi va yaqin kelajakda	Masalan, korxona ishlab chiqarishda 10 yil davomida foydalanish uchun yangi texnologik uskuna sotib olsa va uning sotilishi rejalashtirilmagan bo‘lsa, u asosiy vosita sifatida tan olinadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda korxonalarning

[47] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

		sotish rejasi mavjud bo‘lmasligi lozim. Agar aktiv qisqa muddatlarda sotish uchun olingan bo‘lsa, u tovar-material zaxirasi sifatida hisobga olinadi.	87% asosiy vositalari uzoq muddatli foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, sotish uchun qo‘yilmagan.

Asosiy vositalar korxonalarning moddiy texnika bazasini tashkil etuvchi mehnat qurollari va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Asosiy vositalar deganda korxona tomonidan uzoq yillar davomida foydalaniladigan hamda iqtisodiy naf olib keladigan aktivlardan korxona tomonidan investitsiya uchun ishlatiladigan aktivlar va sotish uchun ushlab turiladigan aktivlarning chegirilgan qismi tushuniladi.

Ularga quyidagi jadvalda asosiy vositalarni guruhlarga ajratib olishimiz mumkin. Bunday guruhlarga ajratish asosiy vositalarni foydali xizmat muddatini aniqlashda ham muhum rol o‘ynaydi (2.14-jadval).

Aktivlarning harakterli xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jismoniy ko‘rinishga (shaklga) ega bo‘lishi ham, ega bo‘lmasligi ham mumkin, masalan, bino yoki stanok aniq shaklga ega, lekinda patent, litsenziya, savdo belgisi, mualliflik huquqi moddiy shaklga ega emas;

2.14-jadval

Asosiy vositalar guruhlari va tarkibi xalqaro standartlar bo‘yicha

№	Asosiy vositalar guruhlari	Asosiy vositalar tarkibi
Mulk (property)	Binolar	sex, ombor, laboratoriya, idora, garaj, o‘t o‘chirish deposi va shu kabi mehnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta’minlovchi ob’ektlar. Binolar tarkibiga ularni normal ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha kommu- nikatsiyalar, ya’ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta’minoti, lift, yong‘inga qarshi va signalizatsiya

		qurilmalari, telefon aloqasi simlari tizimlari ham kiritiladi.
	Inshoyatlar	ochiq ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo‘l shahobchalari, nasos stansiyalar, kanallar, suv havzalari, asfaltlangan yo‘llar va yo‘lkalar.
	Uzatish qurilmalari	elektr liniyalar, gaz, suv, bug‘ o‘tkazuvchi kuvurlar va boshqalar.
Mashinalar (plant)	Mashina va uskunalar	issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi generatorlar, dvigatel va transformatorlar, stanoklar, issiqlik pechlari, tikuv, yig‘uv, dazmollash, saralash mashinalari, kranlar, kompressorlar, o‘lchov tarozilari.
	Transport vositalari	yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, parovozlar, teplovozlar, paroxodlar, tramvaylar, trolley- buslar, avtobuslar, pritseplar, samolet va vertoletlar, shuningdek, magistral truboprovodpar.
Asbob-uskunalar (equipment)	Hisoblash texnikasi	kompyuterlar va ularga o‘rnatiladigan periferiya qurilmalari (printer, skaner, modem va boshqalar).
	Uskunalar	presslovchi, qisuvchi va boshka texnologik funksiyalarni bajaruvchi asbob- uskunalar.
	Ofis mebeli va jihozlari	shkaflar, stol va stullar komplekti, doskalar, seyflar, yozuv mashinkalari, faks, nusxa ko‘chirish apparatlari, uyali aloqa vositalari va boshqalar.
Biologik aktivlar	Ishchi va nasldor hayvonlar	otlar, tuyalar, ho‘kizlar, sigirlar, bo‘qalar, ko‘ylar, echkilar, cho‘chqalar va boshqa ishchi sifatida ishlatiladigan va nasl beradigan hayvonlar.
	Ko‘p ynllik o‘snmliklar	bog‘lar, o‘rmonlar va boshqalar.

- sotib olingan, bepul kelib tushgan, ishlab chiqarilgan bo‘lishi mumkin;
- korxonada yuz berayotgan jarayonlarda moddiy asos yoki ularning natijasi hisoblanishi mumkin, masalan, xom-ashyo ishlab chiqarishga moddiy asos, tayyor mahsulot esa ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi;
- boshqa aktivlarga almashtirilishi mumkin,

- qarzlarni to‘lash uchun ishlatilishi mumkin;
- qisqa yoki uzoq vaqt maboynida foydalanishda bo‘lishligi mumkin;
- oborotda va oborotdan tashqarida bo‘lishligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, aktivlarni tan olishda qiymatning aniq baholanishi, egalik qilish huquqining mavjudligi, kelgusida iqtisodiy naf keltirishi va xo‘jalik operatsiyalari natijasida shakllanishi asosiy mezonlardir. O‘zbekiston korxonalarining amaliy tajribasi va statistik ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri hisobga olingan aktivlar korxona samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti – “Mulk, Mashina va Uskunalar” (PP&E) mazkur standart turli manbalarda har xil tarzda nomlanadi: “Mulk, zavod va uskunalar hisobi”, “Mulk, mashina va uskunalar hisobi”, yoki “Yer mulki, zavodlar va uskunalar”, “Mulk, inshootlar va uskunalar” kabi nomlar bilan uchraydi.

Mazkur 16-son standartga asosan asosiy vositalarni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

- Property (Mulk): yer, yer uchastkalari, binolar;
- Plant (Zavod): ishlab chiqarish mashinalari, yerosti va yerusti infratuzilmalari, suv, havo va transport vositalari;
- Equipment (Uskunalar): texnik jihozlar, mebellar, muhandislik vositalari va ofis jihozlari;

16-son BHXS (IAS 16 Property, Plant and Equipment) bo‘yicha aktivlarni tan olish mezonlari, ularning amaliy misollari, 2.15-jadval ko‘rinishida umumlashtirilgan.

2.15-jadval

Tan olish mezonlari va amaliy misollar

№	Tan olish mezoni	Amaliy misol
1	Kelgusida iqtisodiy naf keltirishi ehtimoli mavjud bo‘lishi	Korxona yangi konveer liniyasi sotib oldi, u mahsulot hajmini oshirib kelajakda daromad keltiradi.
2	Qiymati ishonchli baholanishi mumkin bo‘lishi	Zavod uchun stanok 1,5 mlrd so‘mga harid qilindi, shartnoma asosida qiymati tasdiqlandi.

3	Uzoq muddat foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi	Korxona ofis uchun kompyuterlar sotib oldi, ular 5 yil davomida foydalaniladi.
4	Foydalanish maqsadi – ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ma’muriy ehtiyojlar uchun	Korxona yangi omborxona qurdirdi, u mahsulotlarni saqlash uchun ishlatiladi.
5	Boshlang‘ich qiymat tarkibiga kiritiladigan harajatlar	200 ming $ uskunani import qilish: bojxona 20 ming $, montaj 5 ming $, jami 225 ming $.

Agar aktiv korxonaga iqtisodiy naf keltirmasa, u asosiy vosita sifatida tan olinmaydi. Masalan: korxona ijtimoiy maqsad uchun xodimlar farzandlariga maktab binosini taqdim etsa – bu bino daromad keltirmaydi, shuning uchun asosiy vosita sifatida tan olinmaydi.

Qisqa muddatli majburiyatlar. Majburiyatlar majburiy tartibda qisqa muddatli sifatida tasniflanadi, agarda u quyidagi mezonlardan birontasini qanoatlantirsa:

(a) uni tashkilotning odatiy operatsion sikli doirasida uzish ko‘zda tutilganligi;

(b) uning asosan sotish maqsadiga mo‘ljallanganligi;

(s) u hisobot davridan keyin o‘n ikki oy davomida to‘lanishga qaratilganligi;

(d) tashkilotda taalluqli majburiyat hisobot sanasidan keyin minimum o‘n ikki oy davomida to‘lanishini ortga surishga so‘zsiz huquqi yo‘qligi.

Uzoq muddatli majburiyatlar. Yuqorida qayd qilingan mezonlariga javob bermaydigan boshqa barcha majburiyatlar uzoq muddatli majburiyatlar sifatida tasniflanishi lozim.

1-son BHXSda 74-77-moddalarida kompaniyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri buxgalteriya balansida yoki bo‘lmasa hisobotlarga izohlarda aks ettirishi talab etiladigan axborotlar qatori ham keltirilgan.

Majburiyatlar va kapital tarkibi va tasnifini 2.18-rasmda aks ettiramiz.

Kapital bo‘limida quyidagi elementlar aks ettirilgan:


1. Nominal qiymati bo‘yicha ustav kapitali, ruxsat etilgan va haqiqatda chiqarilgan aksiyalar soni ko‘rsatiladi. O‘rtoqlik jamiyatlarida

esa bu bo‘lim har bir klass ishtirokchilariga oid bo‘lgan hissasini ko‘rsatgan holda umumiy kapital summasi;

2. emission daromad, aksiyalarning nominal qiymatidan ortgan qismi;

3. rezerv va taqsimlanmagan foyda;

4. nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi.



2.18-rasm. Majburiyat va xususiy kapital tasnifi

Buxgalteriya balansida moddalarni joylashtirishda quyidagi qoidaga amal qilinadi: **balans moddalarini joylashtirishda ularning likvidlik darajasi hisobga olinadi, ya’ni qiyin likvidli aktivlardan tez likvidli aktivlarga, xuddi shuningdek, uzoq muddatli majburiyatlardan qisqa muddatli majburiyatlarga o‘tish tartibida joylashtiriladi.**

Yuqoridagi qoidalar talablariga muvofiq keladigan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning formatini quyidagi 2.16-jadvalda keltiramiz:

2.16-jadval

20X2 yi 31 dekabr holatida AVS kompaniyasining moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti[48]

	Satr	20X2 y. 31 dek.	20X1 y. 31 dek.
AKTIVLAR			
OBOROTDAN TASHQARI AKTIVLAR			
Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar	010	X	X
Gudvil	020	X	X
Nomoddiy aktivlar	030	X	X
Hissali qatnashish metodi bo‘yicha hisobga olinadigan investitsiya	040	X	X
Sotish uchun mavjud bo‘lgan investitsiya	050	X	X
Jami oborotdan tashqari aktivlar (010+020+030+040+050)	**060**	X	X
AYLANMA MABLAG‘LAR			
Zaxiralar	070	X	X
Savdo va boshqa debitorlik qarzlari	080	X	X
Boshqa aylanma mablag‘lar	090	X	X
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	010	X	X
Jami aylanma mablag‘lar (070+080+090+010)	**020**	X	X
Jami aktivlar (060+030)	**030**	X	X
XUSUSIY KAPITAL VA MAJBURIYATLAR			
BOSH KOMPANIYA AKSIYADORLARIGA TAALLUQLI BO‘LGAN XUSUSIY KAPITAL			
Aksiyadorlik kapitali	040	X	X
Emission kapital	050	X	X
Qayta baholash uchun rezerv	060	X	X
Taqsimlanmagan foyda	070	X	X
Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi	080	X	X
Jami xususiy kapital (040+050+060+070+080)	090	X	X
MAJBURIYATLAR			
UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLAR			
Uzoq muddatli qarzlar	100	X	X
Muddati uzaytirilgan qarzlar	110	X	X
Uzoq muddatli rezervlar	120	X	X

[48] ©2016 PricewaterhouseCoopers. Podgotovlen Akademiyey PwC dlya ekzamenov DipIFR v 2016 godu. 0315-betdagi jadval qayta ishlangan.

Jami uzoq muddatli majburiyatlar (100+110+120)	**130**	X	X
QISQA MUDDATLI MAJBURIYATLAR			
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari	140	X	X
Qisqa muddatli qarzlar	150	X	X
Uzoq muddatli qarzlarning joriy qismi	160	X	X
To‘lanadigan joriy soliqlar	170	X	X
Qisqa muddatli rezervlar	180	X	X
Jami qisqa muddatli majburiyatlar (140+150+160+170+180)	190	X	X
Jami majburiyatlar (130+190)	200	X	X
Jami xususiy kapital va majburiyatlar (090+200)	210	X	X

Buxgalteriya balansining xalqaro standartlar talablari asosida tuzilgan shaklini quyidagi Reckitt & Colman pls kompaniyasining misolida keltiramiz (2.17-jadval):

2.17-jadval

Reckitt & Colman pls Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot 31 dekabr 20X1

(ming AQSH dollari hisobida, aksiyalardagi raqamlardan tashqari)

	Dek. 31, 20X2	**Dek. 31, 20X1**
Aktivlar		
Uzoq muddatli aktivlar		
1. Nomoddiy aktivlar	212,196	210,486
2. Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar	1,579,580	1,623,113
3. Minus: jamg‘arilgan depresiatsiya	[183,792]	[178,260]
4. Investitsiyalar	694,276	685,150
5.Jami uzoq muddatli aktivlar[1+2-3+4]	**2,302,260**	**2,340,489**
Aylanma aktivlar		
6.Zaxiralar	961,689	925,026
7. Olinadigan schyotlar:		
Olinadigan savdo schyotlari	177,502	182,406
Olinadigan boshqa schyotlar	4,203	3,205
9. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari	121,744	118,446
10. Boshqa joriy aktivlar	30,452	25,450
11. Jami aylanma aktivlar [6+7+8+9+10]	**1295,590**	**1,254,533**
12. Muddat uzaytirilgan soliqlar		
13. Muddati uzaytirilgan harajatlar	**4,475**	**4,475**
Jami aktivlar [5+11+12+13]	**3602,325**	**3,599,497**
Aksiyadorlik kapitali va majburiyatlar		
Aksiyadorlik kapital		

14. Imtiyozli aksiya – Bir donasi qiymati - 100$, 6%, kumlyativ, konvertabil (e'lon qilingan, ishlab chiqarilgan va muomaladagi aksiya 10000)	1,000	1,000
15. Oddiy aksiyalar – bir donasi qiymati – 10 $, e'lon qilingan 350,000,000 aksiya, ishlab chiqarilgan va muomaladagi aksiya 200,000,000	2,000,000	2,025,000
16.Taqsimlanmagan foyda	1,015,382	1,008,317
17. Sof foyda	14,800	12,845
18. Qayta baholashdagi farqlar		
19. Aksiyador kamchiligining hissasi		
20. Jami xususiy kapital [14+15+16+17+yoki-18+19]	**3,031,182**	**3,047,162**
21. Rezervlar	**16,450**	**15,250**
Majburiyatlar		
22. To'lanadigan schyotlar:		
To'lanadigan savdo schyoti	309,563	320,500
Boshqa to'lanadigan schyotlar	85,480	74,285
23. Foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar	2,960	3,020
24. Uzoq muddatli debtlar	155,450	138,040
25. Jami majburiyatlar [22+23+24+25]	**553,453**	**535,845**
26. Muddati uzaytirilgan soliqlar	**1,240**	**1,240**
Jami kapital va majburiyat [20+21+26+27]	**3,602,325**	**3,599,497**

Ushbu xalqaro standartlar talabida tuzilgan buxgalteriya balansi bir qancha afzalliklarga va bizning amaliyotimizdagi buxgalteriya balansidan farqli jihatlarga ega. ***Birinchidan,*** hisobot shakli qisqa va aniq tuzilganligi bilan ajralib turadi. Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymatda ko'rsatilgan, mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar esa boshlang'ich qiymatda hamda ularning depresiatsiyasi alohida satrda aks ettirilgan. ***Ikkinchidan***, olinadigan schyotlar va to'lanadigan schyotlar savdo va boshqa schyotlarga ajratilgan, qaysiki bu holat pul oqimi to'g'risidagi hisobotni buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni transformatsiyalash asosida tuzishga imkon beradi. Muddati uzaytirilgan soliqlar moddasi alohida ajratilgan. ***Uchinchidan***, imtiyozli aksiyalar va oddiy aksiyalar bir dona aksiyasining qiymati hamda e'lon qilingan, ishlab chiqarilgan va muomaladagi aksiya miqdori bo'yicha aks ettirilgan. Bu axborot foydalanuvchilarni juda qimmatli axborotlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. ***To'rtinchidan***, foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar

boshqa majburiyatlardan ajratilib ko‘rsatilgan, bu esa hisobot shakllarining bir-biriga uyg‘unligini ta’minlaydi. ***Beshinchidan,*** muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari alohida ajratilib ko‘rsatilgan. Bu holat xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqadi. ***Oltinchidan,*** hisobga oid bo‘lgan atamalarda ham farq mavjud, masalan, mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar, depresiatsiya, olinadigan savdo schyotlari, to‘lanadigan savdo schyotlari, aksiyador kamchiligining hissasi, baholanadigan majburiyatlar, uzoq muddatli debtlar va boshqa atamalar. Ushbu atamalarni mazmuni keyingi mavzularda ko‘rib chiqiladi.

2.7. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot va boshqa hisobotlar asoslari.

Kompaniya davr davomida tan olingan barcha daromad va harajatlarning barcha moddalarini taqdim etishlari shart:

(a) **to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot**, bu bitta hisobotda, yoki

(b) ikkita hisobotda: birinchisi, foyda va zararlarning komponentlarini aks ettiruvchi hisobot **(foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot)**, ikkinchisi foyda va zararlardan boshlanuvchi boshqa to‘plam daromadlar komponentlarini aks ettiruvchi hisobot (**boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot)**

Yuqoridagi standart talablaridan xulosa qilish mumkin:

To‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot = foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot + boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot

1-son BHXS 82-bandiga muvofiq to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot davr uchun minimum quyidagi moddalarni aks ettirishlari lozim:

(a) tushum;

(b) moliyalashtirish bo‘yicha harajatlar;

(s) kompaniyaning hissali qatnashish metodi bo‘yicha assotsiatsiyalashgan kompaniyalar va qo‘shma kompaniyalar foyda va zararlardagi hissasi;

(d) soliqlar bo‘yicha harajatlar;

(e) alohida summa, qaysiki, yuzaga keladi:

(i) soliqlardan keyin tugallanayotgan faoliyatdagi foyda yoki zararlari;

(ii) sotish bo‘yicha harajatlar chegirilgandan keyingi adolatli qiymat bo‘yicha baholash natijasida yoki tugallanayotgan faoliyatni tashkil etuvchi aktivlarning chiqib ketishi yoki chiqib ketayotgan guruhlar natijasida tan olingan soliqlardan keyingi foyda va zararlar;

(f) foyda yoki zararlar;

(g) o‘zining xususiyati (h-bandi ostida ifodalangan summadan tashqari) bo‘yicha tasniflangan boshqa to‘plam daromadlarning har bir komponenti;

(h) hissali qatnashish metodi bo‘yicha hisobga olinadigan assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalar boshqa to‘plam daromadlaridagi hissasi;

(i) umumiy to‘plam daromadi.

Kompaniya to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobotda davr davomida taqsimot sifatida quyidagi moddalarni aks ettirishlari shart:

(a) Foyda va zararlar olib boriladi:

(i) Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi;

(ii) Bosh kompaniya mulkdorlari.

(b) Davr uchun umumiy to‘plam daromad, olib boriladi:

(i) Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi;

(ii) Bosh kompaniya mulkdorlari.

Agar daromad va harajat moddalari salmoqli bo‘lsa, ularning xususiyati va miqdori albatta alohida ochiqlanishi kerak.

Quyidagi daromad va harajat moddalarining alohida ochiqlanishi talab etiladi:

(a) zaxiralar qiymatini mumkin bo‘lgan sotishning sof qiymatiga qadar hisobdan chiqarish;

(b) tashkilot faoliyatini restrukturizatsiya va restrukturizatsiya qilingan harajatlar bo‘yicha har qanday baholangan majburiyatlarning qaytarilishi;

(s) mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar ob’ektlarining chiqib ketishi;

(ye) tugallanayotgan faoliyat;

(f) sud tortishuvlari bo‘yicha murosaga kelish;

(g) boshqa baholanadigan majburiyatlar qaytarilishi.

To‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobotning tarkibida foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot alohida o‘rin tutadi.

Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotning maqsadi daromad va harajatlarni tashkilotning asosiy (odatdagi) faoliyati va asosiy bo‘lmagan (odatdagi bo‘lmagan) faoliyati natijasida yuzaga kelishi asosida tasniflab, asosiy faoliyatning foydasi (zarari), soliq to‘lagunga qadar foydasi hamda sof foydasi to‘g‘risidagi axborotlarni ularning daromad va harajatlari omillari bilan birgalikda taqdim etishdan iborat. Sof foyda to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish hisobotning bosh maqsadidir.

Foyda va zararlar va boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot strukturasini quyidagi 2.18-jadvalda aks ettirilgan.

2.18-jadval

AVS kompaniyasining 20X2-yil 31 dekabr bilan yakunlanadigan yil uchun foyda va zararlar hamda boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisoboti[49]

	Satr	**20X2 y.**	**20X1 y.**
Tushum	010		
Sotish tannarxi	020		
Yalpi foyda (010-020)	**030**		
Foiz daromadlari	040		
Tijorat harajatlari	050		
Ma’muriy harajatlar	060		
Amortizatsiyalanadigan qiymati bo‘yicha hisobga olinadigan moliyaviy aktivlarning chiqib ketishidan foyda/zararlar	070		
Foyda va zararlar orqali amortizatsiyalanadigan qiymati bo‘yicha hisobga olinadigan moliyaviy aktivlarni adolatli qiymati bo‘yicha hisobga olinadigan kategoriyaga reklassifikatsiya qilishdan yuzaga keladigan foyda/zararlar	080		
Qadrsizlanishdan zarar	090		

[49]©2016 PricewaterhouseCoopers. Vse prava zashisheni. Etot material podgotovlen Akademiyey PwC dlya ekzamenov DipIFR v 2016 godu0320-0321-b. Qayta ishlangan.

Moliyaviy harajatlar	100		
Hissali qatnashish metodi bo‘yicha hisobga olinadigan investitsiyalardan daromadlar	110		
Soliqgacha foyda (030 + 040 – 050 – 060 + (-) 070 + (-) 080 – 090 – 100 + 110)	**120**		
Foyda solig‘i	130		
Yil uchun DAVOM ETADIGAN FAOLIYATDAN olinadigan foyda (120 -130)	**140**		
Yil uchun TUGALLANAYOTGAN FAOLIYATDAN zarar	150		
YIL UCHUN FOYDA (140-150)	**160**		
Boshqa to‘plam daromadlar:			
Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda reklassifikatsiya qilinishi mumkin bo‘lmagan komponentlar			
Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalarni qayta baholash	170		
Kompaniyaning tanlovi bo‘yicha boshqa to‘plam daromadlar orqali adolatli qiymati bo‘yicha hisobga olinadigan hissali investitsiyalardan foyda/zararlar	180		
Belgilangan to‘lovlar bilan pensiya rejalari bo‘yicha aktuar foyda/zararlar	190		
Assotsiatsiyalashgan kompaniyalar mulki qiymatining oshishidagi hissasi	200		
O‘z kredit risklari bilan bog‘liq moliyaviy majburiyatlar adolatli qiymatining o‘zgarishi	210		
Reklassifikatsiya qilinishi mumkin bo‘lmagan komponentlarga oid foyda solig‘i	220		
Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda reklassifikatsiyalanishi mumkin bo‘lgan komponentlar			
Boshqa to‘plam daromadlari orqali adolatli qiymati bo‘yicha hisobga olinadigan moliyaviy aktivlar (hissali instrumentlar) bo‘yicha foyda/zararlar	230		
Xorijiy sho‘’ba kompaniyalarni qayta hisob-kitob qilishdan kurs farqlari	240		
Pul mablag‘larini samarali xedjilashtirish natijalari	250		
Reklassifikatsiyalash mumkin bo‘lgan komponentlarga oid foyda solig‘i	260		
YIL UCHUN FOYDA SOLIG‘IDAN KEYIN BOSHQA TO‘PLAM DAROMADLAR (+(-)230+(-)240+(-) 250-260	**270**		
YIL UCHUN JAMI TO‘PLAM DAROMADLAR (160+270)	**280**		
Foyda, to‘g‘ri keladi:			
Nazorat qilinadigan aksiyadorlarga	290		

Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasiga	300		
Jami to‘plam daromadlar, to‘g‘ri keladi			
Nazorat qilinadigan aksiyadorlarga	310		
Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasiga	320		
Aksiyaga foyda:			
Bazisli	330		
Pasaytirilgan	340		

Xalqaro standartlar talablari asosida tuzilgan “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotni Reckitt & Colman pls kompaniyasi misolida ko‘ramiz (2.19-jadval):

2.19-jadval

Reckitt & Colman pls 20X2 hisobot yili uchun foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot (ming AQSH dollar hisobida)*

	20X2 y.	**20X1 y.**
1. **Sof realizatsiya**	4,308,490	4,285,445
2. Sotish tannarxi	2,712,570	2,695,400
3. **Yalpi foyda [1-2]**	**1,595,920**	**1,590,045**
4. Realizatsiya bo‘yicha harajatlar	1,145,171	1,137,681
5. Tadqiqot va ishlanmalar harajatlari	6,415	3,485
6. Umumiy ma’muriy harajatlar	256,035	265,436
7. Boshqa operatsion daromadlar	15,650	15,323
8. Boshqa operatsion harajatlar	180,200	179,381
9. **Operatsion faoliyat natijalari [3-4-5-6+7-8]**	**23,749**	**19,385**
10. Sho‘’ba kompaniyalarga investitsiyadan olingan daromad	2,845	4,245
11. Foizlar bo‘yicha sof harajatlar	415	377
12. Boshqa operatsion bo‘lmagan harajatlar	8,419	7,839
13. Operatsion bo‘lmagan faoliyat natijalari [10-11-12]	**5,989**	**3,971**
14. Foyda solig‘iga qadar foyda [9+yoki-13]	**17,760**	**15,414**
15. Foyda solig‘i	2,960	2,569
16. Soliqdan keyingi foyda [14-15]	14,800	12,845
17. Aksioner kamchiligining hissasi		
18. Sof foyda [16-17]	**14,800**	**12,845**
19. Aksiyaga foyda	0.074	0.063

***Izoh:** Harajatlar funksiyasi bo‘yicha tasniflangan*

Ushbu xalqaro standartlar asosida tuzilgan foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot bir qancha xususiyatlarga ega. Hisobotda tadqiqot va ishlanmalar harajatlari operatsion harajatlar tarkibiga kiritilmasdan,

alohida modda sifatida qayd qilinmoqda. Operatsion bo‘lmagan faoliyat natijalari alohida ko‘rsatilgan. Bu foydalanuvchilarda operatsion faoliyati va operatsion bo‘lmagan faoliyati natijalarini bir-biridan aniq farqlagan holda ko‘rish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Aksiyaga foyda ko‘rsatkichi axborot tariqasida keltirilgan, bu esa hisobotning foydaliligini oshiradi.

Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotning maqsadi bo‘lib, tashkilotning hissali kapitali, aksiyadorlik kapitali, emission kapitali, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foydaning hisobot davri boshidagi holati va ularning hisobot davri davomida hissa kapitali kiritilishi, aksiyalarning sotilishi, kapital emissiyasi, hisobot davridagi sof foyda (zarar) va boshqa manbalar hisobidan o‘zgarishi hamda hisobot davri oxiridagi holati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim qilish hisoblanadi.

Standart talablariga muvofiq ***“Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot”da*** quyidagi minimum axborotlar aks ettiriladi:

(a) Davr uchun umumiy to‘plam daromad, bunda bosh kompaniya mulkdorlariga va nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasiga to‘g‘ri keladigan qismlarga ajratilgan holda ko‘rsatiladi;

(b) Kapitalning har bir komponenti uchun retrospektiv qo‘llash samarasi yoki 8-son BHXSga muvofiq tan olingan retrospektiv qayta hisoblash;

(c) Bekor bo‘lgan;

(d) Har bir kapital komponenti uchun davr boshida va oxirida balans qiymati o‘zaro tekshiruvi, bunda ularning quyidagi sabablarga ko‘ra o‘zgarishini alohida ochiqlash:

(i) foyda va zararlar moddalari;

(ii) boshqa to‘plam daromadlari moddalari;

(iii) mulkdorlar bilan operatsiyalar, bunda mulkdorlar tomonidan kiritilgan ta’sis badallari va mulkdorlar foydasiga hissaning taqsimoti, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazoratning yo‘qolishiga olib kelmaydigan sho‘’ba kompaniya qatnashchilari hissasining o‘zgarishi.

Kompaniya kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotda yoki unga izohlarda kapitalning har bir komponenti bo‘yicha boshqa to‘plam

daromadlarni har bir moddalari kesimida tahlilini taqdim qilishlari talab etiladi.

Bundan tashqari, kompaniya kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotda yoki unga izohlarda davr davomida mulkdorlar foydasiga taqsimlangan summa sifatida tan olingan dividendlar, shuningdek, aksiyaga to‘g‘ri keladigan taalluqli dividend summalarini taqdim etishlari lozim.

Xususiy kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotning strukturasi quyidagi jadvalda keltirilgan (2.20-jadval).

Xususiy kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotning quyidagi xususiyatlarini e’tirof etish mumkin.

Birinchidan, hisobot xususiy kapitalning foydada aks ettirilmagan o‘zgarishini alohida satrlarda aks ettirgan;

2.20-jadval

Xususiy kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi konsolidatsiyalashgan hisobot strukturasi[50]

	Aksiya-dorlik kapi-tali	Emis-sion kapi-tal	Qayta baholash rezervi	Taqsim-lanma-gan foyda	Aksiya-dorlar-ning kapitali,ja mi	Nazorat qilin-maydiga n hissasi	Jami kapi-tal
Boshidagi qoldiq	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**
Hisob siyosatidagi o‘zgarishlar va xatolar				(X)	(X)	(X)	(X)
Korrektirovka qilingan qoldiq	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**
Yil bo‘yicha to‘plam daromad			X	X	X	X	X
Dividendlar				(X)	(X)	(X)	(X)

[50] Manba.©2016 PricewaterhouseCoopers. Vse prava zashisheni. Etot material podgotovlen Akademiyey PwC dlya ekzamenov DipIFR v 2016 godu0323-b

Taqsimlanmagan foydaga o‘tkazish			(X)	X	-		-
Aksiyalar emissiyasi	X	X			X		X
Oxirgi qoldiq	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**

Xalqaro standartlar talablariga uyg‘un bo‘lgan xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni keltiramiz (2.21-jadval).

Ikkinchidan, taqsimlanmagan foyda bilan sof foydaning harakati alohida qayd qilingan, qaysiki sof foydaning taqsimlanmagan foydaga olib borilishiga oid axborotlar aks ettirilgan;

Uchinchidan, emission kapital aksiyadorlik kapitalning ichida aks ettirilgan;

2.21-jadval

Reckitt & Colman pls 20X1 hisobot yili uchun Xususiy kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot (ming AQSH dollar hisobida)

	Aksiyadorlik kapitali	Rezerv kapital	Taqsimlanmagan foyda	Sof foyda	Reckitt & Colman plq xususiy kapitali hissasi	Aksiyador kamchiligining	Qayta hisob-lashdagi farq	Jami
31/12/20X0	***2,026,000***		***1,008,317***	***12,845***	***3,047,162***			***3,047,162***
Kapitalga badal kiritish va dividend to‘lash natijasida o‘zgarishi:								
Kapitalga badal	[25,000]				[25,000]			[25,000]
Dividend to‘lovlari				[5,780]	[5,780]			[5,780]
Foydada aks ettirilmagan aksiyadorlik kapitaldagi boshqa o‘zgarishlar:								
Kurs farqi								
Boshqa farqlar								

Foydada aks ettirilmagan aksiyadorlik kapitaldagi o‘zgarishlar:								
Taqsimlanmagan foydaga olib borish			7,065	[7,065]				
20X1-yil soliqdan keyingi foydasi				14,800	14,800			14,800
31/12/20X1	***2,001,000***		***1,015,382***	***14,800***	***3,031,182***			***3,031,182***

To‘rtinchidan, aksiyador kamchilikning hissasi (nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi) va qayta hisoblashdagi farqlar uchun alohida ustun ajratilganki, bu hisob siyosatini talablarini hisobda to‘laroq aks ettirish imkonini beradi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotda korxonaning operatsion, investitsiyaviy va moliyaviy faoliyati davomida pul oqimlarining harakati ko‘rsatiladi.

Hisobot tashkilotning operatsion faoliyati natijasida, ya’ni tovar (mahsulot, ish va xizmatlar)ni sotish natijasida kelib tushgan pul mablag‘lari va to‘lovlari, investitsion faoliyati, ya’ni mulk (yer), bino va mashina va asbob-uskunalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar haridi uchun pul to‘lovlari va ularni sotishdan pul tushumlari, moliyaviy faoliyati natijasida, ya’ni kompaniyaning xususiy kapitali va chetdan jalb qilingan mablag‘lari miqdori va tarkibining o‘zgarishiga doir pul tushumlar va to‘lovlarini tavsiflaydi.

Yuqoridagi fikrlar asosida pul oqimi haqidagi hisobotning maqsadini quyidagicha yoritamiz:

Pul oqimi haqidagi hisobotning maqsadi hisobot davri boshida pul mablag‘larining qoldig‘i, hisobot davri davomida pul mablag‘larining kelib tushishi va to‘lovlarini tashkilotning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati bo‘yicha tasniflab, uning harakati va hisobot davri oxiridagi qoldig‘i to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish bo‘lib hisoblanadi. Ushbu hisobot orqali foyda va zararlar hamda pul mablag‘lari qoldig‘i o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rnatiladi.

Ushbu hisobot moliyaviy hisobotning boshqa shakllari bilan bir qatorda axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning sof aktivlari, moliyaviy tarkibi (likvidlik va to‘lov qobiliyatini ham o‘z ichiga olgan holda) o‘zgarishini hamda o‘zgaruvchan sharoitga va imkoniyatlarga moslashish uchun pul mablag‘larining kelib tushishi va to‘lovi hajmi hamda muddatiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini baholash imkoniyatini beradi.

Ushbu hisobotda aks ettiriladigan axborotlar tarkibini Reckitt & Colman pls kompaniyasi misolida ko‘rib o‘taylik (2.22-jadval).

2.22-jadval

Reckitt & Colman pls Pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobot 20X1 moliyaviy hisobot yili uchun

	20X1	**20X2**
Hisobot yilining boshida pul mablag‘lari	**118,446**	**108,016**
Operatsion faoliyat natijalari	25,991	19,400
To‘lanadigan foyda solig‘i	60	60
Depresiatsiya va amortizatsiya	[6,600]	[4,200]
Uzoq muddatli rezervlardagi o‘zgarishlar	[150]	120
Uzoq muddatli aktivlarni hisobdan chiqarishdan olingan foyda (zarar)	50	[70]
Operatsion faoliyatdan olingan pul mablag‘larining yalpi summasi	**19,351**	**15,310**
Zaxiralarning ko‘payishi	[26,633]	[15700]
Savdo debitorlik qarzlarining ko‘payishi	4,904	5,600
Savdo kreditorlik qarzlarning ko‘payishi	258	250
Aylanma kapitaldagi boshqa o‘zgarishlar	998	250
Operatsion faoliyatdan olingan pul mablag‘larining sof summasi	**[1,122]**	**5,710**
Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalarni oshishi bo‘yicha pul to‘lovlari	[18,940]	[14,400]
Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	18,920	9,200
Investitsiyalarga qo‘shimcha pul to‘lovlari	2,200]	[1,200]
Haridlar bo‘yicha pul to‘lovlari		
Olingan foizlar va dividendlar	2,400	2,200
Qimmatli qog‘ozlar savdosidagi pul oqimi	420	220

Investitsiyaviy faoliyatda foydalanilgan pul mablag‘larining sof summasi	**[522]**	**1,730**
Kapitalga badallar	[5,000]	[2,500]
Kompaniya dividendi va aksiyador kamchilikka to‘langan dividendlar	[5,780]	[5,800]
Qarz majburiyatlarini chiqarish	2,300	[120]
Qarz majburiyatlarini to‘lash	[1,400]	2,200
To‘langan foizlar	[850]	220
Moliyalashtirish bo‘yicha faoliyatda ishlatilgan pul mablag‘larining sof summasi	**[11,252]**	**[4,270]**
Tijorat faoliyati natijasida pul mablag‘lari va ekvivalentlari qoldig‘ining o‘zgarishi	5,150	5.200
Konsolidatsiyalashgan kompaniyalarda o‘zgarishi natijasida pul mablag‘lari va ekvivalentlari qoldig‘ining o‘zgarishi		
Valyuta kursi o‘zgarishi natijasida pul mablag‘lari va ekvivalenti qoldig‘ining o‘zgarishi	9,400	9,500
Yil oxirida pul mablag‘lari va ekvivalenti	**121,744**	**118,446**
Savdo qimmatli qog‘ozlar va boshqa instrumentlar		
Balansda ko‘rsatilgan likvidli aktivlar		

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin bo‘ladi.

Birinchidan, ushbu hisobot buxgalteriya balansi va foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotlardagi o‘zgarishlar asosida tuzilgan;

Ikkinchidan, operatsion faoliyat, investitsiyaviy faoliyati va moliyalashtirish faoliyati bir-biridan ajratilgan, qaysiki axborot foydalanuvchilarga har bir faoliyat natijalari to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

Moliyaviy hisobotning izohlarida foydalanuvchilarga foydali bo‘lgan qo‘shimcha axborotlarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy hisobotga berilgan izohlarda quyidagi axborotlar o‘z aksini topadi:

a) moliyaviy hisobotni tayyorlash asoslari to‘g‘risidagi axborotlar va salmoqli operatsiyalar va hodisalar uchun tanlangan va qo‘llaniladigan hisob siyosati;

b) moliyaviy hisobotda aks ettirilmay qolgan, lekin BHXSlari talabi bilan taqdim qilinadigan axborotlarni ochib berish;

c) moliyaviy hisobotda aks ettirilmagan, lekin ob'ektiv tasavvur uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha axborotlarni taqdim qilish.

Izohlar odatda quyidagi tartibda beriladi, qaysiki bu tartib foydalanuvchilar moliyaviy hisobotni anglashlari va boshqa kompaniyalar hisobotlari bilan solishtirish imkoniyatlarini to‘laroq ochadi:

- MHXSlariga muvofiqlik to‘g‘risida e'tirof etilishi;
- Qo‘llanilayotgan hisob siyosatidagi salmoqli holatlarga talqin;
- Har bir shaklda taqdim etilgan moddalar uchun yordamchi axborotlar shunday tartibda bayon qilinadiki, qaysiki har bir chiziqli modda va har bir moliyaviy hisobotning shaklida taqdim qilingan tartibga va ketma-ketlikka to‘liq mos keladi.

Moliyaviy hisobotlarda aks ettirilayotgan axborotlar moliyaviy holat, moliyaviy natijalar, xususiy kapital va boshqa sohalarga oid bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda qo‘l keladi. Ushbu axborotlarning haqqoniy va foydali bo‘lishligi sifat tavsifi tamoyillariga rioya qilish bilan erishiladi.

Tayanch atamalar:

1. ***Boshqaruv (menejmentlik) buxgalteriya hisobi*** deganda, buxgalteriya hisobi birliklarida menejmentning tarkibiy qismi bo‘lib, menejerlar tomonidan biznes faoliyati menejmentida foydalaniladigan ishonchli va haqqoniy bo‘lgan, asosan pulda o‘lchaniladigan va o‘z vaqtida beriladigan axborotlarni qayd qilish, baholash (o‘lchash), klassifikatsiyalash, to‘plash, taqdim qilish, buxgalteriya axborotlari kommunikatsiyasini o‘rnatish va buxgalterlarning boshqaruvda ishtirok etishi, rejalashtirish, moliyaviy menejment jarayonlarini qamrab oladigan tizimi tushuniladi.

2. ***Moliyaviy hisobdeganda***, buxgalteriya hisobi birliklarida unga oid qonun, moliyaviy hisobot tamoyillari va standartlari asosida pulda o‘lchaniladigan xo‘jalik operatsiyalari yozuvlarini amalga oshirish, o‘lchash (baholash) va to‘plash orqali ushbu operatsiyalarning sub'ektlar

moliyaviy holatiga ta’sirini aniqlash, moliyaviy hisobot davri oxirida moliyaviy holatni aks ettirish va axborotlarni moliyaviy hisobot ko‘rinishida foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimi tushuniladi.

3. ***Tannarx buxgalteriya hisobi*** deganda rejalashtirish, narxlarni belgilash, mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish va kengaytirish, harajatlarni optimallashtirish, xodimlar mehnatini rag‘batlantirish va menejmentning boshqa sohalariga oid qarorlar qabul qilish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar, jarayonlar, faoliyatlar tannarxini tan olish, tasniflash, taqsimlash hamda baholash asosida haqiqiy tannarxini aniqlash va tahlil qilish tizimiga aytiladi.

4. ***Soliqlar buxgalteriya hisobi*** deganda, biznes sub’ektlari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq qonunchiligi talablarini to‘lqonli bajarish, o‘z vaqtida to‘lovlarnini amalga oshirish maqsadida ma’lumotlarni qayd qilish, tan olish, baholash, soliq hisob-kitoblarini yuritish asosida soliqqa tortish bazasini aniqlash hamda soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimiga aytiladi.

5. ***Moliyaviy hisobining predmeti*** deb, u o‘rganadigan ob’ektlarga aytiladi. Bu ob’ektlarga aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital va ularning o‘zgarishiga olib keladigan biznes operatsiyalari hamda daromadlar va harajatlar kiradi.

6. ***Moliyaviy hisobining metodi*** – uning predmetini tashkil etuvchi ob’ektlarini qayd qilish, baholash, guruhlash, ishlov berish, identifikatsiya qilish, hisobotlarni tayyorlash, tahlil qilish, uzatish va axborotlarni saqlashda qo‘llaniladigan yondashuvlar, tizimlar hamda metod va usullarning yig‘indisidan iborat.

7. ***Moliyaviy hisobot*** deganda, umume’tirof etilgan qoidalar asosida tashkilotning moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari hamda pul mablag‘lari harakatiga doir eng ob’ektiv va sifatli jamlangan axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim tushuniladi. U ichki va asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish va nazorat uchun axborotga bo‘lgan umumiy ehtiyojini ta’minlashga qaratilgan.

8. ***Aktivlar*** – bu korxona tomonidan o‘tgan hodisalar natijasida nazorat qilinadigan resurslar bo‘lib, ulardan foydalanish kelgusida korxonaga iqtisodiy naf keltiradi.

9. ***Majburiyatlar*** – bu korxona faoliyatida o‘tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan haqiqiy majburiyatlari hisoblanib, ularning so‘ndirilishi (uzilishi) iqtisodiy nafni mujassamlantiruvchi korxona resurslarning tashqariga chiqib ketishiga olib keladi.

10. ***Kapital*** – bu kompaniyaning barcha majburiyatlar chiqarilib tashlangandan keyin qolgan aktivlarga bo‘lgan ulush.

11. ***Daromadlar*** - bu tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda xususiy kapitalning ko‘payishiga olib keladigan holatdagi aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishi

12. ***Harajatlar*** - bu tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining foydasiga taqimlash bilan bog‘liq bo‘lmagan holatda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi

13. ***Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot*** deganda, bu hisobot davrining oxiridagi vaqt momentida kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan tarkiblari bo‘yicha holatini va hisobot davrida o‘zgarishini tavsiflovchi hamda tizimli ravishda asosan tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va unga doir qarorlarni qabul qilish uchun taqdim qilinadigan axborotlarning standartlashgan tizim tushuniladi

14. ***Buxgalteriya hisobi ma’nosida iqtisodiy resurslar*** deganda, foyda olish maqsadida tashkilotga jalb qilingan oborotdan tashqari va oborot mablag‘lar (resurslar) majmuasiga aytiladi.

15. ***Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotning*** maqsadi daromad va harajatlarni tashkilotning asosiy (odatdagi) faoliyati va asosiy bo‘lmagan (odatdagi bo‘lmagan) faoliyati natijasida yuzaga kelishi asosida tasniflab, asosiy faoliyatning foydasi (zarari), soliq to‘lagunga qadar foydasi hamda sof foydasi to‘g‘risidagi axborotlarni ularning daromad va harajatlari omillari bilan birgalikda taqdim etishdan iborat.

Sof foyda to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish hisobotning bosh maqsadidir.

16. ***Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotning maqsadi*** bo‘lib, tashkilotning hissali kapitali, aksiyadorlik kapitali, emission kapitali, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foydaning hisobot davri boshidagi holati va ularning hisobot davri davomida hissa kapitali kiritilishi, aksiyalarning sotilishi, kapital emissiyasi, hisobot davridagi sof foyda (zarar) va boshqa manbalar hisobidan o‘zgarishi hamda hisobot davri oxiridagi holati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim qilish hisoblanadi.

17. ***Pul oqimi haqidagi hisobotning maqsadi*** hisobot davri boshida pul mablag‘larining qoldig‘i, hisobot davri davomida pul mablag‘larining kelib tushishi va to‘lovlarini tashkilotning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati bo‘yicha tasniflab, uning harakati va hisobot davri oxiridagi qoldig‘i to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish bo‘lib hisoblanadi. Ushbu hisobot orqali foyda va zararlar hamda pul mablag‘lari qoldig‘i o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rnatiladi.

18. ***Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari*** deganda, axborot foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini umumlashtirishdan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifi, ularni shakllantirishda rioya qilinadigan qoida va prinsiplar hamda moliyaviy hisobot elementlarini tavsiflovchi fundamental negizi tushuniladi.

19. ***Moliyaviy hisobva hisobotining an’anaviy protsedurasi*** deganda, pulda o‘lchaniladigan iqtisodiy operatsiyalarni, hodisalarni o‘lchash, baholash, yozuvlarni amalga oshirish va hisobotlar (steytmentlar) taqdim qilishning eng samara beradigan ketma-ketligi tushuniladi.

O‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Buxgalteriya hisobi va uning tarkibiy qismlariga ta’rif bering.
2. Boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobaloqalari va farqli jihatlari.

3. Boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobining axborot foydalanuvchilari.

4. Moliyaviy hisobining mustaqil fan sifatida predmeti va metodi.

5. Moliyaviy hisobotning ta’rifi va uning xususiyatlarini ochib bering.

6. Moliyaviy hisobotning elementlariga tavsif bering.

7. Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari va formatlari.

8. Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, foyda va zararlar hamda boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobotlar tavsifi.

9. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital harakati to‘g‘risidagi hisobot, izohlar va tushuntirishlarga tavsif bering.

10. Buxgalteriya hisobi ma’nosidagi iqtisodiy resurslar. Uzoq muddatli aktivlar va qisqa muddatli aktivlar.

11. Uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlar.

12. Moliyaviy hisobining konseptual asoslariga tavsif bering.

13. Moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari. Fundamental va moliyaviy hisobot sifatni oshiruvchi tavsiflar.

14. Moliyaviy hisobot konsepsiyasi va prinsiplari.

15. Hisob sikli va transformatsion jadval. Moliyaviy hisobprotsedurasi bosqichlari.

III BOB. SAVDO KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI

3.1. Savdo korxonalari xizmatlari va iqtisodiy samaradorligi

Moliyaviy hisob asoslari fanida savdo korxonalari buxgalteriya hisobini alohida bob sifatida keltirishdan maqsad buxgalteriya hisobini o‘rganishni savdo korxonalari buxgalteriya hisobini o‘rganishdan boshlash kerak. Savdo korxonalarida tovarlar hisobining prinsiplarini bilmasdan turib ishlab chiqarish korxonalarida buxgalteriya hisobini o‘rganish qiyin bo‘ladi.

Bugungi kunda savdo barcha boshqa tarmoqlarning drayveri hisoblanadi. Shu bois, biz ushbu darslikda savdo korxonalarning iqtisodiyotdagi o‘rni, uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, savdo korxonalarining asosiy ko‘rsatkichlari, savdo korxonalari samaradorligi tushunchasi va uning KPI ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi va buxgalteriya hisobining vazifalariga alohida paragraf sifatida to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jahon iqtisodiyotida savdo korxonalarining o‘rni nihoyat darajada kattadir. Statistik raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, “jahonda chakana savdo hajmi 2021-yildagi 24,2 trln. AQSH dollari hajmidan 2025-yilga kelib, taxminan 31,7 trillion AQSH dollarini tashkil yetishi prognoz qilingan bo‘lib, globallashuv va bozorlar hamda mamlakatlar o‘rtasidagi turli shartnoma va kelishuvlar natijasida ko‘plab chakana savdo korxonalari biznes yuritish imkoniyatiga yega bo‘lishi kutilmoqda” .

Savdo tushunchasiga berilgan ta’riflar quyidagi 3.1-jadvalda aks yettiramiz.

Agar tovar sotilgan paytda hisob-kitoblar amalga oshirilsa sotuvchi tomon ushbu momentda pul mablag‘lari yoki boshqa qiymatliklarni qo‘lga kiritadi. Agarda sotuvchi tomon keyinchalik to‘lash sharti bilan sotuvni amalga oshirsa haridorga va’da qilingan tovarlarni uzatishda qoplamalarga (pul mablag‘lari yoki boshqa qiymatliliklarni olish) bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritadi. Qoplamalarni olishga bo‘lgan huquq ham ayirboshlash jarayonida asosiy unsuri hisoblanadi.

3.1-jadval.

Savdo tushunchasiga olimlarning bergan ta’riflari

Olimlar	Bergan ta’riflari
O.M. Pardayev	Mahsulotlarni sotish xizmati deganda, mahsulot(tovar)ning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga pul yoki boshqa shunga tenglashtirilgan boylikka almashtirish yevaziga mulk yegasining (mulkka yegalik huquqining) o‘zgarishini ta’minlash jarayonida ko‘rsatiladigan xizmatlar bilan bog‘liq munosabatlar tushuniladi
I.Ivatov	Savdo xizmatlari – iste’mol tovarlari bozorining asosiy segmenti hisoblanadi. U jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatadi. Uning vositasida aholi hamda korxona, tashkilot va muassasalar u yoki bu tovarlarga bo‘lgan talab-yehtiyojlarini qondiradi.
B.A. Abdukarimov	“Savdo xizmati” tushunchasiga keng ma’noda, “savdo – xizmatning alohida turi bo‘lib u bir tomondan ishlab chiqaruvchilarga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan iste’molchilarga, uchinchi tomondan Davlatga xizmat qiladi va to‘rtinchidan u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ham xizmat ko‘rsatadi, ularni xizmatlaridan iste’molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo‘ladi” .
A.Soliyev	“Savdo xizmati sifatini oshirish haridorlarga maslahat berish, tovarlarning namunalarini harakatda ko‘rsatish, reklama va axborotning turli shakllarini rivojlantirish yo‘li bilan tovar tanlab olishda haridorlarga yordam berishni ham taqozo yetadi”
A.B. Borisov	“Savdo – bu 1) xo‘jalik, iqtisodiyot tarmog‘i yoki iqtisodiy faoliyatning turi bo‘lib, uning asosiy ob’ekti tovarayirboshlash, tovarlarni oldi-sotdi, shuningdek haridorlarga tovarlarni sotish, ularni olib borib berish, tovarlarni saqlash hamda ularni sotishga tayyorlash jarayonida xizmat ko‘rsatish bo‘lib hisoblanadi. 2) tijorat, tovarlar olti sotdisi”.

Chunki, sotuvchining qoplamalarni olishga bo‘lgan huquqi qonun bilan himoya qilinadi.

Ushbu jihatlarni hisobga olib savdo tushunchasiga quyidagicha ta’rifni keltiramiz: **Savdo xizmatlari** deganda, alohida tadbirkorlik faoliyat, ya’ni tovar muomalasining bir turi, tovar, mahsulot, ish va

xizmatlarning oldi-sotdi yo‘li bilan ayirboshlash shakli, sotuvchi va haridor qatnashadigan jarayon bo‘lib, unda sotuvchi va’da qilingan tovar (mahsulot, ish va xizmatlarni) uzatish orqali uning qiymatiga teng bo‘lgan pul mablag‘lari yoki qoplamalarni olishga bo‘lgan huquqga ayirboshlash hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Savdo xizmatlari hajmi va uning umumiy xizmatlarda hissasini oshirish uchun bizning fikrimizcha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq (3.2-jadval):

3.2-jadval.

Savdo xizmatlarni sifat jihatdan rivojlantirish

Takliflar va amalga oshiriladigan tadbirlar
1. Savdo madaniyatini oshirish kerak. Shuning bilan birga savdo madaniyati savdoni uning qoidalari asosida yuqori saviyada tashkil yetish, sotilayotgan tovarlar to‘g‘risida yaxshi ma’lumotga yega bo‘lish va haridorlar ye’tiboriga xavola qilish, doimiy mijozlarni qadrlash, ayollar va bolalarga alohida e’tibor qaratish, adolatli narx qo‘yish, tarozi va o‘lchamini to‘g‘ri qo‘yish kabi ishlarning tashkil yetilganligi bilan belgilanadi. Turistlarni jalb qilishning yeng muhim vositasi bu savdo madaniyatidir
2. Savdo korxonalari va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash. Savdo do‘koni standart talablarida jihozlanishi, sovutish tizimlarining ishlashi, avtomatlashtirilgan nazorat tizimining o‘rnatilishi savdoni rivojlantirishning muhim omilidir
3. Savdo xodimlari mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirishni tashkil yetish. Bu o‘z navbatida savdoda mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Mehnatga haq to‘lashning ilg‘or tajribalarini joriy yetish, savdo aylanmasining oshishidan moddiy manfaatdorlik o‘rnatish savdoda miqdor va sifat ko‘rsatkichlarining rivojlanishiga olib keladi
4. Haridorlarning daromadlarini qamrab olish darajasini oshirish. Savdo korxonalarining aholi daromadlarini qamrab olish ko‘rsatkichini, aholiga, jumladan bir kishiga ko‘rsatilayotgan tovar aylanmasi hajmini oshirish kerak. Savdo tashkilotlarida savdo chegirmalari, narxidan tushushlar, aksiyalar o‘tkazish, doimiy haridorlarga yengilliklar berish, keshbek tizimini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy savdo texnologiyalarini joriy yetish davr talabidir
5. Bugungi kunda mamlakatimizda savdo sohasini tubdan rivojlantirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Chakana savdo qoidalarini yangi tahrirda ishlab chiqish kerak
6. Savdoda savdo madaniyati va tovarlar narx-navosini nazorat qiladigan davlat inspeksiyasi va jamoat tashkilotlarini tuzish zaruriyati mavjud

7. Savdo korxonalari faoliyatini raqamlashtirish, axborot texnologiyalardan keng foydalanish, dasturiy ta’minot masalalarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yish
8. Savdo korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning ilg‘or texnologiyalari, investisiyalar jalb qilishning samarali vositalaridan foydalanish
9. Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini hisoblashning kalitli ko‘rsatkichlari kiritish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish
10. Sohani malakali va kompetensiyali mutaxassislar bilan ta’minlash, savdo ishini yuqori darajada tashkil yetadigan marketing, savdo dilerlari, savdo iqtisodchilari, do‘konda sifatli savdo xizmatini ko‘rsatadigan xodimlarga bo‘lgan yehtiyojni ta’minlash, ularni xorijda malakasini oshirish

Iqtisodiy saradorlikka berilgan aksariyat ta’riflarda iqtisodiy samaradorlik olingan natijalarning sarflangan resurslar nisbati bilan baholanishi ye’tirof yetilgan. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi keng qirrali tushuncha, uni yagona ta’rif bilan izohlash yoki ma’lum bir ko‘rsatkichlar va o‘lchagichlar bilan ifodalash murakkab masala. Uning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirilgan ta’rifga zaruriyat mavjud. Buning uchun yesa mavjud ta’riflarni tahlil qilish, ularni guruhlash, ulardagi kuchli jihatlari va kamchiliklarini qayd qilish, xorij tajribasini o‘rganish va mukammallashgan ta’rif ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Iqtisodiy samaradorlik” tushunchasiga berilgan ta’riflarni o‘rganib, bir qancha yondashuvlar mavjud ekanligini ye’tirof yetishimiz mumkin.

Birinchi yondashuvdagi olimlar ishlari va me’yoriy hujjatlarda iqtisodiy samaradorlik natija (samara) yoki olingan foyda bilan o‘lchaniladi, sof foyda qanchalik katta bo‘lsa samaradorlik ham shuncha katta bo‘ladi deb ye’tirof yetishadi (A.Abdug‘aniyev va boshqalar, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev).

Ikkinchi yondashuvga kiritgan olimlarimiz iqtisodiy samaradorlikni olingan natijaning harajatlar (sarflar) va resurslarga nisbati sifatida tavsiflaydi (Q.X.Abdurahmonov , S.D. Predibaylo).

Uchinchi yondashuvdagi talqinda samaradorlik resurslarning optimal taqsimoti yekanligi, shu bois samaradorlikka kompleks yondashib, uni ko‘rsatkichlar tizimi bilan ifodalash va so‘ngra

samaradorlik to‘g‘risida xulosa chiqarish kerakligini ta’kidlashadi (KPI ko‘rsatkichlar tizimi, B.Jovanovich).

Biz uchinchi yo‘nalishdagi olimlarning fikriga qo‘shilgan holda ta’kidlashimiz lozimki, albatta iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy resurslar bilan bog‘liq, ularni optimal taqsimlash, resurslar tarkibiga kiruvchi har bir turdagi aktivlardan samarali foydalanish, ortiqcha chiqimlarga, yo‘qotishlarga, buzilishlarga va boshqa turdagi samarasiz kamayishlariga yo‘l qo‘ymaslikni anglatadi. Yuqoridagi ta’riflarni o‘rganish asosida biz iqtisodiy samaradorlik tushunchasiga quyidagicha takomillashgan mualliflik ta’rifni keltiramiz. Unga ko‘ra, savdo **korxonalari xizmatlari iqtisodiy samaradorligi** deganda, savdo korxonasining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va bozordagi strategik pozitsiyalarini mustahkamlash darajasini ifodalovchi, qo‘shilgan qiymat yaratish va resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya tushuniladi.

Savdo faoliyatining muhim ko‘rsatkichlari, ularni tan olish, baholash va hisoblash tartibini takomillashtirish, bu borada ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish o‘ta muhim ahamiyat kasb yetadi. Biz quyidagi jadvalda savdo korxonalarining barcha ko‘rsatkichlari va ularning tavsifini keltiramiz (3.3-jadval).

3.3-jadval.

Savdo korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning tavsifi
Tushumlar	Tushumlar tashkilotning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan holda yuzaga keladi, unga tovarlarni sotish, xizmatlar ko‘rsatish va ijara bo‘yicha tushumlarni o‘z ichiga oladi.
Sof tushum	Tushum summasidan qaytarilgan realizasiya, haridorlarga taqdim qilingan chegirmalar, narxini kamaytirishlar chegirilgandan keyingi summa
Chakana tovar aylanmasi	Chakana savdo korxonalarida sotilgan tovarlardan kelib tushgan tushum
Ulgurji tovar aylanmasi	Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni ulgurji sotishdan kelib tushgan tushum

Tovarlar tannarxi	Harid tannarxi, qayta ishlash tannarxi va joylashtirish joyi va holatiga keltirish bilan bog‘liq harajatlardan tashkil topadi
Harid chegirmasi va narxidan tushishlar	Bu ta’minotchi tomonidan tovarlar uchun taqdim qilingan savdo chegirmasi va narxidan tushishlar summasi
Sotilgan tovarlar tannarxi	Tovar zaxiralarining boshlang‘ich tannarxiga harid tannarxi qo‘shilib, oxirgi zaxiralar tannarxi chegirib tashlangandan keyingi summa
Savdo ustamasi	Tovarlarning tannarxiga nisbatan belgilanadigan foiz summasi bo‘lib, savdo korxonalarining yalpi daromadini shakllantiradi
Savdo korxonalarining muomala harajatlari	Savdo, umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar muomalasini tashkil yetish bilan bog‘liq sotish harajatlaridan tashkil topadi
Savdo korxonalarining yalpi foydasi	Tovarlarni sotishdan tushgan tushumdan tovarlarning sotish tannarxini chegirish orqali yuzaga kelgan ko‘rsatkich
Savdo chegirmasi	Tovarlarni sotish paytida haridorlarga taqdim qilingan tushishlar summasi
Sof foydasi	Savdo korxonalarining daromadlaridan harajatlarini chegirish orqali aniqlanadi. Sof foyda mulkdorlar qarori bilan taqsimlanadi.

Chakana savdo korxonalari faoliyatida yalpi daromad ko‘rsatkichi ham muhim rol o‘ynaydi. Chakana tovar aylanmasi va yalpi daromad ko‘rsatkichlarining tahlilini quyidagi jadvalda keltiramiz (3.4-javdal).

3.4-jadval.

“Kafolat SNT” xususiy savdo korxonasi chakana tovar aylanmasi ko‘rsatkichi (ming so‘m)

	Ko‘rsatkichlar	**2023-yil**	**2024-yil**	**Mutloq o‘zgarishi (+,-)**	**O‘sish sur’ati (%)**
1.	Chakana savdo tovar aylanmasi	5 440 258,6	7 944 071,5	2 503 812.9	146,02

2.	Sotilgan tovarlarning tannarxi	4 963 021,2	7 102 311,9	2 139 290,7	143,1
3.	Tovarlarni sotishdan olingan yalpi foyda	477 237,4	841 759,6	364 522,2	176,38
4.	Yalpi foyda darajasi	8,7723	10,5961	1,8238	120,9

Ushbu jadval ma’lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, savdo korxonasida 2024-yil chakana tovar oboroti 7 944 071,5 ming so‘m bo‘lgan, o‘tgan yilgan nisbatan 2 503 812,9 ming so‘m oshgan, bu foiz hisobida 146,2% ni tashkil yetgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, savdo korxonasining tovar aylanmasi salmoqli o‘sishga yega bo‘lgan. Buning asosiy omili sifatida qo‘shimcha do‘konlarning ochilishi, mijozlar sonining oshishi, harid qilib olib kelinayotgan tovarlar hajmi va assortimentining kengayishi bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari sotilgan tovarlar tannarxi o‘sish sur’ati 143,1%ni tashkil yetgan, bu tovar aylanmasi o‘sish sur’atidan (146,02%) pastligi, ya’ni 2.92% ga past bo‘lishi ta’minlangan. Bu yesa tovarlarni sotishdan olingan yalpi daromad summasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.


Muomala harajatlari bu savdo va umumovqalanish korxonalarining sotish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlari yekanligini olimlarimiz ta’kidlashgan. Lekin, keyingi yillarda savdo korxonalarining muomala harajatlari tushunchasi me’yoriy-huquqiy hujjatlardan kiritilmasdan qolgan. Muomala harajatlarining ta’rifini ishlab chiqishda uning bir qancha xususiyatli jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. **Birinchidan**, muomala harajatlari bu tovarlar muomalasi sohasida yuzaga kelgan harajatlardir. Tovar muomalasi sohasi deganda,

tovarlarning harakatidagi o‘ta muhim bo‘lgan bosqich hisoblanib, unda asosan sotish amalga oshiriladi. **Ikkinchidan**, muomala harajatlari bevosita tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchilarga yetkazib berishda yuzaga keladigan harajatlardir. Bu harajatlar ham salmoqli harajatlar bo‘lib muomala sohasining samaradorligini belgilab beradi. **Uchinchidan**, muomala sohasining muhim xususiyati ushbu sohada qiymat yaratilmasligi, ya’ni tovarning qiymatini oshirmasligini ye’tirof yetish mumkin.

Ushbu xususiyatlarni inobatga olib, muomala harajatlariga quyidagi ta’rifni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: “**Savdo korxonalarining muomala harajatlari** deganda, tovarlarni ishlab chiqaruvchidan harid qilish jarayoni (harid narxidan tashqari), tovarlarni sotishga tayorlash va sotish jarayoni, jumladan iste’molchilarga yetkazib berishda sarflangan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning puldagi ifodasiga aytiladi.”

Savdo korxonalarida muomala harajatlarini ikkita guruhga bo‘lish mumkin: tovarlarni haridi bilan bog‘liq harajatlar va tovarlarni sotish bilan bog‘liq harajatlar. Ushbu jarayonni quyidagi rasmda aks yettiramiz (3.1-rasm).

Tovarlarni sotish harajatlari deganda, harid qilingan tovarlarni sotish jarayonida yuzaga keladigan sarflar bo‘lib, qaysiki resurslarning chiqib ketishi yoki majburiyatlarning ko‘payishiga olib keladi. Sotish harajatlari tovarlar harid tannarxi aniqlab bo‘lingandan keyin yuzaga keladigan harajatlar hisoblanadi.



3.1-rasm. Savdo korxonalarining muomala harajatlari.

Ularning muhim xususiyati bunday harajatlar tovar tannarxiga kiritilmaydi. Tovar qiymatining tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

Tovarlarning harid tannarxiga olib boriladigan harajatlarni hisoblash hamda tovarlarning harid tannarxiga olib boriladigan harajatlarni hisoblash tartiblarini hamda sotish harajatlari summasi va darajalari to‘g‘risidagi hisob-kitoblarni quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz (3.5-jadval).

3.5-jadval.

Kafaolat SNT xususiy savdo korxonasida tovarlar haridi va sotish harajatlari summasi va darajasi

Harajatlari turlari	Summasi, ming so’m	CHTAga nisbatan darajasi, %
I. Tovarlar haridi bilan bog‘liq muomala harajatlari		
Tovarlarning harid narxi	7 250 350,8	91,27
Qo‘shiladi: Tovarlarni harid qilishda bojxona boji	-	
Tovarlarni harid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq va yig‘imlar (agar ular qoplanmasa)	-	
Vositachilik haqi		
Deklarasiya harajatlari	-	
Bojxona omborida saqlash harajatlari	-	
Sertifikatlash harajatlari	-	
Ortish-tushirish harajatlari	5 600,1	0,0705
Transportda tashish harajatlari	99 781,0	1,2560
Tovarlarini tayyorlsh va saqlash harajatlari	50 550,0	0,6636
Ayiriladi: Savdo chegirmasi va narxidan tushishlar	25 480,0	0,3207
Tovarlarning harid narxi (tannarxi)	**7 380 801,9**	**92,92**
II. Sotish harajatlari		
Tovarlarni transportda tashish harajatlari	90 850,0	1,1436
Tovarlarni sotish bilan bog‘liq mehnatga haq to‘lash va tegishli ijtimoiy sug‘urta harajatlari	120 480,0	1,5166
Savdo yehtiyojlari uchun foydalanadigan binolarni ijaraga olish, saqlash, ta’mirlash, asosiy va nomoddiy aktivlar amortizasiyasi	45 450,0	0,5721

Sotish jarayonida foydalanilgan kommunal xizmatlar, yoqilg‘i, maishiy xizmatlar harajatlari	48 280,0	0,6077
Tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va sortlarga ajratish, o‘rab-joylash materiallari harajatlari, bir martalik ishlatiladigan buyumlar bilan bog’liq harajatlar	38 350,0	0,4827
Savdo reklama va bozorni o‘rganish harajatlari	28 580, 0	0,3598
Sug‘urta, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, tibiiy ko‘rikdan o‘tkazish, operatsion kassa xo‘jaligini yuritish harajatlari	15 375,0	0,1935
Boshqa harajatlar	6 300,0	0,0793
Jami sotish harajatlari	**393 665,0**	**4,9554**
Chakana tovar aylanmasi (CHTA)	7 944 071,5	**100,0**

Ushbu harajatlar savdo muomalasi jarayonida yuzaga keladigan harajatlar va ularning tasnifi asoslangan. 4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, savdo korxonasida sotish faoliyatining harajatlari 393 665,0 ming so‘mni tashkil yetgan, yani uning darajasi 5%ni tashkil yetgan. Bu 100 so‘m tovar aylamasini amalga oshirish uchun 5 so‘m sotish harajatlari amalga oshirilganidan dalolat beradi. Ushbu jadvalda har bir harajat moddasi bo‘yicha uning darajalari aniqlanib ilmiy xulosalar chiqarilgan Masalan, transportda tashish harajatlari chakana tovar aylanmasiga nisbatan 1,1436% ni tashkil yetmoqda. Bu 100 so‘m tovar aylanmasiga 1,1436 so‘m transport tashish harajatlari to‘g‘ri kelishi nafaqat aniqlangan, balki uni yanada optimallashtirish yo’llari asoslab berilgan.

3.2. Savdo faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari va buxgalteriya hisobining vazifalari

Savdo xizmatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni uchta guruhga ajratish mumkin: hajm-qiymat ko‘rsatkichlari; hajm-salmoq ko‘rsatkichlari; sifat ko‘rsatkichlar (2-rasm).

Korxona darajasida tovar aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlariga quyidagi ko‘rsatkichlar kiritilgan: Tovar aylanmasi hajmi; tovar guruhlari bo‘yicha assortimenti tarkibi; bir kunlik tovar aylanmasi, tovar aylanmasi tezligi (tovar aylanuvchanligi); tovarning muomaladagi vaqti; bitta xodimga to‘g‘ri keladigan tovar aylanmasi.

Tovar zaxiralarining aylanishini tahlil qilish tovar aylanmasini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Samarqand shahrida faoliyat

yuritayotgan bir qancha savdo do‘konlarining tovar zaxiralarining aylanishiga doir ma’lumotlarni quyidagi 3.6-jadvalda keltiramiz.

3.6-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan savdo korxonalarining 2024-yil uchun tovar zaxiralari aylanuvchanligi (ming so‘m)

Savdo korxonalari	Yillik tovar zaxiralarining o‘rtacha qoldig‘i	Bir kunlik tovar aylanmasi	Tovarlarning kun hisobida aylanishi
Optovik	2 600 000	104 000	25
Korzinka	3 200 400	96 982	33
Yuksalish	1 050 000	37 500	28
Uzum market	3 300 500	110 016	30

Bu bo‘yicha ham ma’lum xulosalarni qilish mumkin. Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Uzum marketda bir kunlik tovar aylanmasi 110 016 ming so‘mni tashkil yetmoqda. Aylanish tezligi yesa 30 kunni tashkil yetadi. Optovik savdo do‘konlari tarmog‘iga yega bo‘lgan korxonada yesa bir kunlik tovar aylanamsi 104 000 ming so‘mni tashkil yetib, tovarlarning kun hisobida aylanishi yesa 25 kun bo‘lgan. Demak, yeng katta tezlik Optovik savdo do‘konida yerishilgan.

Savdo faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash va uning asosida xulosalar qilish bitta ko‘rsatkichga asoslanmaydi. Buning uchun savdo korxonalari faoliyati samaradorligini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimini hisoblash talab yetiladi. Xo‘sh, bugungi kunda amalda bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimi xalqaro standartlar talablariga muvofiq keladimi? Ularni takomillashtirish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerak? Ushbu masalalar savdo xizmatlari va savdo samaradorligi tushunchalariga yangicha yondashishni, ko‘rsatkichlar tizimini tanlash hamda hisoblash tartibini tadqiq qilishni taqozo yetadi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni jadvalga kiritib, savdo korxonalarining amaliy ma’lumotlari asosida tahlil qilamiz (3.7-jadval).

Mijozlarning loyalligi (sodiqligi) tahlil qilinadigan bo‘lsa, ularning savdo korxonasiga sodiqligi oshgan. Misol uchun jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022-yil davomida korxona 145 ta yangi mijoz jalb qilgan bo‘lsa, 70 ta mijozni yo‘qotgan. Ushbu yilda mijozlarning sadoqatlilik darajasi 89,7 foizni tashkil yetgan. 2023-yil davomida yesa korxona 213 ta yangi mijoz jalb qilishga yerishgan bo‘lsa,

bu yil 55 ta mijozni qayb yetgan. Lekin, bu qayb yetish darajasi o‘tgan yilga nisbatan kam bo‘lgan. Bu yesa loyallik koyeffisiyentining oshishiga olib kelgan. Natijada, 2023-yilda loyallik darajasi 92,7 foizni tashkil yetib, o‘tgan yilga nisbatan 30%ga oshishiga yerishilgan. Loyallik darajasining oshishi albatta korxona mijozlarini tutib turishning muhim natijasi hisoblanadi. Mijozlarning ketishni tahlil qiladigan bo‘lsak, ular o‘tgan yilga nisbatan 15 kishiga kamaygan. Natijada, mijozlarning ketish koyeffisiyentini 2,8% foizga kamaytirishga yerishilgan.

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, korxonada hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan KPI ko‘rsatkichlari salmoqli oshishiga yerishilgan. Bu yesa korxonaning samarali ishlashini ta’minlagan. Lekin, sotilgan tovarlarning tannarxi ko‘rsatkichidan tashqari korxonaning boshqa harajatlari darajasining baland bo‘lishi sof foydaning past darajada o‘sishini ta’minlagan. Bu yesa harajatlarning har bir moddasi bo‘yicha chetlanishlar

3.7-jadval.

“Kafolat” SNT Savdo korxonasining 8 ta kalitli samardorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi va tahlili (ming so‘m)

8 ta KPI ko‘rsatkichlari	**Ma’lumotlar**		
	2022 y.	**2023 y.**	**O‘zg (+,-)**
1. Seles Revenuye (Sotishdan tushum)	5440258,6	7944071,5	+2501512,9
2. Net profit margin (Biznesning sof rentabelligi):			
2.1. Sof foyda	143142,8	203457,45	+60314,65
2.2. Sotishdan tushum	5440258,6	7944071,5	+2501512,9
2.3. Biznesning sof rentabelligi, %	2.63%	2.56%	-0.07%
3. Gross margin (Yalpi foyda):			
3.1. Sotishdan tushum	5440258,6	7944071,5	+2501512,9
3.2. Sotilgan tovarlar yoki xizmatlar tannarxi	4963021,2	7102311,9	+2139290,7
3.3. Yalpi foyda darajasi, %	8.77%	10.60	1.83%
4. Cost of Customer Acquisition (Mijozlarni jalb qilish tannarxi):	25450,8	39200,3	+13749,5
4.1. Reklama kompaniyasiga harajatlar			
4.2. Xodimlarga qilingan harajatlar	5400,2	8300,7	+2900,5
4.3. Dasturiy ta’minot bo‘yicha harajatlar	5450,8	8280,8	+2830
4.4. Texnik harajatlar	1859,7	2250,3	+390,6
4.5. Yangi mijozlar soni	145	213	+68
4.6. Mijozlarni jalb qilish tannarxi	263,18	272,45	+9.27

5. Customer Lefetime Valuye (Mijozning hayotiylik qimmati): 5.1. Mijoz bilan munosabatlarning davomiyligi	5	8	+3
5.2. Davr uchun bitta mijozdan olinadigan foyda	85,4	89,3	3.9
5.3. Mijozning hayotiylik qimmati	427	714,4	+287,4
6. Customer Loyalty and Retention (Mijozlarning Loyallik va qaytishligi): 6.1. Hisobot davrining oxirida mijozlar soni	755	913	+158
6.2. Davrda yangi mijozlar soni	145	213	+68
6.3. Davr boshidagi mijozlar soni	680	755	+75
6.4. Mijozlarning loyallik va qaytishligi koyeffisiyenti	0.897	0.927	0.30
7. Return on investment (Investisiyalarning rentabelligi koyeffisiyenti) 7.1. Investisiyaning joriy qiymati	3450560	4024346	+573786
7.2. Investisiyaning tannarxi	2037380	2199545	+162165
7.3. Investisiyaning rentabellik koyeffisiyenti	0.694	0.83	+0.136
8. Churn rate (Mijozlarning ketishi ko‘rsatkichi) 8.1. Yo‘qotilgan mijozlar soni	70	55	-15
8.2. Mijozlarning umumiy soni	825	968	+143
8.3. Mijozlarning ketishi koyeffisiyenti	0.085	0.057	-0.028

Savdo xizmatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni uchta guruhga ajratish mumkin: hajm-qiymat ko‘rsatkichlari; savdo xizmatlari ko‘rsatkichlari; sifat ko‘rsatkichlar (3.2-rasm).

Savdo korxonasi darajasida tovar aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlariga kiritilishi zarur bo‘lgan miqdor va sifat ko‘rsatkichlar tarkiblari keiltirilgan: tovar aylanmasi hajmi; tovar guruhlari bo‘yicha assortimenti tarkibi; bir kunlik tovar aylanmasi, tovar aylanmasi tezligi (tovar aylanuvchanligi); tovarning muomaladagi vaqti; bitta xodimga to‘g‘ri keladigan tovar aylanmasi va xizmatlari, innavatsiyon tovar aylanmasi va unibg tarkibi.

Savdo faoliyati va xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tashish hamda saqlash bo‘yicha vujudga keladigan muammolar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda kichik hajmdagi mahsulotlarni harid qilish holatlari juda ko‘p uchraydi, ammo kichik hajmdagi tovarlarga ko‘rsatiladigan transport harajati hamda katta hajmdagi tovarlarga ketadigan transport harajati katta farq qilmaydi, natijada bir birlik mahsulotga taqsimlanadigan harajat oshib ketishi;

katta hajmdagi tovarlar olib kelinsa katta hajmdagi tovarlarni saqlash imkoniyati mavjud bo‘lmasligi;



3.2-rasm. Savdo faoliyati va xizmatlari ko‘rsatkichlari tarkibiy qismlari.

katta hajmdagi tovarlarni saqlash imkoniyati yaratilgan vaziyatda kichik hajmdagi tovarlar saqlansa, bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan harajat oshib ketishi va hakoza.

Savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tarmoqlashgan lizing-jamg‘arma (klaster-lizing fondi) asosida asbob-uskunani markazlashgan harid qilish mexanizmi taklif qilindi.

Savdo korxonalarida tarmoqlashgan lizing-jamg‘armasi (klaster lizing fondi) deganda, yehtiyojlardan kelib chiqib asbob-uskunalarni xorijdan va mahalliy ishlab chiqaruvchilardan markazlashgan holda katta hajmda harid qiladigan, ularni saqlash, ishlov berish, ta’mirlash, komplektatsiya qilish hamda ularni lizing shartnomalari asosida ularni savdo korxonalariga yetkazib beradigan, ularga kafolat berilgan, texnik hamda savdo xizmatlarini ko‘rsatadigan moliyaviy tashkilotga aytiladi.

Savdo korxonalarida tarmoqlashgan lizing-jamg‘armasi (klaster lizing fondi)ning afzallik tomonlari yoki samarali jihatlari asoslab berilgan (3.8-jadval).

3.8-jadval.

Savdo korxonalarida tarmoqlashgan lizing-jamg‘armasi (klaster lizing fondi)ning samarali jihatlari

Tarmoqlashgan klister lizing-jamg‘armasi	**Savdo korxonalari natijalari**
1. Katta hajmda markazlashgan harid qilish mexanizmini joriy qilish orqali bir birlikka to‘g‘ri keladigan kapital harajatlarni kamaytirish imkoniyatlari	
1.1. Asbob-uskunalarni markazlashgan harid qilish natijasida harid narxlarini pasaytirish, shuningdek ta’minotchilardan narxdan tushishlar, chegirmalar olish	Uskunalarni harid tannarxini 3–4% kamaytirish orqali bir birlikka kapital harajatlar pasayadi
1.2. Tovarlar birligiga to‘g‘ri keladigan transport, ortish-tushirish, sertifikatlash, deklaratsiya qilish, bojxona xizmatlari va boshqa harajatlarni minimallashtirish	Uskunalarni harid tannarxini 3–4% kamaytirish orqali bir birlikka kapital harajatlar pasayadi
1.3. Katta partiyada markazlashgan harid qilish natijasida uskunalar birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy harajatlar, jumladan saqlash, binolar ijarasi, kommunal va maishiy xizmatlar, qo‘riqlash va boshqa harajatlar hissasini kamaytirish orqali tovar birligi tannarxini kamaytirish	Savdo korxonalarida uskunalarni harid tannarxini 2–3% ga kamaytirish orqali bir birlikka kapital harajatlar kamayadi

2. Lizing mexanizmini joriy qilish orqali bir yo‘la amalga oshiriladigan yirik kapital sarflarni qisqartirish	
2.1. Savdo korxonalariga lizing asosida sotish natijasida yirik kapital mablag‘larni tejab qolish, yillar kesimida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati	Kapital mablag‘larni joriy faoliyatga yo‘naltirish imkoniyati, aylanma mablag‘larni saqlab qoladi, lizing to‘lovlari uskunadan olinayotgan daromad bilan muvofiqlashtiriladi
2.2. Shartnomasi bo‘yicha lizing to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash natijasida pul mablag‘larini diskontlangan qiymatda hisobga olish, daromad olish va moliyalashtirish manbalarini oshirish imkoniyatiga yega bo‘lish	Pul mablag‘laridan moliyaviy daromad olish, uzoq muddatli, qayta aylanuvchi moliyalashtirish manbai yuzaga keladi, kredit yuklamasi kamayadi
3. Klaster yondashuvi orqali samaradorlikni oshirish	
3.1. Asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchilarga yetkazishda qatnashadigan vositachilarga klaster munosabatlarini joriy qilish orqali yagona moliyaviy boshqaruv mexanizmga birlashtirish	Uskunalarning harakati, savdo korxonalarining moddiy-texnika bazasini yangilash siklini tezlashtirish
3.2. Zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalari bilan ta’minlash, korxonalarni modernizatsiya qilish	Asbob-uskunalardan foydalanish samaradorligi oshadi

O‘zbekiston sharoitida joriy yetish imkoniyatlari: savdo va xizmat ko‘rsatish klasterlari asosida; hududiy lizing fondlarini tashkil yetish; davlat tomonidan; foiz stavkalarini subsidiyalash; soliq imtiyozlari; kafolat mexanizmlari.

Buxgalteriya hisobi maqsadlarida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligining kalitli ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish (3.9-jadval):

3.9-jadval.

Kafolat SNT, Marokand, Bardavom savdo korxonalari samaradorligining asosiy kalitli ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi (ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Kafolat SNT	Maro-kand	Bardav om savdo
I. Umumiqtisodiy rentabellik ko‘rsatkichlari				

1.Sotish rentabelligi, %	(Return on Sales) (Sof foyda / Tovar aylanmasi)	2,56	0,30	5,31
2. Yalpi foyda darajasi, %	(Tovar aylanmasi – Sotilgan tovarlar tannarxi) / sof sotish	8,77	19,24	11,55
3. Harajatlar va daromadlar nisbati, %	(Operasion harajatlar / Daromadlar)	96,29	99,7	88,45
4. Mahsulot (tovar) rentabelligi, %	Sof foyda yoki yalpi foyda / (Sotilgan tovarlar tannarxi + Sotish harajatlari)	2,73	0,34	5,98
5.Sotish harajatlari rentabelligi, %	Sof foyda yoki yalpi foyda / Sotish harajatlari	88,95	3,47	15,44
II. Mijozlarni jalb qilish va loyallik ko‘rsatkichlari				
6. Bitta mijozni jalb qilish tannarxi	Mijozlarni jalb qilish harajatlari / Yangi jalb qilingan mijozlar soni	272,45	250,35	320,45
7. Mijozlarning loyallik va qaytishligi koyeffisiyenti	(Hisobot davrining oxirida mijozlar soni – Davrda yangi mijozlar soni) / Davr boshidagi mijozlar soni	0,927	0,94	0,89
III. Aktivlardan foydalanish va jalb qilingan kapital samaradorligi ko‘rsatkichlari				
8. Jalb qilingan kapital rentabelligi (Return on capital yemployed), %	Sof foyda / (uzoq muddatli aktivlar + joriy aktivlar – joriy majburiyatlar)	9,91	1,20	18,96
9. Aktivlar rentabelligi, %	Soliq to‘lagunga qadar foyda / aktivlarning o‘rtacha qiymati	3,73	0,52	0,28
10. Asosiy vositalar rentabelligi, %	Sof foyda / Asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati	13,53	0	177,63
11. 1 m2 umumiy savdo maydoniga tovar aylanmasi	Tovar aylanmasi / Umumiy savdo maydoni	452,13	329,21	30 115,8
12. 1 m2 savdo maydoniga foyda	Soy foyda / Umumiy savdo maydoni	350,79	329,21	1 598,7
13. Joriy aktivlar rentabelligi	Sof foyda / Joriy aktivlarning o‘rtacha qiymati	3,18	0,52	2,83
IV. Inson resurslaridan foydalanish samaradorligi				
15. Bitta savdo xodimiga sof foyda	Sof foyda / Savdo xodimlari o‘rtacha soni	15 650,7	43,375	42 071,0
16. Mehnat unumdorligi (xodimlar soniga nisbatan)	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (tovar aylanmasi) / Xodimlarning o‘rtacha soni	331 002,9	9 602	684 449,6
17. Mehnat unumdorligi (savdo jarayonida	Sotilgan (ishlab chiqarilgan) mahsulot hajmi (tovar aylanmasi) / sadoda	611 082,4	14 403	836 549,5

bevosita band bo‘lgan xodimlarga nisbatan)	band xodimlarning o‘rtacha soni			
18. Mehnat unumdorligi (sarflangan vaqt miqdoriga nisbatan)	Tovar aylanmasi / Bajarish uchun sarflangan vaqt miqdori	323,46	125,8	410,3
19. Mehnat unumdorligi koyeffitsiyenti	Mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun normativ vaqt / Haqiqatda sarflangan vaqt	87,7	65,8	89,5

Birinchidan, sotish rentabelligi (sotish hajmiga nisbatan sof foyda) ko‘rsatkichi kiritilishi zarur. Chunki harajatlar va daromadlar nisbatida ifodalanishi bunday ko‘rsatkichlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yadi. Bu yesa daromad olish uchun qilingan operasion harajatlar summasini tavsiflashiga ham xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkichning darajasini qanchalik kichik bo‘lsa faoliyatning daromadlilik darajasi yuqori yekanligini tavsiflaydi hamda sotish retabelligi samaradorligini aniqlash naqadar muhim ekanligini tavsiflaydi. **Ikkinchidan,** mijozlarni jalb qilish va loyallik ko‘rsatkichlarning yuqori darajada bo‘lishligi savdo korxonasining samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi. **Uchinchidan,** aktivlardan foydalanish va jalb qilingan kapital samaradorligi ko‘rsatkichini jalb qilingan kapital rentabelligi deb ye’tirof yetish zarur. Savdo korxonalarida savdo maydonining ham samaradorligini hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, 1 m^2 savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar aylanmasi yoki sof foyda summasi qanchalik darajada savdo maydonidan samarali foydalanilayotganidan dalolat beradi. **To‘rtinchidan,** inson resurslaridan samarali foydalanish mehnat unumdorligining yeng asosiy ko’rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunday taklif yetilayotgan ko‘rsatkichlardan foydalanish iqtisodiy-moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, kam harajatlarni amalga oshirib yuqori foyda olishga zamin yaratadi, shuningdek savdo korxonalarida sun’iy intellek texnologiya vositalaridan foydalanib tovarlar aylanishini oshirishga qo‘shimcha imkoniyat yaratib beradi.

Savdo korxonalarida **buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari** sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

savdo korxonalarining asosiy ko‘rsatkichlari, jumladan tovar aylanmasi, tovar zaxiralari, sotish va muomala harajatlarini hisobga olish;

savdoda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

savdoda ortiqcha chiqimlarga yo‘l qo‘ymaslik, tovarlarning me’yordan ortiq kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik;

savdoda tarozining to‘g‘ri bo‘lishi, o‘lchamlarning haqqoniy bo‘lishini ta’minlash;

savdoda xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish, mehnatga haq to‘lashning progressif usullarini joriy etish;

savdoda savdo ustamalarini hamda moliyaviy natijalarni to‘g‘ri hisoblash;

savdoda moliyaviy hisobotni ishonchligi, haqqoniyligi, shaffofligi va MHXSlariga muvofiqligini ta’minlash

3.3 Savdo korxonalarida tovar zaxiralari moliyaviy hisobi asoslari

Savdo-tijorat firmalariga savdo do‘konlari, dorixona, suvener – sovg‘a va bakaleya do‘konlariga ega bo‘lgan korxonalar kiradi. Savdo tijorat firmalari o‘z haridorlariga tovarlarni sotish uchun ularni ta’minotchilardan sotib oladi.

Amaliyotda buxgalterlar standart talablari bo‘yicha zaxiralarning boshlang‘ich qiymatini aniklashda metodik tavsiyalarning yetishmasligini his etishmoqda. Ayrim savdo-tijorat korxonalarida tovar zaxiralarini baholashning standart qoidalarini to‘g‘ri qo‘llamaslik hollari davom etmokda.

Bunda, ikkita muhim jihatga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi: *Birinchisi*, harid qilingan zaxiralarning boshlang‘ich qiymatini va *ikkinchisi*, realizatsiya qilingan zaxiralarning tannarxini aniqlash masalasidir. Bu ikki masala zaxiralar hisobida markaziy o‘rinni egallaydi va bu masalalarning yechilishiga to‘g‘ri yondashish moliyaviy natijalarni yetarli darajada ob’ektiv aks ettirish imkonini beradi.

R. X. Hermanson va boshqalar zaxiralar tannarxiga quyidagi elementlarni kiritadi: 1. Sotuvchining invoys narxi (harid skidkasi tushiladi), 2. Tovarlarni tranzit aylanishidagi haridorning sug‘urta tannarxi, 3. Haridor tomonidan qoplaniladigan transport harajatlari, 4. Joylashtirish, jumladan yuklarni ortish-tushirish harajatlari [250-bet].

K.D. Larson va boshqalar zaxiralar tannarxi bu ularni amaldagi holatiga va joylashishiga olib kelish bilan bog‘liq bevosita va bilvosita harajatlardan tashkil topishini qayd qilishadi. “Shunday qilib - deb ta’kidlashadi mualliflar - zaxiralarning tannarxi bu invoys narxi, minus turli xil skidkalar, plyus moddalarni joyiga va sotishga tayyor holga keltirish bilan bog‘liq qo‘shimcha va o‘ziga xos harajatlardan tarkib topadi.” Qo‘shimcha harajatlarga mualliflar import poshlinasi, transport, qo‘riqlash, sug‘urta va boshqa tannarxi bilan bog‘liq harajatlarni kiritganlar [295-296-bet].

R. Libbi va boshqalar zaxiralarga sotishga mo‘ljallangan tovarlar, xom-ashyo va materiallar, ishlab chiqarish jarayonidagi zaxiralar va tayyor mahsulotlar zaxiralarini kiritadi. Mualliflar, sotishga mo‘ljallangan turdagi zaxiralarni savdo-tijorat korxonalarida tovarlar haridi va sotilishi bilan bog‘liq zaxiralar ekanligini takidlashadi. Bunda, qayta ishlash bilan bog‘liq jarayonlar yuz bermaydi. Qolgan turdagi zaxiralar ishlab chiqarish korxonalarida xom-ashyo va materiallarni harid qilish, qayta ishlash (bevosita mehnat harajatlari va fabrika ustama harajatlari) va tayyor mahsulotlar bilan bog‘liqligini sxematik ko‘rsatadilar [354-356-b.].

O‘zbekiston Respublikasi 4-son Buxgalteriya Hisobi Milliy Standarti (BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”da “Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarxi bo‘yicha kiritiladi, u harid qiymati (yetkazib beruvchiga to‘lanadigan summalar) va ularni harid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha harajatlarni o‘z ichiga oladi” deb qayd qilingan.

2-son Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartida zaxiralarning tannarxi quyidagi elementlardan tashkil topishi ko‘rsatilgan:

1. Zaxiralarning haridi bilan bog‘liq barcha harajatlar;

2. Qayta ishlash;

3. Zaxiralarni joriy holatga va joriy joylashtirish joyiga yetkazish bilan bog‘liq boshqa harajatlar.

Ushbu standartning 11-moddasiga muvofiq, *zaxiralarning haridi bilan bog‘liq harajatlarni* quyidagi tartibda aniqlanishini keltirib chiqarishimiz mumkin:

1. Zaxiralarning haridi bilan bog‘liq barcha harajatlar:

Qo‘shiladi: 1.1 Zaxiralarning harid narxi.

1.2 Import poshlinasi va boshqa soliqlar (soliq organlari tomonidan kompaniyaga qaytariladigan soliqlardan tashqari).

1.3 Transport harajatlari.

1.4 Ishlov berish va ob’ektning haridi bilan bog‘liq boshqa harajatlar.

Ayiriladi: 1.5 Savdo chegirmalari, qoplamalar va boshqa analogik moddalar.

Zaxiralarning davriy (inventarizatsiya qilish) tizimida tovar zaxiralarining kirimi va chiqimiga oid kunlik yozuvlar olib borilmaydi. Har bir hisobot davrining oxirida mavjud bo‘lgan tovar zaxiralarining qoldig‘i inventarizatsiya o‘tkazish orqali, ya’ni jismoniy sanash va hisob-kitoblar orqali aniqlanadi. Bunda, kompaniyalar hisob siyosatida mavjud bo‘lgan zaxiralar qoldig‘ini aniqlashning davriy tizimini ishlab chiqish talab qilinadi. Davriy inventarizatsiya tizimining qulaylik tomoni shundan iboratki, bunda hisob-kitoblarni yuritish kam harajatli bo‘ladi. Har bir tovarlar realizatsiyasi yuz berganda uning tannarxini aniqlashga ehtiyoj bo‘lmaydi. Tovar zaxiralari schyotiga uning haridi va sotilishi bilan bog‘liq operatsiyalar yozilmaydi. Bunda, boshlang‘ich tovar zaxiralari summasini hisobdan chiqarish va oxirgi tovar zaxiralarini tiklash yozuvlari orqali tovar zaxiralari hisobi yuritiladi. Bu tizimni to‘liq kompyuterlashtirilmagan korxonalarda, kunlik sotilgan tovarlarning tannarxini aniqlash protsedurasi o‘zini oqlamagan taqdirda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bizning amaliyotimizda bu tizimni chakana savdo korxonalari faoliyatida qo‘llash o‘rinli, deb hisoblaymiz.

Xorij tajribasida davriy zaxiralar tizimini qo‘llash orqali tovarlarning boshlang‘ich qiymati, tovarlarning sotish tannarxi va moliyaviy natijalarni aniqlash uchun quyidagi schyotlardan foydalanish e’tirof etilgan: “Haridlar”; “Harid chegirmasi”; “Haridlarning qaytarilishi va taqdim qilingan chegirmalar (allowances)”; “Olinadigan schyotlar”; “To‘lanadigan schyotlar”; “Pul mablag‘lari”; “Tovar zaxiralari”; “Realizatsiya”; “Realizatsiya chegirmasi”; “Realizatsiyaning qaytarilishi va narxni kamaytirish”; “Transport-keltirish harajatlari”;

“Transport-jo‘natish harajatlari”; “Sotish natijalari”; “Moliyaviy natijalar”; “Taqsimlanmagan foyda”.

Bunda e’tirof etilgan schyotlardan foydalanishda uchta yondashish mavjudligini qayd qilish o‘rinlidir.

Birinchi yondashishga R. X. Hermanson va boshqalar , K.Larson va boshqalar tomonidan ko‘rsatilgan metodik tartibni kiritishimiz mumkin. Ushbu tartibga ko‘ra, moliyaviy natijalarni bir bosqichda, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Moliyaviy natijalar” schyotida hisoblashni taklif etadilar. Ushbu olimlar tomonidan “zaxiralarning davriy tizimida” tovarlarning harid qilinishi, sotilishi va realizatsiya qilingan tovarlarning tannarxini aniqlash jarayonlarining buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishining quyidagi tartibi ko‘rsatilgan.

1. Tovarlar ta’minotchilardan harid qilinganda [217-b.; 192-b.]

Haridlar schyoti…… (harid qilingan tovarlarning summasiga)

To‘lanadigan schyotlar….(ushbu tovarlar bo‘yicha to‘lanadigan summaga)

2. Ta’minotchi tomonidan taqdim kilingan chegirma summasiga [217-b; 192-b.]

To‘lanadigan schyotlar…….(takdim kilingan chegirma summasiga)

Harid chegirmasi schyoti…….(takdim qilingan chengirma summasiga)

3. Ta’minotchilarga tovarlar qaytarilganda yoki takdim qilingan chegirmalar (tovarlar sifati past bo‘lganda, singanda yoki sifati buzilgan hollarda ta’minotchi tomonidan takdim qilingan grant) summasiga [218-b.; 193-b.]

To‘lanadigan schyotlar……(qaytarilgan tovarlar summasiga)

Haridlarning qaytarilishi va takdim qilingan chegirma…(qaytarilgan tovarlar)

4. Tovarlarni keltirish bilan bog‘liq transport harajatlari summasiga [219-b.; 194-b.]

Transport–keltirish harajatlari…(tovarlar keltirish transport harajatlari)

Pul mablag‘lari……..(to‘langan transport harajatlari”)

5. Tovarlar haridorlarga sotilganda [148, 212-b.; 152, 187-b.]

Olinadigan schyotlar……(sotilgan tovarlar summasiga)

Realizatsiya……(sotilgan tovarlar summasi)

6. Haridorlarga chegirma taqdim qilinganda [148, 212-b.; 152, 189-b.]

“Realizatsiya chegirmasi”……..(taqdim qilingan chegirma summasiga)

Olinadigan schyotlar……..(taqdim qilingan chegirma summasiga)

7. Haridorlardan sotilgan tovarlar qaytarilganda yoki chegirma taqdim qilinganda [148, 213-b; 152, 188-b.]

Realizatsiyaning qaytarilishi va takdim kilingan chegirmalar” (qaytarilgan tovarlar va chegirmalar summasiga)

Olinadigan schyotlar……(qaytarilgan tovar va chegirma summasi yoki pul mablag‘lari va realizatsiya chegirmasi)

8. Tovarlarni jo‘natish bilan bog‘liq transport harajatlari summasiga [148, 219-b]

“Transport-jo‘natish” harajatlari...(sotilgan tovarlar bo‘yicha transport harajatlari)

“Pul mablag‘lari”…(to‘langan transport harajatlari summasiga)

9. Hisobot davrining oxirida davriy inventarizatsiya yo‘li bilan oxirgi qoldiq aniqlangandan so‘ng, kredit oborotga ega schyotlar quyidagi yozuvlar yordamida yopiladi [148, 231-b.; 152, 200-b.]:

D-t “Tovar zaxiralarining oxirgi qoldig‘i”. .(tovar zaxiralari oxirgi qoldig‘i)

D-t “Realizatsiya”. . . . . .(sotilgan tovarlar summasi)

D-t “Harid chegirmasi”. . . . . .(ta’minotchilar chegirmasi summasiga)

D-t "Haridlarning qaytarilishi va narxini kamaytirish" (qaytarilgan tovarlar)

K-t "Moliyaviy natijalar". . . . . .(debetlangan schyotlarning jami summasiga)

10. Hisobot davrining oxirida debet oborotiga ega bo'lgan schyotlar quyidagi yozuvlar yordamida yopiladi [231b.; 201b]:

D-t "Moliyaviy natijalar". . . . .(kreditlangan schyotlarning jami summasiga)

K-t "Tovar zaxiralari boshlang'ich qoldig'i". .(o'tgan hisobot davri oxirgi qoldig'i)

K-t "Realizatsiya chegirmasi". . . . .(haridorlarga taqdim qilingan chegirma)

K-t "Realizatsiya qaytarilishi va narxini kamaytirish"..(qaytarilgan tovarlar)

K-t "Harid". . . . . .(harid qilingan tovarlar summasi)

K-t "Transport-keltirish harajatlari.(keltirishdagi transport harajatlari)

K-t "Turli xil sotish harajatlari"schyotlari. . . .(sotish harajatlari)

K-t "Turli xil ma'muriy harajatlar" schyotlari. .(ma'muriy harajatlar)

11. Hisobot davri oxirida " Moliyaviy natijalar" schyoti yopiladi:

D-t "Moliyaviy natijalari". . . .(kredit va debet oboroti o'rtasidagi farq)

K-t "Taqsimlanmagan foyda" yoki "Xususiy kapital"...(olingan foyda summasiga)

12. Olinadigan va to'lanadigan schyotlar esa pul mablag'lari schyoti bilan korrespondensiyalashadi.

Ikkinchi yondashish tarafdorlar sifatida F.Vudni qayd qilishimiz mumkin. Muallif, yuqoridagi birinchi tarafdorlar tomonidan qayd qilangan 1, 3, 4, 5, 7 - provodkalar mazmunini schyotlarda aks ettirish tartibini misollar asosida ko'rsatib beradi. Birinchi yondashishdan farqli o'laroq, muallif tovar zaxiralari va ular bilan bog'liq moliyaviy

natijalarni bir qancha bosqichda kombinatsiyalangan “Savdo, foyda va zararlar” schyoti yordamida hisoblashning metodik tartibini ko‘rsatadi (34-42-b.; 88-96-b.; 114-120-b.). Ushbu bosqichlarning mazmuni bilan tanishib chiqaylik.

Dasttaval, *birinchi bosqichda* “Cavdo, foyda va zararlar” schyotida sof harid summasi aniqlanadi (yalpi harid summasidan qaytarilgan harid summasi ayiriladi). Buni buxgalteriya provodkalari yordamida quyidagi tartibda ko‘rsatishimiz mumkin.

“Savdo, foyda va zararlar” ……(kreditlanadigan schyotlar summasi)

“Haridlar”……..(harid qilingan tovarlar summasi)

“Haridlarning qaytarilishi”...(Minus:ta’minotchilarga qaytarilgan tovarlar)

Ikkinchi bosqichda esa, realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi aniqlanadi (birinchi bosqichda aniqlangan sof harid summasiga boshlang‘ich tovar zaxiralari va transport-keltirish harajatlari qo‘shilib, oxirgi tovar zaxiralari ayiriladi).

“Savdo, foyda va zararlar” …….(kreditlanadigan schyotlar summalariga)

“Boshlang‘ich zaxiralar ……..…..(boshlang‘ich zaxiralar summasi)

“Keltirish”…..……..……(transport-keltirish harajatlari)

“Oxirgi zaxiralar”……(Minus: oxirgi tovar zaxiralari summasi)

Uchinchi bosqichda, sof realizatsiya summasi aniqlanadi (Yalpi realizatsiyadan qaytarilgan realizatsiya chegirilib tashlanadi. Ushbu jarayon quyidagi buxgalteriya provodkalari orqali aks ettiriladi.

“Realizatsiya”…….(yalpi realizatsiya summasiga)

“Realizatsiyaning qaytarilishi”…….(Minus:haridorlardan qaytarilgan tovarlar)

“Savdo, foyda va zararlar”.…(Debetlanadigan schyotlar summalariga)

Keyingi *to‘rtinchi bosqichda*, tovarlar realizatsiyasidan olingan yalpi daromad aniqlanadi. Buning uchun qo‘shimcha buxgalteriya provodkasi berish talab qilinmaydi. Kombinatsiyalashgan “Savdo, foyda va zararlar” schyotida uchinchi bosqichda aniqlangan sof realizatsiya hajmidan ikkinchi bosqichda aniqlangan realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi ayirilib, yalpi daromad aniqlanadi. Ushbu hisob-kitoblardan so‘ng, yalpi daromad summasi kredit saldo sifatida ushbu kombinatsiyalangan schyotda ko‘rsatiladi.

Oxirgi *beshinchi bosqichida* esa, sof foyda summasi aniqlanadi, Buning uchun esa, boshqarish va operatsion harajatlar (ish xaqi, yoritish va isitish, ijara to‘lovlari, umum zavod, chiqarish transport va boshqa) quyidagi provodkalar orqali moliyaviy natijalar schyotiga o‘tkaziladi.

Tovarlarni sotish va ma’muriy boshqarish harajatlari summasiga

“Savdo, foyda va zararlar”……(sotish va mamuriy harajatlar summasiga)

“Sotish harajatlari” ……(Sotish harajatlari summasiga)

“Ma’muriy harajatlar”……..…(Ma’muriy boshkarish harajatlari)

Uchinchi yondashishga R. Libbi, R. Entoni va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bu yondashish tarafdorlari yuqoridagilardan farqli o‘laroq, realizatsiya qilingan tovarlar tannarxini alohida “realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi” schyotida hisoblashni taklif etishadi.

R. Libbi va boshqalar birinchi yondashishdagi tovarlar haridi, sotilishi va boshqa harakati bilan bog‘liq 1, 2, 3, 5, 7 - provodkalarni e’tirof etishgan (377-379-b.).

Mualliflar, “Haridlarning qaytarilishi va taqdim qilingan chegirmalar”, “Harid chegirmasi” haridlar tannarxidan tushilishi va natijada “haridlar” schyoti qoldig‘i sof harid summasini tavsiflashini ko‘rsatadilar. Xuddi shuningdek, “Realizatsiyaning qaytarilishi va taqdim qilingan chegirma”, “Realizatsiya chegirmasi” realizatsiya summasidan tushilishini va natijada realizatsiya schyotining qoldig‘i sof realizatsiya summasini berishni ko‘rsatadilar.

Sof harid va sof realizatsiya ko‘rsatkichlari aniqlangandan so‘ng, “sotilgan tovarlarning tannarxi” schyotida zarur axborotlar to‘planiladi.

Ushbu jarayon bilan bog‘liq operatsiyalar yozuvlari quyidagicha aks ettirilgan.

Hisobot davrining oxirida davriy inventarizatsiya yo‘li bilan oxirgi tovar koldig‘i quyidagi provodkalar yordamida tiklanadi.

“Tovar zaxiralarining oxirgi qoldig‘i” ..(aniqlangan tovar zaxiralari oxirgi qoldig‘i)

“Sotilgan tovarlarning tannarxi”….(tovar zaxiralarining oxirgi qoldig‘i)

Hisobot davrining oxirida tovar zaxiralarining boshlang‘ich qoldig‘ini hisobdan chiqarish va debet oborotiga ega bo‘lgan schyotlar yopilishi uchun quyidagi provodkalar beriladi:

“Sotilgan tovarlarning tannarxi”……(kreditlangan schyotlarning jami summasiga)

“Tovar zaxiralari boshlang‘ich qoldig‘i”…(o‘tgan hisobot davri oxirgi qoldig‘i)

“Haridlar”……..(Harid qilingan tovarlar summasi)

Natijada, ushbu provodkalar yordamida “Sotilgan tovarlar tannarxi” schyotida sotilgan tovarlar tannarxiga oid barcha axborotlar to‘plash imkoni yuzaga keladi. Ushbu schyotning debet va kredit oboroti o‘rtasidagi farq, sotilgan tovarlar tannarxi ko‘rsatkichining summasini beradi. Qolgan, ikkinchi va uchinchi bosqichidagi yozuvlar ikkinchi yondashishdagidek davom ettiriladi.

Ushbu yondashishda R. Entoni va boshqalar, R. Libbi va boshqalar tomonidan ko‘rsatilgan variantdan bir oz farqli o‘laroq “haridlarning qaytarilishi” va “freyt in” (transport keltirish) schyotlari debet oboroti summasiga ushbu schyotlarni kreditlash va “realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi” schyotini debetlash orqali yopiladi. Natijada, “realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi” schyotida sof harid va tovar tannarxiga oid barcha ma’lumotlar to‘planiladi. Ushbu schyotning debet va kredit oboroti o‘rtasidagi farq “realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi” summasini beradi va ushbu summa moliyaviy natijalarni aniqlovchi schyotlarga o‘tkaziladi.

Ushbu yondashishdagi R. Entoni va boshqalar tomonidan ko‘rsatilgan variantda yuqoridagi provodkalarning ikkinchi qismi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (103-b.):

Hisobot davrining oxirida tovar zaxiralarining boshlang‘ich qoldig‘ini hisobidan chiqarish va debet oborotiga ega bo‘lgan schyotlar yopilishi.

“Sotilgan tovarlarning tannarxi”…….(kreditlangan schyotlarning jami summasiga)

“Harid tovarlarining qaytarilishi”……(Qaytarilgan tovarlar summasiga)

“Tovar zaxiralari boshlang‘ich qoldig‘i”…(O‘tgan hisobot davri oxirgi qoldig‘i)

“Harid”……Harid kilingan tovarlar summasi)

“Freyt-in”……....(Transport keltirish harajatlari)

Yuqoridagi xorijiy adabiyotlardagi tajribalarni va ilg‘or metodik uslublarni 21-sonli standart talabalariga muvofiq holatda bizning amaliyotimizda qo‘llash maqsadida tadqiqotlar jarayonida quyidagi ishlanmalar ishlab chiqildi.

Amaldagi 21-sonli BHMSga muvofiq sotilgan tovar (mahsulot, ish va xizmat)lar tannarxini zaxiralarni hisobga olishning davriy usulini qo‘llagan holda schyotlarda aks ettirish tizimi ishlab chiqildi. Bizning fikrimizcha, ushbu joriy qilingan tizimda savdo-tijorat korxonalarida tovarlarning sotish tannarxini aniqlash va hisoblarda aks ettirish tartibi buxgalteriya hisobi tamoyillari talablariga mos keladi. 21-sonli BHMSda keltirilgan yozuvlar asosida tovarlarning sotish tannarxini aniqlashning quyidagi formulasini keltirib chiqarishimiz mumkin bo‘ladi:

(ming so‘m)

Davriy hisob tizimida tovarlar haridi. 28750.0
Qo‘shiladi: Tovar zaxiralarining kamayishi. . . . . –
Yoki ayiriladi: Tovar zaxiralarining ko‘payishi. . . 2950.0
Tovarlarning sotish tannarxi 25800.0

Standart talabidan kelib chiqadigan ushbu formula umume'tirof etilgan tovarlarning sotish tannarxini aniqlashning formulasiga to‘liq muvofiq keladi. Lekin, 21-son BHMSda keltirilgan tartibda, tovarlarning sotish tannarxiga ta'sir ko‘rsatadigan tovarlarni keltirish va transport harajatlari, harid chegirmasi va haridlarning qaytarilishi schyotlari ko‘zda tutilmagan.

Davriy usulda tovar zaxiralari, tovarlarning sotish tannarxi, sof realizatsiya va yalpi foyda ko‘rsatkichlarini hisoblarda to‘laqonli aks ettirish uchun schyotlar rejasida moliyaviy natijalarni aniqlashga mo‘ljallangan schyotlarga qadar quyidagi tranzit schyotlarning ochilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1710 "Harid" – ta'minotchilardan harid qilingan va boshqa kelib tushushlarni hisobga olish (amaldagi 9140-schyotning o‘rniga)

1720 "Harid chegirmasi" – ta'minotchilar taqdim qilgan chegirma summalarini hisobga olish

1730 "Harid qaytarilishi va narxini kamaytirish" – ta'minotchilarga qaytarilgan harid va boshqa hisoblashiladigan summalarni hisobga olish.

1810 "Transport-tayyorlov harajatlari".

1820 "Harid jarayoni bilan bog‘liq soliqlar va yig‘imlar"

1830 "Harid jarayonida vositachilik haqi"

1840 "Sertifikatlash va sinash harajatlari"

1850 "Harid jarayoni bilan bog‘liq boshqa harajatlar"

1910 "Realizatsiya chegirmasi" – haridorlarga taqdim qilingan chegirma summasini hisobga olish (amaldagi 9050-schyot o‘rniga)

1920 "Qaytarilgan realizatsiya va narxini kamaytirish" – haridorlar tomonidan qaytarilgan realizatsiya va tushishlar summasi (9040-schyot o‘rniga)

9140 "Davriy hisobda TMZlarning harid tannarxi"

9910 "Sotish natijasi"

9920 "Operatsion faoliyatning moliyaviy natijasi"

Davriy zaxiralar tizimida yuqorida taklif qilingan schyotlar yordamida zaxiralarning harid tannarxi, sotilgan tovarlar tannarxi hamda

moliyaviy natijalarning aniqlanishining metodologik tartibini amaliy misollar yordamida ko‘rib chiqaylik. Davriy zaxiralar tizimida schyotlar korrespondensiyasi 3.10-jadvalda keltirilgan.

3.10-jadval

Savdo korxonasi misolida davriy zaxiralar tizimida tovar zaxiralarining harid va sotish tannarxini aniqlashning metodologik tartibi

(ming so‘m)

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlar*		Summa
		Debet	Kredit	
1.	Ta’minotchilardan harid qilingan tovarlar qabul qilindi	1710	6010	12500.0
2.	Ushbu tovarlarni keltirish uchun ta’minotchiga transport harajatlari to‘lovi qabul qilindi	1810	6010	185.0
3.	Shartnoma shartiga muvofiq, ta’minotchilar tomonidan chegirma taqdim qilindi	6010	1720	125.0
4.	Ta’minotchilarga harid qilingan tovarlarning bir qismi sifatsizligi uchun qaytarildi.	6010	1730	240.0
5.	Xorijiy ta’sischilar tomonidan ustav kapitaliga hissa sifatida tovarlar kiritildi Tovarning faktura qiymatiga	1710	4610	11400.0
	Bojxona boji va QQS summasiga	1820	6410	5030.0
6.	Haridorlarga sotilgan tovarlarning sotish summasi hisoblandi	4010	9020	33400.0
7.	Haridorlarga chegirma taqdim qilindi	1910	4010	245.0
8.	Haridorlardan tovarlar qaytarildi	1920	4010	320.0
9.	**Tovarlarning harid tannarxi aniqlandi**: Hisobot davri harid summasi (12500+11400)	9140	1710	23900.0
	Keltirish va transport harajatlari summasi (185+5030)	9140	1810	5215.0
	Harid chigirmasi summasi	1720	9140	125.0
	Qaytarilgan harid summasi	1730	9140	240.0
9.	**Tovarlarning sotish tannarxi aniqlandi**: Boshlang‘ich tovar zaxiralari hisobdan chiqarildi	9120	2910	8450.0
	Tovarlarning harid tannarxi 9140 schetning debet va kredit oboroti o‘rtasidagi farq (23900+5215-125-240)	9120	9140	28750.0
	Inventarizatsiya yo‘li bilan hisobot davri oxirida tovar zaxiralari summasi aniqlandi	2910	9120	11400.0

	Tovarlarning sotish tannarxi (9120-schyotning debet va kredit oboroti o‘rtasidagi farq: (8450+28750-11400)	9910	9120	25800.0
10	**Sof realizatsiya summasi aniqlandi**: Realizatsiya chegirma summasiga	9020	1910	245.0
	Qaytarilgan realizatsiya va narxini kamaytirish summa	9020	1920	320.0
	Sof realizatsiya (9020-schyotning kredit va debet oboroti o‘rtasidagi farq: 33400-245-320)	9020	9910	32835.0
11	**Yalpi daromad summasi aniqlandi**: Hisobot davrida realizatsiyadan olingan yalpi daromad summasiga (32835-25800)	9910	9920	7035.0

Izoh: 6010, 4010, 2910 va 9020-schyotlarning nomlanishi 21-son BHMSdagi schyotlar rejasida keltirilgan (265-276-betlar);

Ushbu jadvalda 21-sonli BHMS bo‘yicha joriy qilingan va taklif qilinayotgan metodologik tartib o‘rtasida bir qancha farqlarni ilmiy jihatdan e’tirof etishimiz mumkin.

Birinchidan, taklif qilinayotgan tartibda tovarlarni harid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar alohida, harid, tashib keltirish va transportirovka, harid chegirmasi, qaytarilgan harid va narxini kamaytirish schyotlarida hisobga olinmoqda. 21-sonli BHMSdagi tartibda esa, ushbu operatsiyalar bilan bog‘liq jarayonlarni hisobga olish tartibi ko‘rsatilmagan. Lekin, ushbu misolda harid bilan bog‘liq barcha jarayonlar 9140 “Davriy hisobda TMZlar haridi” schyotida aks ettiriladi, deb qabul qilaylik. Amaldagi tartibda 9140-schyotda harid summasini aks ettirish ko‘zda tutilgan, lekin ushbu schyot tannarxni hisobga olishga mo‘ljallangan schyot hisoblanadi. Tovarlar haridi hali tannarx emas. Shu bois, harid bilan bog‘liq jarayonlarni yuqorida taklif qilingan alohida schyotlarda hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, yuqoridagi jadvalda harid tannarxini aniqlash uchun alohida 9140 “Davriy tizimda TMZlarning harid tannarxi” schyotini ochish va uni yuritishning metodologik tartibi asoslab berilgan. Unga muvofiq, harid jarayoni bilan bog‘liq barcha harajatlar hamda chegirmalar tegishli 1710, 1720, 1730, 1810, 1820, 1830, 1840, 1850 - schyotlarda aks ettirilib, hisobot oyi so‘ngida ushbu schyotlarning debet va kredit jami summalari 9140-schyotga o‘tkaziladi. Natijada, 9140-

schyotda tovarlarning harid tannarxini aniqlash uchun zarur bo‘lgan barcha oraliq ko‘rsatkichlar yig‘iladi. 9140-schyotning debet va kredit oborotlari o‘rtasidagi farq tovarlarning harid tannarxini beradi. Bu summa esa tovarlarning sotish tannarxi ko‘rsatkichini aniqlash uchun navbatdagi 9120-schyotga o‘tkaziladi. Ushbu uslubiy tartibning qo‘layligi shu bilan belgilanadiki, bunda xalqaro standartlarda qayd etilgan zaxiralarning harid tannarxi summasini alohida schyotda aniqlash imkonini beradi. Demak, taklif qilingan uslubiy tartib xalqaro va milliy standartlar talablariga to‘liq muvofiq keladi.

Uchinchidan, 21-sonli BHMSdagi tartibga asosan, tovarlarning sotish tannarxi 9100-schyotda to‘liq shakllanmasdan, moliyaviy natijalar schyotiga o‘tkazilmoqda, ya’ni, 9140-schyotni yopish orqali hisobot davri harid summasi va 9150-schyotni yopish orqali esa tovar zaxiralari summasining o‘sishi yoki kamayishi o‘tkazilmoqda. Natijada, tovarlar sotish tannarxi 9910 “Yakuniy moliyaviy natijalar” schyotida shakllanmoqda. Taklif qilingan tartibda esa, 9120-schyotda tovarlarning sotish tannarxi to‘liq shakllantirilgandan so‘ng (9120-schyotning debet va kredit oboroti o‘rtasidagi farq) yakuniy moliyaviy natijalar schyotiga o‘tkaziladi. Biz taklif etayotgan tartibning afzallik tomonlari ham shu yerda namoyon bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

To‘rtinchidan, ushbu metodik tartib korxonalarda buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga muvofiq holda moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini beradi. 9910 “Sotish natijalari” schyotida sof sotish summasidan tovarlarning sotish tannarxini ayirish orqali yalpi foyda aniqlanadi. Aniqlangan summa korxonaning operatsion faoliyati natijalarini aniqlash uchun 9920 “Operatsion faoliyatning moliyaviy natijalari” schyotiga o‘tkaziladi. Bu jarayon moliyaviy natijalarning keyingi bosqichdagi schyotlarida davom ettiriladi.

Uzluksiz zaxiralar protsedurasi usuli ham keyingi paytda yangi kompyuter dasturlarining joriy qilinishi munosabati bilan keng qo‘llanilmokda. Bu usul har bir zaxira turlari bo‘yicha kirim va chiqim operatsiyalarining qayd qilinishiga asoslanadi. Ushbu usulning qo‘llanilishi kompaniyada istalgan vaqtda mavjud tovar zaxiralarining

tannarxi to‘g‘risida ma’lumotlarni olish imkonini berdi. Bunda kompaniyada, “tovarlar” schyotida har bir harid qilingan tovarlar va har bir sotilgan tovarlar summasi yozib boriladi. Har bir buxgalteriya hisoboti davrining oxirida tovar zaxiralari inventarizatsiya qilinadi. Sanash yo‘li bilan aniqlangan haqiqiy malumotlar buxgalteriya schyotidagi ma’lumotlar bilan solishtiriladi.

Uzluksiz zaxiralar usulida zaxiralarning harakati, realizatsiya qilingan tovarlar tannarxini aniqlash jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish tartibini ko‘rib o‘taylik. Bunda asosiy ko‘pchilik olimlar, jumladan R. Hermanson, O. Libbi va boshqalar asosan bir xil metodik yondashishgan. Bu yondashishdagi asosiy buxgalteriya provodkalarini qo‘yidagicha aks ettiramiz [253b.; 377b.].

1. Taminotchilardan zaxiralar harid qilinganda uzluksiz yozuvlar amalga oshiriladi.

Zaxiralar……..(harid qilingan tovarlar summasiga)

To‘lanadigan schyotlar…….(harid tovar uchun to‘lanadigan summaga)

Transport-keltirish harajatlari summasiga

Zaxiralar……(Tovarlarni keltirish bilan bog‘liq transport harajatlari)

To‘lanadigan schyotlar yoki Pul mablag‘lari….(Transport harajatlari)

2. Ta’minotchilarga qaytarilgan tovarlar va chegirmalar summasiga

To‘lanadigan schyotlar……(qaytarilgan tovarlar va chegirmalar)

Zaxiralar……(qaytarilgan tovarlar va chegirmalar)

3. Haridorlarga tovarlar sotilganda

Olinadigan schyotlar…….(Haridorlardan olinadigan summaga)

Realizatsiya…….(Sotish summasiga)

4. Sotilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi.

Sotilgan tovarlar tannarxi …..…….(Sotilgan tovar tannarxi summasiga)

Zaxiralar……(Hisobdan chiqarilgn tovar tannarxi)

5. Sotilgan tovarlar qaytarilganda.

Qaytarilgan realizatsiya va chegirmalar…….(tovar sotish narxidagi summasiga)

Olinadigan schyotlar…….(tovarning sotish narxi summasiga)

6. Qaytarilgan tovarlarning tannarxi summasiga

Zaxiralar…….(qaytarilgan tovar tannarxi summasiga)

Sotilgan tovarlar tannarxi..(qaytarilgan tovar tannarxi summasiga)

Yuqoridagi aks ettirilgan provodkalar asosida tovar zaxiralarini hisobga olishda qo‘llaniladigan bu ikki usulning bir-biridan farqlovchi bir qancha jihatlarini fahmlash mumkin. *Birinchidan*, “davriy yozuvlar” usulida tovar zaxiralari boshlang‘ich qiymati elementlari alohida schyotlar yordamida hisobga olinadi. Masalan, tovarlarning harid narxi summasi - “haridlar”, transport harajatlari - “transport-keltirish”, ta’minotchilar tomonidan taqdim qilingan chegirma - “harid chegirmasi”, ta’minotchilarga qaytarilgan tovarlar va chegirmalar (allovens) - “haridlarning qaytarilishi va taqdim qilingan chegirmalar” schyotlarida aks ettiriladi. “Uzluksiz yozuvlar” usulida esa bu jarayonlarning barchasi “Zaxiralar” schyotida o‘z aksini topadi. Bu usulda ushbu schyotlarga ehtiyoj bo‘lmaydi. *Ikkinchidan*, “davriy yozuvlar” usulida “tovar zaxiralari” schyotiga uning boshlang‘ich qoldig‘ini hisobdan chiqarish va oxirgi qoldig‘ini tiklashga oid bo‘lgan yozuvlar bilan chegaralanadi. “Uzluksiz yozuvlar” usulida esa, “zaxiralar” schyotida tovarlarning kirimi va chiqimiga oid barcha yozuvlar ularning haqiqiy tannarxida to‘liq olib boriladi. *Uchinchidan*, “davriy yozuvlar” usulida “sotilgan tovarlar tannarxi” schyoti qo‘llanilmasligi ham mumkin. Bundan farqli o‘laroq, “uzluksiz yozuvlar” usulida “sotilgan tovarlarning tannarxi” schyotidan foydalanish zaruriyat hisoblanadi. *To‘rtinchidan*, “davriy yozuvlar” usulida tovarlarni keltirish bilan bog‘liq transport-tayyorlov harajatlarini sotilgan tovarlarga va tovar zaxiralariga taqsimlash tizimi ko‘zda tutilmagan.

Hisobot davrida to‘lanadigan transport harajatlari to‘laligicha hisobdan chikariladi. Natijada esa, harajatlarni hisobot davrlariga

taqsimlashda prinsiplarga nomuvofiqlik hollari yuza kelishi mumkin. “Uzluksiz yozuvlar” usulida bunday hollar uchramaydi. Tovarlar tannarxi bilan bog‘liq barcha harajatlar “tovar zaxiralari” schyotida mujassamlashadi.

Endi, bizning amaliyotimizda tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning tizimi va uni takomillashtirishning ayrim masalalariga to‘xtalib o‘taylik.

“Nihol” XSK misolida 21-son BHMS muvofiq tovar zaxiralarining harakati bilan bog‘liq asosiy ikkita buxgalteriya yozuvlarini keltiramiz (83, 95-b.).

(1) Ta’minotchilardan tovarlar harid qilib olindi.

Debet 2910 “Ombordagi tovarlar” (so‘m) …….580000.00 (Tovarlarning harid summasiga)

Kredit 6010 “Ta’minotchilarga to‘lanadigan schyotlar”……580000.00 (To‘lanadigan summa)

(2) Haridorlarga realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi hisobdan chiqarilganda

Debet 9120 “Realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi”…480000.00 (sotilgan tovar tannarxiga)

Kredit 2910 “Ombordagi tovarlar”……480000.00 (sotilgan tovar tannarxi)

Ushbu yozuvlardan ko‘rinib turibdiki, bizning amaliyotimizda 21-son BHMSda berilgan asosiy buxgalteriya provodkalari tovar zaxiralarini barcha kelib tushish manbalari va chiqarilish yo‘nalishlari bo‘yicha hisobga olishga qaratilgan. Bizning fikrimizcha, tovar zaxiralari hisobining asosiy e’tibori tannarx prinsipiga muvofiq, tovarlarning boshlang‘ich qiymatini va realizatsiya qilingan tovarlar tannarxini aniqlashga qaratilmog‘i kerak. Chunki, tovar zaxiralari hisobining asosiy maqsadi tovar zaxiralari qoldiq summasini buxgalteriya balansida va sotilgan tovarlarning tannarxini moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda ob’ektiv aks ettirish bo‘lib hisoblanadi. 21-son BHMSda 2900-schyot bo‘yicha berilgan schyotlar korrespondensiyasida tovarlar boshlang‘ich qiymatiga ta’sir ko‘rsatuvchi tovarlarni keltirish bilan bog‘liq transport harajatlari, to‘langan bojxona

poshlinalari va soliqlar, ta’minotchilar tomonidan taqdim qilingan chegirmalar, ta’minotchilarga qaytarilgan tovarlar va boshqa operatsiyalarning yozuvlari ko‘rsatilmagan.

Yuqoridaga berilgan ikkita provodka asosida xulosa qilishimiz mumkinki, bizning amaliyotimizda tovar zaxiralarini hisobga olishda qo‘llanilayotgan tizim “uzluksiz zaxiralar” usuliga to‘g‘ri keladi. Bizga yuqorida chet el tajribasini o‘rganish asosida ma’lum bo‘ldiki, “uzluksiz zaxiralar” usulida tovarlarga oid bo‘lgan har bir kirim va chiqim operatsiyalari boshlang‘ich qiymat bahosida yozib boriladi. Bu usulni ulgurji savdo korxonalariga qo‘llash ancha qo‘laydir. Chunki, tovarlarning sotilishi ulgurji amalga oshiriladi. Bu esa, har bir sotilish operatsiyasi bo‘yicha sotilgan tovarlar tannarxini hisoblash uchun markazni yuzaga keltirishni taqoza qiladi. Bizga ma’lumki, fakturada tovarlar sotish narxida ko‘rsatiladi. Buxgalteriyada esa, tovarlarni boshlang‘ich qiymatda hisobga olib boramiz. Natijada, ushbu markazda har bir sotilgan faktura bo‘yicha sotilgan tovarlarning tannarxini hisoblash talab etiladi. Bu qo‘lda yoki dasturlar asosida kompyuterda amalga oshirilishi mumkin.

Biz chet el tajribasida tan olingan “uzluksiz zaxiralar” usuli asosida “Nihol” XSK misolida 2910 “Ulgurji omborlarda tovar zaxiralari” schyotiga oid eng ko‘p uchraydigan buxgalteriya provodkalarini 3.11-jadvalda rasmiylashtiramiz.

3.11-jadval

Nihol” XSK misolida tovar zaxiralari va realizatsiya qilingan tovar tannarxini aniqlash bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini moliyaviy buxgalteriya hisobining “uzluksiz zaxiralar” tizimida hisobga olish tartibi

№	Xo‘jalik operatsiyalar mazmuni	Schyotlar korrespondensiyasi		Summa
		Debet	Kredit	
1.	Ta’minotchilardan harid qilingan tovarlar qabul kilindi	2910	6010	12500000.00
2.	Ushbu tovarlarni keltirish uchun taminotchiga transport harajatlari to‘lovi qabul qilindi	2910	6010	185000.00

3.	Tomonlar shartnoma asosida, haridor 15%lik oldindan va qolgan qismi bo‘yicha tovarlar yetkazilib berilgandan so‘ng 3 bank kuni ichida to‘lovni amalga oshirsa 1 % chegirma taqdim qilinishiga kelishildi. Ushbu shart bo‘yicha chegirma taqdim qilindi.	6010	2910	125000.00
4.	Ta’minotchilarga harid qilingan tovarlarning bir qismi yoki to‘laligicha qaytarilgan.	6010	29.10	-
5.	“Hakan Agro Commodities traiding” Co dan 15000 AQSH dollariga 28.12.2002 ustav kapitaliga tovar keltirildi. (Ushbu kunda AQSH dollari kursi 766.94 so‘m tashkil etdi. Tovarning so‘mdagi qiymati 11504100 so‘m. Ushbu summadan 0.2% bojxona protsedurasi - 23008.20 so‘m, 20% bojxona poshlinasi - 2300820.00 so‘m va 20% QQS – 2706984 so‘m to‘landi [(1504100+2300820)*0.20]: Tovarning faktura qiymatiga Bojxona protsedurasi uchun to‘lov 0.2% Bojxona boji 20% QQS 20%	 2910 2910 2910 2910	 4610 6410 6410 6410	 11504100.00 23008.20 2300820.00 2706984.00
6.	Haridorlarga sotilgan tovarlarning sotish narxi summasiga	4010	9020	3500000.00
7.	Sotilgan tovarlarning tannarxi summasiga (3500000.00 so‘m sotish narxidagi tovarlarning boshlang‘ich qiymati 25679912.20 so‘mni tashkil etadi)	9120	2910	25679912.20
8	Haridorlarga chegirma taqdim qilinganda (Haridorlarni rag‘barlantirish va to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladi)	1910	4010	-
9	Haridorlardan tovarlar qaytarildi (shartnoma shartlariga uyg‘un bo‘lmagan yoki boshqa tovarlar jo‘natilgan paytda)	1920	4010	-
10	Sof realizatsiya summasi aniqlash maqsadida 1910 “realizatsiya chegirmasi” va 1920 “qaytarilgan realizatsiya” schyotlarini yopish	9020 9020	1910 1920	- -
11	Hisobot davrida realizatsiyadan olingan yalpi daromad summasini aniqlash bo‘yicha yozuvlar: 9020-schyotning kredit va debet oboroti o‘rtasidagi farq summasiga Realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi summasiga (yalpi daromad summasi, ya’ni 9910-schyotining kredit va debet oboroti o‘rtasidagi farq) (4500-3600)	 9020 9910 9910	 9910 9120 9920	 35000000.00 25679912.20 9320087.80

Bunda sof realizatsiya hajmini va sotishdan olingan yalpi daromadni xalqaro standartlar talabida aniqlash maqsadida schyotlar rejasida quyidagi schyotlarni ochishni taklif qilamiz:

9910 “Savdo natijalari” – Tovarlar realizatsiyasidan olingan yalpi daromadni aniqlash.

1910 “Realizatsiya chegirmasi” – Haridorlarga taqdim qilingan chegirma summasini hisobga olish.

1920 “Qaytarilgan realizatsiya va taqdim qilingan chegirmalar” – Haridorlar tomonidan qaytarilgan realizatsiya va taqdim qilingan chegirma summasi.

Ushbu schyotlar 2.8-jadvalda ko‘rsatilgan tartibda qo‘llanilsa, tovar zaxiralari, realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi, sof realizatsiya va sotishdan olingan moliyaviy natijalarni alohida schyotlarda aniqlash imkonini beradi.

“Uzluksiz zaxiralar” usulini qo‘llash hamma vaqt ham samara beravermaydi. Ayniqsa, chakana savdo korxonalarida maxsus dasturlar asosida kompyuterlashtirish yo‘lga qo‘yilmasa, har bir sotish operatsiyasini hisobga olish, sotilgan tovarlar tannarxini aniqlash jarayoni qiyinlashadi yoki imkoni bo‘lmay qoladi. Agar, hamma tovarlarga bir xil savdo ustamasi belgilansa, kunlik tushum asosida sotilgan tovarlarning tannarxini aniqlash mumkin bo‘ladi. Lekin, tovarlarga assortimenti va turlariga qarab identifikatsiyalangan savdo ustamasi belgilangan hollarda sotilgan tovarlar tannarxini aniqlash qiyinlashadi. Bunday hollarda, “davriy zaxiralar” usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, ushbu usulning qo‘llanilishi tovar zaxiralarining harakati ustidan nazoratning pasayishiga olib kelishi mumkin degan fikrlar ham yuq emas. Chunki, “tovar zaxiralari” schyotiga uning kirimi va chiqimiga oid yozuvlar yozilmaydi. Bu usulning qo‘llanilishi faqat sintetik schyot ma’nosida “tovar zaxiralari” schyotiga yozuvlarning bo‘lmasligini taqoza qilsada, tovarlar harakatiga oid analitik hisob-kitoblarning yoki boshqa menejment maqsadidagi hisob-kitoblarning yuritilishini inkor etmaydi.

3.4. Savdo korxonalarida sotilgan tovarlar tannarxi va moliyaviy natijalar hisobi asoslari[51]

Tadqiqotimiz davomida har bir muhim joriy ko‘rsatkichlarning tavsifi va aniqlash tartibi bilan tanishib chiqaylik. Birinchi joriy ko‘rsatkich bu **sotish va xizmatlar tannarxi**. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash tartibi savdo, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatuvchi

[51] Ushbu paragraf tadqiqotchi F.Yusupova tomonidan yozilgan.

korxonalarda bir qancha xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlari bilan tanishib chiqaylik.

Savdo-tijorat tashkilotlarida sotilgan tovarlar tannarxini aniqlash bir bosqichda amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagi jadvaldagi hisobot tuzish maqsadga hisoblanadi (3.12-jadval).

3.12-jadval

Savdo korxonalarida sotilgan tovarlar tannarxi to‘g‘risidagi hisobot[52]

Ko‘rsatkichlar	Summa
Hisobot davrining boshida tovar zaxiralarining boshlang‘ich qoldig‘i	98 250 000
Hisobot davri davomida harid qilingan tovar zaxiralari	1 280 450 000
Jami sotish uchun mo‘ljallangan tovar zaxiralari (98 250 000 + 1 280 450 000)	1 378 700 000
Hisobot davrining oxirida tovar zaxiralarining oxirgi qoldig‘i	148 320 480
Sotilgan tovar zaxiralari tannarxi (1 378 700 000 – 148 320 480)	**1 230 379 520**

Solishtirish maqsadida foyda solig‘i hisob kitoblarida 2023-yildan e’tiboran sotilgan tovarlar (ish va xizmatlar)ning tannarxini hisoblash tartibi kiritildi. Unga muvofiq savdo-tijorat korxonalarida sotilgan tovarlar tannarxini hisoblashning quyidagi tartibi keltirilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda amalda bo‘lgan foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarning 2.1 (a) - ilovasidagi “Bevosita harajatlar moddalari asosida tovarlar (xizmatlar) tannarxi (o‘z mahsuloti (ju jumladan bajarilgan xizmatlar), sotib olingan tovarlar) hisob-kitobi”larida sotilgan tovarlar tannarxini hisoblashning quyidagi tartibini belgilagan (3.13-jadval).

Mamlakatimizda joriy qilingan tartibga muvofiq foyda solig‘i hisobida “Soliq hisobi - mutanosib usuli”, “Soliq hisobi - to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli” kabi usullarni qo‘llash ko‘zda tutilgan. Mutaxassislarning tavsiyasiga ko‘ra “**hisobga olishning mutonosib usulida** harajatlar sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatining

[52] Savdo korxonasi misolida muallif ishlanmasi

muayyan turlari bo‘yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutonasib ravishda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi.

3.13-jadval

2023 yilda foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarda sotilgan tovarlar tannarxining hisob - kitobi[53]

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Soliq davri boshidagi tayyor (sotish uchun mo‘ljallangan) mahsulotlar qiymati, *shu jumladan:*	050	3 124 099 810,00
Qayta sotish uchun sotib olingan tovarlar	0502	3 124 099 810,00
Joriy davrda kirim qilingan tayyor (sotish uchun mo‘ljallangan) mahsulotlarning qiymati, *shu jumladan:*	060	842 995 109,00
Qayta sotish uchun sotib olingan tovarlarning qiymati	0602	842 995 109,00
Joriy davrdagi tayyor (sotish uchun mo‘ljallangan) mahsulotlarning umumiy qiymati (050+060)	070	3 967 094 919,00
Qayta sotish uchun sotib olingan tovarlar (0502+0602)	0702	3 967 094 919,00
Boshqa holatlar bo‘yicha kirim qilingan tovarlar qiymati	07021	0
Boshqa holatlar bo‘yicha chiqim qilingan tovarlar qiymati	07022	0
Davr oxiriga tayyor (sotish uchun mo‘ljallangan) mahsulotlar qiymati, *shu jumladan:*	080	2 870 005 688,00
Qayta sotish uchun sotib olingan tovarlar	0802	2 870 005 688,00
Sotilgan tovarlar (xizmatlar) tannarxi	090	1 097 089 231,00
Qayta sotish uchun sotib olingan tovarlar ***(0702-satr + 07021-satr - 07022-satr - 0802-satr)***	0902	1 097 089 231,00

To‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda harajatlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turiga kiritiladi. Bunda biron faoliyat turiga kiritish mumkin bo‘lmaydigan harajatlar hisobga olinshini mutonosib usul orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.”[54]

Bizning nazarimizda foyda solig‘i hisobida ayrim xorij tajribalari va ularni qo‘llash xususiyatlari inobatga olinmagan. **Birinchidan**, xorij

[53] Korxonalarning foyda solig‘i hisob-kitoblari asosida muallif ishlanmasi

[54]Harajatlarning alohida alohida hisobi https://gazeta.norma.uz/publish/doc/text118258_harajatlarning_alohida-alohida_hisobi

tajribalarida zaxiralarni hisobga olishning ikkita tizimi qo‘llaniladi. Bu uzluksiz hisob tizimi va davriy hisob tizimi. Joriy qilingan foyda solig‘i hisob-kitoblarida faqat davriy hisob tizimi talablari inobatga olingan. Uzluksiz hisob tizimi talablari inobatga olinmagan. Davriy va uzluksiz hisob tizimlariga bergan ta’riflar: “**Davriy zaxiralar tizimi** deganda, zaxiralar hisobi bo‘yicha uzluksiz yozuvlar amalga oshirilmaydigan, boshlang‘ich va oxirgi qoldiqlari inventarizatsiya yo‘li bilan aniqlanadigan hamda zaxilarning harid tannarxi alohida schyotda yuritiladigan yondashuvga aytiladi.

Uzluksiz zaxiralar tizimi deganda, har bir zaxira turlari bo‘yicha kirim va chiqim operatsiyalarining qayd qilinishiga asoslanadigan, inventarizatsiya qilmasdan hisob ma’lumotlari bo‘ycha zaxirlar qoldig‘ini va sotilgan zaxiralar tannarxini aniqlash mumkin bo‘lgan yondashuvga aytiladi.”

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarning asosiy qismi uzluksiz hisob tizimini qo‘llaydi. Uzluksiz hisob tizimida sotilgan tovarlar tannarxi uning uchun maxsus mo‘ljallangan schyotda shakllantiriladi. Oxirgi tovar zaxiralarini inventarizatsiya qilish yo‘li bilan aniqlashning zururiyati yo‘q. Tovar zaxiralarining boshlang‘ich va oxirgi qoldiqlari tegishli schyotlarda mavjud. Shu bois, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarga berilgan ilovalardagi sotilgan tovarlar tannarxini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar davriy hisob tizimi talablariga javob beradi. Xolbuki, mamlakatimizdagi hisob tizimi asosan uzluksiz hisob tizimining qo‘llanilishini taqozo qiladi. Shu bois, bizning fikrimizcha, foyda solig‘i hisob-kitobi bo‘yicha ilovada berilgan sotilgan tovarlar tannarxi to‘g‘risidagi hisob-kitoblarni uzluksiz hisob tizimiga ham muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Savdo korxonalarida moliyaviy natijalarning shakllanishi. Xalqaro standartlar talablariga muvofiq “Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risida”gi hisobotning shaklida (formatida) foyda yoki zararlar to‘g‘risidagi qismida quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiq (3.14-jadval):

3.14-jadval

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risida hisobot

I. Foyda yoki zararlar to‘g‘risidagi hisobot

Ko‘rsatkichlar nomi	**Satr kodi**	**Ko‘rsatkich-larning tipi**
Asosiy (odatdagi) faoliyati bog‘liq daromad va harajatlar:	**0100-0200**	
Operatsion faoliyat:	**0100**	
Sotishdan tushgan tushumlar va xizmatlarni rag‘batlantirish	0101	**Boshlang‘ich ko‘rsatkich**
Sotishlar va xizmatlar tannarxi	0102	Joriy
Yalpi foyda (zarar) (satr. 0101-0102)	**0103**	**Oraliq ko‘rsatkich**
Sotish harajatlari	0104	Joriy
Ma’muriy harajatlar	0105	Joriy
Aktivga aylanmagan ishlanmalar va tadqiqotlar bo‘yicha harajatlar	0106	Joriy
Operatsion faoliyat foydasi (zarari) (0103 -0104 – 0105 – 0106)	0107	**Oraliq ko‘rsatkich**
Moliyaviy faoliyatdan tushumlar va harajatlar:	0200	
Dividend	0201	Joriy
Royalti	0202	Joriy
Ijara to‘lovlari	0203	Joriy
Foiz shaklidagi harajatlar	0204	Joriy
Moliyaviy ijara bo‘yicha foiz shaklidagi harajatlar	0205	Joriy
Hissali qatnashish metodi bo‘yicha assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalarning foyda yoki zararidagi hissasi	0206	Joriy
Investitsiyaviy ko‘chmas mulklarning qiymati oshishi natijasida olingan daromadlar	0207	Joriy
Asosiy (odatdagi) faoliyatning foydasi (zarari) (0107 + 0201 + 0202 + 0203 – 0203 – 0204- 0205 + (-) 0206) + 0207	0208	**Oraliq ko‘rsatkich**
Asosiy (odatdagi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromad va harajatlar:	0300	
Penya, jarima va neustoykalar bo‘yicha foyda yoki zararlar	0301	Joriy
Joriy bo‘lmagan aktivlarni sotishdan olingan foyda yoki zararlar	0302	Joriy
Sotishga qobiliyatli qimmatbaho qog‘ozlarni qayta baholashdan olingan naflar	0303	Joriy
Valyuta kursi farqidan foyda yoki zararlar	0304	Joriy

Kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan naflar	0305	Joriy
Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam	0306	Joriy
Hisobot davrida aniqlangan o‘tgan davrlar daromadlari	0307	Joriy
Amortizatsiyalanadigan qiymati bo‘yicha baholanadigan moliyaviy aktivlarni tan olinishi to‘xtatishdan (chiqib ketishidan) olinadigan foyda yoki zararlar	0308	Joriy
Moliyaviy aktivlarni qayta tasniflash natijasida yuzaga keladigan foyda yoki zararlar	0309	Joriy
Favqulotda yuzaga kelgan foyda yoki zararlar	0310	Joriy
Boshqa daromadlar va harajatlar	0311	Joriy
Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda yoki zarar (0208 + (-) 0301 + (-) 0302 + 0303 + (-) 0304 + 0305 + 0306 + 0307 + (-) 0308 + (-) 0309 + (-) 0310 + (-) 0311 **)**	0401	**Oraliq ko‘rsatkich**
Foyda solig‘i bo‘yicha harajatlar	0501	Joriy
Davom etayotgan faoliyatdan foyda (zarar) (0401 – 0501)	**0601**	**Oraliq ko‘rsatkich**
Tugatilayotgan faoliyatdan foyda (zarar)	0701	Joriy
Hisobot davri uchun sof foyda (zarar) (satr. 0601 + (-) 0701**)**	**0801**	**Natijvaiy ko‘rsatkich**


Ushbu ko‘rsatkichlarni uchta toifaga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. **Boshlang‘ich ko‘rsatkich**, ya’ni hisobot dastlabki boshlanadigan ko‘rsatkich. Bunga “Sotishdan tushgan tushumlar va xizmatlarni rag‘batlantirish” ko‘rsatkichini misol bo‘la oladi. Hisobot shu ko‘rsatkichdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda hisobotdagi bosh drayver ko‘rsatkich, uning hajmi va sifati boshqa ko‘rsatkichlarni hajmini belgilaydi.

2. **Joriy ko‘rsatkichlar**. Bu ko‘rsatkichlar hisobotga daromadlarni va harajatlarni hisobga oluvchi schyotlardagi ma’lumotlar asosida shakllantiriladi, ya’ni schyotlarning debeti va kreditidagi jami summalar hisobotning tegishli satrlariga o‘tkaziladi. Masalan, bu ko‘rsatkichlar toifasiga 0102-satr “Sotishlar va xizmatlar tannarxi”, 0104-satr “Sotish harajatlari va jadvalda keltirilgan boshqa ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin. Joriy ko‘rsatkichlar ham moliyaviy natijalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Joriy ko‘rsatkichlarning muhim xususiyati shundan iboratki, ularning hajmi va miqdori oraliq ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sotishlar va xizmatlar tannarxi yalpi foyda ko‘rsatkichiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Joriy ko‘rsatkichlarni

korxonaning asosiy (odatdagi) faoliyati bog‘liq daromad va harajatlar, Asosiy (odatdagi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromad va harajatlar, Foyda solig‘i bo‘yicha harajatlar, Tugatilayotgan faoliyat natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Oraliq ko‘rsatkichlar. Ushbu ko‘rsatkichlar hisobotning o‘zida hisoblash orqali aniqlanadi. Oraliq ko‘rsatkichlar moliyaviy natijalarning ma’lum bir faoliyatidan keyingi natijalarni ifodalaydi. Oraliq ko‘rsatkichlar faoliyatning ma’lum bosqichidagi natijalarni tavsiflab, rezerv va imkoniyatlarni topishda qo‘l keladi. Oraliq ko‘rsatkichlar iqtisodiy samaradorlikni tavsiflaydi. Shu bois, oraliq ko‘rsatkichlar moliyaviy tahlilni o‘tkazishda keng qo‘llaniladi. Oraliq ko‘rsatkichlarga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritamiz (3.3-rasm):



3.3-rasm. Moliyaviy natijalarning oraliq ko‘rsatkichlari

Ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlash tartibi bilan tanishib chiqamiz.

Birinchi ko‘rsatkich, yalpi foyda (YAF) ko‘rsatkichi bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich Sotishdan tushgan tushumlar va xizmatlarni

rag‘batlantirish summasidan (T) sotish va xizmatlar tannarxni (ST)ni ayirish orqali topiladi:

YAF = T – ST (1)

Ushbu ko‘rsatkich sotishdan tushgan tushumdan ushbu sotishni amalga oshirish sarflangan resurslarning, ya’ni sotilgan mahsulotlar, tovarlar (ish va xizmatlar)ning tannarxini chegirgandan keyingi foyda summasini tavsiflaydi va keyingi barcha oraliq ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ikkinchi ko‘rsatkich, operatsion faoliyatning foydasi (zarari) (OFZ) deb nomlanib, ushbu ko‘rsatkich yalpi foydadan (YAF) davr harajatlari, jumladan sotish (SX), ma’muriy (MX) va aktivga aylanmagan ishlanmalar va tadqiqotlar bo‘yicha harajatlarni (ITX) chegirish orqali aniqlanadi:

OFZ = YAF – SX – MX – ITX (2)

Ushbu ko‘rsatkich yalpi foydadan operatsion faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan davr harajatlarini chegirgandan keyingi operatsion foydani, ya’ni korxonaning asosiy operatsion faoliyat natijalarini tavsiflaydi.

Uchinchi ko‘rsatkich, asosiy (odatdagi) faoliyatning foydasi (zarari) (AFFZ) ko‘rsatkichi bo‘lib, bu operatsion foydadan asosiy faoliyatiga doir bo‘lgan, ya’ni tushumlar tavsifiga javob beradigan moliyaviy faoliyatdan olingan tushumlarni (MFD) qo‘shib, moliyaviy faoliyat bo‘yicha harajatlarni (MFX) chegirib tashlash hamda Investitsiyaviy ko‘chmas mulklarning qiymati oshishi natijasida olingan daromadlar (IKMQOD) qo‘shish orqali topiladi:

AFFZ = OFZ + MFD – MFX + IKMQOD (3)

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning asosiy, ya’ni odatdagi faoliyati natijalarini, ya’ni korxona operatsion faoliyati hamda moliyaviy faoliyatdan tushumlar va harajatlarni tavsiflaydi. Odatdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlar va harajatlarning moddalari yuqoridagi jadvalda keltirilgan. Hozirgi iqtisodiyotning glaballashuvi sharoitida moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar hissasi oshib bormoqda, bu o‘z navbatida hisobotda moliyaviy foliyatga doir moddalarning kengroq ochiqlanishini taqozo qilmoqda.

To‘rtinchi ko‘rsatkich, foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarari) (FSTQFZ) deb nomlanib, ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zararlarga (AFFZ) asosiy (odatdagi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan foydani (AFBBF) qo‘shib,

asosiy (odatdagi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan zararlarni (AFBBZ) chegirish kerak bo‘ladi**:**

FSTQFZ = AFFZ + AFBBF – AFBBZ (4)

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan odatdagi faoliyati va odatdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatlari natijalarini tavsiflaydi. Odatdagi faoliyati bilan bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyati moddalari yuqoridagi jadvalda keltirilgan. Ta’kidlab o‘tish joizki, xalqaro standartlarda bu ko‘rsatkichlarni boshqa daromadlar va boshqa harajatlar deb nomlanib, ularni hisobotlarda aks ettirishning muhim xususiyati ular bo‘yicha bitta natija, ya’ni foyda yoki zarar aks ettiriladi. Masalan, asosiy vositalarni sotishdan olingan foyda, asosiy vositalarni sotishdan zarar alohida aks ettirilmasdan, bitta satrda Joriy bo‘lmagan aktivlarni sotishdan olingan foyda yoki joriy bo‘lmagan aktivlarni sotishdan zarar aks ettiriladi. Bu qoida odatdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha foyda yoki zararlar moddalariga taalluqli hisoblanadi.

Beshinchi ko‘rsatkich, davom etayotgan faoliyatdan foyda (zarari) (DEFFZ) ko‘rsatkichi bo‘lib, foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarari) (FSTQFZ)dan Foyda solig‘i bo‘yicha harajatlarni (FSX) chegirish orqali topiladi:

DEFFZ = FSTQFZ – FSX (5)

Ushbu ko‘rsatkich davom etayotgan faoliyatning natijalarini tavsiflaydi. Agarda korxonada tugatilayotgan faoliyat mavjud bo‘lmasa sof foydani hisoblash aynan shu bosqichda yakunlanadi.

3. Yakuniy ko‘rsatkichlar.

Yakuniy moliyaviy natijalar bu moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning eng so‘nggi holatini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich yakuniy bo‘lganligi uchun hisobotning bu ko‘rsatkichdan keyin unga joriy ko‘rsatkichlarni qo‘shish yoki ayrish amalga oshirilmaydi. Bu eng so‘nggi natijaviy ko‘rsatkichdir. Bu ko‘rsatkich butun faoliyatning natijasi bo‘lib, tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarni qiziqtiruvchi muhim ko‘rsatkichdir. Korxona rahbariyati tomonidan hisobotlar tashqi auditdan o‘tgan, kuzatuv Kegashi tasdiqlagan hisobotdagi sof foyda yoki zarar ko‘rsatkichi e’lon qilinadi. Sof foyda yoki zarar ko‘rsatkichi yakuniy ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichkich korxonaning samaradorligini tavsiflaydi, iqtisodiy resurslardan qanchalik darajada samarali foydalanilganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi. Agar korxona faoliyatini foyda bilan yakunlagan bo‘lsa aksiyadorlarga va ta’sischilarga dividend berish va qolgan qismini xususiy kapitalning

ko‘payishiga yo‘naltirilishi mumkin bo‘ladi. Shu bois, sof foyda xususiy kapitalni ko‘paytirishning eng muhim manbai sanaladi. Yakuniy ko‘rsatkich sifatida oltinchi ko‘rsatkichni kiritishimiz mumkin.

Oltinchi ko‘rsatkich, hisobot davri uchun sof foyda yoki zarar (SFZ) ko‘rsatkichi bo‘lib, uni hisoblash uchun davom etayotgan faoliyatdan olingan foyda yoki zararlarga (DEFFZ) tugatilgan faoliyatdan olingan foyda yoki zararlarni (TFOFZ) qo‘shish orqali topiladi.

$$SFZ = DEFFZ + (-)\ TFOFZ \quad (6)$$

Ushbu ko‘rsatkich, yakuniy moliyaviy natijani tavsiflaydi. Sof foyda devidend to‘langandan keyin taqsimlanmagan foydaga yo‘naltiriladi. Yuqorida taklif etilayotgan uslubiy tartib qoidalar natijalari hamda hisoblash formulalarini quyidagi 3.15-jadvalda aks ettiramiz:

3.15-jadval

Moliyaviy natijalarni bosqichma-bosqich hisoblash formulalari

Ko‘rsatkichlarning nomi	Hisoblash formulasi	Belgilashlar
1. Yalpi foyda (YAF)	**YAF = T – ST**	**T** - sotishdan tushgan tushumlar va xizmatlarni rag‘batlantirish summasi; **ST** - xizmatlar tannarxi
2. Operatsion faoliyatning foydasi (zarari) (OFZ)	**OFZ = YAF – SX – MX – ITX (2)**	**SX** – sotish harajatlari; **MX** – ma’muriy harajatlar; **ITX** – aktivga aylanmagan ishlanmalar va tadqiqotlar bo‘yicha harajatlarni
3. Asosiy (odatdagi) faoliyatning foydasi (zarari) (AFFZ)	**AFFZ = OFZ + MFD – MFX + IKMQOD**	**MFD** – moliyaviy faoliyatdan olingan tushumlar; **MFX** – moliyaviy faoliyat bo‘yicha harajatlar; **IKMQOD** – investitsiyaviy ko‘chmas mulklarning qiymati oshishi natijasida olingan daromadlar
4. Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarari) (FSTQFZ)	**FSTQFZ = AFFZ + AFBBF – AFBBZ**	**AFBBF** – asosiy (odatdagi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan foyda; **AFBBZ** – asosiy (odatdagi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan zararlar

5. Davom etayotgan faoliyatdan foyda (zarari) (DEFFZ)	**DEFFZ = FSTQFZ – FSX**	**FSTQFZ** – foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarari); **FSX** – foyda solig‘i bo‘yicha harajatlar
6. Hisobot davri uchun sof foyda yoki zarar (SFZ)	**SFZ = DEFFZ + (-) TFOFZ**	**TFOFZ** – tugatilayotgan faoliyatdan olingan foyda yoki zararlar

Taklif etilayotgan ushbu hisoblash formulalari xalqaro standartlar talablariga muvofiq keladi.

Moliyaviy natijalarni hisobga olishga doir bo‘lgan qoidalar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning shaffof va haqqoniy bo‘lishligini ta’minlaydi.

Tayanch atamalar:

Savdo xizmatlari deganda, alohida tadbirkorlik faoliyat, ya’ni tovar muomalasining bir turi, tovar, mahsulot, ish va xizmatlarning oldi-sotdi yo‘li bilan ayirboshlash shakli, sotuvchi va haridor qatnashadigan jarayon bo‘lib, unda sotuvchi va’da qilingan tovar (mahsulot, ish va xizmatlarni) uzatish orqali uning qiymatiga teng bo‘lgan pul mablag‘lari yoki qoplamalarni olishga bo‘lgan huquqga ayirboshlash hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Savdo korxonalari xizmatlari iqtisodiy samaradorligi deganda, savdo korxonasining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va bozordagi strategik pozitsiyalarini mustahkamlash darajasini ifodalovchi, qo‘shilgan qiymat yaratish va resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya tushuniladi

Savdo korxonalarining muomala harajatlari deganda, tovarlarni ishlab chiqaruvchidan harid qilish jarayoni (harid narxidan tashqari), tovarlarni sotishga tayorlash va sotish jarayoni, jumladan iste’molchilarga yetkazib berishda sarflangan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning puldagi ifodasiga aytiladi.

Tovarlarni sotish harajatlari deganda, harid qilingan tovarlarni sotish jarayonida yuzaga keladigan sarflar bo‘lib, qaysiki resurslarning chiqib ketishi yoki majburiyatlarning ko‘payishiga olib keladi.

Savdo korxonalarida tarmoqlashgan lizing-jamg‘armasi (klaster lizing fondi) deganda, yehtiyojlardan kelib chiqib asbob-uskunalarni xorijdan va mahalliy ishlab chiqaruvchilardan

markazlashgan holda katta hajmda harid qiladigan, ularni saqlash, ishlov berish, ta’mirlash, komplektatsiya qilish hamda ularni lizing shartnomalari asosida ularni savdo korxonalariga yetkazib beradigan, ularga kafolat berilgan, texnik hamda savdo xizmatlarini ko‘rsatadigan moliyaviy tashkilotga aytiladi.

Savdo-tijorat firmalariga savdo do‘konlari, dorixona, suvener – sovg‘a va bakaleya do‘konlariga ega bo‘lgan korxonalar kiradi. Savdo tijorat firmalari o‘z haridorlariga tovarlarni sotish uchun ularni ta’minotchilardan sotib oladi

Hisobga olishning mutonosib usulida harajatlar sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatining muayyan turlari bo‘yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutonasib ravishda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda harajatlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turiga kiritiladi. Bunda biron faoliyat turiga kiritish mumkin bo‘lmaydigan harajatlar hisobga olinshini mutonosib usul orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.”[55]

Davriy zaxiralar tizimi deganda, zaxiralar hisobi bo‘yicha uzluksiz yozuvlar amalga oshirilmaydigan, boshlang‘ich va oxirgi qoldiqlari inventarizatsiya yo‘li bilan aniqlanadigan hamda zaxilarning harid tannarxi alohida schyotda yuritiladigan yondashuvga aytiladi.

Uzluksiz zaxiralar tizimi deganda, har bir zaxira turlari bo‘yicha kirim va chiqim operatsiyalarining qayd qilinishiga asoslanadigan, inventarizatsiya qilmasdan hisob ma’lumotlari bo‘ycha zaxirlar qoldig‘ini va sotilgan zaxiralar tannarxini aniqlash mumkin bo‘lgan yondashuvga aytiladi.”

O‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar:

1. Savdo va savdo xizmatlariga tavsif bering?
2. Savdoda iqtisodiy samaradorlikka tavsif bering?
3. Savdoning asosiy ko‘rsatkichlariga tavsif bering
4. Savdoda KPI ko‘rsatkichlarini tavsiflang?

[55]Harajatlarning alohida alohida hisobi https://gazeta.norma.uz/publish/doc/text118258_harajatlarning_alohida-alohida_hisobi

5. Savdoda iqtisodiy samardorlik ko‘rsatkichlarini tavsiflang va ularning tarkibini ochib bering?

6. Nima uchun buxgalteriya hisobini savdoda buxgalteriya hisobini o‘rganishdan boshlash kerak?

7. Savdoda buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari?

8. Savdoda tovar aylanmasi va tovar zaxiralari hisobi?

9. Savdoda davriy hisob tizimi?

10. Savdoda uzluksiz hisob tizimi?

11. Savdoda sotilgan tovarlar tannarxi hisobi?

12. Savdoda moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

GLOSSARIY

Aktivlar – bu korxona tomonidan o‘tgan hodisalar natijasida nazorat qilinadigan resurslar bo‘lib, ulardan foydalanish kelgusida korxonaga iqtisodiy naf keltiradi.

Aktivlarni buzish bilan bog‘liq harajatlar ularni buzishdan olingan va foydalanish mumkin bo‘lgan aktivlarning qiymatidan tushuniladi.

Adolatli qiymat – bu baho, qaysiki baholash sanasida ixtiyoriylik asosida bozor shartlarida asosiy yoki eng ko‘proq naf keltiradigan bozorda operatsiyalarni o‘tkazishda va bunday baho to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatiladigan yoki baholashning boshqa metodlaridan foydalanib hisoblanishidan qat’iy nazar aktivlarni sotishda yoki majburiyatlarni uzishda belgilaniladi.

Aksiyaning nominal qiymati – bu aksiyadorlik jamiyatining aksiyaga ustav fondi (kapitali) va chiqarilgan aksiyalarning miqdoridan kelib chiqib belgilagan narxi.

Aksiyadorlik kompaniyasining xususiy kapitali uning aksiyadorlik kapitali (fondi), zaxira kapitali (fondi), jamg‘arilgan (taqsimlanmgan) foyda hamda xususiy kapital bilan qoplanmagan zarardan tarkib topadi.

Aksiyadorlik kapitali (fondi) jamiyatning oddiy va imtiyozli aksiyalarining nominal qiymatidan iborat ustav kapitali (fondi) hamda aksiyalarning sotish qiymati bilan nominal qiymati o‘rtasidagi farq hisobidan shakllangan emission (qo‘shimcha) kapitaldan tashkil topadi.

Amortizatsiya – bu nomoddiy aktivlarning harid qilib olish tannarxini ularning foydali xizmat qilish muddatiga sistematik va o‘zaro bog‘liq holda taqsimlash.

Amortizatsiyalanadigan miqdor – qoldiq qiymati chegirilgan aktiv qiymati yoki tannarxni almashtiradigan boshqa summa.

Asosiy bozor – aktiv yoki majburiyatga nisbatan eng katta hajmdagi va faoliyat darajasidagi bozor.

Asosiy bo‘lmagan tushumlar, ya’ni naflar tushumlar tavsifiga (aniqlanishiga) javob beradigan va u korxonaning asosiy faoliyati

natijasida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo‘lgan boshqa moddalar.

Asosiy vositalar – bu moddiy aktivlar bo‘lib, qaysiki korxona xo‘jalik faoliyatini yuritishda uzoq vaqt davomida mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida hamda ma’muriy va ijtimoiy-madaniy funksiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turadi.

Assotsiatsiyalashgan kompaniyalar (associate) - bu kompaniya qaysiki, investor salmoqli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Axborotlarning uyg‘unligi (Ahamiyatlilik) (Relevance) – Axborot foydalanuvchilar tomonidan korxona faoliyatiga doir bo‘lib o‘tgan, hozirgi va kelgusidagi hodisalarni baholash yoki o‘tgan baholashlarni tasdiqlash yoki tuzatishlar kiritish bo‘yicha iqtisodiy qarorlarning qabul qilinishida yordam berishda axborotlarning foydaligini ta’minlanishi.

Axborotlarning ishonchliligi (Reliability) – Foydalanuvchilarga taqdim qilinayotgan axborotlarning yetarli darajada salmoqli xatolardan va buzib ko‘rsatishlardan holi bo‘lishi va foydalanuvchilar hisobotdagi axborotlarning adolatli aks ettirilganligiga ishonch bildirishiga erishish maqsadida axborotlarning foydaligini ta’minlanishi.

Buxgalteriya hisobi milliy tizimi. U yoki bu davlat doirasida uning milliy mintaliteti va iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqib buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va boshqarish hamda mamlakatda buxgalterlarning professional saviyasini yuksaltirish borasidagi ishlarni mujassamlantiruvchi tizim.

Buxgalteriya hisobi maktablari. Buxgalteriya hisobining maqsadiga erishish, uning funksiya va vazifalarini bajarish, muammolarining hal qilinishiga doir g‘oyalar va bilimlarni ishlab chiquvchi hamda targ‘ib etuvchi yo‘nalishlardir. Dunyoda buxgalteriya hisobi taraqqiyotida italyan, fransuz, nemis va anglo-amerika maktablari e’tirof etilgan.

Buxgalteriya hisobining professionallashuvi. Bu buxgalteriya ishlarining ushbu sohada ma’lum professional bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan bajarilishi hamda mamlakat darajasida buxgalteriya hisobining muammolari, jumladan standartlashtirish,

buxgalterlarning professional malakasini oshirish, ushbu professiyaning axloq qoidalarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan notijorat va nodavlat tashkilotlarning faoliyat yuritishi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi. Xalqaro sarmoyadorlar, kreditorlar va menejerlarning xalqaro biznes faoliyatlari to‘g‘risida axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida milliy buxgalteriya hisobi prinsiplari va standartlaridagi umumiy va ilg‘or tajribalarni mujassamlantirish asosida ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobining xalqaro o‘lchovlari va prinsiplariga o‘tish jarayoni.

Buxgalteriya hisobi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar. Buxgalteriya hisobi xalqaro integratsiyalashuvi jarayoni, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini ishlab chiqish hamda buxgalteriya hisobining xalqaro muammolari bilan shug‘ullanuvchi notijorat professional tashkilotlar.

Buxgalteriya hisobini isloh qilish. Iqtisodiyotni erkinlashtirish talablariga monand holda buxgalteriya hisobi milliy tizimini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga va ilg‘or tajribalar va tizimlarga muvofiqlashtirish.

Buxgalteriya hisobining tashkiliy prinsiplari. Buxgalteriya hisobi amaliyoti va uni tashkil etishda asos qilib olinadigan qoida va talablar majmuasidir.

Buxgalteriya hisobida psixologik muhit. Korxona xodimining o‘z vazifasini suiste’mol qilishiga yo‘l qo‘ymasligi, buxgalterlarning halollik va ishga vijdonan munosabatda bo‘lish kabi jihatlari, korxonaning axloqiy psixologik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha o‘rnatilgan tartib intizom majmuasidir.

Buxgalteriya hisobida muddatning tejalishi. Buxgalteriya hisobida axborotlarni katta aniqlikda qisqaroq vaqt ichida taqdim qilinishi talab etiladi. Muddat tushunchasi vaqt tushunchasi bilan mos kelmaydi. Vaqtdan tejab qolinsada, lekin axborotlarni olish muddati cho‘zilib ketishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi xalqaro modellari. U yoki bu davlatlardagi milliy hisob tizimlarining hisobning maqsadi, uning yo‘naltirilganligi, hisob protsedurasi va ketma-ketligi, moliyaviy hisobot tarkibi va

mazmuni, davlat darajasida boshqarilishi kabi belgilari bo‘yicha o‘xshashligiga qarab yirik guruhlarga ajratish.

Buxgalteriya hisobini reglamentlashtirish. Buxgalteriya hisobiga davlat hamda halqaro darajasida rahbarlik qilish, uning maqsad va vazifalari mushtarakligini belgilash, uni biznesni boshqarishning samarali vositasiga aylantirish.

Buxgalteriya hisobini unifikatsiyalash. Buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish protsedurasini xalqaro davlat va korxona darajasida tartibga solish, buxgalteriya hisobi ob’ektlari va jarayonlarini hujjatlashtirish, buxgalteriya hisobining umume’tirof etilgan usul va uslublarini joriy qilish.

Boshqaruv (menejmentlik) buxgalteriya hisobi deganda, buxgalteriya hisobi birliklarida menejmentning tarkibiy qismi bo‘lib, menejerlar tomonidan biznes faoliyati menejmentida foydalaniladigan ishonchli va haqqoniy bo‘lgan, asosan pulda o‘lchaniladigan va o‘z vaqtida beriladigan axborotlarni qayd qilish, baholash (o‘lchash), klassifikatsiyalash, to‘plash, taqdim qilish, buxgalteriya axborotlari kommunikatsiyasini o‘rnatish va buxgalterlarning boshqaruvda ishtirok etishi, rejalashtirish, moliyaviy menejment jarayonlarini qamrab oladigan tizimi tushuniladi.

Buxgalteriya hisobi ma’nosida iqtisodiy resurslar deganda, foyda olish maqsadida tashkilotga jalb qilingan oborotdan tashqari va oborot mablag‘lar (resurslar) majmuasiga aytiladi.

Bajarilishlarga oid majburiyatlar – haridorlar bilan shartnomada haridorga uzatish bo‘yicha berilgan va’da:

(a) tovar yoki xizmatlar (yoki tovar yoki xizmatlar paketi), qaysiki farqlanuvchan hisoblanadi;

(b) bir qator farqlanuvchi tovar yoki xizmatlar, lekin amaliy tomondan bir xil va haridorga bir xil sxemada uzatiladi”

Balans qiymati – aktivning har qanday jamg‘arilgan amortizatsiya va bunday aktivlarning qadrsizlanishidan jamg‘arilgan har qanday zarar chegirilgandan keyin moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinadigan summasi.

Balans (balance sheet) – bu kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining mutonosibligini aks ettiruvchi jadval shaklidagi moliyaviy steytment.

Biznes birliklari konsepti (business entity) – unga muvofiq alohida ajratilgan va o‘z majburiyatlari uchun mulki bilan javob beradigan biznes tashkiloti buxgalteriya hisobini yuritishga majbur.

Bozor riski - moliyaviy instrumentlarning adolatli qiymati yoki u bo‘yicha kelgusidagi pul mablag‘lari oqimi bozor bahosi o‘zgarishi bilan tebranib turadi. Bozor riski o‘z ichiga uchta riskni oladi: valyuta riski, foiz riski va boshqa baho riski.

Bosh kompaniya (parent) – bu kompaniya, qaysiki unga bitta yoki bir nechta kompaniyalar taalluqli bo‘ladi.

Boshqa to‘plam daromadlar daromadlar va harajatlar moddalari (shu jumladan reklassifikatsiyaga nisbatan korrektirovka), qaysiki ular foyda va zararlar tarkibida tan olinmaydi, balki ular boshqa MHXSlarda talab etiladi va yo‘l qo‘yiladi.

Boshlang‘ich qiymat (Historical cost). Bu usulga asosan aktivlar, ular uchun to‘langan pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti summasida yoki ularni harid qilganda e’vaziga beriladigan qarshilikning adolatli qiymatida qayd qilinadi. Majburiyatlar esa qarzga almashtirish hisobidan olinishi jarayonida yoki ayrim holatlarda (masalan, foyda solig‘i) biznesning normal kursida majburiyatlarni uzish uchun mo‘ljallangan pul va pul ekvivalentlarining summasida hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisoboti deganda, korxonada yuritilayotgan moliyaviy va boshqaruv buxgalteriya hisobi yordamida jamlangan axborotlarni maxsus shakllarda rasmiylashtirish va uzatish tizimiga aytiladi. Buxgalteriya hisobotlariga ishlab chiqarilgan mahsulot to‘g‘risidagi hisobot, mahsulot tannarxi to‘g‘risidagi hisobot, mehnat soatlari va mehnat haqi to‘g‘risidagi hisobot, moliyaviy hisobotlarni kiritish mumkin bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobi – bu:

- pulda o‘lchaniladigan bitimlarni (monetary transaction) tasniflash va yozuvini amalga oshirish; va

- davr ichida ushbu bitimlarning bajarilgan ishlar (performance) va belgilangan sanada moliyaviy holatni baholashdagi ta’siri natijalarini prezentatsiya va intepretatsiya qilish; va
- faoliyatning rejali kursi muqobillaridan kelib chiqib, kelgusi faoliyatga oid pulli loyihalarni tuzish tizimi.

Buxgalteriya hisobi – bu qarorlar qabul qilish maqsadida pulda o‘lchaniladigan axborotlarni o‘lchash, to‘plash, yozish, qayta ishlash, taqdimot qilish, shu asosda moliyaviy-iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holatini baholash hamda kelgusi faoliyatga oid rejalarni tuzish va axborotlar kommunikatsiyasini amalga oshirish tizimi.

Buxgalteriya hisobi tamoyillari – bu buxgalteriya hisobi konseptual asoslarining elementi bo‘lib, ular moliyaviy hisobotdagi axborotlarning sifat tavsifini ta’minlovchi umume’tirof etilgan qoidalarning majmuasi va ularni qo‘llash tizimi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro konseptual asoslar – bu axborot foydalanuvchilar manfaatini umumlashtirishdan kelib chiqib, xalqaro moliyaviy hisobotning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifi, ularni shakllantirishda rioya qilinadigan qoida va tomoyillar hamda moliyaviy hisobot elementlarini tavsiflovchi fundamental negizi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro tamoyillari – bu buxgalteriya hisobi xalqaro konseptual asoslarining elementi bo‘lib, ular moliyaviy hisobotdagi axborotlarning sifat tavsifini ta’minlovchi umume’tirof etilgan xalqaro qoida va usullarning majmuasi va ularning qo‘llanilish tizimi.

Buxgalteriya balansi – bu moliyaviy hisobotning asosiy komponenti bo‘lib, hisobot davrining oxiridagi vaqt momentida kompaniyaning moliyaviy holati, ya’ni uning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan tarkiblari bo‘yicha holatini va hisobot davrida o‘zgarishini tavsiflovchi hamda tizimli ravishda asosan tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va unga doir qarorlarni qabul qilish uchun taqdim qilinadigan axborotlarning standartlashgan tizimi.

Buxgalteriya hisobi davri (accounting period) – bu birlikning butun faoliyati davrini moliyaviy hisobot maqsadlari uchun vaqt davrlariga, masalan, bir oy, chorak yoki bir yilga bo‘linishi.

Buxgalteriya hisobi standartlarining tushunarliligi – bu standartlarga qo‘yiladigan muhim talablardan biri bo‘lib, ular faqat buxgalter va auditorlarga mo‘ljallangan bo‘lmasdan, keng ishbilarmonlar, menejerlar, marketing sohasi xodimlari va boshqa buxgalteriya sohasi bilan bog‘liq holda ishlovchi personallarga ham tushunarli bo‘lishi kerak.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (BHXS) – yuqori malakali xalqaro professional tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiyanoma harakteriga ega bo‘lgan buxgalteriya hisobi qoidalari, metodlari, atamalari va protsedurasi majmuasi.

Buxgalteriya operatsiyalari (transaction) – bu kompaniya faoliyatida ro‘y bergan moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalar bo‘lib qaysiki ularni pulda o‘lchaniladi hamda *aktivlar = majburiyatlar + xususiy kapital* tengligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Buxgalteriya schyotlari (account) – buxgalteriya tizimining bir qismi bo‘lib, u orqali aktivlar, majburiyatlar xususiy kapital moddalari qoldiqlarining davr boshidagi holati, ko‘payishi hamda kamayishi hamda daromad, harajatlar va dividendlarning yuzaga kelishi va sarflanishining jamlanishi va iqtisodiy tasniflanishi amalga oshiriladi. Schyotlar uchta komponentdan tashkil topadi: qoldiq, debet va kredit.

Buxgalteriya hisobi sikli (accounting cycle) – moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish maqsadida hisobot davri davomida foydali moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarni tahlil qilish, tan olish, qayd qilish, tasniflash, jamlash hamda hisobotga kiritishda amalga oshiriladigan jarayonlarning eng samara beradigan va muntazam takrorlanib turadigan ketma-ketligi (bosqichlari). Bosqichlar o‘z ichiga buxgalteriya operatsiyalarini tahlil qilish, operatsiyalarning jurnal yozuvlarini amalga oshirish, jurnal yozuvlarini o‘tkazish (posting), treyl balans tuzish va ishchi jadvallarni tayyorlash, moliyaviy steytmentlarni tuzish, to‘g‘irlovchi yozuvlarni jurnal yozuvlarini amalga oshirish va

o‘tkazish, yopuvchi yozuvlarni jurnal yozuvlarini amalga oshirsh va o‘tkazish, oxirgi treyl balans tuzishga erishish.

Buxgalteriya schyotlari rejasi (chart of accounts) – bu kompaniya tomonidan foydalanilayotgan barcha schyotlarning nomi va raqami ko‘rsatilgan ma’lum tasniflash qoidalari asosida tizimlashtirilgan jadval.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi (accounting theoty) – iqtisodiy axborotlarni identifikatsiyalash, o‘lchash va kommunikatsiyasiga doir buxgalteriya amallarini bajarishda va ochiqlashda qo‘llaniladigan bazis konsepti, yo‘l qo‘yilishlar va bog‘liq prinsiplarning tarmog‘i.

Daromadlar deganda, tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda xususiy kapitalning ko‘payishiga olib keladigan holatdagi aktivlarning oshishi va (yoki) sifatining yaxshilanishi yoki va (yoki) majburiyatlarning so‘ndirilishi ko‘rinishida iqtisodiy nafning olinishiga aytiladi.

Davriy zaxiralar tizimi deganda, zaxiralar hisobi bo‘yicha uzluksiz yozuvlar amalga oshirilmaydigan, boshlang‘ich va oxirgi qoldiqlari inventarizatsiya yo‘li bilan aniqlanadigan, zaxilarning harid tannarxi alohida schyotda yuritiladigan yondashuvga aytiladi.

Depresiatsiya (depresiation) – bu mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar (yer kirmaydi) depresiatsiyalanadigan qiymatini ularning foydali xizmat qilish muddatiga sistematik va o‘zaro bog‘liq holda taqsimlash.

Depresiatsiyalanadigan qiymati – bu qoldiq qiymati chiqarilgan aktivlarning moliyaviy hisobotda aks ettirilgan haqiqiy harajatlari yoki xaqiqiy harajatlar o‘rniga boshqa miqdor. Bunda qoldiq qiymat deganda, bizning atamalarimizdagi likvidatsion qiymat tushuniladi.

Davlat yordami – bu davlatning alohida mezonlarga javob beradigan kompaniyalar yoki kompaniyalar guruhi uchun maxsus iqtisodiy naflarni ta’min etishga yo‘naltirilgan harakati.

Davlat subsidiyasi – bu davlat yordami bo‘lib kompaniyaning asosiy faoliyatiga taalluqli bo‘lgan ma’lum shartlarni o‘tmishda yoki kelajakda bajarishga almashtiriladigan kompaniyaga resurslarni uzatish shakldagi davlat yordami.

Davr (operatsion harajatlar) = Sotish harajatlari + ma'muriy harajatlar + boshqa operatsion harajatlar + ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari harajatlari.

Davr harajatlari (period costs) – hisobot davrida yuzaga kelgan, mahsulot ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan hamda shu hisobot davrining harajati sifatida tan olinadigan va daromadlardan qoplanadigan harajatlar.

Doimiylik – bu bir xil hisob siyosatini o'zgarishsiz bir davrdan ikkinchi davrga ketma-ket qo'llashga aytiladi, qaysiki, moliyaviy tahlilini qisqartirish va ma'lumotlarning yaxshi taqqoslanuvchanligini ta'minlash orqali moliyaviy hisobotning foydalilik darajasi oshadi.

Debet – bu buxgalteriya schyotlarining chap qismi bo'lib qaysiki unda moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarning summalari yozib boriladi. Aktivlar, harajatlar hamda dividendlarga oid schyotlarda ko'payishi bilan bog'liq yozuvlar qayd qilinsa, majburiyatlar, xususiy kapital hamda daromadlarga oid schyotlarda ularning kamayishi yoki yopilishiga olib keladigan yozuvlar qayd qilinadi.

Debet qoldig'i – bu schyotlarning debetiga yozilgan summalarning uning kreditiga yozilgan summalardan oshgan qismi.

Dividend – bu biznes egalariga kompaniyaning sof foydasidan hissasi tariqasida to'lanadigan summa.

Deplesiya (depletion) – bu tabiiy resurslarning yemirilishi, davr davomida tabiiy yer qatlamidan qazib olingan resurslarning baholangan qiymati.

Debitorlik qarzlarining kun hisobida aylanishi (Debtors ratio) = Davrda kalendar kunlar soni / (mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiyasidan sof tushum / debitorlik qarzlarining o'rtacha arifmetik qiymati).

Dividendlar – hissali instrumentlar mulkdorlari tomonidan kapitalning aniq turidagi hissasiga mutanosib ravishda taqsimlash.

Yer (land) – kompaniya tomonidan biznes maqsadida foydalanilayotgan zamindir. Yer o'z ichiga biznes binolari egallagan maydonlar, qo'riqlash, omborxona, mashina parki uchun ajratilgan maydonlarni ham oladi.

Equipment (mashina va asbob-uskunalar) - bu ishlab chiqarish jarayonida mahsulot yaratishda bevosita foydalaniladigan mashinalar, stanoklar, asbob-uskunalar, yer va binodan tashqari zavod hamda mashina va asbob-uskunalar, muhandislik uskunalari hamda mebel va ofis jihozlar.

Faol bozor – quyidagi barcha shartlar bajariladigan bozor:

a) bozordagi barcha aktivlar bir xil toifadagi harakterga ega bo‘ladi;

b) qoidaga ko‘ra har qanday vaqtda bitimni amalga oshirishni xohlovchi haridor va sotuvchini topish mumkin bo‘ladi;

s) baho to‘g‘risidagi axborotlar barcha uchun ochiq bo‘ladi.

Foizlar – pul mablag‘lari, ularning ekvivalentlari yoki kompaniyaga to‘lanishi kerak bo‘lgan summadan foydalanganligi uchun to‘lov.

Foyda va zararlar – harajatlar chegirilgan daromad, bunga boshqa to‘plam daromadlar komponentlari kirmaydi.

Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotning maqsadi daromad va harajatlarni tashkilotning asosiy (odatdagi) faoliyati va asosiy bo‘lmagan (odatdagi bo‘lmagan) faoliyati natijasida yuzaga kelishi asosida tasniflab, asosiy faoliyatning foydasi (zarari), soliq to‘lagunga qadar foydasi hamda sof foydasi to‘g‘risidagi axborotlarni ularning daromad va harajatlari omillari bilan birgalikda taqdim etishdan iborat. Sof foyda to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish hisobotning bosh maqsadidir.

Foydali xizmat muddati – bu;

a) vaqt davri bo‘lib, uning davomida aktiv korxona tomonidan foydalanishi uchun amalda mavjud bo‘ladi; yoki

b) aktivdan foydalanishdan korxonaning olishi kutilayotgan mahsulot birligi yoki shunga o‘xshash anologik birliklar.

Foydalanish qiymati – bu aktivdan foydalanishni davom ettirishdan va uni foydali xizmat muddati oxirida tasarruf qilinishidan kutilayotgan oldindan aniqlangan kelgusidagi pul mablag‘larining diskontlangan qiymati.

FIFO usuli. Ushbu usulda birinchi harid qilingan yoki birinchi ishlab chiqarilgan zaxiralar moddalari birinchi ishlab chiqarishga olinadi

yoki sotiladi va shunga muvofiq ravishda davr oxirida qolgan zaxiralar esa keyingi harid qilingan yoki ishlab chiqarilganlardan tashkil topadi.

Fundamental "yo'l qo'yilishlar" (Underlying assumption) buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarida konseptual asoslarga kiritilgan jabhalarni ta'min etishda moliyaviy hisobning eng umumiy fundamental qoidalarni belgilab beradi va bu qoidalar buxgalteriya hisobi prinsiplari va standartlarini ishlab chiqishda ham asos qilib olinadi. Ularni jamg'arilish bazisi va harakatdagi korxona tamoyillari belgilab beradi.

Franchays (franshis) – ikki tomon o'rtasidagi shartnoma bo'lib unga muvofiq franchayzi (franshis haridori) xizmatlar monopoliyasini tugallashi uchun uning nomidan identifikatsiyalash huquq va imtiyozlarini qo'lga kiritadi.

Gaytlayns (Guidelines) – xalqaro va milliy professional tashkilotlar tomonidan ishlab chiqariladigan Malti Milliy Korporatsiyalar hamda boshqa moliyaviy hisobot tayyorlovchilarda moliyaviy hisobot tuzish va taqdim qilishda uning tahliliylik darajasi va taqqoslanuvchanlik talablarini tartibga soluvchi nizom yoki yo'riqnoma ko'rinishidagi me'yoriy hujjat.

Guruh (group) – bu sho''ba kompaniyalar bilan bosh kompaniya.

Gudvil (goodwill) – kompaniyaning nomoddiy qiymati bo'lib asosan kompaniya menejmentining uslubi yoki nou-xausi yoki mijozlar bilan xush reputatsiyasi hisoblanadi.

Giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot – bu giperinflyatsiyani boshidan kechirayotgan mamlakatlar valyutasida hisobot tuzadigan korxonalarning (konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni ham o'z ichiga olgan) moliyaviy hisoboti.

Hisob g'oyasi. Mablag'lar va boshqa ob'ektlar harakatiga oid bo'lgan har bir jarayonning "sabab va oqibati" ochib berilib, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda va taraqqiyotda qarab, mavjud hisob tizimida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sirini ilmiy asoslab berish tizimi.

Hisoblash metodi – bu operatsiya va jarayonlarning ular qachon yuz bergan bo'lsa (pul kelib tushushi va pul mablag'larining to'lanishi qat'iy nazar) shu paytda tan olinishi va ular talluqli bo'lgan davrlaridagi

hisob registlarida qayd qilinishi va moliyaviy hisobotlarda taqdim etish tamoyili.

Hisob siyosati – bu korxona tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilishda qabul qilingan aniq tamoyillar, negizlar, qoida va tajribalar mujmasidan iborat hujjat.

Hisobga olish uchun birlik – bu jarayon markazida davr davomida ishlanadigan jismoniy birliklarlardan iborat resurslardir. Bu ikki birliklar yig‘indisidan tashkil topadi: ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich birliklar hamda joriy davr davomida kiritilgan resurslardan iborat birliklar.

Hisob-kitob baholashlardagi o‘zgartirishlar – bu aktivlar va majburiyatlarning balans qiymati korrektirovkasi yoki aktivlar va majburiyatlar joriy holatini hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan kelgusida kutilayotgan naflar va majburiyatlarni baholash natijasida kelib chiqadigan aktivlarning joriy iste’mol miqdori.

Hisob sanasi - moliyaviy hisobot yoki oraliq moliyaviy hisobot tuzilgan eng so‘ngi davr oxiri.

Hisobot sanasidan keyingi hodisalar – bu hisobot sanasi va moliyaviy hisobot nashr qildirish uchun tasdiqlangan sana oralig‘ida yuz beradigan xush va noxush bo‘lgan hodisalar hisoblanadi.

Hisobot sanasidan keyingi to‘g‘irlanuvchi hodisalar – hisobot sanasida amal qilgan shart-sharoitlar to‘g‘risida dalil isbotlarni beradigan, ushbu hodisalarning tarkibi standartga keltiriladigan hamda standartga muvofiq hisobotlarga tegishli qoidalarga muvofiq to‘g‘irlashlarni kiritish imkoniyati mavjud bo‘lgan operatsiyalar va jarayonlar.

Hisobot sanasidan keyingi to‘g‘irlanmaydigan hodisalar – hisobot sanasidan keyin yuz beradigan hodisalarni ko‘rsatadigan, ushbu hodisalarning tarkibi standartda keltirilgan hamda hisobotga tegishli to‘g‘irlashlarni kiritish imkoni bo‘lmagan, lekin axborot foydalanuvchilarga ushbu hodisalar to‘g‘risida axborotlar ochiqlanishi talab etiladigan operatsiyalar va jarayonlar

Hisobot berayotgan kompaniya – bu sho‘’ba korxona, filial, assotsiatsiyalashgan kompaniya yoki qo‘shma faoliyat ko‘rinishida xorijiy bo‘linmaga ega bo‘lgan kompaniya.

Hisobot taqdim qiladigan valyuta – bu hisobot taqdim qilinadigan valyuta.

Hisobot deganda, axborot foydalanuvchilarning talabidan kelib chiqib qarorlar qabul qilish va boshqarish maqsadida o‘tgan hodisalar va jarayonlar, bajarilgan ishlar, faoliyat natijalari to‘g‘risida foydali axborotlarni maxsus shakllarda tayyorlash va ularni uzatish tizimiga aytiladi. Hisobotlar orqali faoliyat nazorat qilinadi, tegishli qarorlar qabul qilinadi. Kelgusida qilinadigan ishlar rejalashtiriladi.

Hissali qatnashish metodi – bu buxgalteriya hisobi metodi bo‘lib, unga muvofiq investitsiyalar dastavval haridning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha hisobga olinadi, so‘ngra hariddan keyin investitsiyalash ob’ekti sof aktivlaridagi hissasining o‘zgarishini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritiladi. Investorning foyda va zararlari investitsiyalash ob’ekti – kompaniyasining foyda va zararlaridagi hissasini ham o‘z ichiga oladi, xuddi shuningdek, investorning boshqa to‘plam daromadlari investitsiyalash ob’ekti – kompaniyasining boshqa to‘plam daromadlaridagi hissasini ham o‘z ichiga oladi.

Hissali instrument – bu korxonaning aktivlariga barcha majburiyatlarini chiqarilgandan so‘ng hissasiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi har qanday shartnoma.

Izohlar – bu moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot, alohida foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot va pul mablag‘lari to‘g‘risidagi hisobotlarga qo‘shimcha ma’lumotlarni beruvchi axborotlarni qamrab oladi. Izohlar ko‘rsatilgan hisobotlardagi moddalarni bayon etilishi yoki detallashgan rasshifirovkasini hamda ushbu hisobotlarga ochiqlashlarni, shuningdek hisobotda tan olinishi ko‘zda tutilmagan moddalar haqida axborotlarni o‘z ichiga oladi.

Investitsiyaviy mulk – bu ijara haqi yoki kapital qiymatining o‘sishi hisobidan daromad olishlari maqsadida tasarrufida bo‘lgan ko‘chmas

mulklardir (yer yoki bino, yoki binoning bir qismi yoki unisi ham bunisi ham), biroq:

(a) Ishlab chiqarishda yoki tovarlarni jo‘natishda va xizmatlarni ko‘rsatishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanilmaydigan; yoki

b) odatdagi faoliyati davomida sotish uchun mo‘ljallanmagan.

Investitsion iqlim xorijiy investitsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga oqib kirishi va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ochilishi hamda taraqqiy etishi uchun yaratilgan qulay muhit va shart-sharoitlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Invoys (invoice) – bu tovarlarni sotuvchi tomonidan tayyorlangan hujjat bo‘lib haridorga yuboriladi. Unda sotishga doir ma’lumotlar, sotilgan birliklar miqdori, birlik bahosi, jami summasi, sotish shartlari va jo‘natish ma’lumotlari ko‘rsatiladi. Sotib oluvchi nuqtai nazaridan harid invoysi sotuvchi nuqtai nazaridan sotish invoysi bo‘ladi.

Ikkiyoqlama yozuv protsedurasi (double-entry procedure) – bu buxgalteriya operatsiyalari summalarini schyotlarning debeti hamda kreditiga teng yozilishiga aytiladi.

Ilmiy-tadqiqotlar va taraqqiy ettirish harajatlari (research and development costs) – yangi ixtirolar va bilimlarni tadqiq etish hamda ushbu natijalarni yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki jarayonlarga qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarga aytiladi.

Ishlab chiqarish kompaniyalari (manufacturing companies) – bu materiallarni harid qilib olib ularga qayta ishlov berib mahsulotga aylantiradigan va ushbu mahsulotni haridorlarga sotish bilan shug‘ullanadigan kompaniya.

Ishlanma – tijoriy ishlab chiqarish yoki foydalanish boshlangunga qadar yangi yoki salmoqli yaxshilangan material, qurilma, mahsulot, jarayon, tizim yoki xizmatlar ishlab chiqarishni rejalashtirish yoki loyihalashda tadqiqot natijalari yoki boshqa bilimlarning qo‘llanilishi.

Ijara – bu bitim bo‘lib unga ko‘ra ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga to‘lov yoki to‘lovlar seriyasi hisobiga kelishilgan muddatga aktivlardan foydanalish huquqini uzatadi.

Jamg‘arilgan (taqsimlanmagan) foyda **-** bu dividendlar to‘langandan keyin foydaning aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanmasdan

jamiyat ixtiyorida qolgan va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan qismi.

Joriy ta’mirlash deganda, asosiy vositalarni belgilangan muddatlarda texnik quvvati va layoqatini yo‘qotmasligi hamda ishchi holatda saqlab turish va soz ishlashini ta’minlash maqsadlari uchun texnik holatini yaxshilash, binolarning texnik va sanitariya holatini saqlash turish, kichik buzilishlar va shikaslanishlarni bartaraf etish, muddatidagi ayrim kichik ehtiyot qismlarini almashtirish hamda proflaktik ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

Kapital – bu kompaniyaning barcha majburiyatlar chiqarilib tashlangandan keyin qolgan aktivlarga bo‘lgan ulush.

Komplektlovchi buyumlar – bu ta’minotchi korxonaning mahsuloti hisoblanib, u avtomobil ishlab chiqarish uchun asosiy tarkibiy qism bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni ularni yig‘ish asosida tayyor mahsulot yaratiladi.

Kapital harajatlar - bu (1) sifatini yuksaltirish (improve quality) (betterments or improvements); (2) aktivlarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga olib keladigan (extent the life) sarflarga aytiladi. Kapital harajatlar aktivlarning qoldiq qiymatining yuksalishiga olib keladi.

Kapital ta’mirlash deganda, ma’lum bir muddatdan keyin asosiy vositalarning bazovoy korpus va detallarini to‘liq ajratib yig‘ish, eskirgan uzel detallar va ehtiyot qismlarini qismlarini yangisiga almashtirish, zamonaviylashtirish, binolarni butunlay mukammal yangidan ta’mirdan chiqarish, konstruksiya va detallarni mustahkalash, yangi mustahkam va tejamkoriga almashtirish bo‘yicha bajarilgan ishlari tushuniladi.

Konseptual asoslar – bu axborotlardan foydalanuvchilar manfaatlarini umumlashtirishdan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifi, moliyaviy hisobot elementlarini aniqlash, tan olish va o‘lchash qoidalarini tavsiflovchi fundamental negizi.

Konservatizm (conservation) – kompaniya sof aktivlari va sof foydasini oshirib ko‘rsatilishidan ehtiyotkor bo‘lishi va o‘ylab ish qilishi talab etiladi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (consolidated financial statements) – bu bosh kompaniyalar guruhining moliyaviy hisoboti bo‘lib, qaysiki bosh kompaniya va sho‘’ba kompaniyalarning aktivlari, majburiyatlari, kapital, daromad va harajatlar, pul oqimlari yagona kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va harajatlari sifatida taqdim etiladi.

Kredit (Credit) – bu buxgalteriya schyotlarining o‘ng qismi bo‘lib qaysiki unda moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarning summalari yozib boriladi. Majburiyatlar, xususiy kapital hamda daromadlarga oid schyotlarda ularning ko‘payishiga olib keladigan yozuvlar qayd qilinsa, aktivlar, harajatlar hamda dividendlarga oid schyotlarda kamayishi yoki yopilishi bilan bog‘liq yozuvlar qayd qilinadi.

Kredit qoldig‘i (balansi) (credit balance) – bu schyotning kreditiga yozilgan summalarning uning debetiga yozilgan summalardan oshgan qismi.

Kreditorlik qarzlarining kun hisobida aylanishi (Creditors ratio) = Kreditorlik qarzlari x Davrda kalendar kunlar soni / Haridlar

Qoplash koeffitsiyenti (to‘lov qobiliyati) (Current Ratio) = Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar

Klassosti moddalar. Tashkilot balansida yoki uning izohlarida har bir taqdim etilgan chiziqli moddalarga tashkilotning operatsiyalari mazmuniga muvofiq holda tasniflangan klassosti moddalarini ochiqlashi shart. Klassosti moddalarini detallashtirish darajasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib taalluqli summalarning miqdori, harakteri va mo‘ljallanganligiga qarab amalga oshiriladi. Har bir moddada ochiqlash farqlanadi.

Kurs farqi – bir xil miqdordagi birlikni bir valyutadan boshqa bir valyutaga boshqa valyuta kursi bo‘yicha qayta hisoblash natijasida yuzaga keladigan farq.

Likvidlik (liquidity) – bu kompaniya aktivlarning tez aylanuvchanligi, bunga birinchi navbatda pul mablag‘lari va boshqa mablag‘lar kiradi, qaysiki ular albatta pulga aylanashi kutiladi.

Likvidlik koeffitsiyenti (Liquid Ratio) = Joriy aktivlar (zaxiralardan tashqari) / joriy majburiyatlar.

Moddiy boyliklarni hisobga olishning to‘rt ustunli tizimi. VII-XIII asrlarda Xitoyda moddiy boyliklarni hisobga olish foydalanilgan va bugungi kunga qadar qo‘llanilib kelinayotgan tizim. Unga muvofiq, Kirim – Chiqim = Oxirgi qoldiq – Boshlang‘ich qoldiq.

Moliyaviy hisobdeganda, buxgalteriya hisobi birliklarida unga oid qonun, moliyaviy hisobot tamoyillari va standartlari asosida pulda o‘lchaniladigan xo‘jalik operatsiyalari yozuvlarini amalga oshirish, o‘lchash (baholash) va to‘plash orqali ushbu operatsiyalarning sub’ektlar moliyaviy holatiga ta’sirini aniqlash, moliyaviy hisobot davri oxirida moliyaviy holatni aks ettirish va axborotlarni moliyaviy hisobot ko‘rinishida foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimi tushuniladi.

Moliyaviy hisobining predmeti deb, u o‘rganadigan ob’ektlarga aytiladi. Bu ob’ektlarga aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital va ularning o‘zgarishiga olib keladigan biznes operatsiyalari hamda daromadlar va harajatlar kiradi.

Moliyaviy hisobining metodi – uning predmetini tashkil etuvchi ob’ektlarini qayd qilish, baholash, guruhlash, ishlov berish, identifikatsiya qilish, hisobotlarni tayyorlash, tahlil qilish, uzatish va axborotlarni saqlashda qo‘llaniladigan yondashuvlar, tizimlar hamda metod va usullarning yig‘indisidan iborat.

Moliyaviy hisobot deganda, umume’tirof etilgan qoidalar asosida tashkilotning moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari hamda pul mablag‘lari harakatiga doir eng ob’ektiv va sifatli jamlangan axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim tushuniladi. U ichki va asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish va nazorat uchun axborotga bo‘lgan umumiy ehtiyojini ta’minlashga qaratilgan.

Majburiyatlar – bu korxona faoliyatida o‘tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan haqiqiy majburiyatlari hisoblanib, ularning so‘ndirilishi (uzilishi) iqtisodiy nafni mujassamlantiruvchi korxona resurslarning tashqariga chiqib ketishiga olib keladi.

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot deganda, bu hisobot davrining oxiridagi vaqt momentida kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan tarkiblari bo‘yicha

holatini va hisobot davrida o‘zgarishini tavsiflovchi hamda tizimli ravishda asosan tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va unga doir qarorlarni qabul qilish uchun taqdim qilinadigan axborotlarning standartlashgan tizim tushuniladi

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari deganda, axborot foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini umumlashtirishdan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifi, ularni shakllantirishda rioya qilinadigan qoida va prinsiplar hamda moliyaviy hisobot elementlarini tavsiflovchi fundamental negizi tushuniladi.

Moliyaviy hisobva hisobotining an’anaviy protsedurasi deganda, pulda o‘lchaniladigan iqtisodiy operatsiyalarni, hodisalarni o‘lchash, baholash, yozuvlarni amalga oshirish va hisobotlar (steytmentlar) taqdim qilishning eng samara beradigan ketma-ketligi tushuniladi.

Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar boshlang‘ich qiymati aktiv sifatida tan olinadi, qachonki quyidagi talablar bajarilsa: (a) tashkilot ushbu ob’ekt bilan bog‘liq kelgusida iqtisodiy naf olish ehtimoli amal qiladi; (b) ushbu ob’ektning boshlang‘ich qiymati ishonchli baholanishi mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo‘lingan hamda ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar moliyaviy-iqtisodiy faoliyat yurituvchi jamiyat hisoblanadi.

Majburiyatlar – bu korxona faoliyatida o‘tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan haqiqiy majburiyatlari hisoblanib, ularning uzilishi iqtisodiy nafni mujassamlantiruvchi korxona resurslarning tashqariga chiqib ketishiga olib keladi.

Majburiyat tug‘diruvchi hodisalar (obligating event) – bu yuridik majburiyatlarni yoki yuzaga kelgan amaliyotdan kelib chiqadigan majburiyatlarni tug‘diruvchi hodisalar bo‘lib, uning natijasida

kompaniyada uni bajarishdan bo iyat yoki hissali instrument yuzaga keladi.

Manfaatlarni birlashtirish – bu korxonalarni birlashtirish bo‘lib, bunda birlashuvchi korxonalarning aksionerlari kompaniyaning birlashishiga daxldor bo‘lgan risklar va naflarning davom etuvchi o‘zaro taqsimotiga erishish uchun barcha yagona sof aktivlariga va operatsiyalari ustidan umumiy nazoratni olib boradi. Bunda tomonlarning hech biri haridor sifatida aniqlanishi mumkin emas.

Ma’muriy-boshqaruv harajatlari yuz berish vaqtidan (tayyor mahsulot ishlab chiqishgacha yoki undan keyin) qat’iy nazar davr harajatlari deb e’tirof etiladi.

Ma’lumotlarni o‘lchash - bu boshlang‘ich jarayon bo‘lib, bunda iqtisodiy hodisalar kuzatiladi, identifikatsiyalanadi va o‘lchab baholanadi. Iqtisodiy hodisalarga pulda o‘lchaniladigan biznes operatsiyalari va boshqa hodisalar kiradi.

Ma’lumotlarni qayta ishlashda pulda o‘lchab baholangan ma’lumotlar yozuvi amalga oshiriladi, klassifikatsiyalanadi va to‘planiladi.

MHXSlari bo‘yicha birinchi moliyaviy hisobot - birinchi yillik moliyaviy hisobot bo‘lib, qaysiki unda tashkilot moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash va so‘zsiz muvofiqligi to‘g‘risida e’tirof etish yo‘li bilan qabul qiladi.

Moliyaviy hisobotning izohlarida foydalanuvchilarga foydali bo‘lgan qo‘shimcha axborotlarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy hisobotga berilgan izohlarda quyidagi axborotlar o‘z aksini topadi: a) moliyaviy hisobotni tayyorlash asoslari to‘g‘risidagi axborotlar va salmoqli operatsiyalar va hodisalar uchun tanlangan va qo‘llaniladigan hisob siyosati; b) moliyaviy hisobotda aks ettirilmay qolgan, lekin BHXSlari talabi bilan taqdim qilinadigan axborotlarni ochib berish; c) moliyaviy hisobotda aks ettirilmagan, lekin ob’ektiv tasavvur uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha axborotlarni taqdim qilish.

Moliyaviy hisobot konvergensiyasi – bu buxgalteriya hisobi modeli hamda moliyaviy hisobotning milliy tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga yaqinlashtirish, ular o‘rtasidagi

tafavutni kamaytirish, muvofiqlikni ta’minlash va boshqa hamkorlikda ma’lum bir masalalarga hamma uchun bir xil bo‘lgan qoidalarga erishishdir. Bunga IASB va AQSH dagi FASB tomonidan ishlab chiqilayotgan standartlarning bir-biriga o‘ta muvofiqligi, ushbu tashkilotlar tomonidan hamkorlikda xalqaro standartlarni yaratish, masalan, moliyaviy instrumentlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo‘yicha hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishini kiritish mumkin.

Moliyaviy hisobot garmonizatsiyasi **–** bu butun dunyo bo‘yicha moliyaviy hisobotning qoidalari, tuzush usullari, sikli va protsedurasi ishlov berish tartibi, moliyaviy hisobotlarning mazmuni, formati va taqdim etilishi tartibi bo‘yicha muvofiqlikka erishish va garmonizatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishga aytiladi.

Moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi **–** bu moliyaviy axborotlarni yig‘ish, ularni qayta ishlash, tasniflash va umumlashtirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobot formatlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari yoki boshqa investitsiya kiritgan mamlakatning standartlari asosida moliyaviy hisobotning formatlariga transformatsiya qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy steytment (Financial Statements) bu davlat ahamiyatidagi moliyaviy hujjat ma’nosini anglatadi. Steytment moliyaviy hisobotning har bir formati, masalan moliyaviy holat to‘g‘risidagi steytment, foyda va zararlar to‘g‘risidagi steytment va hakozo. Steytment hisobotdan farqli jihati uning davlat ahamiyatiga ega ekanligi, standartlar asosida tayyorlanganligini hamda asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Moliyaviy aktiv – har qanday aktiv bo‘lib, qaysiki:

(a) Pul mablag‘lari;

(b) boshqa korxonalardan pul mablag‘larini yoki boshqa moliyaviy aktivlarni olishga shartnomaviy huquqi;

(s) boshqa korxonalar bilan potensial foydali shartlarda moliyaviy instrumentlarni almashtirishga shartnomali huquqi;

(d) boshqa korxonalarning hissali instrumentlari.

Moliyaviy ijara – bu ijara bo‘lib aktivga egalik qilish bilan bog‘liq barcha risklar va olinadigan naflar salmoqli o‘tkazilishi yuz beradi. Huquqga layoqatlilik o‘tkazilishi yoki o‘tkazilmasligi mumkin.

Moliyaviy kapitalni qo‘llab-quvvatlash konseptida ishlab topilgan foyda hisobot davrining oxirida sof aktivlarning moliyaviy (pulda ifodalangan) summasi hisobot davrining boshidagi sof aktivlarning moliyaviy (pulda ifodalangan) summasidan barcha taqsimlashlarni va mulkdorlarning hissasini olib chiqib ketilishini hisobga olmagandagi oshgan qismi sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasi **-** bu hisobot sanasi holati bo‘yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, to‘g‘irlashlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXSlari hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga ag‘darish va qayta tashkil qilish jarayoni.

Moliyaviy instrument – bu har qanday shartnoma bo‘lib, qaysiki uning natijasida bitta korxonada moliyaviy aktiv va boshqasida esa moliyaviy majburiyat yuzaga keladi.

Moliyaviy majburiyatlar – bu shartnoma bo‘yicha har qanday majburiyat:

(a) Boshqa korxonalarga pul mablag‘larini yoki boshqa moliyaviy aktivlarni taqdim qilish;

(b) boshqa korxonalar bilan potensial foydasiz shartlarda moliyaviy instrumentlarni almashtirish.

Moddiylik (materiality) – bu tamoyilga muvofiq salmoqli bo‘lmagan moddalarni hisobga olishda ularni qayd qilish bilan bog‘liq vaqt va sarf undan olinadigan natijalardan katta bo‘lib ketmasligi kerak, chunki bunday moddalar qarorlar qabul qilishga va baholash jarayoniga salmoqli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Muomaladagi aksiyalar **–** bu ma’lum sanada aksiyadorlar egaligida bo‘lgan jami aksiyalardan iborat.

Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari – bu soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar mavjudligi tufayli kelgusi davrlarda to‘lanishga olinadigan foyda solig‘i summasidir.

Muvofiqlik konsepsiyasi harajatlarni foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda sarflangan harajatlar bilan ishlab topilgan daromadlarning aniq moddalari o‘rtasidagi bog‘liqlikka asosan hisobga olish tamoyilidir.

Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari – bu (a) chegiriladigan vaqtinchalik farqlar; (b) foydalanilmagan soliq zararlari; va (s) foydalanilmagan soliq kreditlarini kelgusi davrlarga ko‘chirish munosabati bilan kelgusi davrlarda qoplanadigan foyda solig‘i summasi.

Mulkdor tasarrufidagi ko‘chmas mulk – bu (mulkdor yoki moliyaviy ijara bo‘yicha ijaraga oluvchi) tasarrufidagi ishlab chiqarish yoki tovarlarni jo‘natish, xizmatlar ko‘rsatish yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk.

Mulk (yer, bino), mashina va asbob-uskunalar – bu moddiy aktiv bo‘lib, qaysiki (a) korxona tomonidan ishlab chiqarish jarayonida yoki tovarlarni jo‘natishda yoki xizmatlarni ko‘rsatishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalaniladi; (b) bir davrdan ko‘p vaqt davomida foydalanish ko‘zda tutilgan.

Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar boshlang‘ich qiymati aktiv sifatida tan olinadi, qachonki quyidagi talablar bajarilsa: (a) tashkilot ushbu ob’ekt bilan bog‘liq kelgusida iqtisodiy naf olish ehtimoli amal qiladi; (b) ushbu ob’ektning boshlang‘ich qiymati ishonchli baholanishi mumkin.

Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar alohida klasslariga quyidagilar kiradi:

(a) Yer uchastkalari;

(b) yer uchastkalari va bino;

(c) mashina va asbob-uskunalar;

(d) suv sudalari;

(e) havo sudalari;

(f) avtotransport vositalari;

(g) mebel va terib qo‘yiladigan muhandislik asbob-uskunalari elementlari.

Nazorat (control of an investee) - investitsiya ob’ektlari ustidan nazoratni ushlab turadi, agar investor investitsiya ob’ektlariga qatnashishidan oladigan o‘zgaruvchan daromadlar bilan bog‘liq holda riskka tortilsa yoki shunday daromadni olish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek, investitsiya ob’ektiga nisbatan o‘z vakolatlarini amalga oshirish orqali daromadga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘lsa.

Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi (non-controliling interest) – bu sho‘’ba kompaniya kapitalidagi hissa bo‘lib, qaysiki u bosh kompaniyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yoki boshqa sho‘’ba kompaniyalar orqali hech qanday taalluqli bo‘lmaydi.

Neytrallik (neutrality) – bu sifat tavsifi tamoyili bo‘lib bunda buxgalteriya axborotlari o‘lchov metodlari asoslarini tanlashda erkin bo‘lishlari kerak.

Nomoddiy aktivlar – bu identifikatsiyalangan nomonetar (pul emas), jismoniy shaklga ega bo‘lmagan aktiv bo‘lib, ishlab chiqarish yoki tovar va xizmatlarni taqdim etish, boshqalarga ijaraga topshirish yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun tutib turiladi.

Operatsion bo‘lmagan aktivlar (nonoperating assets) – bu kompaniya tomonidan egalik qilinadigan, lekin operatsion daromadni ishlab topishda qatnashmaydigan aktivlar.

Operatsion aktivlar (operating assets) – operatsion daromadlarni ishlab topishda faol foydalaniladigan aktivlar.

Operatsiya (tranzaksiya) narxi – qaplama summasi bo‘lib, qaysiki kompaniya tomonidan unga bo‘lgan huquqini uchinchi shaxs tomonidan olingan summani minus qilib haridorga va’da qilingan tovar yoki xizmatlarni uzatganda almashtirishdan olinishi kutiladi.

Operatsion ijara – bu moliyaviy ijaradan tashqari har qanday boshqa ijara hisoblanadi.

Operatsion bo‘lmagan harajatlar (nonoperating expenses) – biznes faoliyatida yuz beradigan, lekin sotish uchun muntazam taklif etiladigan mahsulotlarni (ish va xizmatlarni) qabul qilib olish hamda ularni sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan sarf-chiqimlarga aytiladi.

Operatsion bo‘lmagan daromadlar (nonoperating income) **–** biznes tomonidan sotish uchun muntazam taklif etiladigan mahsulotlarni (ish va xizmatlarni) sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan tushumlar.

Oraliq moliyaviy hisobot **-** bu moliyaviy hisobot bo‘lib, qaysiki korxonaning bir yillik moliyaviy yiliga nisbatan qisqa vaqtni qamrab olgan moliyaviy hisobot shakllarining to‘liq yoki siqishtirilgan (qisqartirilgan) komplektini o‘z ichiga olgan moliyaviy hisobot.

Pul mablag‘lari – bu kompaniyaning kassasi va joriy schyotlaridagi pullaridan tashkil topadi.

Pul mablag‘lari ekvivalenti – qisqa muddatli, pul mablag‘larining oldindan ma’lum bo‘lgan summasiga tez aylanadigan va qiymati o‘zgarishi salmoqli bo‘lmagan riskka tortiladaigan tez likvidli quyilmalar.

Pul oqimi haqidagi hisobotning maqsadi hisobot davri boshida pul mablag‘larining qoldig‘i, hisobot davri davomida pul mablag‘larining kelib tushishi va to‘lovlarini tashkilotning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati bo‘yicha tasniflab, uning harakati va hisobot davri oxiridagi qoldig‘i to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish bo‘lib hisoblanadi. Ushbu hisobot orqali foyda va zararlar hamda pul mablag‘lari qoldig‘i o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rnatiladi.

Plant tarkibiga yirik mexanizmlar, yirik mashinalar, katta quvvatli dvigatellar, masalan elektrostansiyalarda gaz pistonlari (gazoporshnevoy), kon metallurgiya sanoatida ishlatiladigan burg‘ulash mexanizmlari, adron kollayderlar, katta radio teleskoplar, katta kranlar, yirik ekskovatorlar, yirik samosvallar, tankerlar, korabllar, havo kemalari va boshqa yirik mexanizimlar kiradi.

Pul mablag‘larini yuzaga keltiruvchi birlik (yuzaga keltiruvchi birlik) (cash generating unit) - aktivlarning eng kichik identifikatsiyalanadigan guruhi bo‘lib, qaysiki boshqa aktivlar yoki aktivlar guruhidan pul oqimlariga salmoqli darajada bog‘liq bo‘lmagan holda pul oqimlarini yuzaga keltiradi.

Pul (monetar) moddalariga pul mablag‘lari va hisob-kitoblar kiradi. Pul (monetar) moddalarining bosh tavsifi bo‘lib fikslangan yoki

aniqlangan valyuta birligi miqdorini olishga (yoki taqdim qilish bo‘yicha majburiyatlar) bo‘lgan huquqdir.

Pulda o‘lchovi (money measurement) – miqdoriy o‘lchovlarning o‘rniga o‘lchovning pul birligidan foydalanish, masalan dollarda yoki yevroda.

Pul bo‘lmagan (nomonetar) moddalarga boshqa moddalar kiradi. Pul moddalaridan pul bo‘lmagan moddalarning asosiy farq qiluvchi jihati valyuta birligining fikslashgan yoki aniqlangan miqdorini olishga (taqdim qilish bo‘yicha majburiyatga) bo‘ladigan huquqning mavjud emasligidir.

***Qayta ishlash harajatlari*:**

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi harajatlari;
2. ustama ishlab chiqarish (production overhead) harajatlari:

2.1. Bilvosita material va bilvosita mehnat harajatlarini;

2.2.zavod binolari va asbob-uskunalarini tutib turish va amortizatsiya harajatlari;

2.3.fabrika ishlab chiqarish menejmenti va ma’muriyati harajatlari.

Realizatsiyaning bo‘lishi mumkin sof qiymati – bu normal ish ketishida bajariladigan ishlarning bo‘lishi mumkin bo‘lgan harajatlari hamda realizatsiyaning boshqa bo‘lishi mumkin harajatlarini chegirib tashlagandan keyingi mo‘ljaldagi sof sotish qiymatidir.

Realizatsiya chegirmasi - bu haridorlarga to‘lovlarning tez amalga oshirilishi uchun taqdim qilinadigan summa.

Restrukturizatsiya **-** bu dastur bo‘lib, qaysiki unda kompaniya rahbariyati tomonidan rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan o‘zgarishlarga olib keladi.

Rezervlar (provision) **-** bu aniq bo‘lmagan summadagi yoki to‘lanish muddati aniq bo‘lmagan majburiyatlar.

Retrospektiv qayta hisoblash – bu moliyaviy hisobot elementlari summalarini tan olish, baholash va ochiqlashlarni to‘g‘irlash hisoblanib, bunda oldingi davrlar xatolari biron marta yo‘l qo‘yilgan bo‘lmaydi.

Realizatsiya prinsipi (realization principle) – bu prinsipga muvofiq daromad tan olinadi qachonki sotuvchi haridordan sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) uchun pul to‘lovini talab qilish huquqini kiritsa.

Soliqlar buxgalteriya hisobi deganda, biznes sub’ektlari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq qonunchiligi talablarini to‘lqonli bajarish, o‘z vaqtida to‘lovlarnini amalga oshirish maqsadida ma’lumotlarni qayd qilish, tan olish, baholash, soliq hisob-kitoblarini yuritish asosida soliqqa tortish bazasini aniqlash hamda soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimiga aytiladi.

Sof daromad – bu yalpi daromaddan daromad sifatida tan olingan qaytarilgan realizatsiyalar, haridorlarga taqdim qilingan chegirmalar va ularning da’volarini qabul qilish asosida taqdim qilingan narxini kamaytirishlarni ayirishdan keyin qolgan summa.

Sof sotish mumkin bo‘lgan qiymati (NRV) – bu odatdagi faoliyati davomida ishlab chiqarishni yakunlashdagi hisob-kitobdagi harajatlari hamda sotish uchun zurur bo‘lgan hisob-kitobdagi harajatlarini chegirib tashlagandan keyingi sotishning hisob-kitobdagi bahosi.

Savdo debitorlik qarzlari kompaniyaning asosiy tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotish natijasida yuzaga kelgan qarzlari hisoblandi.

Savdo kreditorlik qarzlari esa ushbu mahsulotlarni (tovar, ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish yoki sotish uchun xom-ashyo va materiallar, tovarlar va boshqa zaxiralarni harid qilib olishda yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari kiradi. Bu qarzlarga kirmaydigan moddalar boshqa qarzlar deb e’tirof etiladi.

Savdo chegirmasi esa haridor va buyurtmachilarga sotish paytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovarlarning faktura narxidan tushish shaklida taqdim qilinadi.

Salmoqli ta’sir ko‘rsatish – bu kompaniyaning moliyaviy va iqtisodiy siyosatiga nisbatan qarorlar qabul qilishda qatnashish imkoniyati, biroq bu nazorat qilish yoki hamkorlikda nazorat qilish emas.

Sof sotish mumkin bo‘lgan qiymati (Net realizable value) - bu ajralish nuqtasidagi sotishilishi mumkin bo‘lgan qiymati minus sotish va distributsiya harajatlari.

Sof foyda (net income) – hisobot davrida olingan daromadlardan ushbu davrga taalluqli bo‘lgan harajatlarni chegirilgandan keyingi qolgan summa.

Sof harid (net purchase) – bu quyidagicha aniqlanadi: *harid - (harid chegirmasi + qaytarilgan haridlar va narxidan tushishlar).*

Sof sotish (net sales) – bu quyidagicha aniqlanadi: *Yalpi sotish – (sotish chegirmasi + qaytarilgan sotish va narxidan tushishlar).*

Sof zarar (net loss) – hisobot davrida amalga oshirilgan harajatlardan ushbu davrdagi daromadlar chegirilgandan keyingi summa.

Sifat tavsifi (qualitative characteristics) – bu buxgalteriya hisobi axborotlarining qarorlar qabul qilishida foydali bo‘lishlari uchun rioya qilinadigan qoidalar tavsifi.

Tannarx buxgalteriya hisobi deganda, rejalashtirish, narxlarni belgilash, mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish va kengaytirish, harajatlarni optimallashtirish, xodimlar mehnatini rag‘batlantirish va menejmentning boshqa sohalariga oid qarorlar qabul qilish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar, jarayonlar, faoliyatlar tannarxini tan olish, tasniflash, taqsimlash hamda baholash asosida haqiqiy tannarxini aniqlash va tahlil qilish tizimiga aytiladi.

Tushumlar korxonaning odatdagi faoliyati davomida yuzaga keladi: 1. Sotishdan tushgan tushum; 2. Xizmatlar uchun rag‘batlantirishlar; 3. Foizlar; 4. Dividendlar; 5. Royalti; 6. Ijara daromadlari.

Tayyor mahsulot deganda, mazkur korxonada ishlab chiqarishning barcha jarayonlaridan o‘tgan va oxirgi ishlab chiqarish jarayonidan olinadigan donabay o‘lchanadigan va sotishga tayyor holatga keltirilgan sanoat mahsuloti tushuniladi.

Tannarx drayveri deganda, tannarxning umumiy summada o‘zgarishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omilga aytiladi, qaysiki uning ta’sirida tannarx ma’lum bir bog‘liqliklar asosida o‘zgarib boradi.

Tasarruf etilishi (disposals) - bu mulkdorlar tomonidan mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar realizatsiyasi, realizatsiya oid bo‘lmagan to‘liq eskirishi va yaroqsizligi, buzib tashlanishi, almashtirilishi, buzish va olib tashlash bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

Tugallanayotgan faoliyat - bu korxonaning shunday komponenti bo‘lib, qaysiki hisobdan chiqarilgan yoki sotish uchun mo‘ljallangan sifatida tasniflangan bo‘ladi hamda:

(a) biznesning asosiy yo‘nalishini yoki faoliyatlarning geografik joyini aks ettiradi;

(b) biznesning asosiy yo‘nalishini yoki faoliyatlarning geografik joyini hisobdan chiqarish bo‘yicha yagona muvofiqlashtirilgan rejaning qismi bo‘ladi; yoki

(v) faqatgina qayta sotish maqsadi bilan sotib olingan sho‘’ba korxonasi bo‘ladi.

Tushum - bu hisob davrida kompaniyaning odatdagi faoliyati davomida yuzaga kelgan iqtisodiy naflarning yalpi tushumi bo‘lib, qachonki uning natijasi aksiyadorlarning badallari hisobiga kapitalning o‘sishidan farq qiladigan kapitalning o‘sishi hisoblansa.

To‘langan kapital (paid-in Capital) - bu ta’sischi mulkdorlar tomonidan kompaniyaga kiritilgan kapitaldir.

To‘g‘irlovchi yozuvlar (adjusting entries) – hisobot davrining oxirida daromadlar va harajatlarni bir-biriga solishtirish uchun amalga oshirilgan jurnal yozuvlari hisoblanadi, ular yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarga tayanadi, ular davr oxiriga qadar qayd qilinmaydi. To‘g‘irlovchi yozuvlar moliyaviy hisobotlar tayyorlagunga qadar schyotlarning qoldiqlarini bir-biriga muvofiqlashtirish uchun amalga oshiriladi.

Tovarlar – kompaniya tomonidan sotish uchun ishlab chiqarilgan, qayta sotish uchun harid qilib olingan, jumladan, chakana savdo korxonalari tomonidan harid qilingan tovar qiymatliklari yoki sotish uchun ushlab turiladigan yer yoki boshqa mol-mulklar.

Transformatsion jadval – bu BHMSlari bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobot moddalarini MHXSlariga ag‘darish uchun kiritilayotgan to‘g‘irlovchi yozuvlarni jamlovchi jadval.

Tekshirishga oidligi (verifiability) – bu sifat tavsifi tamoyili bo‘lib unga muvofiq, buxgalteriya axborotlari tekshiruvchanlikka moyil bo‘lish kerak, ya’ni mustaqil o‘lchovchilar tomonidan aynan bir xil o‘lchash metodlarini qo‘llanilganda aynan dublikat natijalarga erishilishi kerak.

TMZlarni hisobga olishning uzluksiz tizimi **-** bu hisobot davri davomida TMZlar balans schyotida kirim va chiqim hujjatlari asosida to‘liq ma’lumotlarni yozish orqali ma’lum sanada TMZlarning aniq turlari va assortimenti bo‘yicha qoldiqlari va realizatsiya qilingan zaxiralarning tannarxi aniqlash usuli.

TMZlarni hisobga olishning davriy tizimi **–** zaxiralarning turlari bo‘yicha detalli hisob yuritilishiga asoslanmasdan tovar zaxiralarini baholash hamda realizatsiya qilingan TMZlarning tannarxini aniqlash maqsadida zaxiralarning haqiqiy miqdori va summasi inventarizatsiya qilish orqali aniqlanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (bevosita) **-** bu ishlab chiqarishda uning asosini tashkil etadigan, ya’ni tayyor mahsulot shu materialdan yaratiladigan xom-ashyo va zaxiradir. Ishlab chiqarishda yordamchi yoki ikkilamchi ahamiyatga ega bo‘lgan materiallar ham ishlatiladi. Bunday materiallar bilvosita harajatlar bo‘lib ularni ustama ishlab chiqarish harajatlariga olib borish qabul qilingan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (bevosita) **-** bu ishlab chiqarishga jalb qilingan materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish va mahsulot turlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiyalash mumkin bo‘lgan harajatdir. Ishlab chiqarish bilan bilvosita aloqador bo‘lgan va ularning mehnati bir qancha tannarx ob’eklariga taalluqli bo‘lgan hollarda ishchilarning mehnati bilvosita harajat sifatini e’tirof etilib ustama ishlab chiqarish harajatlariga olib boriladi.

To‘lanadigan schyotlar (accounts payable) – ta’minotchilarga kreditga olingan tovar (mahsulot) va ular tomonidan ko‘rsatilgan ish va xizmatlar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar.

Ustama (nakladnoy) ishlab chiqarish harajatlar (UICHX) (manufacturing overhead MOH) - bu bir qancha tannarx ob'ekti bilan aloqador hisoblanib harajat ob'ektiga to'g'ridan-to'g'ri olib borish imkoni bo'lmasligi sababli taqsimlash asosida olib boriladigan mahsulot tannarxining bir qismidir. UICHXlariga misol qilib bilvosita materiallar; bilvosita mehnat haqi; ishlab chiqarish vositalari va bino amortizitsiyasi; elektr-energiya; yoritish, isitish va sovutish; mol-mulk solig'i; mol-mulk sug'urtasi; ishchilarning ovqatlanishi va ularga meditsina xizmatini ko'rsatish; boshqa umumishlab chiqarish va umumsex harajatlarini kiritish mumkin.

Umumiy to'plam daromad – bu davr davomida mulkdor bilan mulkdor sifatida yuz bergan operatsiyalarning natijasida o'zgarishlar hisoblanmagan tarzda operatsiyalar natijasida kapitalning o'zgarishi.

Ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlarida belgilangan aksiyalarning nominal qiymati va hissalarning (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidan tashkil topadi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar (ishtirokchilar) o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobot – bu o'zlarining maxsus axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hisobotni talab qila olmaydigan foydalanuvchilarga mo'ljallangan hisobot.

Uzoq muddatli majburiyatlar. Qisqa muddatli majburiyatlar mezonlariga javob bermaydigan boshqa barcha majburiyatlar uzoq muddatli majburiyatlar sifatida tasniflanishi lozim.

Uzoq muddatli aktivlar. Qisqa muddatli aktivlar mezonlariga javob bermaydigan boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflanadi.

Uzluksiz davom ettirishi – moliyaviy hisobotning korxona o'z faoliyatni to'g'risidagi, ya'ni rahbariyat korxonaning likvidatsiya qilinishi yoki o'z faoliyatini to'xtatishini mo'ljallamagan yoki ushbu

masalani qo‘rib chiqish sabablari bo‘lmagan yo‘l qo‘yilishlarga asosan tuzilishi.

Uyg‘unlik (relevance) – bu sifat tavsifi bo‘lib unga muvofiq axborotlar maqsadga muvofiq va qarorlar qabul qilishga ta’sirchan bo‘lishi kerak.

Ushlanmalar uzoq muddatli kontraktlar bo‘yicha oraliq schyotlar ko‘rinishida qo‘yilgan summalar bo‘lib, qaysiki ushbu turdagi to‘lovlar uchun shartnomada qayd qilingan shartlar bajarilgunga qadar yoki defektlar tuzatilgunga qadar to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Uzluksiz zaxiralar tizimi deganda, har bir zaxira turlari bo‘yicha kirim va chiqim operatsiyalarining qayd qilinishiga asoslanadigan, inventarizatsiya qilmasdan hisob ma’lumotlari bo‘ycha zaxirlar qoldig‘ini va sotilgan zaxiralar tannarxini aniqlash mumkin bo‘lgan yondashuvga aytiladi.

Uzoq muddatli moddiy aktivlar – bu jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lgan va uzoq muddatga foydalanishga mo‘ljallangan va undan foydalanish kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan vositalar.

Uzoq muddatli nomoddiy aktivlar – bu jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lmagan aktivlar va mulklardan foydalanishga bo‘lgan huquq va talab qilinishi mumkin bo‘lgan boshqa huquqlar bo‘lib, ulardan foydalanish kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan vositalar hisoblanadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar – bu korxona mablag‘larining qimmatli qog‘ozlarga va boshqa korxonalar faoliyatiga kiritilgan sarmoyalarni o‘z ichiga olib, korxonaga dividend, foiz va boshqa ko‘rinishlarda iqtisodiy naf keltiradigan aktivlar.

Vaqtinchalik farqlar – bu aktiv yoki majburiyatlarning balans qiymati bilan soliq bazasi o‘rtasidagi farqidir. Vaqtinchalik farqlar bo‘lishi mumkin:

(a) **Soliqqa tortiladigan**, ya’ni kelgusi davrlarda soliqqa tortiladigan foyda/zararni aniqlashda soliqqa tortiladigan summaning yuzaga kelishiga olib keluvchi vaqtinchalik farqlarni o‘z ichiga oladi, qachonki ushbu aktivlarning yoki majburiyatlarning balans qiymati qoplaniladi yoki to‘laniladi; yoki

(v) **chegiriladigan**, qaysiki natijasi sifatida kelgusi davr soliqqa tortiladigan foyda/zararni hisoblashda yuzaga kelishiga olib keluvchi vaqtinchalik farqni o‘z ichiga oladi, qachonki taalluqli aktivlar va majburiyatlarning balans qiymati qoplaniladi yoki to‘laniladi.

Harajatlar - bu tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining foydasiga taqimlash bilan bog‘liq bo‘lmagan holatda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi

Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotning maqsadi bo‘lib, tashkilotning hissali kapitali, aksiyadorlik kapitali, emission kapitali, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foydaning hisobot davri boshidagi holati va ularning hisobot davri davomida hissa kapitali kiritilishi, aksiyalarning sotilishi, kapital emissiyasi, hisobot davridagi sof foyda (zarar) va boshqa manbalar hisobidan o‘zgarishi hamda hisobot davri oxiridagi holati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim qilish hisoblanadi.

Zaxira – bu aktiv:

(a) normal faoliyat davomida sotishga mo‘ljallangan (tayyor mahsulotlar, qayta sotishga mo‘ljallangan tovarlar);

(b) ushbu sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida (tugallanmagan ishlab chiqarish);

(s) ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan xom-ashyo va materiallar shaklida.

Zaxiralarni harid va tayyorlov-saqlash tannarxi – bu zaxiralar tannarxining birinchi elementi bo‘lib, harid bilan bog‘liq hamda zaxiralarni ishlab chiqarishga tayyorlash va saqlashga oid barcha tannarx elementlarini o‘zida mujassamlantiradi.

O‘zgaruvchan harajatlar **-** bu mahsulot hajmi yoki faoliyat darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutonosib (proporsional) ravishda o‘zgaradi, ya’ni mahsulot hajmi ikki karra ko‘paysa, o‘zgaruvchi harajatlar ham ikki karra ko‘payadi.

O‘zvaqtidalik (timeliness) – bu sifat tavsifi tamoyili bo‘lib unga muvofiq buxgalteriya axborotlari axborot foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilingunga qadar o‘z vaqtida taqdim etilishi tushuniladi.

Shartli majburiyat (Contingent liability) - bu:

(a) bo‘lishi mumkin bo‘lgan majburiyat bo‘lib, qaysiki o‘tgan hodisalar natijasida yuza keladi va uning yuz berishi aniq bo‘lmagan kelgusidagi bitta yoki undan ortiq hodisalar yuz berishi yoki yuz bermasligi natijasidagi tasdiqlanishi hamda kompaniyaning to‘liq nazoratida bo‘lmaydi;

(b) amal qiluvchi majburiyat, qaysiki o‘tgan hodisalar natijasida yuz beradi, tan olinmaydi, chunki deganda:

(i) majburiyatlarni bajarish uchun resurslarning iqtisodiy nafini o‘zida mujassamlashtirgan qandaydir oqimlarga ehtiyojlarning yuzaga kelishi;

(ii) majburiyatlarning summasi yetarli darajada ishonchlilikda baholanishi mumkin bo‘lmaydi.

Shartli aktivlar (Contingent asset), qaysiki kompaniya tomonidan to‘liq nazorat qilinmaydigan o‘tgan xodisalar natijasida yuzaga keladigan va amal qilishi bitta yoki undan ortiq aniq bo‘lmagan kelgusidagi hodisalarning bo‘lishi yoki bo‘lishi mumkin bo‘lganligiga bog‘liq bo‘lgan aktiv.

Shartnoma bo‘yicha aktiv – kompaniyaning haridorga uzatgan tovar va xizmatlarini almashtirishdagi qoplamalarga bo‘lgan huquqi, qachonki bunday huquq ma’lum vaqt davrining tugashi dalilidan tashqari (masalan, kompaniya tomonidan kelgusida ma’lum majburiyatlarni bajarilishi) nimagadir bog‘liq bo‘ladi.

Shartnoma bo‘yicha majburiyat – kompaniyaning haridorga tovar va xizmatlarni uzatish bo‘yicha majburiyati, qaysiki kompaniya uning uchun haridordan qoplama oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, № O‘RQ-404. https://lex.uz/acts/2931253.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son. http://www.lex.uz/docs/4674902.

3. O‘zbekiston Respublikasi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonuni, 1999-yil 14-aprel, 763-I-son. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 115-modda. https://lex.uz/docs/11360.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risidagi qonuni”. 2001 y 6 dekabr. Keyingi o‘zgartirishlar bilan. https://www.lex.uz/acts/22525

5. O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2014-yil 10 aprel. https://lex.uz/docs/2382409

6. «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi. https://lex.uz/ru/docs/6600413

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori. 2020-yil 24-fevral. PQ-4611-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma’lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. 09.01.2024 y. n PQ-8-son.

9. International Financial Reporting Standards. www.ifrs.org/issued-srandards/list of-standards/ 2018.

10. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti. http://www.ifrs.org.ua/mezhdunarodny-e-standarty-finansovoj-otchyotnosti/

11. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son-qarori bilan tasdiqlangan. https://lex.uz/acts/264422

12. 21-son BHMS «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo‘llash

bo‘yicha yo‘riqnoma». //AV tomonidan 23.10.2002 y. 1181-son bilan ro‘yxatga olingan. http://bhms.uz/?page_id=20%22

13. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi” Nizom. 2024-yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug‘iga 1-ilova.

14. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. http://finansist.uz/uz/ moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/ 2018 y.

15. 1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” standarti. https://byjus.com/commerce/what-are-current-assets/

16. O‘zbekiston Respublikasi 1-sonli BHMS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati»ni tasdiqlash haqida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6 avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3544.

17. Yangi tahrirdagi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari. https://www.lex.uz/docs/7058293

18. 15-MSFO. https://finotchet.ru/articles/102/

19. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. -104 b. 11, 23 va 30-betlar.

20. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-592 b.

21. Mirziyoev Sh.M. Niyati o‘lug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. -195 b.

22. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. -420 b.

II. Asosiy adabiyotlar:

23. Urazov K.B. Moliyaviy hisob va hisobot. O‘quv qo‘llanma.- T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 408 bet

24. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o‘quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 584-b. https://www.academia.edu

25. S. Tashnazarov. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1 [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2023 - 580 bet

26. S. Tashnazarov va boshqalar. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 2 [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 704 bet

27. Hasanov B.A., Hashimov A.A., Muhametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.- T.: ”Iqtisodiyot dunyosi” , 2021. 992 bet

28. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. 0‘quv qo‘llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.

29. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.

30. Christine Jonick. Principles of financial accounting. University of North Georgia Press Dahlonega, Georgia, 2017. p.318 ISBN: 978-1-940771-15-1. https://web.ung.edu/media/university-press/Principles-of-Financial-Accounting.pdf?t=1542408454385

31. Price water house Coopers. Vse prava zashisheni. Etot material podgotovlen Akademiyey PwC dlya ekzamenov DipIFR v 2020 godu. 0320-b.

32. Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective. Irwin. USA. 1996. 339-340-b. Accounting Principles: A Business Perspective Paperback – February 16, 2018.

33. Larson, Kermit D. Financial Accounting /Kermit D. Larson, Paul B. W. Miller. 6th ed. Irwin, 2005. 686 p.

34. Libby, Robert. Financial accounting /Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 2016. 308, 848 p.

35. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. 1 chast. Pyatoye izdaniye, Askeri, 1989. –250 s.

36. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. 2 chast. Pyatoye izdaniye, Askeri, 1989. –354 s.

37. Entoni R., Ris Dj. Uchet: situatsiya i primeri: Per. s ang./Pod red. i s predisl. A.M.Petrachkova.–M.: Finansi i statistika, 1993.–560 s

38. Nidlz B. i dr. Prinsipi buxgalterskogo ucheta / Nidlz B., Anderson X., Kolduell D. –M.: Finansi i statistika. 2003. -496 s.

39. S.N.Tashnazarov, K.B.Urazov, D.S. Tashnazarova. Boshqaruv buxgalteriya hisobi. Darslik. –Toshkent, 2022. -448 b.

40. Kalonov M. Buxgalteriya hisobi. Darslik. Toshkent. 2023 y. 745 b.

III. Qo‘shimcha adabiyotlar:

41. Deloitte. MSFO v karmane 2016. ZAO «Deloyt i Tush». Vse prava zashisheni. 157 s. 2016.

42. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. Globe Edit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1.
https://www.morebooks.shop/bookprice_offer_.

43. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: Xalqaro va milliy jihatlar. Monografiya. - T.: Iqtisod-moliya, 2009. - 168 b.

44. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2016 y.-296-bet.

45. MSFO: tochka zreniya KPMG. Prakticheskoye rukovodstvo po mejdunarodnim standartam finansovoy otchetnosti, podgotovlennoye KPMG. 2011/2012: v 2 ch. Per s angl. – 8-ye izd. – M.: Alpina Pablisher, 2012.
https://gaap.ru/upload/iblock/354/iuppwbfp_tyvv%20fzvhh%20ohcgiy-%20stkr_2012_1-30.pdf

46. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: «Iqtisod-Moliya». 2019 y. -538 b.

47. Yuldashev B.T., Indina I.A., Xaydarov Sh.U., Indina Ye.A. Negosudarstvennie nekommercheskiye organizatsii v O'zbekistane: pravovoye regulirovaniye, ekonomicheskiye osnovi deyatelnosti, buxgalterskiy uchet i nalogooblojeniye v svete poslednix izmeneniy zakonodatelstva. Metodicheskoye posobiye. - T.: Yurist-media markazi; 2010. https://www.osce.org/files/f/documents/3/7/106791.pdf

48. R.Dusmuradov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. 2013 y. http://www.agriculture.uz/ebooks/detail/823

49. B.A. Xoshimov, G.S. Djabakayeva. D.A. Muhammedova. Teoriya buxgalterskogo ucheta.
http://staff.tiiame.uz/storage/users/465/books/iyZMA5tuLu4W6bzBPvwkvOchJSTejy7GUR9LQ91V.pdf

50. Caribbean examinations council “Principles of accountants”, 2008
https://www.cxc.org/SiteAssets/syllabusses/CSEC/CSEC%20Principles%20of%20Accounts.pdf

51. Alborov A. Teoriya buxgalterskogo ucheta. 2016 g. Ijevskiy.

http://xn--90ahkajq3b6a.xn--2000-94dygis2b.xn--p1ai/buh/buh1-1/buh212.pdf

52. Anthony, Robert Newton. Accounting principles /Robert N. Anthony, James S. Reece, D.B.A. - 7th edition, Irwin, 2006. 686 p.

53. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. - T.: Fan, 2005. -236 b.

54. Boronov B.F. Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. Monografiya. – Samarqand. “Matbaa nashriyoti”: 2020 y. -154 b.

55. Kalonov M.B. Daromadlar va harajatlar hisobi hamda tahlili uslubiyoti. Monografiya. – T., 2019. – 352 b.

56. Urazov K.B.. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. Toshkent. 2019 y.

57. Эргашева Ш.Т. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2021 й. - 310 bet.

IV. Dissertatsiyalar va dissertatsiyalar avtoreferatlar

58. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. DSc doktorlik dissertatsiyasi. TMI. 2019-yil.

59. Boronov B.F. Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobini takomillashtirish. PhD doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2020-yil.

60. Ne’matov O.I. Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. PhD doktorlik dissertatsiyasi Toshkent. 2021-yil.

61. Nabiyev M.A. Avtosanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar va ularni sotish hisobi usullarini takomillashtirish. PhD doktorlik dissertatsiyasi Toshkent. 2021-yil.

S.N. TASHNAZAROV

MOLIYAVIY HISOB ASOSLARI

darslik

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: D. Hamrayev

Darslik institut Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (3-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 297-31/10).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2026

ISBN: 978-9910-225-35-2

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)

Nashrga ruxsat etildi: 31.10. 2025 y.

© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.

5089

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 16.00
Buyurtma № 0004A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-225-35-2

